



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

ERKIN  
VOHIDOV

24





84 E-78



UO'K 821.512.132-1  
KBR 8470-2  
B 78



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

# ERKIN VOHIDOV



24

“O‘ZBEKISTON”  
TOSHKENT — 2022

**Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton - hay'at raisi,  
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,  
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,  
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isafon Sulton

**Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,  
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:**


**Rustam Mirvohid**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamlı, zalvorlı badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.



## YURAK YO'LIDAGI CHIROQ

She'r — shaklga sig'gan so'z nuri. Shoir — shu nurning sohibi. She'r — aqlni armonda qoldirib, ko'ngilda ko'z ochgan buloq. Shoir — shu musaffo chashmaning nigohboni, Tangri tanlagan egasi. She'r — tuyg'ular to'fonida ilhom toshlariga urilib, shoir qalbida tozargan hikmat. Ana shu hikmatlar jam bo'lib, shoirga hayotbaxsh, bardavom, huzurbaxsh umr ato etsa, ne ajab!

Millat tilining tumori bo'lgan buyuk bobokalonlarimiz, hazrati insonlar Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Ogahiy... kabi piri komillar o'z asarlarining yog'dusi ila asrlar osha tillardan dillarga, dillardan ellarga o'tib, o'z o'quvchilari qalbida so'z sururi, hikmat huzuri bo'lib yashab qolmoqdalar.

Yaratganga behad shukrlar bo'lsinki, xalqimiz adabiyot, ilm-fan, san'at jabhasining yuzlab javohirlari bilan siylangan. Oqqan daryo oqaveradi, deyishni xush ko'ramiz. Ammo o'zbekning ko'ngil daryosi boshqacha oqqan-da. Birgina abadulabadga iftixorimiz — hazrat Navoiy dunyo she'riyat ummoniga aylanganining o'zi fikrimiz isboti bo'la oladi. Ana shu muborak ummondan ulgu olib, to'lib, to'lqinlanib, nurlanib borayotgan tabarruk dengizlarimizning borligi esa qo'sha-qo'sha quvonchimizga sabab, albatta.

Ustoz Erkin Vohidov — shubhasiz, bugungi o'zbek she'riyatining tayanchi, suyanchi, saodatiga aylangan shoir edi. Erkin aka-ning nomidagi nur, chehrasidagi iliqlik, o'zbekona zakiy nigoh bugun katta-kichik yurtdoshlarimiz qalbida quyoshdek balqib turibdi, desak mubolag'a emas.

Odatda, yaxshi so'z inson ong-u tafakkurini yaxshi ma'noda jilovlaydi, ya'ni o'z izmiga oladi. Ustozning aksariyat she'rlari ham o'z mayinligi, ravonligi va rost so'zlar ekani bilan o'quvchining shuurini band etadi.

O'zbek tilidagi ma'nolar tovlanishini yoki, tashbehli qilib aytsak, o'zbekcha so'zlarning mazasini bilmoqchi bo'lgan odam Erkin Vohidov she'riyat dunyosiga yuzlanmog'i kerak. Bu nazm javohirlari, ta'bir joiz bo'lsa, o'quvchiga o'zini orom osmonida, pokiza tuyg'ular to'liqida, huzurbaxsh sabolar saltanatida, bahorning bag'rida his qilishiga ko'maklashadi. Chunki shoir she'rlarida tabiiylik, quymalik va favqulodda tiniqlik bor. Bu sifatlarni anglagan inson qalb tubida ko'zi ko'p zamonlar avval yopilgan hayrat bulog'i ko'z ochadi. Shunday so'z sohibining mahoratiga, iste'dodiga beixtiyor lol qoladi.

Erkin Vohidov — tom ma'noda o'z millati, mustaqil O'zbekiston timsollaridan biriga aylangan siymo. U o'zini topgan, aslini anglagan xalqning shoiri sifatida olam ahliga yo'llagan otashin salomlari dunyo ulug'larining muborak aliklarini olgan jahongir shoir. O'zbekiston Erkin Vohidov she'riyati ila chiroqlangan. Birgina "O'zbekim" qasidasining o'zi she'riyat kuchi, sehr-u jozibas, orzu va armoni ila ulkan millatga qo'yilgan billur so'z haykalidir. Haykalki, xitobida haqiqat ovozi, muhabbat sozi, fidoyi farzandining iftixori, siyrati, noyob iste'dodi namoyon!

*Menga Pushkin bir jahon-u  
Menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor —  
Ko'ksim osmon, o'zbekim.*

*Qayga bormay, boshda do'ppim,  
G'oz yurarman faxr etib,  
Olam uzra nomi ketgan  
O'zbekiston, o'zbekim.*

Rosti, bu qasidani qayta-qayta sharhlash aslida suvni suv, sutni sut, qonni qon deya iddao qilaverish bilan barobar. Ayni paytda kitobxonning g'ashini keltiradi. Chunki bu satrlar o'zbekning o'zi! Qalbiga, uyg'oq vijdoniga quloq solgan odam o'zini o'zi yaxshi anglaydi, yaxshi taniydi.

Ikki qo'limni ko'ksimga qo'yib, bir haqiqatni aytmasam bo'lmas. Ustoz Erkin Vohidovning ushbu kitobiga so'zboshi o'rni-

da mendan fikr aytish va bir bitik so‘ralganda, xijolat bo‘ldim. Ancha o‘ylanib turdim. Jur‘atim yetmayotgandek tuyuldi. Xuddi Erkin akaning o‘zi “Yoshlik devoni”dagi “Debocha” sarlavhali g‘azal matla’sida yozgan tuyg‘ularga giriftor bo‘ldim:

*Istadim sayr aylamoqni  
Men g‘azal bo‘stonida,  
Kulmangiz ne bor senga deb  
Mir Alisher yonida.*

Ammo yana ustozning o‘zi shu g‘azal davomida yozgan taskini orqali meni ham qalam ushlashga da’vat qilgandek bo‘ldi:

*She‘riyat dunyosi keng,  
Gulzori ko‘p, bo‘stoni ko‘p,  
Har ko‘ngil arzini aytur  
Neki bor imkonida.*

Ustozning nurli siymosi ko‘z o‘ngimda jonlandi, kin, g‘araz, kalondimog‘likdan yiroq jozib chehrasi, samimiyati, o‘ziga yarashgan orombaxsh ovozini eshitgandek bo‘ldim. Nazarimda: “Dilingiz tubida nur bo‘lsa, so‘zingiz sadosini topadi. Shogird ustozni haqida so‘z aytsa, ko‘ngli xotirjam bo‘ladi, ustozining ruhi ham orom topadi. Ijodkorning vazifasi — ko‘ngillarga nur, qatiga gul, tiliga bol baxsh etish...”, degandek bo‘ldi.

Bu so‘zlar jonimda jaranglagandek, yana o‘zbek chinnisining tiniq sadosidek aks sado berdi. Nihoyat, menga berilgan, nashr uchun tayyorlanayotgan yangi to‘plamni katta zavq-u shavq va hayajon bilan varaqlab, undagi ilk she‘rni o‘qidim:

*Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u havo nimaga kerak?*

*Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam  
O‘tma g‘urur ostonasidan.  
Piyolani inson shuning-chun,  
O‘par doim peshonasidan.*



“Kamtarin bo‘l”, degan so‘zni yuz ko‘yga solib, qayta-qayta nasihatbozlik qilgandan ko‘ra, quyma ohangda, o‘zbek har kuni dasturxon atrofida kamida uch marotaba guvoh bo‘ladigan azaliy manzara ifodasi o‘laroq bitilgan bu satrlar ko‘ngil ko‘zini ochadi. She‘rxonni ham shoirning topib aytishi lol qoldiradi, ham uni insofqa yetaklaydi.

Darhaqiqat, kamtarlik — insoniy fazilatlarining zebosi. Yo‘g‘ida sabr, borida shukur qiladigan, ozorni oromning harir pardasiga o‘rash uchun hamisha tilining tagida bol saqlab yuradigan qalbning ovozi. “Kamtarga kamol” — elimiz e‘zozda aytadigan ko‘ngil kalimasi bu.

Kim ustoz Erkin Vohidovni yaqindan bilsa, shu fikrni komil ishonch bilan ta‘kidlaydi. Erkin akaning kamtarligi, kamsuqumliligi o‘ziga shu darajada yarashardiki, beixtiyor dilingizdan “Nahotki shunday ulug‘ inson, betimsol iste‘dod sohibi hayratlanarli darajada oddiy, samimiy bo‘lsa!”, degan o‘y o‘tganini bilmay qolaridingiz. Yana bir go‘zal fazilatlarini til-u dilining birligi, mutanosibli-gi edi. Erkin aka qaysi mavzuni qalamga olmasin, qalb ko‘zgisida avval o‘ziga qaragan, o‘z-o‘zini so‘roqqa tutgan, o‘z vijdoni oldida hisob bergan. Shu bois uning she‘rlarida hamisha oddiylilik nuri balqib turardi. Ayni paytda shu oddiylilik uni yetib bo‘lmas yuksaklikka ko‘tarardi.

Taqdir meni Erkin akaga talabalik yillarimda, Toshkent Davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) kechki bo‘limida o‘qib, kunduzi “Yosh gvardiya” (hozirgi “Yangi asr avlodi”) nashriyotida ekspeditor bo‘lib ishlab, kitob, qog‘oz tashib, bil‘aks, shoir sifatida birovning nazariga tushmagan, oddiy she‘rxon, adabiyot muxlisi bo‘lib yurgan yillarimda — 1976-yili ro‘baro‘ qilgan.

O‘sha paytlar Erkin Vohidovning “Muhabbat” degan qalangi-na she‘riy to‘plami chop etilgan, shov-shuvi butun O‘zbekiston-ni, boringki, turkiy olamni tutgan, yosh-u qari davrasida qo‘lmaqo‘l o‘qilayotgan damlar edi. Tabiiyki, u kezlar Erkin aka mening biror she‘rimni o‘qimagan esa-da, ammo lirik satrlarni yoqimli o‘qishimni bilarkan chog‘i, ushbu to‘plamiga “Dilbar she‘rxon, ajoyib she‘r muxlisi bo‘lgan ukamga mehr bilan avtordan” deya bitik yozib, dastxat qo‘yib bergan.

Men bu kitobni ustoz qo'llaridan ko'zimga surtib oldim va jonim chashmasidek tiniq mehr bilan o'qidim. Kitobdagi she'rlarning yarmidan ko'pini yodlab oldim. Shu mehr, shu havas og'ushida qanotlandim...

*Termilar shabnamli yaproq,  
Ostidan pinhon uzum,  
Lablaringga yetmoq istab  
Tong sahar giryon uzum.*

*Oftob mashshotasi  
Tong sochini nurdan tarab,  
Zangining bo'yniga osmish  
Shodayi marjon uzum.*

O'sha kezlar parkentlik azamat sahibkorlarning hammasi bu g'azalni bilardi. Hatto bir qassob do'stim shu darajada yoqimli qilib, yoddan aytib berganida lol qolganman. Axir u qassob bo'lsa, bu nozik qochirim va nafosatga yo'g'rilgan misralar bo'lsa... To'g'risi, o'sha 1976-yildan buyon ustoz Erkin Vohidov mening she'riyat olamimning ajralmas bir bo'lagi, yashab kelayotgan har bir kunimning nurli siymosi, havasim samosining porloq quyoshi-ga aylandi.

Alohida iftixorim, baxtim shundaki, yillar o'tib, hayot menga bu buyuk qalb sohibi bilan hamkor, hamfikir, hamdard bo'lishni nasib etdi. Ko'plab ijodiy safarlarda yonlarida bo'ldim. Milliy adabiyotimizning gultojlari, O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov hamda Abdulla Oripov bilan birgalikda xonadonimizga kelib, muhtarama volidam — Rafiqa ayaning duolarini olganlari, suhbatlarida bo'lganlari ko'ksimni tog'dek ko'targani ayni haqiqat, bulardan har qancha faxrlansam kam. Qolaversa, ustoz mening "Saylanma" kitobimga so'zboshi yozganlar. Hayotining nurli, bulutli damlarida hamfikir, dardkash bo'lolganim, o'zimni nari olib, davr rangiga kirib olmaganim bugun menga taskin beradi, ustoz oldida sal bo'lsa-da, yuzimni yorug' qiladi, albatta.

Men ustoz Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlab chop etilgan xotira kitobida va boshqa maqolalarda, intervyularda

ustoz haqidagi samimiy dil izhorlarimni bayon qilganman. Mana, bugun ustozning o'zi ko'rolmaydigan kitobiga so'zboshi bitish ham menga nasib etyapti. Bu vazifa qanchalar o'kinchli bo'lsa, yana shunchalar mas'uliyatli, faxrli...

Hayot va adabiyot haqiqati shundaki, benazir shoir Erkin Vohidov she'riyatini sharhlashga ardoqli shoirimizning muxlislari muhtoj emas. Zero, alloma shoirimizning har bir she'ri, g'azali, hikmati o'quvchi qalbini o'sha ondayoq zabt etadi. Bu satrlar tasviri va tafsiri haqida hammaning o'z fikri, o'z tahayyuli bor.

Erkin Vohidov yurmasdan, so'z sehri ila yetgan manzil — bu, avvalo, o'zbek xalqining, dunyo o'zbeklarining ko'ngli. Turkiy eldoshlarimizning qalbi. Qaysi millat kishisi bo'lishidan qat'i nazar, uning she'rlarini, dostonlarini, tilshunoslik bobida, ona tilimiz tarannumi va tajassumi borasidagi o'lmas maqolalarini, tarjimalarini o'qigan kitobxon ikki qo'lini ko'ksiga qo'yadi, tilida "Tasanno!" degan xitob yangraydi.

Aslida she'r — shonning emas, jonning mevasi, ko'ngil mahsuli, yurakning guli. Toshga til bitsa, eng avval gulga salom bergan bo'lardi. Chunki guldagi nafislik toshni titratadi. Chinakam she'r ham eng qattiq diydalarni ham eritadi, tosh qotgan yuraklarni yumshatib yuboradi... Erkin Vohidov she'riyatida shunday joziba, Xudo bergan fusunkorlik bor!

Qo'lingizdagi ushbu nafis to'plamga ko'ngil nuriga, millat adabiy boyligiga, o'zbek adabiyotining oltin xazinasiga aylangan she'rlar jamlangan. Har biri yurak yo'lidagi chiroq. Tafakkur va tuyg'ular gulobidan ungan gul. Ayni paytda shoir aqlining, muhabbatining betakror mevasi. Barchamizga muborak bo'lishini tilaganim ushbu kitob ardoqli shoirimizning ruhini shod qilishidan ham umidvorman. Zero, o'tganlarning ruhi shod bo'lsa, tiriklarning ko'ksi g'ururga, shunday zotlarga munosib yashash ishtiyoqiga burkanadi. To ulug' shoirlar sozi jaranglab, so'zlari tinmas ekan, millat chirog'i o'chmaydi, qo'lidagi gul so'lmaydi.

**Mahmud Toir,**  
*O'zbekiston xalq shoiri*

1955 — 1970

### KAMTARLIK HAQIDA

Garchi shuncha mag'ur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam  
O'tma g'urur ostonasidan.  
Piyolani inson shuning-chun  
O'par doim peshonasidan.

1956

## TONG LAVHASI

Ufqlarga qo'yib guldasta,  
Tog' ortidan ko'tardi-da bosh,  
Pastga boqdi cho'qqidan asta  
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.

Har nuqtaga sayqal berib u,  
Vodiy uzra chizdi zar lavha.  
So'ng quyosh deb imzo chekdi-yu,  
Tongotar deb qo'ydi sarlavha.

*1956*

**YO'Q,  
HALOVAT ISTAMAYMAN**

Yo'q, halovat istamayman,  
Orom bilmas yosh jonim.  
To'lqin urgan ummoncha bor  
Yurakdagi tug'yonim.

Bo'ronlarga, dovullarga  
Peshvoz yurgim keladi.  
Daryolarning girdobiga  
Ko'krak urgim keladi.

Tinchlik bilmas odatimdan  
Ozor cheksam mayliga.  
Olov bo'lib bir dam yonsam,  
So'ng o'chsam ham mayliga...

Har mushkulga bardosh berar,  
Chidar mening tosh boshim.  
Ammo sokin, tinch yashashga  
Sira yo'qdir bardoshim.

*1960*

## KIMNI ETMAS BU KO'NGIL SHAYDO

Dunyo ekan...

Ishq degan savdo

Bormi faqat mening boshimda?!

Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,

Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

Sevgi ilk bor tushdi-yu qalbga,

Hayotimning bo'ldi mazmuni.

U qo'limga tutqazib qalam,

Ko'zlarimdan oldi uyquni.

Oldi butun fikr-u xayolim,

Ketdi dildan orom, halovat.

Sevgi butun borimni olib,

She'r zavqini qoldirdi faqat.

Borliq olam ko'zimga ming-ming

Go'zallikka to'lib ko'rindi.

Gullar menga oshiq bulbulning

She'r daftari bo'lib ko'rindi...

Ayb etmangiz,

Do'stlar, bu savdo

Bormi faqat mening boshimda?

Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,

Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

1961

## GO'ZALLIK

Mulki borliq ichra bir mahal  
Ko'rsizgina olam yaralgan.  
Bermoq uchun dunyoga sayqal  
Olam aro odam yaralgan.

Shundan beri inson tinmayin  
Shu yer uzra ter to'kar hamon.  
Yerni go'zal qilgani sayin  
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

*1962*



## BIR TOMCHI YOSH

Cho'qqidan bir kichik tosh yumalasa,  
Tog'ni qulatgudek suron qiladi.  
Ko'zingdan bir tomchi yosh yumalasa,  
Tog'day yuragimni vayron qiladi.

Agar ko'ksim uzra qulasa birdan,  
Tutmoqqa qodirman tog'lar toshini.  
Hayhot, ko'tarolmam kipriklaringdan  
Uzilgan bir qatra qayg'u yoshini...

1964

## BOSH TEBRATAR SOAT KAFGIRI...

Bosh tebratar soat kafgiri,  
Der: qadrimni bilmas odamlar.  
Sekundlarim — gavhar har biri,  
Nega parvo qilmas odamlar?!

Bosh tebratar soat kafgiri,  
Shoshil, odam, o'tmoqdadir on.  
Har narsaning bo'lar oxiri,  
Bosh tebratib qolma so'ng, inson!

1964

## SADOQAT

Keksa qayrag'ochning  
Ildizin ochib,  
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.  
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,  
Sira qo'zg'almasdi  
Ungan yeridan...  
Nihoyat gurs etib yerga quladi,  
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar, biroq —  
U o'z panjasida olib jo'nadi  
Yashagan yeridan  
Bir siqim tuproq.

1964

## KUY AVJIDA UZILMASIN TOR

Kuy avjida uzilmasin tor,  
She'r yarmida sinmasin qalam.  
Yashab bo'lmay umrini zinhor  
Bu dunyodan ketmasin odam.

Qo'ldan tushib sinmasin qadah,  
Lab tekkanda to'kilmasin may.  
To'xtamasin urib turgan qalb,  
Boshlab qo'ygan qo'shig'i bitmay.

1964

## UCHI TUGUK DASTRO'MOL

Qo'shnim ishga ketayotir saharlab,  
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.  
Yo rektorga aytmoqchidir muhim gap,  
Kechqurunga go'sht kerakdir ehtimol.

Kim biladi, balki zarur kiritmoq  
Ilmiy kengash qaroriga yangi band.  
Yo do'stiga qilmoqchidir qo'ng'iroq,  
Olmoqchidir bolalarga xo'rozqand.

Balki... yana boshqa ming bir xil sabab,  
Unutmasin deb parishon bu xayol,  
Qo'shnim ishga ketayotir saharlab,  
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.

Shoshma, do'stim, barcha ishing bitadi,  
Bitmas ish yo'q, oshiqmasin yuraging.

Inson umri axir yeldek o'tadi,  
Bosh ko'tarib atrofingga qaragin.

Qara, bahor sep yozibdi olamga,  
Qara, g'uncha gul shoxini egibdi.  
Yasanishni unutmay deb bayramga,  
Balki, u ham ro'molchasin tugibdi.

Bu dunyoda kim betashvish, kim beg'am,  
Har insonning bir boshida ming xayol.  
O'ylab ko'rsam, miyamizning o'zi ham  
O'n to'rt milliard uchi tuguk dastro'mol.


Odam yashar zamon yukin orqalab,  
Serg'alvaroq kechasidan buguni.  
Orom bermas ko'kragida betinch qalb  
Bamisoli dastro'molning tuguni.

Shoshma, do'stim, barcha ishing bitadi,  
Muhim gap ham, qo'ng'iroq ham, xo'rozqand.  
Ammo seni ertangi kun kutadi,  
Erta yana dastro'molning uchi band.

Bugungidek yana sahar turasan,  
Ajratasan keraklarning keragin...  
Sochlaringda bir tola oq ko'rasan  
Birinchi bor sanchganida yuraging.

Taqdir derlar, bilmam, nadir taqdiring,  
Balki, oltmish, balki, yuzga kirgan chol...  
Boshing uzra unsiz yig'lar kampinging,  
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.

Hayot asta so'nar ekan ko'zingda,  
Kurak sendan hisob so'rar o'sha kun.



Bo'lganmi hech ixtiyoring o'zingda,  
Biror soat yashadingmi betugun?

O'yla, do'stim, kelmay turib o'sha dam,  
Isrof qilma yosh yurakning kuchini.  
Mana bu gap hech chiqmasin yodingdan —  
Tugib qo'ygin dastro'molning uchini.

1966

## BARCHA SHODLIK SENGA BO'LSIN

Barcha shodlik senga bo'lsin,  
Bor sitam, zorlik menga.  
Barcha dildorlik senga-yu,  
Barcha xushtorlik menga.

Sen mening jonimni olgin,  
Men sening darding olay,  
Barcha sog'lik senga bo'lsin,  
Barcha bemorlik menga.

Senga bo'lsin barcha husn-u,  
Menga bo'lsin barcha ishq,  
Kori xunxorlik senga-yu,  
Mehri poydorlik menga.

Bu jahonning rohatin ol,  
Bor azobin menga ber,  
Senga bo'lsin barcha orom,  
Barcha bedorlik menga.

Ol, o'zing koshonalarni,  
Menga qo'y mayxonani,  
Barcha hushyorlik senga-yu,  
Barcha xummorlik menga.

Senga bo'lsin nurli kunduz,  
Menga qolsin qora tun,  
Barcha gulshan senga bo'lsin,  
Bor tikanzorlik menga.

Sen shahanshohlikni olgin,  
Menga qullik bo'lsa bas,

Bor jafokorlik senga-yu,  
Bor vafodorlik menga.

Mayli, ostonangda yotsam,  
Mayli, quvsang tosh otib,  
Bor dilozorlik senga-yu,  
Bor dilafgorlik menga.

Senga she'rin bitsin Erkin,  
Yirtib otmoq o'z ishing,  
Kasbi inkorlik senga-yu,  
Aybga iqrorlik menga.

1967

## SENGA BAXTDAN TAXT TILARMAN

*Sen g'anisan, menda bisyor ehtiyoj.*

*Nodirabegim*

Senga baxtdan taxt tilarman,  
Toledan boshingga toj,  
Mulki husningga omonlik,  
Toj-u taxtingga rivoj.

Toj-u taxt tashbehidan sen  
Ko'hna deb kulsang, netay,  
Sen axir shohi jahonim,  
Men qulingman, ne iloj?

Ne ilojkim, davlatim yo'q,  
Ganji mehrimdan bo'lak,  
Bul evazdan ko'z to'laydur  
Qatra-qatra dur xiroj.

Ko'zlarim aylar hamisha  
Arzi muhtojlik senga,  
Ayt-chi, jonim, bormi senda  
Ko'z yoshimga ehtiyoj?

Ko'p nasihat tinglab Erkin,  
Qilmadi hech tarki ishq.  
Bor masalkim, ish yurishmas,  
Sohibi gar bo'lsa koj.

1967



## XAYOL

Kechalar kipriklarimda  
Tarki xob aylar xayol,  
O'z hayotimdan o'zimga  
Sarhisob aylar xayol.

Qissa aytur moziydin goh,  
Ertadan afsona goh,  
Goh savol aylar ko'ngilga,  
Goh javob aylar xayol.

Ko'kda suzgan oyni ko'zga  
Bir kichik fonus etib,  
Pirpirab yonguvchi shamni  
Mohi tob aylar xayol.

May to'la jom ichra to'fon  
Mavjini paydo qilur,  
Tong shafaq alvonini  
Gulgun sharob aylar xayol.

Ming asrlar kori holin  
Qilgay u bir soniya,  
Lahzaning mazmunini  
Ming bir kitob aylar xayol.

Neki zabt etmish shuur,  
Bois xayol o'lsa, ne tong,  
Dilga parvoz ayla deb  
Mangu xitob aylar xayol.

Bu shitob asrim xayolga  
Etdim-u tezlikni baxsh,

Bilmadim, asrimni olg'a  
Yo shitob aylar xayol.

Bor ekan inson qo'lida  
Orzu yoqqan charoq,  
Bu charoqni, o'yla, bir kun  
Oftob aylar xayol.

Men xayolni she'rga soldim,  
O'yparast bo'lma va lek,  
Besamar bo'lsa seni  
Bir kun xarob aylar xayol.

Bo'lgin, Erkin, har nafas  
Ezgu xayolga oshino,  
Pok esa niyat, seni  
Oliyjanob aylar xayol.

1967

## UZUM

Termilar shabnamli yaproq —  
Ostidan pinhon uzum.  
Lablaringga yetmoq istab,  
Tong sahar giryon uzum.

Oftob mashshotasi  
Tok sochini nurdan tarab,  
Zangining bo'yniga osmish  
Shodayi marjon uzum.

Toqi ishkomb misli osmon,  
Har taraf yulduz sochur,  
Voh ajab, bu ne sinoat,  
Yer — uzum, osmon — uzum.

Tark etib ko'shkin, savatga  
Qo'ydi bosh, izlab seni  
Charx urib bozor ichida  
Bo'ldi sargardon uzum.

Kimki oshiqlikni da'vo  
Aylasa, shuldir jazo,  
Oqibat xum ichra bo'ldi  
Mahkumi zindon uzum.

Xum ichida necha yil  
Xun bo'lmoq erkan qismati,  
Lablaringga yetdi oxir  
Bir piyola qon uzum.

Bir qadah gulgun sharob  
Tutdim senga, bir ho'plading,

Toleyimdan voladurman,  
Baxtidan hayron uzum.

Ey dilorom, senga Erkin  
Tutdi maydek she'rini,  
Dil xumida necha yil  
Qon bo'ldi bu devon — uzum.

1967

### **DO'ST BILAN OBOD UYING**

Do'st bilan obod uying,  
Gar bo'lsa u vayrona ham,  
Do'st qadam qo'ymas esa,  
Vayronadir koshona ham.

Intizor har uy dilovar,  
Dilkusholar bazmiga.  
Gar oyoq qo'ysa qabohat,  
Yig'lagay ostona ham.

Yaxshi do'stlar davrasida  
Ochilursan har zamon,  
Ko'rkni shoda ichra topgay  
Marvarid durdona ham.

So'rma, mendan kim diloro,  
Do'stmi yo jonona deb.  
Do'st mening ko'nglimdadir,  
Jonimdadir jonona ham.

Qochma, rostgo'y do'stlarning  
Kohish-u ozoridan,

Qaddi rost shamning tilidan  
O'rtanur parvona ham.

Do'st qidir, do'st top jahonda,  
Do'st yuz ming bo'lsa oz.  
Ko'p erur, bisyor dushman  
Bo'lsa u bir dona ham.

Kim senga hamroz emasdir,  
Bog'araz deb o'ylama.  
Gohi dushmanlik qilurlar  
Qo'l siqib do'stona ham.

Do'sti sodiq yo'q ekan deb  
O'rtanib kuyma va lek,  
Mehr uyin keng ochsang, Erkin,  
Do'st bo'lur begona ham.

*1967*

## RASHKIM

Seni yotlar tugul hatto —  
Qilurman rashk o'zimdanda ham.  
Uzoqroq termilib qolsam,  
Bo'lurman g'ash ko'zimdanda ham.

Ko'zim yongay senga nargis —  
Ko'zin tiksa, chamanlarda.  
Yashirmam, lolaga rashkim  
Ayon bo'lgay yuzimdanda ham.

Degaylarki, charos-u ol  
Gilos olmish labingdanda rang,  
Labing tegsa, hasad qilgum  
Gilos birlan uzumdanda ham.

Seni jonim, dedim, yolg'iz,  
Seni qalbim, dedim, tanho.  
Chimirding qosh, pushaymonman  
Qo'pol aytgan so'zimdanda ham.

Visol onida ko'z ochsa,  
Ne tong, tongdanda ko'ngilda ranj.  
Judo qilgay meni oy yuz,  
Xumor ko'z yulduzimdanda ham.

Senga o'n to'rt danda bog'landim,  
Hanuz erkin bo'lolmas dil.  
O'zim dog'man, aql kirmas,  
To'zimsiz o'ttizimdanda ham.

1967

## DUTORIM TORI IKKIDUR...

Dutorim tori ikkidur:  
Biri quvnoq, biri mahzun  
Ki, baytim satri ikkidur:  
Biri dilxush, biri dilxun.

Nigorim chashmi ikkidur:  
Biri yag'mo, biri jodu,  
Bu jodudan ikki ko'zim:  
Biri Sayhun, biri Jayhun.

Jahonda ikki dilbarning  
Biri sensan, biri — Laylo,  
Jahonda ikki oshiqning  
Biri menman, biri — Majnun.

Jahonda ikki yulduz bor:  
Biri sensan, biri Zuxro,  
Misoli ikki nuqtamning  
Biri ostin, biri ustun.

Jahonning mehri ikkidur:  
Biri sensan, biri — oftob,  
Tarozu pallasi ikki:  
Biri yerdur, biri — gardun.

Makoni ikki lochinning —  
Biri — qoya, biri — osmon,  
Qanoti ikki shoirning —  
Biri — o'lka, biri — ochun.

G'azal bitmakda sachrabdur  
Ko'zimdan yosh, dilimdan o't.

Shu bois ikki satrimning  
Biri — qatra, biri — uchqun.

Kelib bog' sayridan, Erkin,  
G'azalga to'lqin izlardim  
Kirib keldi ikki do'stim:  
Biri — Sayyor, biri — To'lqin.

1968

### ISHQ ISTILOSİ

Ko'ngul mulkini toroj —  
Aylagan ishq istilosidir.  
Na bo'lgay oxiri, bu  
Istiloning ibtidosidir.

Degaylar, do'stlikdan —  
Boshlanur ishq, aksi ermasmi,  
Biz endi do'st, dedi yor,  
Oh, bu sevgi intihosidir.

Baland parvoz etar yor —  
Dil qushi, ko'zlarni dom aylab,  
Uni sayd aylamoq yo  
Har ko'ngilning muddaosidir.

Nechun husn-u sadoqatni  
Egiz tug'mabdi bu olam.  
Tabiat qasdidir yoki  
Bu ham bitta xatosidir.

Ko'ngil dardini aytib,  
Yig'lamasman ko'cha-yu ko'yda,  
O'zi ko'nglimga dard solgan,  
O'zi bu dard davosidir.



Topindim yor — sanamga men  
Muhabbat sajdagohida.  
Biling, dinsizlar osiymas,  
Muhabbatsizlar osiydir.

Jafo qil, mayli, dilbar,  
Vasl umidin qo'ymagay Erkin.  
Yotar yo'lingda ko'nglim —  
Bir shirin so'zning gadosidir.

1968

## DILDA ISHQ DARYOCHADIR...

Ahli she'r, balki, kitobim  
Nazmi ishq deb ochadir.  
Yo'q, kitobim sevgining  
Devoniga debochadir.

Ko'zlaring orzusida  
Tuzdim navo, zebo sanam.  
Nastarin ko'z ochib aytsin,  
She'ri ham zebochadir.

Balki, u zebocha ermas,  
Balki, u bir g'unchadir,  
Husning oftobida ammo  
Kun sayin zeb ochadir.

Voh, ajab, nomingni aytsam,  
Lol bo'lur til ham, ko'ngil.  
She'r ipi nogoh qalamning  
Ignasidan qochadir.

Erkinning devonidan hech  
To'lmasa ko'ngling, ne tong,  
Tilda she'r bir qatra bo'lsa,  
Dilda ishq daryochadir.

1968

## O'RTADA BEGONA YO'Q

Ko'yida men tosh boshimni  
Urmagan ostona yo'q.  
Elda bor shunday masal:  
Jon chekmasang, jonona yo'q.

Sevgi vodiysida menga  
Teng bo'loigay qaysi Qays?!  
Ko'nglim ochsam, ikki dunyo  
Bu kabi afsona yo'q.

Shahr ichida holatimdan  
Kulmagan bir oqil-u,  
Xilvat ichra menga ulfat —  
Bo'lmagan devona yo'q.

Ne ajabkim, mast bo'libman  
Ko'zlaringga termilib.  
Yetti iqlimda bu yanglig'  
May yo'g'-u, mayxona yo'q.

Ishq g'amin aytsam qalamga,  
Ich etin kuydirdi ul.  
Sevgidek o't yo'q jahonda,  
Men kabi so'zona yo'q.

Oq qog'ozim, senga, Erkin,  
Ochdi pinhon ishqini.  
Sen bor-u, men bor, qalam bor,  
O'rtada begona yo'q.

1968

## NASIHAT

(“Kulgi mushoiralari” dan)

Qo‘lni ishga mohir etma,  
Tilni gapga usta qil.  
Ishni bir qilgan joyingda  
Gapni, albat, yuzta qil.

Boshlig‘ing oldida topmoq  
Istasang sen e‘tibor,  
Qomating yuz turli bukkin,  
So‘zni ham ming tusda qil.


Jilmayib tur yonida, hech  
Ochma tanqidga og‘iz.  
Taklifing bo‘lsa, o‘ziga  
Asta-yu ohista qil.

Tur desa tur, yot desa yot,  
Chiqma zinhor izmidan.  
Hech fikr qilma o‘zingcha,  
Qilma bir ish mustaqil.

Boshlig‘ing ko‘nglini bil sen,  
Ketma pinjidan nari.  
Paytini topsang mabodo,  
Birga yuzta-yuzta qil.

Bil, senga bu besh nasihat,  
Eng asosiy qoida:  
Qo‘lni ishga mohir etma,  
Tilni gapga usta qil.

1968



## BOSHINDADIR

(“Kulgi mushoiralari” dan)

O‘n sakkiz ming olam oshubi  
Padar boshindadir,  
Ne ajab, chun o‘g‘li oning  
O‘n sakkiz yoshindadir.

Nay misol shim kiygan ul  
Sandiqdayin tuflil bilan.  
Hurpayib turgan savatdek  
Soch aning boshindadir.

Ul padar oh urmasin —  
Nechun yoqosin chok etib,  
Neki bad fe‘l bo‘lsa, bari  
Ushbu beboshindadir.

O‘zgalardan kulgay erdi,  
Ko‘cha-ko‘yda bir zamon.  
Aqlg‘a yuz hayrat, emdi —  
Bul uning qoshindadir.

O‘g‘lidan aylardi umid  
Keltirar rahmat debon.  
Barcha “rahmat” elning otgan  
Ta‘nayi toshindadir.

Yo‘q ajab, yoshlikda o‘g‘lin  
Ota ardoqlab, suyib,  
Erkalab boshiga qo‘ydi,  
Ul hamon boshindadir.

1968

## O'ZBEGIM

(qasida)

Tarixingdir ming asrlar  
Ichra pinhon, o'zbekim.  
Senga tengdosh Pomir-u,  
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyob-u,  
So'ylasin O'rxun xati,  
Ko'hna tarix shodasida  
Bitta marjon, o'zbekim.

Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,  
Al-Forob avlodidan,  
Asli nasli balki O'zluq,  
Balki Tarxon, o'zbekim.

O'tdilar sho'rlik boshingdan  
O'ynatib shamshirlarin.  
Necha qoon, necha sulton,  
Necha ming xon, o'zbekim.

Tog'laring tegrangda go'yo  
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,  
Ikki daryo — ikki chashming,  
Chashmi giryon, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidan  
Bag'rida dog' uzra dog'.  
Chingiz-u Botu tig'iga  
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.

Yog'di to'rt yondin asrlar  
Boshingga tiyri kamon,  
Umri qurbon, mulki toroj,  
Yurti vayron, o'zbekim.

Davr zulmiga va lekin  
Bir umr bosh egmading.  
Sen — Muqanna, sarbador — sen,  
Erksevar qon, o'zbekim.

Sen na zardusht, sen na buddiy,  
Senga na otash, sanam,  
Odamiylik dini birla  
Toza iymon, o'zbekim.

Ma'rifatning shu'lasiga  
Talpinib zulmat aro,  
Ko'zlaringdan oqdi tunlar  
Kavkabiston, o'zbekim.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek  
Ko'ragoniy jadvalin,  
Sirli osmon toqiga ilk —  
Qo'ydi narvon, o'zbekim.

Mir Alisher na'rasiga  
Aks sado berdi jahon.  
She'riyat mulkida bo'ldi  
Shoh-u sulton, o'zbekim.

Ilm-u she'rda shoh-u sulton,  
Lek taqdiriga qul.  
O'z elida chekdi g'urbat,  
Zor-u nolon, o'zbekim.

Mirzo Bobur — sen, fig'oning  
Soldi olam uzra o't,

Shoh Mashrab qoni senda  
Urdu tug'yon, o'zbekim.

She'riyatning gulshanida  
So'ldi mahzun Nodira,  
Siym tanni yuvdi ko'z yosh,  
Ko'mdi armon, o'zbekim.

Yig'ladi furqatda Furqat  
Ham muqimlikda Muqiyim,  
Nolishingdan Hind-u Afg'on  
Qildi afg'on, o'zbekim.

Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak,  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o'zbekim.

Ortda qoldi ko'hna tarix,  
Ortda qoldi dard, sitam,  
Ketdi vahming, bitdi zahming,  
Topdi darmon, o'zbekim.

Bo'ldi osmoning charog'on  
Tole xurshidi bilan,  
Bo'ldi asriy tiyra shoming  
Shu'laafshon, o'zbekim.

Men Vatanni bog' deb aytsam,  
Sensan unda bitta gul.  
Men Vatanni ko'z deb aytsam,  
Bitta mujgon, o'zbekim.

Faxr etarman, ona xalqim,  
Ko'kragimni tog' qilib,  
Ko'kragida tog' ko'targan  
Tanti dehqon, o'zbekim.



O'zbekim deb keng jahonga  
Ne uchun madh etmayin!  
O'zligim bilmoqqa davrim  
Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,  
Men bashar farzandiman.  
Lekin avval senga bo'lsam  
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

Menga Pushkin bir jahon-u,  
Menga Bayron bir jahon.  
Lek Navoiydek bobom bor,  
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

Qayga bormay, boshda do'ppim,  
G'oz yurarman gerdayib.  
Olam uzra nomi ketgan  
O'zbekiston, o'zbekim.

Bu qasidam senga, xalqim,  
Oq sut-u tuz hurmati.  
Erkin o'g'lingman, qabul et,  
O'zbekim, jon o'zbekim.

1968

\* \* \*

Bahor.

Barqut kiyib bezandi bog'lar,  
Sahrolar ko'ksiga taqdi qizg'aldoq.  
Quyosh etagiga oq bulut bog'lab,  
O'rik shoxlarida qovurdi bodroq.

Yellar olib qochdi qishning xobini,  
Barglar chapak chalib uyg'ondi shodon.  
Butoqlarga qo'nib, gul kitobini  
Varaqlashga tushdi bulbul — g'azalxon...

Bugun koinotda ezgu bir tashvish,  
G'uncha gul bo'lay deb ko'zin ochadi.  
Musicha oldidan bir dona cho'pni  
Chumchuq uyasiga olib qochadi.

Haydalgan daladan bir xas ortmoqlab —  
Chumoli yugurar — u ham tirik jon.  
Shoshilib chopadi tabib irmoqlar  
Yerning tomiriga quymoq uchun qon...

Ona tuproq esa kuz tashvishida,  
Yuksak xirmonlarga siynasi yuklik.  
Uning sokingina tin olishida  
Bordir onalarga xos bir buyuklik.

1968

## BOBUR G'AZALIGA MUXAMMAS

Yetolmay qomatim yodur necha oykim, hilolingga,  
Qaro ko'z mardumi yig'lab tikilmoq birla xolingga,  
Qachon ul totli kun kelgay, yetarman lahza bolingga,  
Qachon bo'lg'ay, musharraf bo'lg'amen, jono, jamolingga,  
Qutulg'aymen firoqingdan, yetishgaymen visolingga?

Qaro bo'lmish, ne tongkim, ro'zigorim qora ul ko'zdin,  
Qaro o'q otdi kipriklar, ko'ngilda yora ul ko'zdin,  
O'zim sobitman ishqda, ko'zyoshim sayyora ul ko'zdin,  
Ko'z ochqil boqqanikim, bo'lmisham bechora ul ko'zdin,  
Lab ochqil so'rg'alikim, tashna bo'lmishman zilolingga.

Salomim yetkur, ey xurshid, nigorim ko'yidan o'tsang,  
G'uborin ko'zga sur, ostonasiga bosh urib yetsang,  
Bo'l ogohkim, yuzin ko'rgach, ajab yo'qdir kuyib ketsang,  
Ul oyning yuzi birlan to'sh urib da'voyi husn etsang,  
Yaqin bo'ldi bukunkim, ey quyosh, yetting zavolingga.

Netar mendan borib, bulbul, anga sharhi ko'ngil etsang,  
O'zing ko'nglim bo'lib borsang, aning ko'nglini gul etsang,  
Kerakmas, g'amlarim so'ylab, agar ko'nglin malul etsang,  
Kabutar, eltasan xatim, ne bo'lg'ay gar qabul etsang,  
Ko'ngulni bog'lasam ul noma yanglig' par-u bolingga.

Asiri bandi zulfingman, demam Erkinni ozod et,  
Kuyibman dog'i jabringdan, demasman tarki bedod et,  
Meni band et, menga jabr et, hayotim mayli barbod et,  
Belingdin kim xayolidur, yiroqdurman, meni yod et,  
Umidim borki Boburdin, yetishgaymen xayolingga.

1970 — 1985

## PUSHKIN

Men ilk bor maktabga qo'yganda qadam,  
Ilk bor alifbodan olganda ta'lim  
Menga olam aro yuz ochgan olam —  
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.  
Hali men anglamay Alisherni ham,  
Gyote ruhi hali bo'lmasdan hokim,  
Xayolim beshigin tebratgan onam —  
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.  
Ulg'aydim, kengaydi ufqi hayotning,  
Dunyo ko'rkin ochdi ulug'vor, azim.  
Ko'zlarimga qilgan keng olamni keng —  
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.  
Murg'ak dilga tushib she'rning havasi  
Bayon etganimda ilk ko'ngil arzim —  
Menga madad bo'lgan otash nafasi —  
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.  
Hali yo'lim olis, hayot hali bor,  
Hali bu dunyodan ko'p mening qarzim.  
To tirik ekanman takror va takror  
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.  
Shoir bo'lsam bir kun elga munosib,  
Meni shoirim deb atasa xalqim,  
Navoiy devonin ko'ksimga bosib,  
Pushkin dahosiga qilurman ta'zim.

1974

## KARDIOGRAMMA

Kardiogramma,  
Nimadir bu xat?  
Nimalar demoqda yuragim zarbi?  
Nechun u ko'ksimda urinar faqat  
Parvozig talpingan tutqun qush kabi?  
Nechun tug'yon qilar,  
Ne istar ko'ngil,  
Ne der bu samandar — o't oshinosi?  
Ayting, shifokorim,  
Siz ko'z tikkan bul  
Turfa chiziqlarning nedir ma'nosi?  
Balki jon rishtasi degani shudir,  
Davomi umrimning so'ngiga tutash?  
Balki hayot yo'lim...  
Bu yo'l ham axir  
O'sha chiziq'larga juda ham o'xshash.  
Uning ham past-baland, o'r-u qiri bor,  
Uni ham qarshilar goh tikan, goh gul.  
Yoshlik ravon yo'lni tanlamas zinhor,  
Uning so'qmoqlari hamisha mushkul.  
Chunki yurak o'zi turmas lahza jim,  
Chunki mashaqqatdan orom topar jon.  
Lekin hamishalik rahnamo qalbim  
Ne uchun daf'atan ko'tardi isyon?  
Uni ranjitdimmi?  
U norozimi?  
Balki bilolmadim ne unga matlub?  
Doktor!  
Yurak mendan pinhon rozini  
Sizga oshkor etib yozdimi maktub?  
Aytsin,

Nima gunoh qildim yurakka?  
U boshlagan yo‘ldan sira qaytdimmi?  
Odamlar oldida  
Yo o‘zim yakka —  
Yuragimga qarshi bir so‘z aytdimmi?  
Yoki kimlargadir tavoze etib  
Oqni qora dedim — iymon bexabar?  
Yoki nohaqlikni ko‘rib, eshitib,  
Ko‘zimni ko‘r qildim, qulog‘imni kar?  
Unga jabr etgulik nima aybim bor?  
Ahd qilib ahdimda turmadimmi yo?  
Do‘stlikka xiyonat qildimmi bir bor  
Va yo ishq yo‘lida bo‘ldim bevafo?  
Men uning izmidan chiqmadim-ku hech,  
Poymol etmadim-ku uni hech qachon.  
Doim sodiq bo‘lgan yuragim bu kech  
Ne uchun daf‘atan ko‘tardi isyon?  
Bilaman,  
Mehnati uning mushkulot,  
Oson tutib bo‘lmas aslo yurakka.  
Yer-u osmon tinchir,  
Tinchir koinot,  
Lekin orom bilmas qalb o‘zi yakka.  
Bilaman,  
G‘oyat tez asrim shiddati,  
Yelkalarga ortgan uhdasi buyuk.  
Fazoda charx urgan Yerning sur‘atin  
Yuraklarga bergan, aslida, shu yuk.  
Shu yuk bosar uning naq o‘rtasidan,  
Butun vujudimda shu yuk zalvari.  
Ajab emas, yurak aortasidan  
O‘tib ketgan bo‘lsa olam mehvari.  
Odam tug‘ilmas-ku davrini saylab,  
Zamon tanlamasdim va lekin o‘zga.  
Qalb meni kechirsin, uni avaylab —

Olib borolmasam to'qsonga, yuzga.  
Ammo umidim bor,  
Avlodlar bir kun  
Bizning yuraklarga qilurlar havas!  
Sen esa, ey qalbim, shu umid uchun  
Eng so'nggi yo'lqining bera olsang bas.

1971

### YO'QOLGAN SHE'R

Bir she'r fikri yarq etdi nogoh,  
Vujudimda g'alayon tuydim.  
Yarq etdi-yu, men bo'lmay ogoh,  
Bir lahzada yo'qotdim-qo'ydim.

Neki bo'lsa menga eng aziz,  
Eng mo'tabar bo'lsa dunyoda,  
Borlig'imni band etsa ne his —  
Bari endi unda ifoda.

Vazmin endi o'z asriga xos,  
Yuksak edi bamisli xayol.  
U yurakning o'zidek hassos,  
Tabiatdek edi barkamol.

She'r dardida o'tgan necha ming  
Ajdodlarim ruhiga qasam:  
O'sha she'rda butun olamning  
Shavq-u dardi edi mujassam.

Bir xush ayyom, baxtli tasodif  
To'ldirdi-yu zar ila qo'ynim,  
Men gumroh-chi, bo'lmayin voqif  
Bir lahzada yo'qotdim-qo'ydim.

Shundan buyon izlayman uni,  
Quyun kabi kezarman jahon.  
Qani, uning biror satrini  
Topib olsam edim nogahon.

U she'r tamom band etdi meni,  
Asir bo'ldim unga umrbod.  
Bamisoli yor tasvirini  
Oyinada ko'rgandek Farhod.

Makon tutsam endi qayerda,  
Qayon boshlar esa iqbolim,  
Fikr-u zikrim o'sha she'rda,  
O'sha she'rda butun xayolim.

Vodiylarni sayr aylagan chog',  
Asir etsa o'lkam jamoli,  
Ko'z oldimda tiklanur nogoh,  
O'sha she'rning yetuk kamoli.

Qalbi toza, yurak-bag'ri keng  
Odamlarga hamsuhbat bo'lsam,  
Yodga tushar o'sha she'rning  
Vazminligi, hassosligi ham.

Gohi yuksak xirmonlar mening  
Xayolimni etganida band,  
O'ylaymanki, yo'qotgan she'rim  
Mana shunday edi sarbaland.

Men u she'rni izlay umrbod,  
Tog'-toshlarni kezay piyoda.  
Topib olsam, menday baxtli zot  
Bo'lmas edi yorug' dunyoda.

Men topmasam, mayli, topsa kim,  
U g'azal, xoh qasida bo'lsin,



Mayli, mening bor-yo‘q yozganim  
O‘sha she‘rga baxshida bo‘lsin.  
Mayli edi, bir bora ko‘rsam,  
Bir bor ko‘rib fido qilsam jon.  
Bu dunyodan shunda Erkin ham  
O‘tar edi zarra bearmon.

1972

## HOZIRGI YOSHLAR

Qari tolga suyab  
Irgʻay asoni,  
Oqsoqol soʻriga asta yonboshlar.  
Xayoldan oʻtkazar kori dunyoni:  
“Eh, hozirgi yoshlar,  
Hozirgi yoshlar!”

U asr tengdoshi.  
Butun umr endi  
Kecha koʻrgan tushday koʻzi oldida,  
Yigirma yoshida amirni yengdi,  
Vodiyga suv ochdi oʻttiz oltida.  
Yoshligini eslar,  
Uf tortar sekin.  
Salgina chimrilar oq tushgan qoshlar.  
“Biz ham yosh boʻlganmiz bir mahal,  
Lekin  
Boshqacharoq chiqdi hozirgi yoshlar”.

U kolxoz tikladi,  
Yangi yurt qurdi.  
Bosmachiga qarshi ot surdi oʻktam.  
Jang-u jadallarning barini koʻrdi.  
Koʻrdi ochlikni ham,  
Yupunlikni ham.  
“Bizga xayol edi,  
Tush edi faqat  
Toʻkin dasturxon-u lazmatli oshlar.  
Baxti boqiy boʻlsin,  
Ammo bu jannat  
Qadrin bilarmikin hozirgi yoshlar!”

Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil,  
Maskov bo'sag'asi,  
Achchiq qahraton.  
Agar qulatmasa daydi o'q sabil,  
Berlindan qaytardi bo'lib qahramon.  
Eslar, har yon olov,  
O't ichra dunyo.  
Majruh gavdalar-u uzilgan boshlar...  
"Yurt tinch bo'lsin,  
Bir gap bo'lsa, mabodo,  
Bardosh berarmikin  
Hozirgi yoshlar!"

Uy-joy qilib berdi, mana, Turg'unga,  
Turmushga chiqardi Nazirasini.  
Bukun esa o'ylar dorilfununga  
Kirolmasdan qolgan nabirasini.  
Domlasiga o'zi borsinmi sekin  
Ordenlarni taqib,  
Oqilni boshlab...  
"Kim biladi deysiz, bo'shtobroqmikin,  
Erkatoyroqmikin hozirgi yoshlar..."

Yana der:

"Bo'sh qolsak tunlar bo'lib jam,  
"Chordarvesh" o'qirdik qurshab tanchani.  
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,  
Erta-yu kech o'ylar kino, tansani.  
Aqli kirarmikin bularning bir kun,  
Kim biladi, qachon quyula boshlar!  
Og'ir kun ko'rmadi.  
Balki shuning-chun  
Yengilroq o'sdimi hozirgi yoshlar!"

Tohirni halitdan tinch qo'ymas qizlar,  
Yarim tunda qaytar uyga hamisha.

“Uncha bo‘lmasak ham ilmda bizlar,  
Ammo kuchli edi odob, andisha.  
Birovning qiziga sal qarab qo‘ysak,  
Bizlar atalardik sho‘x-u beboshlar.  
Ba‘zi kinolarmi buzmoqda andak,  
Kapalak mijozroq hozirgi yoshlar...”

To‘ng‘ich o‘g‘li u kun qizaloq ko‘rgan,  
Nomini Sharlotta qo‘yibdi, ajab.  
O‘rtanchasi tog‘da yurgani yurgan,  
Ba‘zan uch oyda bir kelmaydi yo‘qlab.  
Nahot otasidan bo‘lsa azizroq  
Qaysidir tog‘dagi qandaydir toshlar...  
“Bizning bordi-keldi odatdan yiroq,  
Bemehrroq o‘sdi hozirgi yoshlar...”

“Kiyimlar-chi...  
Qiziq bularning didi.  
Ola-chipor ko‘ylak...  
Nimasi ko‘rkam?  
Rost aytsam unchalik yoqmagan edi  
Otalarga bizning charm kamzul ham.  
Baynalmilal aytib, bayroq ko‘tarib  
Ko‘chaga chiqqanda o‘ktam safdoshlar,  
Keksalar degandi yo‘ldan qaytarib:  
Nega shumlik qilar hozirgi yoshlar?”

Endi bularga ham har qalay og‘ir,  
Zamon shitobi tez, parvozi tikka.  
Kecha tili chiqqan Nargiza o‘qir  
Birinchi sinfda matematika.  
Bizlar haftiyakdan boshlagan edik,  
Bular iks bilan igrikdan boshlar.  
Durust, zehni o‘tkir, qadami tetik,  
O‘zimizga tortdi hozirgi yoshlar.

Ginasi noo‘rin,  
Qarilik qursin.  
Bekor yurmagandir tog‘larda O‘ktam,  
Mana, kerak bo‘lsa Rustamni ko‘rsin,  
Bolasidan a‘lo jiyan bo‘lsa ham.  
O‘zi qotmagina, niholday xipcha  
Nari borsa o‘ttiz, o‘ttiz bir yoshlar...  
Fan doktori bo‘ldi Maskovda kecha...  
Balo chiqib qoldi hozirgi yoshlar.

Baxti butun bo‘lsin,  
Toleyi bekam.  
Shularning borligi mening iqbolim”.  
Chol ko‘z yoshin artar,  
Shu payt mening ham  
Kelajak yillarga uchdi xayolim.  
Zamonlar keladir  
Yana ajoyib.  
Balki paydo bo‘lar sun‘iy quyoshlar.  
U paytlar, kim bilsin,  
Qarib-qartayib,  
Munkillab qolarmiz hozirgi yoshlar.

Shunda kelajakning bog‘lari aro  
Biz, ya‘ni keksalar suhbat qurgan chog‘  
So‘zlarmiz:  
“Qarshi deb atalgan sahro  
Bizning qo‘limizda bo‘lgan edi bog‘.  
Esingdami Gazli,  
Zilzilalar-chi?  
Qayta shahar qurgan qardosh-qurdoshlar...  
Biz yangi eradan bo‘lgandik jarchi,  
Nima ham ko‘ribdi hozirgi yoshlar!

Qara,  
Oq ko‘ylakka galstuk taqib,

Agregat yonida turishar bular.  
Biz ishladik qo'lni moylarga tiqib,  
Endi rohatini ko'rishar bular.  
Fanda inqilobni biz qildik ilk bor,  
Ilk bor parvoz qilgan bizning yo'ldoshlar.  
Ko'kni obod qildik,  
Yerni ham gulzor.  
Eh, hozirgi yoshlar, hozirgi yoshlar!"

1973

## INSON

### *Qasida*

Sobit-u sayyorada  
Inson o'zing, inson o'zing.  
Mulki olam ichra bir  
Hoqon o'zing, sulton o'zing.

Sobit o'z ma'vosida,  
Sayyor fazo dunyosida,  
Koinot sahrosida  
Karvon o'zing, sarbon o'zing.

Shams — dil taftingdadur,  
Sayyoralar kaftingdadur,  
Keng jahon zabtingdadur,  
Bog'bon o'zing, posbon o'zing.

Bu yorug' dunyo nadur?  
Koshonadur, vayronadur,  
Senga mehmonxonadur,  
Mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bunda oq birla qaro,  
Zulmat, ziyo, shoh-u gado,  
Jang qilurlar doimo,  
Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

Sen balo, ham muftalo,  
Xayr ila kin, rost-u riyo,  
Fitnagar olam aro  
Fotton o'zing, qurbon o'zing.

Goh adolat bog'ida,  
Piri adovat gohida,  
O'z diling dargohida  
Shayton o'zing, g'ilmon o'zing.

Xormisan yo gulmisan,  
Tojdormisan yo qulmisan,  
Chug'zmisan, bulbulmisan,  
Nodon o'zing, xushxon o'zing.

Bu hayot o'rmon ekan,  
Jon borki, qasdi jon ekan,  
Bunda qatl oson ekan,  
Sirtlon o'zing, jayron o'zing.

Bu hayot ummon ekan,  
Ummon abad gardon ekan,  
Qatradek sarson ekan,  
Sarson o'zing, gardon o'zing.

Mash'ali fikrat — sening,  
Ham changali vahshat sening,  
G'ayrat-u g'aflat sening,  
Javlon o'zing, uryon o'zing.

Qilding-u oyda xirom,  
Ham yerda qon to'kding harom,  
Ushbu holingdan mudom  
Xandon o'zing, giryon o'zing.

Minding ilm narvoniga,  
Chiqding funun osmoniga,  
Bu jahon ayvoniga  
Arkon o'zing, vayron o'zing.

Zarrani ijod etib,  
Dahshat balo bunyod etib,



Oqibatni yod etib  
Hayron o'zing, hayron o'zing.

Bog'i arz obod erur  
Sendin agar imdod erur,  
Yo'qsa u barbod erur,  
To'fon o'zing, to'g'on o'zing.

Sen hilol, yulduz, salib,  
Tavrot, Zaburdin yuksalib,  
Boymisan yoki g'arib,  
Komron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash,  
Irq, qon talash, iymon talash,  
Shulmi insondek yashash,  
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Mamlakatga mamlakat,  
Millatga millat bo'lsa qasd,  
Qilguchi so'ng oqibat  
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Onaizoring — zamin,  
Tanho yo'g'-u boring — zamin,  
Xasta bemoring — zamin,  
O'g'lon o'zing, darmon o'zing.

Bag'rida yotquchi — sen,  
Ne'matlarin totquchi — sen,  
Tig' bo'lib botquchi — sen,  
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Marsga to'p otquchi — sen,  
Zuhroni uyg'otquchi — sen,  
Uyquda qotquchi — sen,  
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.

Kelding olamga, demak,  
Yetmas uni so'rmak, yemak,  
Yerni etmog'ing kerak  
Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

So'zga ham poyon bo'lur,  
Yozsam yana devon bo'lur.  
Rustami doston bo'lur,  
Doston o'zing, devon o'zing.

Bo'lmasin subhing qaro,  
Bor bo'l mudom borliq aro,  
O'zni etgil doimo  
Inson o'zing, inson o'zing.

Ey, sen Erkin, sen bukun  
Yozding dilingdan bir tugun,  
Sen kim-u, ne dahri dun,  
Biyron o'zing, nodon o'zing.

1973

## OTA TILAGI

Taajjub, deyman-u yoqa tutaman,  
Murg'ak bola edim kecha-ku o'zim.  
Bugun qarabsizki, men ham otaman,  
Mening ham o'g'lim bor — umid yulduzim.

Qalbim urmakda shu mushtdek yurakda,  
Yangidan o'smakda kichkina jismim.  
Demakki, hayotim davom etmakda,  
Demakki, olamda qolmakda ismim.

Nima bor men uchun uningdek aziz? —  
Arzir bir so'ziga jon fido etsam.  
Jahonda nimaki bo'lsa eng laziz,  
Faqat uning uchun muhayyo etsam.

Kiprigiga zarra qo'nmasa qayg'u,  
Baxti komil bo'lsa, toleyi bekam.  
Ko'rsa men ko'rmagan shodliklarni u,  
Yetsa men yetmagan niyatlarga ham.

Ammo u bir umr bo'lmay oshino  
Tiriklik deganning zahmat, dardiga,  
Bila olarmikin nadir bu dunyo,  
Yeta olarmikin hayot qadriga?!

O'g'lim, ey, umidim bog'ida nihol,  
Yorug' peshonangni o'pib silayman.  
Shu aziz boshingga eng nurli xayol,  
Qalbingga eng toza hislar tilayman.

Ulg'ayarsan, yigit bo'larsan bir kun,  
Ortda qolar yoshlik, o'yin, ermaklar.

Olamni yelkada ko'tarmoq uchun  
Dunyoga keladi, bilsang, erkaklar.

Ertangi kuningni o'ylab shu paytdan  
Borliqni quvonchim bilan o'rayman.  
Seni menga bergan bu tabiatdan  
Sening yuragingga olov so'rayman.

Mayli, mushkul bo'lsin sen tanlagan yo'l,  
Tole ham, mayliga, kelmasin oson.  
Faqat odam qadrin bilar odam bo'l,  
Bo'l inson dardini bilguvchi inson!..

1976

## ONA TILIM O'LMAYDI

Notiq dedi:  
"Taqdir shul,  
Bu — jahoniy iroda.  
Tillar yo'qolur butkul,  
Bir til qolur dunyoda".

"Ey voiz, pastga tushgin,  
Bu gap chiqdi qayerdan!"  
Navoiy bilan Pushkin  
Turib keldi qabrdan.

Kim darg'azab,  
Kim hayron,  
Chiqib keldilar qator:  
Dante, Shiller va Bayron,  
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

“Va’zingni qo‘y, birodar,  
Sen aytganing bo‘lmaydi”.  
Barcha dedi barobar:  
“Ona tilim o‘lmaydi”.

— Hey, bu qanday aqida! —  
Qo‘lida tabarruk jom.  
Go‘zal forsiy haqida  
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otashdil  
Beranje so‘rdi nolon:  
— Nahotki, farangi til  
Yo‘qolgusi bir zamon!

Neruda, Lorka turdi  
Servantesning yoniga:  
— Kim qasd etib tig‘ urdi  
Ona tilim joniga!

Fuzuliy yondi:  
— Ozar  
Tili guldek so‘lmaydi.  
Barcha dedi barobar:  
“Ona tilim o‘lmaydi”.

Kamalakdek rango-rang  
Bo‘lsin deb san‘at, tillar,  
Asrlarcha qildik jang,  
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo‘lsa, nahot,  
Tillardagi tarovat!  
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,  
Qabrlarda halovat!

“Faust” yondi gurillab,  
“Xamsa” o‘tga tutashdi.

Bir sado jahon bo'ylab  
Taraldi, tog'lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,  
Sira ado bo'lmaydi.

Olam aytar:

Hech qachon

Ona tilim o'lmaydi!

1976

## BIR QADAM

Ikkimizning o'rtamizda  
Yo'l, diloro, bir qadam.  
Shunchalar mushkulmi qo'ymoq  
Senga, zebo, bir qadam.

Ko'zlarimning nuri bo'ldi  
Yo'lga poyandoz, kel,  
Sen qasam ichdingmi yo, deb —  
Qo'ymam aslo bir qadam.

Men seni Zuhro-yu Oy deb  
Iltijo qildim va lek,  
Sen yiroqsan, garchi menga  
Oy-u Zuhro bir qadam.

Parda ichra oftobim,  
Yonida men nurga zor.  
Tashnaman, qirg'oqdadurman —  
Bunda daryo bir qadam.

Ne ilojkim, sevgi rasmi  
Shul ekan taqdir azal,  
Hech pisand ermas masofa,  
Mushkul ammo bir qadam.

Intizorlik telba qildi,  
Telbalikka yo'q iloj.  
Jonidan kechgan kishiga  
Ikki dunyo bir qadam.

Bas, shikoyat qilma, Erkin,  
Jur'at aylab yo'lga chiq.  
Senga bir odim Samarqand,  
So'ng Buxoro bir qadam.

## FURSATING

Fursating yetmaydi doim,  
Hech qachon yetgan emas.  
Mehnating bitmaydi doim,  
Hech qachon bitgan emas.

Chun zamondek bepoyondir  
Ko'ksing ichra orzu,  
Fursat-u orzuni quvlab  
Hech kishi yetgan emas.

Intil'ar borliqni inson  
Barkamol etmoq uchun,  
Ne ajab, insonni borliq  
Barkamol etgan emas.

Menda na borliq xayoli,  
Menda na yo'qliqqa g'am,  
Manglayimga chunki she'rdan  
O'zga zar bitgan emas.

Vaqt kelar, mehnat bitar,  
Bo'lg'usi vaqt ham bemalol,  
Chunki u dunyoga hech kim  
Ish olib ketgan emas.

1976



## YOSH SHOIRLARGA

*“Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...”*

**Hamid G‘ulom**

Katta shoirlarga qilmangiz havas,  
Sizga havas qilsin katta shoirlar.  
Chunki she‘r baxtiga ustozlar emas,  
Muyassar bo‘ladi ko‘proq shogirdlar.

Hali yoshsiz,  
Hali she‘ringiz g‘o‘ra,  
Elning nazaridan hali yiroqsiz,  
Lekin yurtga mashhur shoirdan ko‘ra  
Bilingki, yuz chandon siz shoirroqsiz.

She‘r sizga havasdir,  
Hali emas ish.  
Siz she‘rga sidqidil ko‘ngil berganlar.  
Ov chog‘i o‘zini qilmay namoyish,  
Panada bo‘ladi doim merganlar.

Tanholik — shoirga dil ehtiyoji,  
Xayolga oshnolik — buyuk baxtingiz.  
Qo‘ngach boshingizga shuhrat gultoji,  
Tashbeh izlamoqqa qolmas vaqtingiz.

U payt ko‘p bo‘ladi hamdam-u jo‘ra,  
Obro‘, martabada yuksak bo‘lasiz.  
Siz unda daftar-u qalamdan ko‘ra  
Majlislarga ko‘proq kerak bo‘lasiz.

Qayerga bormangiz, ana shoir, deb  
El kuzatar har bir qadamingizni,

Siz inson qalbini o'rganmoq qolib,  
O'rgana boshlaydi odamlar sizni.

Bir kun omadingiz kelsa, ne ajab,  
(Omad degani ham bor-ku dunyoda)  
Donishmand odamlar aytar:  
Bu ne gap,  
Nahot, shunday odam yursa piyoda!

Amaldor bo'lasiz,  
Kursingiz baland,  
Xizmatingiz qilar mashina har kun.  
Tongda olib ketib mag'zingiz bilan,  
Po'chog'ingiz tashlab ketar kechqurun.

Bir marta tushgansiz elning ko'ziga,  
Endi ko'zdan nari ketmaysiz bir dam.  
Faxriy a'zo qilar sizni o'ziga  
Kalamushtutarlar jamiyati ham.

Beorom qushlardek siz uchib-qo'nib,  
Hay'atdan hay'atga parvoz etasiz.  
Tunlar she'r qalamin ohista yo'nib,  
Ertangi majlisga doklad bitasiz.

Sizda har narsa bor,  
Yo'q sizda yo'g'i,  
Yetgansiz, harqalay, tilagingizga.  
Lekin yozilmagan she'rlarning cho'g'i  
Kul bo'lib to'kilar yuragingizga.

Bir kun tongda  
Oppoq sochingiz tarab,  
Dilingiz shogirdlik vaqtin qo'msaydi.  
Aytasiz havaskor o'smirga qarab:  
"Oh, sening yoshliging menda bo'lsaydi..."

Katta shoirlarga siz qilmang havas,  
Sizga havas qilsin katta shoirlar.  
Chunki she'r baxtiga ustozlar emas,  
Muyassar bo'ladi ko'proq shogirdlar.

1977

## BONG URING

Bong uring,  
hammani  
uyg'oting,  
Bong uring,  
shahar-u  
qishloqda.  
Hayajon  
    ko'taring,  
to'p oting,  
O't ketdi,  
    hamma yoq  
yonmoqda,  
Ovozlar  
boricha  
baqiring,  
Odamlar!  
    Yo hayot,  
        yo mamot!

Sim qoqing!  
    "Nol bir"ni chaqiring:  
Yong'in, deng,  
kerak, deng,  
tez najot!  
Dod soling,  
ne kechar holimiz,

Alamdan  
jonimiz  
qiynoqda.  
Olamda  
topilmas  
molimiz —  
Vaqtimiz  
yonmoqda,  
yonmoqda.  
O'rmonlar  
yonsa-ku  
chopamiz,  
Tinmaymiz,  
o'rtansa  
xirmonlar.  
Chorani  
qayerdan  
topamiz  
Umrga  
o't ketsa,  
insonlar!  
U yonar,  
biz majlis  
qilamiz,  
Tamaki tutuni  
dimoqda.  
Shu tutun  
ichida,  
bilamiz,  
Baxtimiz  
yonmoqda,  
yonmoqda.  
Bir yonda  
biz topib  
ulgurmay  
Ming-minglab

savolga  
javoblar.  
Hatto biz

varaqlab ham ko'rmay,

Javonda  
yonmoqda  
kitoblar.  
Kechagi  
ayshdan bosh  
zirillab,  
O'rinda  
yotibmiz,  
bir yoqda  
Stolning  
ustida,  
gurillab,  
Ijod-u  
kashfiyot  
yonmoqda.  
Raygazda  
eshikka  
bitilgan:  
"Bir uchqun —  
dahshatning  
sababi!"  
Shu yerda  
portlashga  
etilgan,  
Yonmoqda  
insonning  
asabi.  
Kechalar,  
ko'chalar  
charog'on,  
Yozuvlar  
elektron

chiroqda.  
O't bilan  
o'ynashmang,  
o't yomon,  
Aslida,  
bu dunyo  
yonmoqda.  
Biz esa  
qilurmiz  
tomosha,  
G'ov qo'ymay  
yong'inning  
yo'liga.  
Kim berib  
qo'yibdi  
beparvo  
Gugurtni  
bolalar  
qo'liga.  
Bong uring,  
hammani  
chaqiring,  
Bong uring,  
shahar-u  
qishloqda.  
Ovozlar  
boricha  
baqiring,  
O't ketdi,  
hamma yoq yonmoqda.  
Odamlar,  
uyqudan  
uyg'oning,  
Shoshiling,  
qidiring  
tez najot.

Jon kuysin,  
qalb yonsin,  
siz yoning,  
To yonib  
                    ketmasin  
bu hayot.

1977

### ARMON

Kecha kerak bo'lding,  
Bolalik chog'im!  
Senga qo'l uzatdim,  
Yo'q,  
Yetolmadim.  
Oshkora g'irromlik qildi  
O'rtog'im, —  
Men: bor, o'ynamayman,  
Deb ketolmadim...

1977

### QALAMHAQI VA OYLIK

— Shoir, nega ko'nmasdan  
She'rdan kelgan boylikka,  
Erta-yu kech tinmasdan  
Ishlayapsan oylikka?

— Chunki oylik hamxona  
Yordek sodiq oshnodir.  
Qalamhaqi — jonona  
Qizlardek bevafoadir.

1977

## UCH BAYT

\* \* \*

Agar do'sting bilan teng ko'rsang baham,  
Shodlik teng ko'payar, teng bo'linar g'am.

\* \* \*

So'zlaganda, oqil, dilingga jo qil,  
Ammo o'z dardingga o'zing davo qil.

\* \* \*

Qo'rquvning ko'zi katta, yuragi kichik bo'lur,  
Qo'rquv zo'r kelgan yurtda arslonlar kuchuk bo'lur.

1977



## ARUZ VA BARMOQ

Ikki she'r  
Daftarning ikki betida,  
Bir yonda — aruziy,  
Bir yonda — barmoq.  
Dastxat bir,  
Imzo bir she'rlar ketida,  
Lek, ajab,  
Hamisha qilurlar nifoq.  
Aruziy barmoqni  
To'pori, deydi,  
Sen pastsan, men sendan  
Yuqori deydi.  
Barmoq uni ko'hna,  
Xarobasan, der,  
Parvozlarda  
Arobasan der.  
Men esam  
O'tmish-u kelajakaro  
O'rta yo'lda qolgan bechoradirman.  
Ular yuragimda  
Qilsa mojaro,  
Kelishtirmoq bilan ovoradirman.

1977

## AUKSION

— Kep qoling, yutadi ish bilgan! —  
Birjada qaynaydi ehtiros.  
Ulgurji savdoga qo'yilgan  
Ikkita g'unajin, bir novvos.  
Charx urib aylanar  
Maydonda,  
Sharaqlar kovboyning qamchisi.  
— Kep qoling! Olmagan armonda, —  
Chaqirar bozorning jarchisi.  
Biznesmen labida sigara,  
Qo'lida titraydi chek qog'oz.  
— Kep qoling, opqoling, mol sara! —  
Birjada qaynaydi ehtiros!  
Yonadi xaridor ko'zlari,  
G'animat har lahza, har bir on.  
Quloqda jarchining so'zlari,  
Yurakda hayajon, hayajon!  
Lovullar elektron chiroqlar.  
Auksion turfa bir jahondir.  
Savdoga qo'yilgan buzoqlar  
Bu jahon ishiga hayrondir.

1977

## ARSLON O'RGATUVCHI

*Vankuver tomoshagohida*

Panjarada  
Olov halqa yonar charsillab,  
Arslon uzra —  
Uzun qamchi o'ynar qarsillab.  
Yoldor yirtqich  
Egasiga sovuq tikilar,  
Na'rasidan  
Tomoshagoh larzaga kelar:  
— Ojiz odam!!!  
Bas, boshimda qamchi o'ynatma!  
Ko'ksimdagi  
Uxlab yotgan hisni qo'zg'atma!  
Haddan oshma!  
O'z boshingga o'zing yetarsan,  
Etlaringni  
Nimta-nimta qilsam, netarsan!  
Ko'rib qo'y,  
Bu panjalarni siynangga solsam,  
Shuhratparast yuragingni  
Sug'urib olsam,  
Yiltiragan badaningdan  
Tirqiratsam qon,  
Najot bermas —  
Senga qarsak chalgan olomon.  
Bor!  
Olovdan sakramasman!  
Bo'lma ovora!  
Bilasanmi —  
Men kimman-u sen kim, bechora!  
Men — to'qaylar shohi,

Tutqun bo'lsam-da agar,  
Sen-chi, — no'noq masxaraboz,  
Pastkash bozingar!  
Shuhratga mast,  
O'z holini bilmagan basir!  
Nomard taqdir  
Meni qildi qo'lingga asir!  
Halol kuchga zavol bergan,  
Hiylaga qudrat, —  
Meni bandi qafas etgan  
Dunyoga la'nat!  
Ey, ivishiq ko'kragini  
Zavq bilan kerib,  
Sher zotini masxaraboz  
Qo'liga berib,  
Mard holidan  
Rohat olib qilgan xandalar,  
La'nat sizga,  
Tomoshabin, gumroh bandalar!  
Panjarada  
Olov halqa yonar charsillab,  
Arslon uzra  
Uzun qamchi o'ynar qarsillab,  
Yoldor yirtqich  
Egasiga sovuq tikilar —  
O'rgatuvchi  
Asta uning yoniga kelar.  
Qulog'iga bir so'z aytar  
Egib qomatin:  
— Nodon dema,  
Men bilaman arslon qudratin.  
Sen to'qaylar podshosisan,  
Men — bechoraman,  
Hamla qilsang,  
Bir lahzada tilka-poraman.  
Falak ishi —

Bizning bunday turfa sheriklik,  
Menga qamchi,  
Senga qafas berdi tiriklik.  
Sen tantisan,  
Nazdingda men quv, dog'uliman.  
Asli, o'sha tiriklikning  
Sendek quliman.  
Menga nedir olomonning  
Olqish, qarsagi,  
Sening har bir o'tli na'rang —  
Menga tarsaki.  
Netay, men ham egalik qul,  
Boshda xo'jam bor,  
G'azab qilsa,  
Ko'zlarimga dunyo bo'lar tor.  
Menda-ku dard, iste'dod bor,  
Bor andak sehr,  
Hech bo'lmasa, hayvonotga  
Shafqat-u mehr.  
Tomoshagoh egasi kim  
Mening qoshimda!  
Ammo qamchi o'ynatar u  
Doim boshimda.  
Holatimni tushun,  
Isyon qilma, birodar,  
Charx oldida ikkimiz ham  
Asli barobar.  
Garchi arslon o'ynataman,  
Garchi men — Odam,  
Oy so'ngida qand kutaman  
Xo'jamdan men ham.  
Goh jonimdan o'tsa zulm,  
Na'ra tortaman,  
Lekin bundan  
Faqat boshga balo ortaman.  
Bu so'zlarga chidolmadi,

To'lg'ondi arslon:  
— Bo'ldi, bas qil!  
Yuragimni qon qilma, inson!  
O't olsin bu charxi falak  
Rizq-u ro'zini!..  
Arslon olov chambarakka  
Otdi o'zini.

1977

### **ALISHER NAVOIY KEMASI**

Azaliy davrada charx uradi yer,  
Mushtariy azaldek chaqnab turipti...  
Besh asr so'ngida buyuk Alisher  
Bahri muhit aro kezib yuripti.

Tiriklikda charxdan topmagan omon,  
Boshiga g'am gardin yog'dirgan falak —  
Dahr aro tanho-yu, zor-u sargardon  
Qalqib bormoqdadir beorom yurak.

Achchiq to'lqinlarga ko'krak uradir  
Umrida halovat topolmagan jon,  
Jahon ummonida kezib yuradir  
Dolg'ali ham sokin jahoniy ummon.

Ulug'vor bastida o'ychan bir shukuh,  
Kilkidan to'kilgan g'azaldek boqiy,  
Besh asr so'ngida kema bo'lgan ruh,  
Besh qit'a oralab kezar Navoiy...

Hayajon ko'nghimda, hayrat aqlimda,  
Olis qirg'oqdaman — bu nechuk timsol!!!

Yarim ming yil osha o'zga iqlimda  
Bundoq uchrashuvni kim etmish xayol.

Azaliy davrida charx uradi Yer,  
Mushtariy azaldan chaqnab turipti.  
Mahshargacha uyg'oq buyuk Alisher  
Jahon ummonida kezib yuripti.

1977

### **BIR BURDA NON**

Mo'ysafid yo'l uzra bir burda nonni  
Tuproq orasida ko'rdi-yu nogoh,  
Asta qo'lga oldi, o'pdi, bu onni  
"Shiq" etib suratga tushirdi sayyoh.

Bir kuni bu surat olis makonda  
Ro'znomalar aro bo'ldi namoyon.  
Yozdilar: sho'rlik xalq O'zbekistonda  
Mana shunday yashar zor-u notavon.

Kim rad etar surat dalolatini,  
Ishonmay, ne qilsin bexabar olam?  
O'zbek deb atalgan xalq odatini  
Qayoqdan ham bilsin bexabar odam?

Qayoqdan ham bilsin g'ofil odamlar,  
Bir burda non uzra engashgan shu chol  
Kecha osh berganin yetti pud damlab  
Yetmishga yetgani uchun bezavol?

Bu she'rdan maqsadim raddiya emas,  
Yurtim jahon bilgan O'zbekistondir.  
Dasturxonni olam qilgudek havas,  
Lekin non qadri ham unga ayondir.

Men o'sha yillarni eslayman hamon,  
Eslab yuragimga cho'kadi muzlar.  
O'rtada bir bo'lak qora kepak non,  
Ochlikdan ichiga o'tirgan ko'zlar...

Shukrkim, u kunlar olisda qoldi,  
Shukrkim, Vatanim ma'mur va obod.  
Shukrkim, bu yurtda mening avlodim —  
Muhtojlikni ko'rgan eng so'nggi avlod.

Olis ro'znomalar ne yozsalar ham  
Mayliga, yolg'onning umri bir kunlik.  
Och, yupun ellarga biz hamkor, hamdam,  
Chunki bizga ayon ochlik, yupunlik.

Biz yo'qsil bo'lganmiz, yo'qsil bu jahon  
Zahmatini tortib borayotirmiz.  
Ehsonlar yukini bamisli karvon  
Yelkamizga ortib borayotirmiz.

Najot yulduzi deb olam shu bois  
Ko'z tikar tolebaxsh bizning yulduzga.  
Yerdan ushoq topsak biz ham shu bois  
E'zozlab olamiz, surtamiz ko'zga.

1979



## KECHIKISH

Na to'y-u na aza,  
na ish, na bayram,  
Hech qayga,  
hech qachon,  
hech bir holatda —  
Vaqtida kelmagan  
bu sho'rlik odam,  
Bir soat kechikar  
kami, albatta.  
Unda sira ayb yo'q,  
yugurik davr  
Mos kelmadi uning  
sustkash joniga.  
Taqdir kechiktirdi,  
bir soat nadir,  
Kamida bir asr  
o'z zamoniga.

1980

## G'AFLAT

Tabiatga deylik tashakkur,  
Bosh egaylik unga, albatta,  
Noqisligi uchun tafakkur,  
Bo'lganimiz uchun g'aflatda.

Sevinamiz borligimizdan,  
Do'stlar bilan qilamiz huzur,  
Ular o'yi nihondir bizdan,  
Biz bilmaymiz... Shunga ham shukur.

Muqaddasdir biz uchun vafo,  
Tabarrukdir ma'sum ahdimiz,  
Ne ekanin aldamchi dunyo  
Anglamaymiz — bu ham baxtimiz...

Bu dunyodan ketarmiz bir kun,  
Bizga ayon, ammo qay soat?  
Bexabarmiz...  
Odamzod uchun  
G'aflat o'zi buyuk saodat.

1980

## NAYNING QISMATI

Nay dastavval navo bo'lib  
Kirdi dil-u o'ylarga.  
Hamma unga shaydo bo'lib,  
Olib ketdi to'ylarga.  
To'ylarda u qildi nola,  
El undan zavq simirdi.  
Vaqt o'tib nay —  
Kamtar bola  
O'zni qo'ydi, semirdi.  
Bora-bora avvalgidek  
Yonishlari qolmadi.  
Muxlislarning har galgidek  
Olqishlari qolmadi.  
Lekin taqdir uni oshno —  
Qilgan edi kuylarga.  
Sur nay nomin oldi,  
Ammo  
Boraberdi to'ylarga.

Tug'ilsa qay uyda go'dak,  
Xabar topib beshikdan,  
Aytmasa ham aytilgandak  
Kelaverdi eshikdan.

Xotin-xalaj chuvvos qilib,  
Bolalar shod zerikmay,  
Goh g'iyqillab,  
Goh bo'g'ilib,  
Kuylayberdi sobiq nay.

Oxiri u qarib qoldi,  
Bo'g'ildi-yu tomog'i,

Ham ovoz,  
Ham ko'zdan qoldi,  
Bitdi tamom qulog'i.

Lek, baribir,  
Yoshlikdagi  
Iste'dodi uchun ham,  
Halol xizmat,  
Pok yuragi,  
Pok ijodi uchun ham —  
Saqlar uni el nazarda  
Hurmat qilib qo'yadi,  
Karnay katta sayllarda  
G'at-g'at qilib qo'yadi.

1977

### **QALB SHUNDAY UMMONKI...**

Qalb shunday ummonki, uning bag'rida  
Dahshatli dolg'alar silsilasi bor.  
Qalb shunday zaminki, otash qa'rida  
Vulqonlar otguvchi zilzilasi bor.

U bir sayyoradir, Yerdek shafaqgun,  
U bir olamdirki, bilmas nihoya.  
Uni mehvaridan chiqarmoq uchun  
Atom jangi emas, bir so'z kifoya.

1981

## BU KO'HNA HASRAT

“Yo Rab, qandoq kunga qoldik, bu nechuk savdo?  
Odamlarda na shafqat bor, na mehr-u vafo.  
Yigitlarda odob yo'qdir, qizlar hayosiz,  
Xotin zoti kun o'tkazmas bir mojarosiz.  
Qo'yib bersa el bir-birin o'yar ko'zini,  
Ovboshilar esa faqat o'ylar o'zini...  
Dunyo oxir, birodarlar, yo'q endi hayot.  
Kuni kecha tamom bo'ldi oxirgi mamont...”  
Qadim ajdod o'kinch bilan cho'kib soyaga,  
Bu so'zlarni cho'kich bilan yozdi qoyaga.

1981

## MAJLIS QILING

Vaqtingiz bo'sh bo'lsa ham, bo'sh bo'lmasa, majlis qiling,  
Ko'nglingiz xush bo'lsa ham, xush bo'lmasa, majlis qiling,  
Ovchilar, siz otgani qush bo'lmasa, majlis qiling,  
Ahli bozor, sotgani go'sht bo'lmasa, majlis qiling,  
Hech hisobmas, har kuni qo'sh bo'lmasa — majlis qiling.  
Siz biror majlissiz o'tgan kunni kun deb aytmangiz,  
Torting-u homuza, ma'ruza uzun deb aytmangiz,  
Hamma takror etsa bir gapni, nechun, deb aytmangiz,  
Ko'kka vovaylo qilib, garduni dun deb aytmangiz,  
Dod demakka sizda tovush bo'lmasa, majlis qiling.  
Siz ham, ey taftishchilar, majlis sanog'in tekshiring,  
Hamqaror, kun tartib-u hujjat varog'in tekshiring.  
Notiq og'zin tekshiring, some' qulog'in tekshiring,  
Kursi teshgan nozik ul joyda qadog'in tekshiring,  
Gar jarohat unda qo'sh-qo'sh bo'lmasa, majlis qiling.

Ko'rmasin dehqon dala, sozanda soz, shoir qalam,  
Ishchi ham dastgoh yoniga qo'ymasin aslo qadam,  
Ochmasin olim kitob-u qilmasin tajriba ham,  
Kimki gap bilmas, bilar ish, qilsin o'lguncha alam,  
Ish bilarni urgani musht bo'lmasa, majlis qiling.

Gar, mabodo, majlisingiz ertaroq bo'lsa tamom,  
Sizga lozimdir yig'inni uyda ettirmoq davom,  
Xonaga minbar yasang-u yuksaling oliymaqom,  
Masala qo'ymoqqa uyda bir sabab bo'lgay mudom,  
Gaz, qozon yo vanna, yo dush bo'lmasa, majlis qiling.  
Belni bog'lang, bu jahonni to'ldiring qog'oz bilan,  
O'zni aldang, bo'lmaganni bo'ldiring qog'oz bilan,  
Ish bilan shod etmangiz hech, kuldiring qog'oz bilan,  
Kim qog'ozbozlikni suymas, o'ldiring qog'oz bilan,  
O'lmasa u yoki behush bo'lmasa, majlis qiling.  
Siz agar topqir esangiz, na faqat sohib suxan,  
Demangiz majlisni majlis, ot qo'ying turli-tuman.  
Gohi suhbat, gohi hay'at, davra deng, yo anjuman,  
Lahzalik deng, haftalik deng, ne desangiz jon-u tan,  
Nomi ming bo'lgach, faromush bo'lmasa, majlis qiling.  
Vaqt o'tar, soat o'tar, kun oy bo'lur, oy yil bo'lur,  
Kim u o'tgan umriga qarsak chalur, qoyil bo'lur?!  
Fursat eng oliy hakamdur, doimo odil bo'lur,  
Barcha bir kun ul Hakamning hukmiga doxil bo'lur,  
To'plangiz es-hushni, es-hush bo'lmasa, majlis qiling.

1982

1985 — 2000

## OROL

— Orol o'layotir,  
Sir o'layotir,  
O'layotir zahardan tuproq.  
Shoir bunga qarshi ne qilayotir?  
— Shoir daftarida kattakon so'roq.

U faqat qichqirar:  
Bundoq bo'lmaydi.  
Alam bilan yosh to'kar, biroq  
Uning ko'z yoshidan Orol to'lmaydi,  
Faqatgina yer bo'lar sho'rroq...

1987

## JUMADAN QOLGAN ODAM

*(Bid'at tarixidan bir lavha)*

Bu sizga bir hikoya:  
Chorak asr muqaddam  
O'sal yotar edi chol,  
So'nar edi misli sham.  
Uzoq-yaqin qarindosh  
Atrofida bo'lib jam,  
Vido aytar edilar  
Qadlar egik, ko'zlar nam.

Kecha soppa-sog' edi,  
Ey, voh, qismat ekan-da.  
Ajral bo'g'ib turibdi  
Og'zi oshga yetganda.

Falak irodasi — shu,  
Ne qilsin shoʻrlik banda,  
Azal taqdir buyrugʻi  
Barobar hammaga ham.

Ha, oʻlmoq bor muhaqqaq  
Har kimsaning boshida,  
Lekin oʻlmoq savob-ku,  
Paygʻambarning yoshida.  
Yana erta juma kun  
Turgay mehrob qoshida.  
Yaxshi kundan buyurdi,  
Moʻmin edi va hotam.

Kampir taxmonni ochdi,  
Kafanlikni oldilar.  
Erkaklarga toʻn, belbogʻ  
Axtarishib qoldilar.  
Katta uy oʻrtasiga  
Oʻlikka joy soldilar.  
Hovli-yu eshik oldi  
Supurildi zap shinam.

Qori pochcha keldilar  
Darbozadan yoʻtalib.  
Yuvgʻuchi hozir boʻldi  
Boʻyrasini koʻtarib.  
Amma samovar qoʻydi  
Tarashani tutatib.  
Tongdan tumonat kelsa  
Shoshib qolmaslik — shu gʻam.

Qaznoqdan chiqarildi  
Maʻrakaning uni ham,  
Tugib qoʻyildi tayyor  
Domlaning tuguni ham.



Belgilandi hattoki  
Yigirmaning kuni ham,  
Hamma narsa badastir,  
Faqat bitta o'lik kam.

“Puxovoy” ro‘mol bilan  
Xola bog‘ladi belin,  
Xabarlashga boshladi  
Har kim o‘z urug‘ — elin.  
Janjallashib ham oldi  
O‘rtada ikki kelin,  
Alam o‘tgan hiqillab  
Yig‘lar edi: “Voy, dodam!”

Hech kimsaning ishi yo‘q  
Dardga muhtalo bilan.  
Qizlar sandiq bilan band,  
Kampirlar duo bilan.  
Bir vaqt tunni uyg‘otib  
Chinqiriq sado bilan  
Chiroqlari pirpirab  
Kelib qoldi “Tez yordam”.

Hamma suyunib ketdi,  
Deb o‘ylarsiz, bor bo‘ling!  
Yon qo‘shni Jannat bibi  
Doktorning to‘sdi yo‘lin,  
To‘ng‘ich qiz dono bo‘lib,  
Tutdi hamshira qo‘lin:  
“Igna sanchib qiynamang,  
Tayyor yotibdi otam.

U doim oz og‘rig‘-u  
Oson o‘lim tilardi.  
Bobomdek oltmish uchda  
O‘lishini bilardi.

Ayniqsa juma kunni  
Ko'p iltijo qilardi.  
Murodi hosil bo'ldi,  
Oyoq cho'zsin xotirjam".

Doktor quloq solmadi,  
Bo'sh kelmadi hamshira,  
Bo'sh kelmadi, "nol uch"ga  
Xabar qilgan nabira.  
Lipillab turgan u sham  
Shu tun bo'lmadi tiyra.  
O'sal ko'zini ochdi,  
Jumadan qoldi motam.

Ertalab ikki o'g'il  
Ishga ketdi so'ppayib,  
Devor tagida tobut  
Qolaberdi do'ppayib.  
Yurgancha yuraberdi  
Ikki kelin hurpayib.  
Janjalning boisini  
Ikkov ham aytmas, dam-dam.

Yana ko'p juma o'tdi,  
Oy-yillar o'tdi qator,  
Sakson sakkizga bordi  
O'ldiga chiqqan bemor.  
Har yoshiga bir tanob  
Bog' o'stirdi mevazor.  
Yuzni mo'ljallab turar  
Jumadan qolgan odam.

Nabiralar soni ham  
Yuzga bordi, chamasi,  
Har juma chol uyida  
Yig'iladi hammasi.

Kelar doktorni quvgan  
Xonadonning ammasi,  
Kulib-kulib eslashar,  
Har juma bo'lar bayram.

Mana, yashab yuripti,  
Umri ekan ziyoda.  
Uni o'ldi deganlar  
Ko'plari yo'q dunyoda.  
Jannat bibi jannatga  
Ketdi bultur javzoda,  
Qorini o'n yil burun  
Olib ketgan zotiljam.

Baqar yili tuproqqa  
Qo'rgan go'rkov do'stini,  
Chol o'zi to'g'rab bergan  
Yil oshining go'shtini.  
Qadrondan yodgor deb  
O'z qabrining ustini  
Gul qilib, tiklab qo'rgan  
Kichkina sag'ana ham.

Chol aytar, oltmish uch ne,  
Sakson sakkiz nimadir,  
Umr go'yo daryodan  
Suzib o'tgan kemadir.  
U sohilga yetmoq bor  
Payshanbadir, jumadir,  
Lekin jadallashtirish  
Bunda ne kerak, bo'tam?

Shoshmanglar, u dunyoni  
Ko'rdim, uncha yoqmadi,  
Ravzayi Firdavs ichra  
Obi kavsar oqmadi.

Kampirim durust ekan,  
Hurlar menga boqmadi.  
Arazladim, qaytvordim  
To'g'ri kelmadi Eram.

Bolalarim, so'nggi gap:  
"Yotib qolsang, yot kuymas,  
Bir-birovni avaylang,  
O'lgan bilan yer to'yimas.  
Endi siz o'ltiringlar,  
Men havoda bir nafas..."  
Der-u o'midan turib  
Bog' sari qo'yar qadam.

1987

\* \* \*

Kajfe'l, kajraftorlar tarbiyasiga  
Kajdumlar qismati ibratdir ayon.  
Jaholat avjida o'z miyasiga  
Nish urib qo'yadi ba'zida chayon.

1988

## YAXSHIDIR ACHCHIQ HAQIQAT

Yaxshidir achiq haqiqat,  
Lek shirin yolg'on yomon.  
Ul shirin yolg'onga mendek  
Aldanib qolg'on yomon.

Umrimiz aldoq jahonda  
Aldanib o'tgay va lek  
So'nggi qiynalg'on yomondir,  
So'nggi qiynalg'on yomon.

Aytgali achchiq azobing  
Bo'lsa dildosh yaxshidir,  
So'z demay o'tli alamni  
Joningga solg'on yomon.

Jonga solg'on ham na sozdir,  
Elga so'ylab men kabi.  
Shoiri devonayi ishq  
Nomini olg'on yomon.

Gar qilich kelsa boshingga,  
Qo'rqma, Erkin, rostni ayt.  
Yaxshidir achchiq haqiqat,  
Lek shirin yolg'on yomon.

1988

## UYATCHANLIK

Bu qaltis dard,  
Ziyrak bo'ling,  
Belgilari ayondir:  
Bosh sal egik, qo'l ko'krakda,  
Til chuchuk, yuz alvondir.

Ularga ko'p duch kelganman,  
Ko'nglim darhol sezadi.  
Uyatchanlar odob bilan  
Yuragimni ezadi.

Mana, unga qarang!  
Xushro'y,  
Mo'mingina boladir.  
Poraxo'rmas, qo'lingizni  
Qaytarolmay oladir.

Do'kondor ham ko'p uyatchan,  
Qizil qog'oz qasdida  
Bosh ko'tarmas.  
Ikki ko'zi  
Peshtaxtaning ostida.

Bu — otadir,  
Aslida, u  
Otalikka yarolmas.  
Dada, deya chopib kelgan  
Bolasiga qarolmas.

Hamkasbim bor —  
Sohib ziyo,

El dardini tuyolgan.  
Lekin haq soʻz aytmoqqa u  
Kattalardan uyalgan.

Bu amaldor koʻtarilgan  
Kimlargadir suyalib.  
Tramvayda yurmaydi hech  
Xaloyiqdan uyalib.

Unga sira ish tushmasin,  
Bagʻring qonga boʻyalar.  
“Xoʻp” degani tortinadi,  
“Yoʻq” degani uyalar.

Muloyim zot sehrgardir,  
Naqd qurboni boʻlasiz.  
Kulib turib pichoq ursa,  
Rahmat aytib oʻlasiz.

Uyatchanlik ega shundoq  
Kishi bilmas quvvatga.  
Bir uyatchan butun elni  
Qoʻya olar uyatga.

Biz ulardan kulsak, ichda  
Ular bizdan kuladi.  
Bu kasalni yoʻq qilmasak,  
Juda uyat boʻladi.

1988

\* \* \*

Amaldorlar talashib o'rin,  
Bir-birining quritar sho'rin.

Tentak bermay tentakka to'rin,  
Quritadi tentakning sho'rin.

Shaxmatchilar izlashib zo'rin,  
Bir-birining quritar sho'rin.

Olim topib olimning g'o'rin,  
Kasbdoshining quritar sho'rin.

Qassoblar-ku hammadan burun  
Tanishining quritar sho'rin...

Shoirlar-chi? Berib qalb qo'rin  
She'r yozmoqning o'rniga, ko'ring —

O'lmay turib talashib go'rin,  
Bir-birining quritar sho'rin.

1988





Inson fe'li ajabdan ajab,  
Yo'qdir unga mezonisiz olam,  
Yulduzlarni o'lchar botmonlab,  
Qarichlaydi cheksizlikni ham.

O'zi ega, o'zi qul mangu  
O'zi topgan aqidalarga.  
Ne dey, hatto mangulikni u  
Bo'lib chiqqan daqiqalarga.

Daqiqadan soatlar yig'ib,  
Kunlar tuzib oy jam qiladi.  
Yig'lamaydi umr o'tdi deb,  
Yil o'tdi deb bayram qiladi.

Ko'paysa-da, ajinlar harchand,  
Oqarsa-da, yillardan boshi,  
Quvonadi — ko'paydi farzand,  
Sevinadi — ulg'aydi yoshi.

Bu tugamas orzu-havasda  
Bor umidbaxsh imonga asos.  
Inson o'lmas.  
Asta va asta  
Farzandlarga o'tadi, xolos.

1989

## XALQ NOIBLARIGA

Sizni xalq tanladi,  
Qilmadi suyak,  
Balki yelkangizga yuk ortdi buyuk.  
Saylab oldi mardlar ichra mardini,  
Ado qilasizmi mardlik shartini?  
Erta chiqqan chog' baland minbarga,  
Ayta olasizmi yurtning dardini?  
Azaliy odatni qilasizmi yo,  
Yalpi qo'l ko'tarib kelasizmi yo?  
Noiblik nishonin taqqach ko'krakka,  
Quloq solib ko'ring bir bor yurakka.  
Ul yurak tubida el g'amidin g'am,  
Dog'idin ko'ngilda dog'ingiz bormi?  
Agar kerak bo'lsa Prezidentga ham  
E'tiroz qilmoqqa chog'ingiz bormi?  
Ayni jasoratni kutar muhaqqaq  
Sizga umid bilan ovoz bergan xalq.  
Xo'p deb qayta bermang, nega, deb ayting,  
Biz ham izzat nafsga ega deb ayting.  
Himmat bilan turing, bor deng arzimiz,  
To'lab qo'yaylik deng, bo'lsa qarzimiz.  
Do'stlikning shartiga rioya bo'lsin,  
Hech g'ubor tushmasin dil ko'zqusiga.  
Kamtar ulushimiz, ayting, qo'yilsin  
Jahon bozorining tarozusiga.  
Ne bu jahon uzra solmak ko'pkari  
Shart esa ketmaslik qoziqdan nari.  
Asli, inqilobdan ne edi maqsad?  
Yo'qsillikmi abad, xorlikmi abad?  
"Yo'qsillar, birlashing" deb hayqirgan on,  
Nahot, yo'qsil bo'lsin dedik bu jahon?

Fe'limiz shunchalar tormi deb so'rang,  
Bu mulkning egasi bormi deb so'rang!  
Siz yolg'iz o'zbekning dardin aytmangiz,  
Azaga borgandek yig'lab qaytmangiz.  
Axir Estonda ham o'sha og'riqdir,  
Rus qishlog'i dardi bizdan ortiqdir.  
Yerda qiladigan ishimiz ko'p, deng,  
Hadeb otabermang osmonga to'p, deng.  
Tobakay falakka saroylar qurib,  
Samo poygasida ot surajakmiz.  
Qultum toza suvga zor bo'la turib  
Zarimizni ko'kka sovurajakmiz?  
Tobakay milliardlar eldan beizn  
Harbning arig'iga oqishi kerak?  
Bizni bosib olmas kapitalizm,  
Bosib olsa, axir, boqishi kerak!  
Sizga gap o'rgatmak shoir ishimas,  
Har biringiz Arbob, har biringiz Shaxs!  
Dardni aytgan bilan dil bo'lmas xalos,  
Gapni ko'p gapirdik, ish qoldi, xolos,  
Qarorlardan bo'ldik, ilojlar kerak,  
Hasratlardan to'ydik, rivojlar kerak.  
Sizni el tanladi,  
Qilmadi suyuk,  
Balki, yelkangizga yuk ortdi buyuk.  
Siz elning egilgan qaddin ko'taring,  
Noib degan nomning qadrin ko'taring.

1989

## SHOHLAR ORZUSI

Amal tegmaganlar ichidan bo'zlab,  
Martaba zavqini totsam, der ekan.  
Amalga minganlar yuksakni ko'zlab,  
Qadamni kattaroq otsam, der ekan.

Sardor vazirlikni har kun tush ko'rib,  
Vazir iloj topsa shohni o'ldirib,  
Yarim kun bo'lsa ham taxtga o'ltirib,  
Shon-shavkat ganjiga botsam, der ekan.

Shoh nima istaydi, unga nima kam?  
Ulus g'avg'osidan boshi to'la g'am,  
Tinch kulba bo'lsa-yu yovg'on ichsam ham  
Biror dam xotirjam yotsam, der ekan.

1990

## SHE'RIYAT

Sen ey umrim nahoridan  
Aziz-u oshino menga,  
Sahar cho'lponidek jozib  
Sochibdirsan ziyo menga.

Hayot ichra hayot bo'lding,  
Qanot bo'lding, najot bo'lding,  
Keturdning ham safo menga,  
Yeturdning ham jaf o menga.

Sehrli may uzatding sen,  
Dilim tinchin yo'qotding sen,  
Meni o'tlarga otding sen,  
Bu ne g'aybdin jazo menga.

Yoniq jonim aro jonlar  
Qilur faryod-u afg'onlar,  
Mudom ko'ksimda isyonlar  
Bo'libdir yuz balo menga.

Dilim charchab xatolardan,  
El ichra mojarolardan,  
Qochar bo'lsam, nizolardan  
Yana sen oshino menga.

Himoyatsiz zamon ichra,  
Xaloskor bo'l bu jon ichra,  
Vafo qilmas jahon ichra  
O'zing qilg'il vafo menga.

O'tar g'avg'oli bu onlar,  
Kelar osuda davronlar,  
Zakiy erkin g'azalxonlar  
Berar bir kun baho menga.

*1991*

## BIZLAR ARRA TORTMOQDAMIZ

Bizlar arra tortmoqdamiz,  
Arramizning tishi yo‘q.  
Nega arrang tishi yo‘q, deb  
So‘raydigan kishi yo‘q.

Chunki bizlar anoyimas,  
Pishib ketgan ko‘zimiz.  
Arra tushgan o‘sha shoxda  
O‘ltiribmiz o‘zimiz.

1991

## MATMUSANING QISHLOG‘I

Donishqishloq degan joy  
Bordir bizning tomonda.  
O‘sha qishloq ahlidek  
Dono xalq yo‘q jahonda.  
Jo‘yak tortib tomiga  
Makka ekkan o‘shalar.  
Kalishini perronga  
Yechib ketgan o‘shalar.  
Yuz qop ganchni bir yo‘la  
Suvga qorgan u yerlik.  
Echkini sartaroshga  
Olib borgan u yerlik.  
Ko‘rib minoralarni  
O‘sha yerlik ulug‘lar  
Degan: “Bular teskari  
Turib qolgan quduqlar”.

Tomdan boshlab uy qurmoq  
Bo'lib tikkan havvoza,  
Devori yo'q hovliga  
O'rnatgan ham darvoza.  
Oyga chiqmoq yo'li bor,  
Juda oson degan ham,  
Temir yo'lni ko'tarsa,  
Tayyor narvon degan ham.  
Mashinasi bor turib  
Minib yurgan xachirga,  
Xizmat qilgan "Volga"si  
Eshakka yem tashirga.  
Pashshaga sopqon otgan,  
Qopqon qo'ygan chivinga,  
Almashtirgan sarrofdan  
O'tgan kunni indinga.  
Oy nuriga xum tutib,  
Umid qilgan pishloqdan —  
Sohibxayol farishta  
O'sha Donishqishloqdan.  
Donishqishloq qayerda?  
O'zimizning tomonda.  
O'sha qishloq xalqidek  
Dono xalq yo'q jahonda.  
Aql ko'plik qilsa, bosh  
Yoriladi deb halak —  
Boshlariga donolar  
Kiyib yurar chamberak.  
Sodda demang ularni,  
Ular sodda bo'lmaydi.  
Kuldirsa ham sizlarni,  
O'zlari hech kulmaydi.  
U mashhur Aldarko'sa,  
Kalko'saning qishlog'i.  
O'zimizning qahramon  
Matmusaning qishlog'i.

Kitob bo'lar ta'rifi,  
Yozsa ming bir sahifa.  
Donishqishloq ahlidan  
Tinglang uch-to'rt latifa...

*(Yil keltirilmagan)*

## **MATMUSANING QALPOG'I**

Qalpoq oldi Matmusa,  
Qalpoq desa — qalpoqday.  
Uni kiyib Matmusa,  
Yigit bo'ldi chaqmoqday.  
O'nta qo'yga arziydi,  
Yaraqlashi bir jahon.  
Bir qarasang — suvsardek.  
Bir qarasang — olmaxon.  
Qalpoq emas — ertak u,  
Qalpoq emas — tilla toj!  
Qo'ying-chi, restoranda  
Yuvmasa hech yo'q iloj.  
Kirdilar, o'ltirdilar,  
Buyurdilar araqni.  
Dono Matmusa uchun  
Ichdilar bosh qadahni.  
Qalpoqqa teri bergan  
Suvsar uchun ichdilar.  
Shunday qalpoqni sotgan  
Ovsar uchun ichdilar.  
Eslanmagan qishloqning  
Itigacha qolmadi.  
Maqtalmagan qalpoqning  
Ipigacha qolmadi.  
Xo'p ichdilar o'ylamay  
Hisob-kitob qilmoqni.  
Oxirida pul yetmay,  
Topshirdilar qalpoqni.



## MATMUSANING LAGANI

Matmusavoy shahardan  
Lagan olib qaytardi.  
Yo'l-yo'lakay o'y surib,  
O'z-o'ziga aytardi:  
Bu laganni ko'tarib  
Olib borsam qishloqqa,  
Xotin uni, albatta,  
Idish qilar pishloqqa.  
Tiyib bo'lmas hech qachon  
Bola-chaqa deganni.  
Ular pishloq talashib  
Sindirishar laganni.  
Shunda izlab chegachi  
Men notavon bechora,  
Qayta kelib shaharga  
Bo'ladirman ovora.  
Mashoyihlar gapi bor  
Ish ko'zini bil, degan.  
Har yumushda ertaning  
Hisobini qil, degan.  
Nima qilsam ekan deb,  
Bir dam o'yga toldi u.  
So'ng laganni sindirib,  
Chegalatib oldi u.  
Shunday qilib, uyiga  
Qaytdi og'zi quloqda.  
Hamma uning aqliga  
Qoyil qoldi qishloqda.

## MATMUSANING CHARXPALAGI

Polvon edi Matmusa,  
To'rt fil kuchi jam edi.  
Qishloqda eng zo'r, ammo  
Aqli bir oz kam edi.  
Matmusani shundan hech  
Ko'zga ilmas edilar.  
Qo'rqsalor ham undan, hech —  
Hurmat qilmas edilar.  
Bir kun dedi Matmusa,  
Shunday kuchga egamen.  
Shuhratim yo'q el aro,  
Beobro'man nega men?  
Ot ko'tardim tish bilan,  
Kuldi faqat odamlar.  
Arzimagan ish bilan  
Topdi hurmat odamlar.  
Men ham aqlim ko'rsatib  
Hayron qilay hammani.  
Dono bo'lib bir o'zim,  
Nodon qilay hammani.  
Bo'z ariqda ko'p zamon  
Bor eski bir charxpalak.  
Ko'ribdiki, bir tomon  
Aylanar u g'ildirak.  
Balki, ming yil narida  
Aylangandir shu yo'sin.  
Matmusaning davrida  
Yangilik bir ish bo'lsin.  
Turdi bir oz o'y surib,  
Yurdi shaxdam ilgari.  
Charxpalakni sug'urib

Shartta qo'ydi teskari.  
Bu ijoddan el darak  
Topdi sahar pallada.  
Jadal chopar charxpalak,  
Lekin suv yo'q dalada.  
O'ylar ahli ulamo  
Tuzatmoqning yo'lini.  
Mag'rur turar Matmusa  
Belga qo'yib qo'lini.  
Kim charxpalak kosasin  
Yalpoq qilish kerak, der,  
Kim kosaga osma sim  
Qopqoq qilish kerak, der.  
Der idroki eng yuksak  
Qashib turib kallani:  
- Daryoni sal ko'tarsak.  
Sal tushirsak dalani...  
- Yo'q, ish bitmas "sal" bilan!  
Qishlog'imiz erlari  
Charxpalakni gal bilan  
Aylantirsin teskari.  
- Yo'q, kuchimiz ojizroq,  
Qiyinalmasin el joni.  
Teskariga oqizmoq  
To'g'ri bo'lar daryoni.  
Emish, hamon qilar bahs  
O'sha qishloq erlari.  
Charxpalak-chi, suv bermas,  
Aylanarmish teskari.

## MATMUSANING TANDIRI

Matmusaga bir kuni  
Xotini: “Hoy, er, — dedi.  
Hammada bor, menga ham  
Tandir qurib ber”, dedi.  
Pishiq edi Matmusa,  
Boshga qo‘yib qo‘lini,  
O‘ylab topdi eng arzon  
Tandir qurmoq yo‘lini.  
— Dehqonchilik — somon, jun,  
Loy qorishni biladi.  
O‘zi tayyor qolip-ku,  
Nega pul sarf qiladi?  
Loyni qordi, ishlatib —  
Zang ketmon-u paqirni.  
So‘ng oftobga cho‘k tushib,  
Bolalarni chaqirdi.  
Qiyqirishib bolalar  
Atrofida chopdilar.  
Qorni bo‘yni aralash  
Loyshuvoqni yopdilar.  
Bundoq tandir bo‘lmagan,  
Yo‘qdir hech bir kitobda.  
Tandirini Matmusa  
Quritadi oftobda.  
Qotgan sari tanda loy,  
Har bir mo‘yi jimirlar.  
Chig‘anoq qurt singari  
Faqat boshi qimirlar.  
Ko‘p qiynaldi Matmusa,  
Mard emasmi — chidadi.  
Tandir tayyor, endi mard

Undan qandoq chiqadi?  
Pilla yorar kapalak,  
Qil sug'urilar xamirdan.  
Lek Matmusa chiqolmas  
O'zi qurgan tandirdan.  
Yetar yetti qo'shniga  
Uning nola-xonishi.  
Maslahatga yig'ilar  
Qishloq ahli donishi.  
Kim der: Evoh, bechora,  
Kim der: Ko'ring taqdirni.  
Bahs boshlandi — masala:  
Butun olmoq tandirni.  
Oxir dedi bosh hakam,  
Chimirgancha qoshini:  
— Bir chora bor: arralang  
Matmusaning boshini.  
Mayli, dedi Matmusa,  
Rozi bo'lmay netayin.  
Bilmadinglar qadrimni,  
Hammang jinni, betayin.  
Kessangizlar boshimni,  
Men niyatga yetarman.  
Boshim olib bu yerdan  
Biror yoqqa ketarman.

## QIZIQUVCHAN MATMUSA

Oppoq ko'ylak, yangi shim  
Kiyib olib bayram kun,  
Uyga qaytar Matmusa  
Shirin bo'lib kechqurun.  
Qaytar zavqqa qo'shib zavq,  
Ham kuch qo'shib kuchiga.  
Bir payt ko'rsa, allakim  
Simyog'ochning uchiga —  
Qog'oz osib qo'yibdi,  
Ikki qator yozib xat.  
O'qimoqqa Matmusa  
Harchand qilar harakat —  
U tomondan qaraydi,  
Qaraydi bu tomondan.  
Bilmay ketsa ne xat bu,  
Chiqqa olmas armondan.  
Qiziquvchan ishtiyoq  
Unga tinchlik bermasdi.  
Ko'ylakni ham ayamay,  
Simyog'ochga tarmashdi.  
Chiqdi, ko'rdi, o'qidi,  
Kim aqldan ozibdi?  
“Ehtiyot bo'l, simyog'och —  
Bo'yalgan”, deb yozibdi.  
O'qidi-yu tanidan  
Chiqib ketdi muzdek ter,  
Uyga kelib daftarga  
Yozib qo'ydi to'rt yo'l she'r:  
  
“Ey, odamlar, bilishdan  
O'zingizni tiymanglar.  
Qiziquvchan bo'lsangiz,  
Yangi ko'ylak kiyimanglar!”

## MATMUSA — RASSOM

Ko'chma muzey kelibdi  
Bizning Donishqishloqqa.  
Eshitdi-yu Matmusa,  
Shoshib qoldi u yoqqa.  
Ko'rdi borib mo'ylovdor  
Qilich taqqan zotlarni.  
U zotlarning ostida  
Gijinglagan otlarni.  
Ayniqsa, deng, ayollar,  
Qarab-qarab oldi u.  
Boqib ba'zi suratga,  
Surat bo'lib qoldi u.  
Biri biridan qiziq,  
Bir-biridan zo'r, ammo  
Abstrakt san'atga  
Tushunmadi mutlaqo.  
Dedi: shu suratga ham  
Pul to'lashar, hoynahoy.  
Demak, rassom ishi zo'r,  
Demak, rassom juda boy.  
Dedi: san'at kim uchun?  
San'at hamma uchunmi?  
Men ham endi bu ishda  
Sinab ko'ray kuchimni.  
Qat'iyatli - Matmusa,  
U og'ziga so'z oldi.  
Uyga kelib sandiqdan  
Paytavalik bo'z oldi.  
Tog'oraga rang qordi,  
Bo'lsin uchun sozgina.  
Qo'shdi tarnov suvidan,

Qo'y qiyidan ozgina.  
Qo'lcho'pni siz so'ramang,  
Topqirliqdan kamoli —  
Guldek mo'yqalam bo'ldi  
Echkisining soqoli.  
Toldan yog'och kesdi-yu  
Chorcho'pni ham bopladi.  
So'ng u turfa matoga  
Turfa rangni chapladi.  
Qarabsizki, rasm taxt,  
Shartta qo'yib imzoni,  
Olib keldi muzeyga,  
Lol qilgani dunyoni.  
Ko'rinarli joy topib,  
Osdı uni devorga,  
Allaqanday "izm" deb  
Yozib qo'ygan qatorga.  
Ertasiga keldilar  
Mutaxassis xodimlar.  
Ya'ni, o'sha "izm"ning  
Piri bo'lgan olimlar.  
Qaradilar, ko'rdilar:  
Hech tish o'tmas anglarga.  
Kim der: Ko'ring uslubni,  
Kim der: Qarang ranglarga.  
Bu G'arbdagi zo'r usul  
Antirasm, der birovl.  
Primitivizmda  
Yangi oqim, der birovl.  
Xullas, ko'chma muzeydan  
Bu surat ham joy oldi.  
Matmusaga pul chiqib,  
Bitta saman toy oldi.  
Ey, yoronlar, borsangiz  
London, Parij, Rumoga,  
Muzeylarda bir qarang



O'sha tanish imzoga.  
Jilva qilib o'zgacha,  
Bo'y taratib turibdi.  
Matmusa chizgan surat  
Dunyo kezib yuribdi.

1976-1991

\* \* \*

Vatan, to tanda jonim bor,  
                    Seningdirman, seningdirman,  
Tanim hok o'lsa ham sen yor,  
                    Seningdirman, seningdirman.  
Jahon kengdir, falak kengdir,  
                    Yurak kengdir, chu sen borsan,  
Seningsiz ikki dunyo tor,  
                    Seningdirman, seningdirman.  
Menga begona ellarda  
                    nasib gar o'lsa yuz rohat,  
Chekay bag'ringda ming ozor,  
                    Seningdirman, seningdirman.  
Agar shodliklaring ozdir,  
                    Meningdirsan, meningdirsan,  
Magarkim g'amlarim bisyor,  
                    Seningdirman, seningdirman.  
Bugun bor, erta yo'q jismim,  
                    Valek ruhim uchun mangu  
Sening manguliging darkor,  
                    Seningdirman, seningdirman.  
Sening ishqing bilan yondim,  
                    Ketar jonimda bu otash,  
Seningdirman, yana takror,  
                    Seningdirman, seningdirman.

1992

## TILSIM

Ayol xatosidan kulgan xatodir,  
Tortishgan undan ham ulkan xatodir.  
Ayol hech bir bahsda yengilmas tilsim,  
Uni faqat sevib qilurlar taslim.

1994

## MASKANIM FARG'ONADIR

Bu vatanda bir makon bor, men uchun bir donadir.  
Ko'hna Turkiston sadaf bo'lsa, u yer durdonadir.  
Kim parixona deb aytar, kim uchun Parkonadir,  
She'riyat ta'rifida uyqudagi jononadir,  
U mening uyg'oq diyorum o'ktam-u mardonadir,  
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.

Chin parilar maskani, Zuhro-yu Tohirlar yeri,  
Olim-u shoir, hunarmand, fazli nodirlar yeri,  
Ko'p ajib mo'jiza bunyodiga qodirlar yeri,  
Kiftida to'n, belda qiyiq, mard-u bahodirlar yeri,  
Maqtanib yurdim jahonda, menga bu yurt onadir,  
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.

Kechmishing xobimga kirsam, seskanib uyg'onaman,  
Sochi qirqilgan momom faryodidan to'lg'onaman,  
Shoiring yozmish: "Shul aybim — mardumi Farg'onaman".  
Shukrlarkim, bu alam anduhiga begonaman,  
El aro farg'onalikman, deb g'ururim qonadir,  
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.

Maskanim Farg'ona-yu ko'hna Samarqand ham manim,  
Xorazm — faxrim, Namangan mehrim-u jonim-tanim,  
Yoshligim ardoqlagan Toshkent ko'nguldan sevganim,  
Andijon, Surxon, Buxoro, o'z cho'lim, o'z gulshanim,  
Lek, desam Farg'ona, dilda o'zga otash yonadir,  
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.

Mustaqil tinch-u omon yurtim saodat o'lkasi,  
Kelmasin boshiga hech ranj-u balolar ko'lkasi,  
Rizqi but bo'lsin uning, yer ko'rmasin hech yelkasi,  
Yangrasin olamda men hurman degan ozod sasi,  
Bu zamin obi-hayot birla to'lug' paymonadir,  
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.

1995

## DEMANG, SHOIR TINIB KETDI

Demang, shoir tinib ketdi,  
Siyosatga inib ketdi.

Va yo aytmangki, mo'rt toldek,  
Shamollarda sinib ketdi.

Siz, ey lutf bahrida g'avvos,  
U sizni sog'inib ketdi.

Demang, shoir jimib ketdi,  
G'azal yozmay tinib ketdi.

Tinib ketsa, bilingizki,  
Yog'och otga minib ketdi.

1996

## 16-FEVRAL 1999-YIL

Bu dunyoda yaxshi-yomon kunlar ko'rdim,  
O'kinchim yo'q, mayli, yillar qaddim egsin.  
Men hamon bir askaringman, ona yurtim,  
Sen tomonga otilgan o'q menga tegsin.  
Hali komil atolmasman makonimni,  
Bekam odil sanolmasman zamonimni.  
Lek kiprikda saqlayman bu davronimni,  
Bu davronga otilgan o'q menga tegsin.  
Yurtim, olis yo'lga chiqqan karvoning bor,  
Karvoningga posbon uyg'oq sarboning bor,  
El dardida halovatsiz o'g'loning bor,  
Shu insonga otilgan o'q menga tegsin.  
Tong nurisan, vatan, qalbim osmonida,  
Erking azal ajdodlarning armonida,  
Mehring abad avlodlarning iymonida,  
Shu iymonga otilgan o'q menga tegsin.

1999

## O'ZBEK NAVOIYNI O'QIMAY QO'YSA...

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,  
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir,  
Bedil qolib, Demyan Bedniyni suysa,  
Qora sochning malla bo'lgani shudir.  
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,  
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.  
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,  
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.  
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,  
Aldangani, alla bo'lgani shudir.  
Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,  
Paytavaning salla bo'lgani shudir.  
El komil bo'lmasa, yurt emas ulug',  
Beqadr mahalla bo'lgani shudir.  
Qalb to'la nur xalqning rizqi ham to'lug',  
Ombor to'la g'alla bo'lgani shudir.  
O'zbek o'zligini anglasa bekam,  
Uning "Barakalla" bo'lgani shudir.  
Olamga Navoiy nasliman degan  
Ovozi baralla bo'lgani shudir.

*1971-2000*

## TAYYORADA

Parvoz chog'i tayyoraning dilbar kelini  
Ko'k toqini bizga taxti Sulaymon qildi.  
Lekin e'lon o'qiganda o'zbek tilini  
Davlat tili bo'lganiga pushaymon qildi.

*1998*

## YOLG'ON HAQIDA

Gar hakim o'salga tasallo bergay,  
So'zi yolg'on bo'lsa, Oллоh kechirgay.

Ayirilgan do'stlarni qovushtirgan zot  
Aldasa, tadbiri gunohdan ozod.

Xunuk xotiningga ayt, yuzing — oftob,  
Bu asli yolg'onmas, gunohmas, savob.

Rost-u yolg'onlarning hisobi bordir,  
U dunyo, bu dunyo javobi bordir.

Yolg'onchi olamda gunohimiz ko'p,  
Kechiruvchi tanho parvardigordir.

Jahonda yolg'on bor lekin eng yomon —  
Elni jaholatga boshlagan yolg'on.

U xalq yuragiga otilgan o'qdir,  
Unga ikki olam mag'firat yo'qdir.

2000

**O'LMAS EDI BALKI ODAMZOD..**

O'lmas edi balki odamzod,  
Bo'lar edi dunyoga ustun.  
Aqli bo'lsa jahlidan ziyod,  
Sabri bo'lsa nafsidan ustun.

Ajal deya ataluvchi choh —  
Ichra zinhor tushmasdi odam,  
Bo'lsa edi ozgina ogoh,  
O'ylabgina qo'ysaydi qadam.

Ish o'ldirmas, ishkal o'ldirar,  
Jon zavoli yuz yoshmas, ko'z yosh.  
Inson nega dunyodan ketar  
Quvlab unga otmasalar tosh?!

Tahqir zahr-u xanjar ila teng,  
Tuhmat ortiq o'qdan va dordan.  
Inson o'lmas biri birining  
O'lishiga bermasa yordam.

Inson o'lmas o'ldirmasa g'am,  
Makon qilmas qaro turbatni,  
Ko'rsa agar tirigida ham  
O'lganida topgan hurmatni.

Olam to'la fitna, adovat,  
Mangu qolib netar odamzod?  
Bir kun charchab, izlab farog'at  
Tinch dunyoga ketar odamzod.

## VAFO

Qabristonda kecha yog'gan qor  
Mildir-mildir erib yotibdi.  
Go'r ustida bir it ingrab zor,  
Loyga bag'rin berib yotibdi.

Kecha tobut ko'tarilgan dam  
U beorom yugurgan-yelgan.  
Quvsalar ham, tosh otsalar ham  
El ortidan mozorga kelgan.

Otasidan ayrilsa agar,  
Buncha kuymas odam bolasi.  
Yolg'on edi kecha yig'ilar,  
Rost edi shu itning nolasi.

Sovuq tunda qotib, diydirab,  
Qabrga u qo'yib yotdi bosh.  
Erigan qor kabi mildirab  
Ko'zlaridan tinmay oqdi yosh...

Biz insonmiz, sohibi dunyo,  
Qudratlimiz, mag'rurmiz, to'qmiz.  
Sadoqatda, mehrda ammo  
Shu bechora bir itcha yo'qmiz.

2005



## SEN UCHUN

Men hayotda bor ekanman,  
O'ylasam, sen bor uchun,  
Ko'ksim ichra qalb urar  
Tun-kun o'zingga zor uchun.  
Jonga chun sensan tiriklik,  
Jon fido bo'lsin senga.  
To jahonda bor ekanman,  
Borlig'im sen yor uchun.

2006

## NO'NOQ SHOIRLAR

Biz bir zamon muharrir bo'ldik,  
Qismat ekan, bo'ldik noshirlar.  
O'lsak yomon she'rlardan o'ldik,  
Ado qildi no'noq shoirlar.

Qo'lyozmalar o'qirdik dil g'ash,  
Ko'rgilikdan ohlar urardik.  
So'zi chalkash,  
O'zi janjalkash  
She'rbozlardan qochib yurardik.

Yillar o'tdi.  
Tanidik odam,  
Dunyo nadir, qildik tafakkur.  
Endi o'sha tashbihi mubham  
Nozimlarga deymiz tashakkur.  
Ko'p zotlarni ko'rdik,

Alhazar,  
Yoqa tutdik, astag'firulloh!  
Endi bizga eng zo'r bayt yozar  
Valiy bo'lib ko'rinar, billoh!

She'r yo'llasa —  
Hatto sayoz, xom  
Yosh shoir yo havaskor baxshi  
Maqtab-maqtab tilaymiz ilhom,  
She'r yoz, deymiz, yozganing yaxshi.

Seni shoir bilishmasa ham,  
She'ringni chop qilishmasa ham,  
Qofiyasi kelishmasa ham  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Oq qog'ozga qomating egib,  
Oq ko'ngilga umidlar ekib,  
Muharrirlar joniga tegib  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Baxtni uyg'oq tunlardan so'ra,  
Bo'lma kin-u hasadga jo'ra,  
Yumaloq xat yozgandan ko'ra  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Dunyo no'noq she'rga to'lsa ham,  
Munaqqidlar xunob bo'lsa ham,  
Didi nozik o'qib o'lsa ham  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Zinhor-zinhor bu ishdan to'yma,  
Ishqibozlik — umrning naqshi.  
Bizga o'xshab yozmasdan qo'yma,  
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

## **ERKAK BO'L**

Ermisan, erkak bo'l, sanalmas butun  
Bir ayolni baxtli qilmagan erkak.  
Boshimda erim bor, degan so'z uchun  
Ayolni boshingga qo'yishing kerak.

2009

## **BUYUK SADOQAT**

Shoirlarning bari bevafo,  
Qo'shxotinlik bari-barisi.  
Bitta uyda er-xotin aro  
Kundosh yashar — ilhom parisi.

Bir istisno — Navoiy hazrat  
Sadoqati daholarga xos.  
Ustoz ikki paridan faqat  
Bittasini tanlagan, xolos.

2009

## **HAYOT YO'LI**

Zamon tez, fursat oz,  
Har lahza ziqdir,  
Har lahza ziqligi bilan qiziqdir.  
Hayot yo'li nadir? Qabr toshida  
Ikki sana aro qisqa chiziqdir.

2004

## YO'L TADORIGI

Yoshligingda yaxshidir yo'l —  
Yurt kezish, olam ko'rish.  
Keksalik kelgach nasibing —  
Yo'lga boqib o'ltirish.  
Endi manzil hech xarita —  
Ichra nomi yo'q diyor,  
Keksalik — ul mamlakatga  
Yo'l tadorigin ko'rish.

2004

## QIZ BOLANING SEVGISI

Qiz ko'ngliga muhabbat  
Olov solmasin ekan.  
Olloh-olloh, qiz bola  
Sevib qolmasin ekan.

Oshiq yigit devona  
Bo'lsa ham yarashadi.  
Gul ushlab qiz yo'lini  
To'ssa ham yarashadi.

Yigit ishq otashida  
So'zon bo'lsa ayb emas.  
Yigit ishq dunyoga  
Doston bo'lsa ayb emas.

Qiz ko'ngliga muhabbat  
Olov solmasin ekan.

Oллоҳ-оллоҳ, қиз bola  
Sevib қолмасин ekan.

Qiz bolaning poyiga  
Zanjir ekan hayosi.  
Qiz sevgisi sim-sim dard,  
Bo'lmas ekan davosi.

Qiz-u yigit — teng demang,  
Zinhor-zinhor teng emas.  
Qizga olam keng demang,  
Unga olam keng emas.

Qiz ko'ngliga muhabbat  
Olov solmasin ekan.  
Oллоҳ-оллоҳ, қиз bola  
Sevib қолмасин ekan.

Yigitlarga ber, Tangrim,  
Ishqning toj-u taxtini.  
Qiz bolaga ato et  
Sevilmoqning baxtini.

Yigit yonsin, qalbini  
Alanga qil, gulxan qil.  
Qizni guldek yaratding,  
Ko'nglini ham gulshan qil.

Qiz ko'ngliga muhabbat  
Olov solmasin ekan...

2005

## IGNANING HASRATI

Igna aytar emish insonga,  
Qadrimga yet, ko'zni och, dermish.  
Kiyim tikdim jumla jahonga,  
O'zim esa — yalang'och, dermish.

Asli, unga libos nima g'am,  
Bu hasratning sabog'i bordir.  
Shu beminnat ignachaning ham  
Rahmatga zor qulog'i bordir.

2005

## BODOM VA ODAM

Bodom odamga o'xshar —  
Navbahorni suyadi.  
Odam bodomga o'xshar —  
Erta gullab qo'yadi.

2005

## DANGASALAR

G'ayratlilar yelib-yugurib,  
Mehnat bilan mudom ovora.  
Dangasalar esa o'y surib,  
Yotish uchun izlashar chora.

Ishchan azal tinmay yer chopgan,  
O'g'ir tuygan, sovurgan somon.

Yalqov o'ylab charxpalak topgan,  
Ijod qilgan shamol tegirmon.

Parvoz etsam yuksak samoda  
Zamonaviy laynerda bukun,  
Rahmat deyman yorug' dunyoda  
Dangasalar borligi uchun.

Yo'qsa yurar edik hoynahoy  
Hanuz yayov changitib tuproq.  
Xo'b yurtim bor, xayolkashga boy,  
Ishchanidan o'yhani ko'proq.

Rost aytsam, bu mening ham dardim,  
Xolimasman bu kasallikdan.  
G'ayrat qilsam bir kasb topardim,  
Shoir bo'ldim dangasalikdan.

Yotoqchilar holini tushun,  
Ey do'st, bunga chidagan chidar.  
Shaxtalarda uzala tushib,  
Yotib ishlar qora konchilar...

Bizning mehnat shundoq,  
Nima bor —  
Dabdaba-yu as'asalarga.  
Sizlar tinmang, ishlang fidokor,  
Xalal bermang dangasalarga.

2006

## NEGA YAPON YUZ YIL YASHAR?

Nega yapon yuz yil yashar-u  
O'zbek buncha yoshga bormaydi?  
Chunki yapon bizdek qorong'u  
Sahar turib oshga bormaydi.

Ta'ziyada el ko'zi uchun  
Ming kishilik ziyofat qurmas.  
Hayiti yo'q, bel bog'lab uch kun  
Shamday qotib ko'chada turmas.

Garchi bizdan yuz bor farovon,  
Garchi bizdan yuz karra to'qdir.  
To'y xarjida yuzta boy yapon  
Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir.

Bu so'zimni yaponga aytsam  
Dedi battar qisib ko'zini:  
– Yapon bundoq yasholmas hech ham,  
Xarakiri qilar o'zini.

2006



## SOCHILGAN BAYTLAR

Urmas uni nega jin?  
Jindan zo'roq megajin.

\*

Lab cho'zishdan oldin o'pgani,  
Bosib olish kerak o'pkani.

\*

Erinchoq kam yashar, nimaga desak,  
Yashamoq uchun ham hafsala kerak.

\*

Mayli toysam, mayli yorsam bosh,  
Hovlim bo'lsin faqat marmar tosh.

\*

Har berk yo'lning bitta ochiq yo'li bor,  
Unda nafsning uzatilgan qo'li bor.

\*

Bugun so'fi kechagi ko'r, kar ateist,  
Ko'r, kechagi so'fi bugun — karateist.

2009

## QO'LINGNI PARDALAR QILDING...

*Yuzingni bir ko'ray desam  
Qo'lingni pardalar qilding.  
Zavqiy*

Yor yuzini bir ko'rmoqqa zor,  
Faryod qilib o'tdi ustozlar.  
Zamon o'zga endi, o'zga yor,  
Na parda bor, na ishva-nozlar.

Mumtoz shoir qaytsa tirilib,  
O'zga baytlar aytib ketardi.  
Qo'lni yuzga pardalar qilib,  
Zamoniga qaytib ketardi.

2004

## NASIHAT

Baxt arshiga chiqqanning  
Oyog'idan ushlama.  
Xudo yerga tiqqanni  
Kallasiga mushtlama.

2006

## KAMON VA O'Q

Ayol zoti kamon bo'lar, erkak zoti — o'q,  
O'q kamonga ilinadi, boshqa iloj yo'q.  
Kamon o'qni tortib mahkam quchmoq bo'ladi,  
O'q tortilgan sari yiroq uchmoq bo'ladi.

2006

## NARX-NAVO

Navo — qo'shiq, musiqa, ohang,  
Narx ma'nosi baho bo'ladi.  
Narxni ko'rib ashula aytsang,  
O'shanda narx-navo bo'ladi.

2009

## TUXUM KULGIDAN MUHIM

Bir kulgida to'rt tuxum  
Quvvati bor, bilasan.  
Tuxum ye — o'sha muhim,  
Kulib nima qilasan?

Kulgi — kulgi harqalay,  
Tuxum — tuxum har holda.  
Tovuqday qaqoqlamay  
Tuxum yeb qo'yaqol-da.

Dimog'ing chog',  
Nafsing to'q,

Qorning chiqar do'mpayib.  
Zavqi yo'qning dardi yo'q,  
Yuz yil yashar xo'mrayib.

Hamyoningni sol ishga,  
Quymoq yesang bo'ladi.  
Tuxum sotib olishga  
Puli yo'qlar kuladi.

Qiziqchi nima desa  
Desin, ayshing suraver,  
O'zi kulsin, sen esa  
Baqraygancha turaver.

2009

### **SIRNING QANOTI**

Sirni yoymoq bo'lsang, bir og'iz so'z bas,  
Radioda e'lon qilish shart emas.  
Ochmoq ham kerakmas internetda sayt,  
Hech kimga aytma, deb bir kishiga ayt.

2010

### **MUM TISHLAGANLAR**

Biz boshdan kechirgan qattol tuzumni,  
Iloho, ko'rmasin hech kim hech qachon.  
Bunchalar ham qattiq tishlabmiz mumni,  
Og'iz ocholmasdan yuribmiz hamon...

2010

## **HAMISHA O'ZDIK**

Muslim bo'ldik arabdan ortiq,  
O'ris bo'ldik rusdan ziyoda.  
Birni topsak yorug' dunyoda,  
O'n karrani qilganmiz tortiq.

Ichdik, chekdik, sho'ro yurtida  
O'zdik barcha og'alardan ham.  
Yuzsizlikda oshmasak bo'ldi  
Ovropalik tog'alardan ham.

2012

## **BIZNING QISHLOQ ODATI**

Olmon-u, farang-u, xitoy-u arab  
Oyog'in uzatar ko'rpaga qarab.  
Lekin bizning odati boshqa,  
Ko'rpani hammamiz tortamiz boshga.  
Hayrondur farang-u, olmon-u arab  
Bizning ochiq qolgan oyoqqa qarab.

2012

## O'TMISHNI SOG'INISH

Uzun ko'ylak tasqara bo'ldi,  
Odob, hayo masxara bo'ldi.  
Qizlar taqdi kindikka uzuk,  
Ko'rguncha ko'r bo'lganing tuzuk.

Ayol sonin ochib yayradi,  
Er qizarib yerga qaradi.  
Or-nomusga timsol bo'lgan Sharq  
Uyati yo'q G'arbdan qilmas farq.

Buni ko'rib og'rinib ketdim,  
O'tmish!  
Seni sog'inib ketdim.

2013

## SHUNDOQ SO'Z AYT

Shundoq so'z ayt, shoir ukajon,  
So'zing qalblar tubiga borsin.  
Baxtni yozsang, yayrasin jahon,  
G'amni yozsang, dodlab yuborsin.

Shundoq so'z ayt,  
Ko'kka sol jarang,  
Yer yuzini hayratlarga sol.  
Shundoq so'zni topa olmasang,  
Ukajon, she'r yozmay qo'yaqol.

2013

## **MENGA NE QAYG'U!**

Kimdir meni yoqtirmay qolsa,  
O'chirilsa ismim qatordan,  
Ne qayg'um bor!  
Nomlar sanalsa,  
"Va boshqalar" ichida borman.

2014

## **MEGABAYT**

Shovqinni yoqtirmas nega bayt,  
Shallaqini suymas nega jin?  
Mingta baytga teng bir megabayt,  
Mingta jinga teng bir megajin.

2015

# DOSTONLAR

## RUHLAR ISYONI

### Muqaddima

*Tug'algansan ozod, mudom  
Ozod bo'lib qol!*

*Nazrul Islom*

Bu dunyoning  
Quvonchi kam,  
Dard-u g'ami —  
                                    ziyoda,  
Ammo  
                                    g'amdan qochmoqning ham  
Tadbiri ko'p dunyoda.  
Kimning dildosh  
Bor ulfati,  
Dardin  
                                    unga to'kadi.  
Yolg'izlarning bor kulfati  
Dil tubiga  
                                    cho'kadi.  
Kim najotni  
                                    sokin tunning  
Uyqusidan so'raydi.  
Kim g'amini  
Nikotinning —  
Tutuniga o'raydi.  
Dil zahmiga malham topar  
Kim habib,  
Kim tabibdan.



Kim qochmoqqa  
    aylar safar  
G'am atalgan  
    raqibdan.  
Gar bularning  
Yo'q imkoni,  
So'nggi chora etmoq bor.  
Kulfat to'la  
    bu dunyoni  
Shartta tashlab ketmoq bor.  
Lek olamda  
    bir dard borki,  
Unga sira najot yo'q.  
Bu azobga  
    kim duchorki,  
Unga kun yo'q,  
Hayot yo'q.  
Bu mashaqqat  
Ichgan bilan  
Dil tubiga  
    cho'kmaydi.  
Uni hech kim  
    yuragidan  
Hech kimsaga  
To'kmaydi.  
Xalos etmas  
    bitta arqon,  
Nuqta qo'yimas  
Bitta o'q.  
Chidamoqqa  
    yo'qdir imkon,  
Qochmoqqa ham  
Chora yo'q.  
U jon bilan  
    ketsa dildan,  
Sukut qolsa

yurakda,  
Odamzodning  
Ruhi bilan  
Yashayberar falakda.  
Bu —  
shoirning dilin ezgan  
Istibdodning dardidir.  
Yurakdan  
qon bo'lib sizgan  
Iste'dodning dardidir.  
To'lg'og'ida bu alamning  
Tanho ingroq —  
xonish bor.  
Abadiyat  
Jahannamning  
Otashida yonish bor.

### **Abadiyat haqida rivoyat**

Roviy aytar:  
Allazamon —  
Allaqaysi ma'voda  
Falokatga uchrab karvon  
Poyoni yo'q sahroda,  
Bu nogahon  
Tasodifdan  
Barcha o'tib dunyodan,  
Shu tasodif amri  
bilan  
Omon qoldi  
Bir odam.  
Belbog'iga osganicha  
Quruq ko'za —  
suvdonni,  
Kezdi necha

Kunduz, kecha  
Bu dashti bepoyonni.  
Keza-keza

oxir toldi,

Umid uzdi jonidan.

Bir payt

nogoh

chiqib qoldi

Bir chashmaning yonidan.

Yiqilgancha suvga

behol

Lab cho'zganda tashna tan,

To'lqinlandi

birdan zilol,

Sado chiqdi chashmadan:

"Shoshma, yo'lchi,

Ichursan, bas,

Muzdek,

tiniq,

to'laman.

Ammo bilki,

Oddiy suvmas,

Obihayot bo'laman.

Azob chekding ko'p

sahroda,

Mayli,

To'yib ichib ol.

Meni ichgan bu dunyoda

Mangu yashar

bezavol.

Ol, ich,

Yasha davron surib

Abadiy bu dahr aro,

Ammo

Meni ichmay turib

Fikr qilgin avvalo.

Hayotga-ku  
to'yimas ko'zing,  
Yashaysanmi umrbod?  
Mangu hayot uchun o'zing  
Yaraysanmi,  
Odamzod?  
Mangulik der  
odam nasli,  
Lek insoniy tafakkur —  
Abadiyat nadir asli,  
Qila olmas tasavvur".  
Yo'lchi hayron,  
Yo'lchi sergak,  
Bu qandayin chashmadir?  
Ichay desa —  
cho'chir yurak,  
Ichmay desa —  
tashnadir.

Uzoq-uzoq  
O'yga toldi,  
Suv labida o'ltirib.  
Oxir  
Obihayot oldi  
Ko'zasiga to'ldirib,  
O'ylay-o'ylay  
nari ketdi —

Ul sehrli buloqdan.  
Nogoh  
Xazin sas eshitdi —  
Sado keldi yiroqdan.  
Bordi,  
E, voh,  
yotar bir bosh

Qum ustida benajot.  
Nola chekar,  
To'kar ko'zyosh:

“La’nat, deydi, — ey hayot!  
O’sha suvdan ichdim nega  
Afsus!”

der-u

o’kinar.

Yo’lchiga u:

— Rahm et menga,

O’ldir, —

deya o’tinar.

Ming yil avval

Shu buloqdan

Suv ichganman,

cho’nganman.

Yashayverib,

Bu qiynoqdan

O’zni qumga

ko’nganman.

Umr ko’rdim haddan bisyor,

Hech toqatim qolmadi.

Er yuzida

Mening biror —

Hamsuhbatim

qolmadi.

Azob bormi

Bundan ulug’,

Dahshat bormi

ziyoda?

Menga yerda

tiriklik yo’q,

O’lim ham yo’q dunyoda.

Yo’lchi boqdi

Hayratda lol

Tirik inson qabriga,

So’ngra

qumga cho’kdi behol,

Rahmat aytdi sabriga.

O'z holiga  
                  ming shukr etdi,  
Yig'ib so'nggi sabotni —  
Qum ustiga  
To'kib ketdi  
Yo'lchi obihayotni.  
Yo'lchi ketdi  
Bo'lib xoli  
Mangulikning g'amidan.  
Totib qoldi  
Cho'l niholi  
Obihayot namidan.  
Ildiziga uning alhol  
Tomchi etdi,  
Shu faqat,  
Yillar o'tib,  
                  o'sha nihol  
Chinor bo'ldi oqibat.  
Shundan chinor  
Uzoq yashar,  
Shundan chayir tanlari.  
Mangulikdan kechib bashar  
Foniy umr tanladi.

Kel, ey ko'nglim,  
Bizning hayot  
Emas ekan  
                  jovidon,  
Bu dunyoda  
                  izla najot,  
Yasha faqat  
                  shodumon.  
Bu hayotning  
                  yarmi rohat,  
Yarmi g'amdir,

shukr qil.  
Umring uzun bo'lsa —  
rahmat,  
Agar kamdir,  
Shukr qil.  
Shu oftob-u  
Ming bir ohang,  
Ming bir rangli bu dunyo  
Senikidir,  
Hayot esang,  
Hayot esang avvalo.  
Ham shavq bilan,  
Ham dard bilan  
O'tar ekan bu damlar.  
Omon bo'lsin  
Sen anglagan,  
Seni anglar  
odamlar.

## BIRINCHI FASL

### Shoir qalbi

Tun bilan kun,  
O't bilan suv  
Bir-biriga zolimdir.  
Koinotda  
Azal,  
Mangu  
Isyon ruhi hokimdir.  
Zamin uzra  
    qor quyunin  
Yog'dirganda  
    charx-falak,  
Qish qahriga  
    egmay bo'yin,  
Isyon qilar  
Boychechak.  
Qora bulut  
    zulumotga  
Chulg'aganda samoni,  
Chaqmoq —  
    nursiz bu hayotga  
Yorug'likning isyoni.  
Tug'ilarkan,  
    dod der go'dak,  
Ko'ksi to'la fig'ondir.  
Jajji mushti  
Naq g'unchadek,  
Bu — o'limga isyondir.  
Qaro qilgan



Ko'k daftarin  
Qorong'ulik qasdiga  
Tong yig'adi  
                  nur lashkarin  
Shafaq tug'i ostiga.  
Yer-u ummon,  
Burjlar aro  
Gohi oshkor, goh pinhon,  
Ibtidodan  
                  to intiho  
Hukm surar g'alayon.  
Sobir inson yuragida  
Qanoatki barqaror,  
Kosa yanglig'  
Sabr tagida  
Otash yanglig' Isyon bor.  
Kuy,  
                  g'azali  
                                  odamzodning  
Darddir,  
                  ezgu armondir.  
Yaralishdan,  
Iste'dodning —  
Tabiati —  
                  isyondir.  
Shoir yurak —  
Pok tilagi,  
Imonidir basharning.  
Armon to'la  
                  yurakdagi  
Isyonidir basharning.

\* \* \*

Nazrul Islom  
Bu dunyoga

Shoir bo'lib tug'ildi.  
Ilhom otli pok ziyoga  
Go'dak qalbi yo'g'rildi.  
Nigohidan  
Sehrli nur  
Borliqqa nur taradi.  
Koinotga  
    u tahayyur  
Ko'zi bilan qaradi.  
Tunlar unga berdi xayol,  
Shavq atadi  
    kunduzlar.  
Gullar  
    g'azal aytdi xushhol,  
Ertak aytdi  
Yulduzlar.  
Ulg'aydi u,  
O'smir bo'ldi,  
Etdi yigit yoshiga.  
Ishq otli qush  
    kelib qo'ndi  
Yosh shoirning boshiga.  
U ham yondi bag'ri kabob,  
Ham ochildi  
    chun bahor.  
Hijron berdi  
    totli azob,  
Visol etdi  
    baxtiyor.  
Goh shodlik,  
Goh alamidan  
Dil chashmasi ochildi.  
Uning hassos qalamidan  
Ishqiy baytlar sochildi.  
Bu dunyoga  
Nazrul Islom

Shoir bo'lib tug'ildi.

Ibtidodan

yoniq ilhom

Shu'lasiga yo'g'rildi.

Yetti asr avvalgidek

Bo'lsa edi zamonlar,

Balki

Xusrav Dehlaviydek

Bitar edi dostonlar.

Tug'ilsaydi

Shoir agar

Yarim ming yil ilgari,

Bitar edi

ruboiylar

Mirzo Bobur singari.

Agar

Necha zamon o'tib

Kelmasa bu davronlar,

Bedilona g'azal bitib

Tuzar edi

devonlar.

O'zga edi

ammo fursat,

O'zga edi el dardi.

Zamon

uning

Yonib turgan

Yuragini so'rardi.

\* \* \*

Shoirmi

u tug'ilmasdan

Gado qilgan edilar.

O'z yurtida

O'z yurtidan

Judo qilgan edilar.  
O'rab uning  
    naq yurakdek  
Ona Hindistonini,  
Zobitlar  
    oq o'rgimchakdek  
So'rardilar qonini.  
Bir tomonda,  
Yovni emas,  
Bir-birini beomon —  
So'yar edi  
    taqvodan mast  
Hindu bilan musulmon.  
Bir tomonda  
Na uy ko'rib,  
Na bir to'shak,  
    och,  
    xarob,  
Ko'chalarda hayot qurib,  
O'lim topgan behisob.  
Ganga oqar  
    ko'zyosh bo'lib,  
Jamuna lim  
    bo'lib qon.  
Bori butun bardosh bo'lib  
Najot kutar  
Hindiston.

\* \* \*

Har nechakim zo'r iste'dod,  
Toshqin ilhom,  
U nega,  
Xalqing yotsa  
    chekib faryod,  
Yaramasang kuniga.  
Shoir esang,

Shoir bo'lib  
 Nega kelding hayotga,  
 Eling yotsa  
                         dardga to'lib,  
 Kelolmasang najotga?!  
 Ne shoirsan,  
 Tashbihlarning  
 Bormi asli keragi,  
 Bo'Imasa el g'ami —  
                         darding,  
 Yuraging —  
                         el yuragi?!

Nazrul Islom  
 Hind xalqining  
 Zardobini yutardi.  
 Nazrul Islom  
 O'z qalbini  
 Bayroq qilib ko'tardi.  
 Yuragida to so'nggi dam  
 Isyon o'ti so'nmedi.  
 Haqsizlikka ko'ndi olam,  
 Ammo  
                         shoir ko'nmedi.  
 Ko'rgilik bu,  
                         dedi hindu,  
 Taqdir,  
                         dedi musulmon.

Lekin  
 Zo'rlar zulmiga u  
 Tan bermadi hech qachon.  
 O'zni o'tga otdi aniq,  
 Joni borki,  
                         kurashdi.

Umri uning  
 Mangu yoniq  
 Qo'shiqlarga tutashdi.

## Isyon qo'shig'i

“So‘yla, inson,  
So‘yla, qadding  
Ko‘tarib baland.  
Yuksaklikda sening qadring  
Himolay monand.  
So‘yla,  
Sening poyingdadir  
Bu ulug‘ zamin.  
So‘yla, otib zolim asr  
Dard-u alamin.  
Sen o‘tmishni supurguvchi  
Kuchli bo‘ronsan,  
Osmonlarga ot surguvchi  
Sohibqironсан.  
Sen chaqmoqsan,  
Qaro zulmat  
Bag‘rini yoqqan.  
Sen Indrasan,  
Ko‘kda ismat  
Chirog‘in yoqqan.  
Sev Shivasan, koinotni  
Barbod qilguvchi.  
Sen Gangasan, bu hayotni  
Obod qilguvchi.  
Sen — Durganing tosh yuragi,  
Shafqat bilmaysan.  
Sen — Krishna qo‘lidagi  
Kuylagan naysan.  
Izmingdadir cheksiz fazo,  
Zamin-u zamon,  
Bu olamga ega tanho

O'zingsan, inson!  
Tangrilarni to osmon  
Ko'targan ham sen,  
Sajda qilgan,  
Yana isyon  
Ko'targan ham sen.  
Ham shafqat-u  
Beozorlik  
Yashar qoningda.  
Ham fidoyi isyonkorlik  
Yonar joningda.  
So'yla, inson,  
So'yla, qadding ko'tarib baland.  
Yuksaklikda sening qadring  
Himolay monand.  
Qullik senga ko'p maloldir,  
Ammo ne uchun  
Boshing egik,  
Tiling loldir,  
Qomating zabun?  
Tangrilarga bo'ysunmagan,  
Bermagan bardosh,  
Bandasiga bugun nega  
Egadirsan bosh?  
Sababkormi yolg'iz taqdir  
Holingga saning?  
Bilasanmi, do'sting kimdir,  
Kimdir dushmaning?  
Asriy g'aflat yetar endi,  
Ey, mazlum inson!  
Uyg'onmoqning vaqti keldi,  
Bosh ko'tar, uyg'on!  
Bosh ko'targil,  
Ming yil to'kkan  
Ko'z during haqqi.  
Qo'zg'al,

Asriy qullik bukkam  
G'ururing haqqi.  
Qo'zg'al,  
Buyuk Tojmahalning  
Shukuhi uchun.  
Qo'zg'al,  
Ulug' bobolarning  
Pok ruhi uchun.  
Erk bongin ur,  
Sen intiqom —  
Tablin baland chol.  
Tug'ilgansan ozod,  
  mudom  
Ozod bo'lib qol".

\* \* \*

Isyon she'ri  
Mushoira —  
Minbaridan yangradi.  
Kim dedi:  
Bu she'rmas sira,  
Kim  
  dildan angladi.  
Yurt og'zida bu she'r bahsi,  
El tilida bahosi,  
"Qani she'rda gullar raqsi?  
Qani bulbul navosi?"  
"Bu she'r  
  Sharqqa xosdir, nahot?  
Na ishqiy,  
  na rindona...  
Bunday ash'or Sa'diyga yot,  
Hofiz uchun begona".  
"Ul kun Budda:  
Mard agar sen  
Dardni ichga yut, degan.



Ul yuzingga ursalar sen,  
Bul yuzingni tut, degan".  
"U dunyoda baxting ta'min  
Bu dunyoda cheksang g'am".  
Shunday deya bergan ta'lim  
Ul...

Ustodi mukarram.  
Malomatga qoldi endi  
Shoir bitib haq doston.  
Hindu uni

    "jobon" dedi,  
"Kofir" dedi musulmon.  
"Bu isyonni,  
    bu nifoqni

Chiqarmoq ne zohirga.  
Siyosat-la o'ynashmoqni  
Kim qo'yibdi shoirga".

"U hali yosh,  
Hali go'dak,  
Zarra parvo etmaydi.  
Es-hushi yo'q hayiqqudak,  
Jon qadriga yetmaydi".

"Ha, zulm bor,  
Haqsizlik bor,  
Barchaga bu ayondir.  
Ammo buni zinhor-zinhor  
Aytib bo'lmas zamondir".

"Hamma bilar,  
Inson erkin —  
Yashashi shart poyidor.  
Biz ham aytsak bo'lar,  
                                  lekin  
Uyda bola-chaqa bor..."

## Fidoyilik to'g'risida rivoyat

Qadim zamon,  
Ayol dini  
Fidoyilik,  
                  deganlar.  
Eri o'lsa,  
                  xotinini  
Qo'shib ko'mar ekanlar.  
O'tib  
                  necha avlod umri,  
O'tib  
                  cheksiz ko'p zamon,  
Hech bir davr  
Bu udumni  
Qilolmadi qatag'on.  
Dahshat edi bu chinakam,  
Bilar edi  
                  odamlar.  
Lek  
                  odatga qarshi  
                                  ne ham  
Qilar edi odamlar?  
Ham ota,  
Ham onaizor  
Go'rga kirib barobar,  
Qola berdi  
                  chirqirab zor  
Bola-chaqa  
Darbadar.  
Asli  
                  o'sha zamonda ham  
Donishmandlar bor edi.

Lekin  
ular ichra  
mard kam,

Ko'p —  
ehtiyotkor edi.

Bosh ko'tarmas erlar,  
Isyon —  
Ayollar ham qilmasdi.  
(Chunki ular eri qachon  
O'lishini bilmasdi.)

O'tib ketdi  
Ming yil fursat,  
Qarshi qudrat yo'q edi.  
Kimda shafqat,  
Kimda himmat,  
Kimda jur'at  
yo'q edi.

Bir kun  
Jangga keta turib  
Bosh ko'tardi  
bir o'g'lon.

Ot boshini shartta burib,  
Yeldi tikka  
Shoh tomon.  
Dedi:  
"Ey shoh!  
Oldimda bor  
Yo hayot-u, yo o'lim.  
Qolayotir rafiqam zor,  
Qizalog'im va o'g'lim.  
Agar men bu jangda o'lsam,  
Sodiq qolib udumga,  
Farzandlarim onasin ham  
Hukm etarsan o'limga.  
Men-ku,  
Ular erki deya  
Jangga ketayotirman.

Farzandlarim mehri deya  
Fidoyiman,  
botirman.

O'lsam,  
Ular onadan ham  
Yetim qolsa banogoh,  
Vayron bo'lsin charxi olam!  
Bu ne vahshat!  
Eshit, shoh!  
Boqiysi yo'q  
                  hech odamning,  
Biz ketarmiz tamomiy.  
Ammo ayol —  
Bu olamning  
Kelajagi,  
                  davomi.

Shu-chun,  
                  o'lsam, kunim bitib,  
Vasiyatim shu bo'lsin:  
Yorim emas,  
Hamroh etib  
Jang qurolim ko'milsin".  
Bu so'z  
Misli ochiq kunda  
Bo'ldi momoguldarak.  
Keltirdilar  
Bolta...  
Kunda...  
Bas,  
Tafsilot ne kerak...  
Bechoraning ochiq qolgan  
Ko'zlarini yumdilar.  
Mozoriga  
O'zi bilan  
Qilichini ko'mdilar.  
Bo'lsin deya tavqi la'nat,  
Avlodlarga ta'limot,

Qabri uzra  
Yozdilar xat:  
“Bunda yotar  
                  manfur zot!  
Ko‘ring  
                  bu kas holatini,  
Yotar misli xor-u xas,  
Bobolarning odatini  
U bilmadi muqaddas.  
His qilmadi  
U yurakdan —  
Ayol uchun dunyoda  
Eri bilan ko‘milmakdan  
Saodat yo‘q ziyoda!”  
Qurbon bo‘ldi  
Bir mard yigit,  
Qoldi tavqi la‘natga.  
Lekin ilk bor hukm o‘qildi  
Ul kun mash‘um odatga.  
Kel, ey ko‘nglim,  
Inson aslo  
Yaralmagan sabrga.  
Sig‘inaylik  
                  o‘sha tanho  
Tahqirlangan qabrga.  
Haq uchun  
Bosh tutgan tikka  
Mardlar ruhi  
                  yor bo‘lsin.  
Bu dunyoda nohaqlikka  
Ko‘nmaganlar bor bo‘lsin.  
Zo‘rluk ko‘rsang,  
Qilma toqat,  
Har boshda bir o‘lim bor.  
Fidoyilar umri faqat  
Bu dunyoda  
                  poyidor!

## IKKINCHI FASL

### G'alayon

*Kalkutta, 1926-yil*

Kalkuttani  
Quchdi g'ulu,  
Bosh ko'tardi  
                  olomon.  
Qutlug' jang,  
                  deb turdi hindu,  
G'azot,  
dedi  
                  musulmon.  
Barahmanlar  
                  dovul qoqdi,  
Fatvo berdi  
Imomlar.  
Ko'cha to'lib  
                  qonlar oqdi  
To'qnashganda imonlar.  
Farzandidan ona ayru,  
Otasidan —  
                  qiz, o'g'lon,  
Budda haqqi,  
Bos,  
                  der hindu,  
Alqasos, der  
                  musulmon.  
Hindu ishi tahqir bo'ldi,  
Muslim ishi —  
                  tahdidlar.

Butxonalar vayron bo'ldi,  
Yakson bo'ldi  
Masjidlar.  
Rikshami bu,  
                  sohibmi bu,  
Gadomi yo zodagon —  
Farqsiz,  
Faqat —  
Bir yon hindu,  
Bir yon esa —  
                  musulmon.  
Sirtga chiqdi  
Asrlik kin  
Va ming yillik  
                  kudurat.  
Ikki jondosh el aro din  
Yana soldi  
                  adovat.  
Aslida-ku  
Hayot og'u,  
Turmush o'zi —  
                  zimiston.  
Aybdor emas  
                  bunga hindu,  
Gunohkormas musulmon.  
Aslida-ku...  
Beiztirob  
Ho'plab qora qahvoni,  
Derazadan  
                  oq tan janob  
Kuzatar mojaroni.  
U ko'p xursand,  
Labda kulgu,  
Ko'zi chaqnar  
                  komiron.  
Musulmonni yanchar hindu,

Hindni esa  
    musulmon.  
Janob shodon,  
Ushalmoqda  
Niyatning eng ulugʻi.  
Hosil berdi shu tuproqda  
Ekkan nifoq urugʻi.  
Boʻlmasin, deb  
    qilar orzu,  
Bu nizoga hech poyon.  
Mayli,  
Koʻproq oʻlsin hindu,  
Koʻp qirilsin  
    musulmon.  
Nazrul Islom  
Olomonga  
Qaradi-yu  
    oh chekib —  
Oʻzni otdi tik  
    maydonga  
Yoqasini chok etib.  
Faryod qildi:  
“Ne vahshat bu,  
Bas, xaloyiq!  
Al-omon!  
Qotillikni toʻxtat,  
    hindu,  
Gʻazotni qoʻy,  
    musulmon —  
Bizlar, axir,  
Birodarmiz,  
Farzand Odam Atoga!  
Haq oldida  
    barobarmiz,  
Ayting,  
Ne bor nizoga!



Xunrezlik qil demagan-ku  
Axir Veda  
Va Qur'on!  
Tig' uradi  
                  nega hindu,  
Bosh kesadi  
                  musulmon?  
Farq —  
    kim mehrob,  
                  kimsa butga  
Sig'inib bosh qo'yadir.  
Shu farq uchun  
Yoqib o'tga  
El bir-birin so'yadir.  
Bas, adovat!  
Bas, endi kin,  
Jangni qo'ying,  
                  odamlar!  
Sizning asli yovingiz kim —  
Bilib qo'ying,  
Odamlar!  
Ular  
Uzoq yurtdan kelib,  
Yerga bukib shonimiz,  
Bizni bizga  
Dushman qilib,  
So'rmoqdalar  
                  qonimiz.  
Bosqinchining  
Qadimdanoq —  
Falsafasi ayondir.  
El ichida  
                  bo'lsa nifoq,  
Demak,  
                  zolim omondir.  
Ular

Mazlum vatanida  
Boʻlmasin der  
                    sobitlar.  
Jaholatning gulxanida  
Isinadi  
                    zobitlar.  
Eldan omad ketsa,  
                    dastlab  
Hamjihatlik yoʻqolgay.  
Bunday elni,  
Sirtmoq tashlab,  
Har bosqinchi yiqolgay.  
Bu adovat  
Nahot mangu?  
Nahot bitmas  
                    bu qiron?  
Doʻst boʻlolmas  
Nahot  
                    hindu —  
Jigariga  
                    musulmon?  
Sen hindmisan,  
Muslimmi yo,  
Birlik chogʻi  
                    bu choqdir.  
Bosqinchini  
                    eng avvalo  
Hind bahriga uloqtir.  
Soʻng ushalgay  
Barcha orzu,  
Yashar ozod, tinch,  
                                    omon  
Vatanida ega hindu,  
Yurtida bek —  
                    musulmon”.

Shoir aytgan soʻzlarin men

Undoq bayon qilmadim.

Oʻshal yoniq

nafasga teng

Soʻzlar topa bilmadim.

Tarjima ne?

Asl sheʻrning

Maʼnosi-yu

gʻoyasi.

Ammo ul oʻt,

ul sehrning

Faqatgina soyasi.

Nazrul Islom

Bangolaga

Mashhur boʻldi nogahon.

Alangali

bu nolaga

Quloq tutdi

Hindiston.

Keksa Tokur

shukr aytdi shod,

Oq soqolin siladi.

Yosh shoirga

Nurli ijod,

Bezavollik tiladi.

Bu dunyoga

Shoir ammo

Olov boʻlib kelgandi.

Oʻz oʻtida yonib

ado —

Boʻlishini bilgandi.

Asir oldi

na xalq,

na Tokur,

U sig'madi zamonga.  
Isyonkorlik  
Uni oxir  
Olib keldi  
zindonga.

\* \* \*

Shoir bo'lsang,  
Bo'lsin qalbing  
Elga qurbon bo'lgudek.  
Shoir bo'lsang,  
Bo'lsin xalqing  
Senga qalqon bo'lgudek.  
Shoir bo'lsang,  
Seni eling  
Qalbi bilan tinglasa.  
Yod olmasa hamki she'ring,  
Fidoliging  
anglasa.

Shoir bo'lsang,  
Yurtda yasha  
Meniki deb aytgulik.  
Jannat yurtdan kechib o'sha  
Xarobaga qaytgulik.  
Shoir bo'lsang,  
Qalamingni  
Nayza qilib tutolsang.  
Yurakdagi alamingni  
Oq qog'ozga  
to'kolsang.

Shoir bo'lsang,  
Qalb chirog'ing  
Yonib tursa toabad.  
Bu dunyodan  
Ketar chog'ing  
Yig'lab qolsa she'riyat.

O'z bag'riga olsa quchib  
Seni ona makoning...  
Gar shu baxtlar bo'lsa nasib  
Yo'q dunyoda armoning.

\* \* \*

Nazrul Islom bo'ldi mahbus,  
Tunda uydan oldilar.  
El ko'zidan uzoq, maxsus  
Bir xonaga soldilar.  
Ishi qiziq bu jahonning,  
Hakamlar hukm etdilar:  
Shoirmi ul g'alayonning  
Sababkori, dedilar.  
Aybnomani tinglang, hatto —  
Faryod qilar toshlar ham,  
“Hindu bilan  
muslim aro  
Qutqu solgan — shul odam!”  
Olis yurtdan kelgan birov  
Ayb qo'ydi beandisha!  
“Nazrul Islom —  
Xalqiga yov,  
Nifoq istar hamisha”.  
Bu dunyoda  
Bor qabohat,  
Bu dunyoda  
bor yolg'on.  
Ammo bunday  
Yovuz tuhmat  
Bo'Imagandi hech qachon.  
Nazrul Islom  
nomi oxir  
Ming baloga taqaldi.  
El uchun  
Jon tikkan shoir

El dushmani  
    ataldi.  
Hukm o'qildi.  
Bosh egib u  
Asta borar hibsi tomon.  
Ajab!  
Soqchi —  
    bir yon hindu,  
Bir yon esa musulmon.  
Uni turtar  
    musulmon ham,  
Siltalar hind havoldor.  
— Qirpichoqda  
    o'ldi akam,  
Senda ekan ayb,  
    murdor!  
— Ko'p azoblar chekdi hindu,  
Ko'p qon to'kdi  
    musulmon.  
Sen kabilar yo'qolsa-ku,  
Yashar edik  
Tinch, omon...  
Asta  
    qadam tashlar  
        mahbus  
O'ylaridan ogoh yo'q.  
Soqchilar  
    ne bilar,  
Afsus,  
Jaholatda gunoh yo'q.

## Jaholat to'g'risida rivoyat

Alqissakim,  
Juda qadim  
Jaholatli zamonda  
Bir donishmand  
          ulug' hakim  
O'tgan ekan jahonda.  
U kun bo'yi  
Giyoh terib  
Kezib tog'-u biyobon,  
Odamlarga shifo berib  
Yashar ekan  
Shodumon.  
Unga  
ming bir mushkul dardning  
Ayon bo'lib davosi,  
Bora-bora  
Odamlarning  
Ortaverdi ixlosi.  
Tabobatga  
Qalban,  
          ruhan  
Fido qilib o'zini,  
Hatto bir kun  
Nashtar bilan  
Ochmish  
          ko'ming ko'zini.  
Rivoj topmish  
Sohib hikmat,  
Donish,  
Mehnat madadkor.  
Ammo

Qayda bo'lsa shuhrat,  
Yonboshida  
Hasad bor.  
Duoxonlar,  
    parixonlar,  
O'quvchilar chilyosin...  
Xullas,  
Yurtda bor nodonlar  
Boshladilar ig'vosin.  
Tinmay  
Kecha-yu kunduzi  
Topib kitob so'zidan,  
Dedilar:  
"Dard bergan —  
O'zi!  
Davosi ham  
O'zidan!  
Bandasiga bermak dor-u  
Yaratganga isyondir.  
Demak,  
Hakim ishi makr-u  
Uning o'zi  
Shaytondir".  
Bu so'zlarni  
    chin, deb bildi  
Nodon,  
    johil olomon.  
Donishmandni sazo qildi,  
Kaltakladi  
Beomon.  
Cho'g' temirda  
Ko'ksin dog'lab,  
Dorga osmoq bo'ldilar.  
So'ng bo'yniga xarsang bog'lab  
Suvga bosmoq bo'ldilar.  
Keyin



Suvni,  
arqonni ham  
Hayf bildilar  
“shayton”ga,  
“Yoqing, — dedi  
Eng bosh hakam, —  
Olib chiqib maydonga!”  
Keng maydonga  
Ko‘mib ustun,  
Bog‘ladilar hakimni.  
So‘ng temirni o‘tga qo‘yib,  
Dog‘ladilar hakimni.  
Buyurdilar:  
“Yoqing shitob,  
Azozilning oshnasin.  
Kerak bo‘lsa  
Kimga savob,  
Cho‘p keltirib tashlasin”.  
Savob uchun  
Birov o‘tin,  
Birov tashlar dona xas.  
Hakim boshin baland tutib  
Johil elga qaramas.  
Bir payt  
Gulxan sari bir chol  
Asta kela boshladi.  
Quchog‘ida  
Bir bog‘ poxol,  
G‘aram uzra tashladi.  
Dedi:  
“Asli tug‘ilgandan  
Basir edim men o‘zim.  
Sen  
joduning tig‘i bilan  
Ochib qo‘yding  
ko‘r ko‘zim.

Tangri bilib  
Yaratgan ko'r,  
Davo qilding ne uchun?  
Oxirat men —  
    manglayi sho'r —  
Nima deyman  
So'roq kun?  
Haq yo'lidan ozgan odam,  
Ko'zim ochib,  
    ne berding?  
Meni bir yo'l  
U dunyo  
    ham —  
Bu dunyodan ayirding.  
Ko'rligimda  
Bu olamni  
Tasavvurda ko'rardim.  
Dunyodagi bor odamni  
Mushfiq bilib yurardim.  
Shafqat ila  
Kim non-u  
    kim  
Chaqa tashlab ketardi.  
Men ham  
    shunga ko'ngan edim,  
Menga shu ham yetardi.  
Qornim to'ysa —  
Saodatim,  
Yo'q tuman xil tilaklar.  
Hamsuhbatim,  
Ham ulfatim  
Jajji shirin go'daklar...  
O'ylar edim dunyoda bor  
Musaffolik,  
Soddalik.  
Ko'zim ochib

Ko'rdim ilk bor  
Berahmlik,  
Soxtalik.  
O'g'rilig-u fahshni ko'rib  
Jim yurarkan odamlar.  
O'z do'stiga  
Kulib turib,  
Tig' urarkan odamlar.  
Bir yonda aysh  
Ko'kka chirmash.  
Bir yonda,  
          boq,  
                          oh-u voh...  
Bukun mening  
          ko'nghimda g'ash,  
Imonimda —  
          ishtiboh.  
Derdim:  
Yurtni bir bor ko'rsam.  
Ko'rdim.  
Orzum to'q endi.  
Yo'lda yotgan  
          xaschalik ham  
E'tiborim yo'q endi.  
Bu dunyodan  
          to'ydim oxir,  
Ado bo'lsam mayliga.  
Yo qaytadan,  
O'sha basir,  
Gado bo'lsam mayliga!"  
Bu so'zlarni  
Eshitdi-yu  
Faryod qildi donishmand.  
"Yoqing, —  
          deya so'radi u, —  
Olov bo'lsin sarbaland.

Tezroq ketay  
Bu dunyodan,  
Hech toqatim qolmadi.  
Mendan  
shifo oldi  
odam,  
Olam —  
shifo olmadi.  
Xurofotning zahri tekkan  
Nodon,  
johil,  
gumrohlar —  
Davosiga ojiz ekan  
Men kashf etgan giyohlar.  
Ko'ʻr ko'ʻzlarga  
Mehrgiyodek  
Nur baxsh etdi  
nashtarim.  
Qalblar ko'ʻzin  
ochmoqqa  
lek  
Kamlilik qildi  
Hunarim.  
Odamlarga  
men yaxshilik —  
Qilmoq bo'ldim,  
Netayin,  
Manglayda  
shu ekan  
bitik,  
Yoqing,  
Kuyib ketayin!"  
O't qo'ydilar.  
Yondi gulxan.  
Qaro bo'ldi  
samovot.

Jaholatning  
    hukmi bilan  
Qurbon bo'ldi  
Buyuk zot.  
Gulxan yondi  
Ko'kka o'rlab.  
Cho'g'i har yon  
    sochildi.  
Shu olovdan  
Elning,  
    ajab,  
Aql ko'zi  
    ochildi.  
O'kindilar,  
Aza tutib  
Yig'ladilar,  
    kuydilar.  
Donishmandga  
Yillar o'tib  
Oltin haykal  
    qo'ydilar.  
E, voh,  
Olim ko'zi bilan  
Ko'rsaydi bu  
    hurmatni...  
Ammo  
Hakim o'zi bilan  
Olib ketdi  
    hikmatni.  
Qo'y, ey ko'nglim,  
Sen ul zamon  
Dahshatin  
    kam o'ylagin.  
Senga nasib bo'lgan davron  
Sozin olib  
Kuylagin.

Shukronalik  
    mayin ichib  
Yayrab qolgin  
    bir nafas.  
Bu olamdan  
Bir kun kechib  
Ketuvchi bir  
    biz emas.  
Kel, ey ko'nglim,  
Kel, muhabbat,  
She'r zavqiga  
    qonaylik.  
O'tda yonish bo'lsa,  
    faqat —  
Ishq o'tida  
    yonaylik.  
Faqat  
Bizga g'am-u kadar,  
Qayg'u-hasrat  
    yot bo'lsin.  
To  
    biz uchun  
        jon berganlar —  
Ruhi mangu  
    shod bo'lsin.

## UCHINCHI FASL

### Tutqunlikda

“Onajonim,  
Menga bukun  
Sendan o‘zga dilxoh yo‘q.  
Zindondaman,  
Bilmam, nechun,  
Menda zarra gunoh yo‘q.  
Gunohkorman  
Na Ollohim,  
Na vijdonim oldida.  
Faqatgina...  
Bir gunohim  
Onajonim oldida.  
Kechir, onam!  
Ko‘zingda g‘am,  
Azob bo‘ldim joningda.  
Bukun bayram,  
Men bukun ham  
Bo‘lolmadim yoningda.  
Odamlardek  
Beozor, tek  
Yashab yursam netardi.  
Menga tole,  
Senga tinchlik  
Balki nasib etardi.  
Bulbullarga,  
Gullarga mast  
Yozsam faqat g‘azallar,  
Balki meni  
Mirshablarmas,

Izlardi yosh go'zallar.  
Menga ham yor sokinlig-u  
Sening ham yo'q bu darding;  
Men — uylik,  
Sen — kelinlig-u  
Nabiralik bo'larding.  
Oh, u yo'l berk,  
Menda yo'q erk,  
Tirik umrim — aftoda.  
Ne qilayki,  
Odamlardek  
Yasholmadim dunyoda.  
Lek ko'nglimda nolish emas,  
Allanechuk dilshodlik.  
Garchi jismim  
Bandi qafas,  
Ruhimda bor ozodlik.  
Tug'ilishdan qul emasman,  
Qullik yot bu jonimga.  
Erk istagi  
Suting bilan  
Kirmish mening qonimga.  
Meni otash,  
                  girdoblarga  
Otgan o'shal istagim.  
Onajonim,  
Azoblarga  
Qo'ydi seni yuragim.  
Meni kechir,  
Faqat sendan  
Bukun uzr so'rayman.  
Uzr so'rab, umid bilan  
Xayolimni o'rayman.  
Rozi bo'lgin,  
Gar o'g'loning  
Yurak qo'rin asrolsa.



Bir kun  
ona Hindistonning  
Xizmatiga yarolsa”.

\* \* \*

Vaqt kam bo'lsa,  
Undan odam.  
Ulgurgancha oladi.  
Ko'p bo'lsa, ne qilarin ham  
Bilolmasdan qoladi.  
Shoir qaynoq ish qo'ynida  
Kun o'tganin bilmasdi.  
Naq bir olam yuk bo'ynida,  
Kecha-kunduz tinmasdi.  
Bo'sh vaqt bermas jarida ham  
Noshirlikning ishi ko'p.  
Uyda,  
eldan narida ham  
Tinch yo'q,  
Yo'qlar kishi ko'p.  
Bir tomonda bitilmagan  
Dostonlari behisob.  
*Bir yon*  
Ko'rib yetolmagan  
Yotar ming-ming jild kitob...  
She'r ustida o'ltirmoqqa  
Tanho bedor kecha bor.  
U Xudodan  
O'y surmoqqa  
Vaqt so'rardi necha bor.  
Mana fursat,  
Xayol uchun.  
O'y sur, ko'kka havolan.  
Kerak bo'lsa, umring butun  
Qayta yasha xayolan.  
Ammo

Xayol, o' ydan ne naf,  
Qo'lda qalam bo'lmasa,  
Yurak ochmoq uchun so'ylab,  
Dildosh odam bo'lmasa.  
Qalam nadir,  
Bo'lsa ayon  
Ketmasligi bekorga,  
Barmog'idan chiqarib qon,  
Yozar edi devorga.  
Umid bo'lsa  
Bir kimsaning  
Kelishidan sadoga,  
Dildosh nadir,  
U dil sasin  
Yetkazardi samoga.  
Ammo benaf.  
Ko'z oldida  
Faqatgina tosh devor.  
Xayol esa...  
xayolida  
Poyonsiz bir bo'shliq bor.

\* \* \*

Nazrul Islom  
tor zindonning  
Tuynugidan qaraydi.  
Ko'rib zangor  
sof osmonning —  
Bir parchasin,  
Yayraydi.  
Unda  
Erkin qanot qoqib  
Qushlar uchib yuribdi.  
Bunda  
Shoir ko'kka boqib  
Havas qilib turibdi.

Qushlar bilan uchay desa,  
Qani uning  
    qanoti?  
Bir olamdir  
Orzu esa...  
Yetarmikan hayoti?  
Nazrul Islom  
    tor zindonning  
Tuynugidan qaraydi.  
U falakdan  
Hindistonning  
Toleyini so'raydi.  
"Mayliga,  
Men tutqun bo'lsam,  
Sen ozod bo'l,  
Onajon!  
Ming qiynoqda  
Mayli, o'lsam,  
Yurtim,  
    bor bo'l,  
Bo'l omon.  
Umrin yetsa,  
Mehring tayanch,  
Seni yayrab kuylarman,  
Bu kun esa,  
Mushkul,  
    ayanch  
Qismatingni o'ylarman.  
Necha ming yil  
Manglay tering  
To'kib yerga,  
    qolding och.  
Sen olamga  
Ipak berib  
O'zing o'tding  
    yalang'och.

Bebaho —  
    fil suyaklaring,  
Bahring aro —  
    to'la dur.  
G'avvos qilib go'daklaring,  
Kelgindilar  
    oladur.  
Yurtim,  
Bitmas matonating,  
Sen —  
    mujassam bardoshsan.

Fil singari  
Zo'r qudrating,  
Fil singari  
Yuvoshsan.  
Ona o'lkam,  
Bir kun seni  
Ozod ko'rgim keladi.  
Istibdodning zanjirini  
Barbod ko'rgim keladi.  
Ko'tarasan  
Sen ham qadding,  
Yo'l olarsan  
    erk sari.

Himolayning ortidagi  
Ozod vatan singari".  
Nazrul Islom  
Zindonda band,  
U zax yerni quchardi.  
She'ri esa qushlar bilan  
Osmonlarda uchardi.  
Kengliklardan oshar edi  
Qalb shukuhi shoirning,  
El dilida  
Yashar edi  
Isyon ruhi shoirning.

O'z umrini qilgandi u  
She'ri bilan jovidon.  
O'qir edi  
Uni hindu,  
Yodlar edi  
Musulmon.  
Shoir bandi,  
She'ri biroq  
Uchar edi beto'siq,  
Himolaydan oshib  
Uzoq —  
Ketgan edi bu qo'shiq.  
Dunyo bo'ylab  
Dovruq soldi  
Nazrul Islom erk sasi...  
Hindistonda esib qoldi  
Ozodlikning nafasi.

\* \* \*

Qiyndilar uni  
Uzoq —  
Yurtdan kelgan janoblar.  
Sindirmadi ammo qiynoq,  
Bukolmadi azoblar.  
Umid unga sabot berdi,  
Ishonch berdi  
Matonat.  
Yuragiga qanot berdi  
Ona yurtga  
Muhabbat.  
Bu kunlar ham o'tib ketar,  
Hayot oldda...  
Hali yosh...  
Ba'zan...  
Xayol surib ketar  
Toshdevorga qo'yib bosh.

Yosh ko'ngliga qilar ta'sir  
Falakning kaj xislati.  
Ko'z oldidan o'tar bir-bir  
Shoirlarning qismati.  
Bobokalon Rudakiy der:  
"Quloq solgin so'zimga.  
Adolat deb bitdim-u she'r,  
Mil tortdilar  
Ko'zimga".  
Navoiy der:  
"Zulmat aro  
Ko'p izladim yo'limni.  
Men o'zimni qildim ado,  
Yengolmadim zulmni".  
Nazrul Islom faryodiga  
O'xshar barin nidosi.  
Oxir  
Shoir ko'z oldiga  
Kelar Bobur siymosi.  
Deydi:  
— Tingla ogoh bo'lib,  
Gar sen bo'lsang tutqunda,  
Men bir yurtga podshoh bo'lib,  
Umrin o'tdi quvg'inda.  
O'n ikkimda  
Taxtga mindim,  
Yosh ochildi ko'zlarim.  
Qondoshlarga yov ko'rindim,  
Meni sotdi do'stlarim.  
Najot istab  
Men har nafas  
Quyun kabi yelganman.  
Yurtingga men  
Shoh bo'libmas,  
Panoh izlab kelganman.  
"Tole yo'qi jonima balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yurtni qo'yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi".  
Shoir bo'lib,  
El ichida  
Ruhim o'sdi shonimdan.  
Shoh bo'lib,  
Yov qilichida  
Dog'lar qoldi qonimdan.  
Men shoh bo'lib,  
Alam bilan  
Ko'rdim jang-u  
Suronni.  
Shoir bo'lib  
Qalam bilan  
Oldim yarim jahonni.  
Keltirdi ko'p balo, sitam  
Tiriklikda taxt-u toj.  
Yarim ming yil so'ngida ham  
Yog'ar menga  
Ta'na tosh.

G'ussa ichra  
O'ylar shoir  
Falakning kaj xislatin.  
Buncha og'ir  
Etding, taqdir,  
She'r ahlining qismatin?  
Pushkin she'ri  
Qildi faryod,  
O'qqa tutdi  
o't qalbni.  
Lermontovni otgan jallod  
Dorga osdi  
Mashrabni.  
Shoirlarning —

Erkdir dini,  
Erkka  
sajda qildilar.  
Erk kuychisi  
Nasimiyni  
Tovonidan shildilar...  
Nazrul Islom  
Surar xayol,  
O'yi ado bo'lmaydi.  
Der:  
Shoirda  
bor bir iqbol,  
Ya'ni  
Shoir o'lmaydi.



## **Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat**

Podsho odil bo'lmis, degan

Aqida bor —

O'ylaylik.

Keling,

shohlar zolim ekan,

Bizlar odil bo'laylik.

Tojdorlardan bezdi dunyo,

Ko'raverib zolimlar.

Shohlar aro

Bo'lgan ammo

Shoirlar-u olimlar.

Tarix ko'p yil tahqir bitar

Chingiz kabi jobirga.

Ammo mangu ta'zim etar

Ulug'bekka,

Boburga.

Xullas...

Taxmin, Mirzo Bedil

Tirikligi vaqtida

Shohi Jahon o'ttiz bir yil

O'ltirdi Hind taxtida.

Neki qildi —

Haq deb bildi,

Bildi shuni adolat.

Kimlargadir zulm qildi,

Kimlargadir —

saxovat.

O'z davrida

davron surdi,

Yodlasin deb asrlar —

Necha-necha shahar qurdi,

Shahar ichra —  
Qasrlar...  
May ham ichdi,  
Aysh ham qildi,  
G'ussasini o'ldirdi.  
Xazinani zar-u  
                    dilni  
Shodlik bilan to'ldirdi.  
Shohi Jahon  
                    jasur, dono,  
Ko'p hikmatga yor edi.  
Shohning ammo  
Bir bedavo  
Og'ir dardi bor edi.  
Har komiron odamning ham  
Bo'lganidek bir kami,  
Shoh ko'ngliga  
Goh cho'kib g'am,  
Qaro edi olami.  
Bu g'am — na mulk,  
                    na dardi shon  
Na farzand,  
                    na ishq dog'i.  
Nomsiz g'amki,  
                    kelar oson,  
Qiyin edi ketmog'i.  
Bunday chog'lar orom berur  
Na sayr-u na sayohat.  
Ko'zlaridan qochardi nur,  
Yuragidan halovat.  
Zardob yutib g'ussasidan,  
Na suhbat,  
                    na may talab —  
Ulug' podsho go'shasidan  
Chiqmas edi haftalab.  
Ko'zyosh yuvar yuzlarini,

Ko'ngli to'la tahlika...

Shunda

uning so'zlarini

Tinglar edi

malika.

Aytar edi shoh o'z dardin

Mumtoz Mahal xonimga:

"To'ydim toj-taxt,

Mulk — baridan,

Bari tegdi jonimga.

Bu davlat,

Bu shon-u shavkat

Omonatga o'xshaydi.

Vazirlarning fikri faqat

Xiyonatga o'xshaydi.

Barchasining cho'ntagida

Shoh qasdiga pinhon o'q.

Farzandlarim yuragida

Menga zarra mehr yo'q.

Har bir sharpa

Menga qo'rqinch —

Holat bo'lib ko'rinar.

Umrin so'ngi —

to'la o'kinch,

Dahshat bo'lib ko'rinar.

Bo'lmay turib

Bir falokat,

Yo bir fitna qurboni,

Tark etsaydim

Bexosiyat,

Bevafo bu dunyoni".

Shunda go'zal Mumtoz Mahal

Tinglab shohning zorini,

O'qib har gal

Bitta g'azal,

Ovutardi yorini.

Bedorlikda tunlar bilan  
Ulanardi kunlari  
Ming bir kecha  
Ertak aytgan  
Shahrizoda singari.  
Zulm-u fitna,  
                  adovatning  
Gunohligin o'qirdi.  
Mangulikka adolatning  
Hamrohligin o'qirdi.  
O'qir edi odamki bor,  
O'tmog'i bor jahondan.  
Faqat ezgu ishlar yodgor  
Qolg'usidir insondan.  
Yuragiga shohning qanot  
Berar edi g'azallar.  
Qanot nadir —  
Qayta hayot  
Berar edi g'azallar.  
Lekin shohning  
Qay gunohi,  
Qay zulmiga intiqom —  
Bir tong  
                  ko'kka chiqdi ohi,  
Qo'ldan tushib sindi jom.  
Voh,  
          hech kimga  
                  yo'qdir omon,  
Yo'qdir omon  
                  ajaldan.  
Judo bo'ldi Shohi Jahon —  
Qalbi Mumtoz Mahaldan.  
Devonaga aylandi shoh,  
Dardin elga so'zladi.  
Majruh sherdek  
To'lg'andi goh,

Goh bo'tadek  
bo'zradi...

\* \* \*

Kunlar o'tib  
Shohi Jahon,  
Tengsiz hajr azobida  
Qurmoq uchun berdi farmon  
Malikaga obida.

Dedi:

“Tiklang, shunday saroy,  
Zarni qilmang hech hisob.  
Havas qilsin kechalar oy,  
Kunduzlari — oftob.  
Yer yuzida uning aslo  
Barobari bo'lmasin,  
Mumtoz Mahal nomi dunyo  
Turgunicha o'lmasin”.

Ishga tushdi

Sonsiz asir,

Me'mor,

naqqosh,

sangtarosh.

Zanji qullar og'och tashir,

Fillar tashir xarsangtosh.

Yigirma yil

Yigirma ming

Jon jabridan bir amal —

Mo'jizasi bu olamning

Bino bo'ldi

Tojmahal.

\* \* \*

Yigirma yil...

Vaqt — beshafqat.

Ko'pni ko'rib dunyoda,  
Shoh qaridi,  
Lek alpqomat  
Yigit bo'ldi shahzoda.  
Tilak qildi  
Shohi Jahon:  
"O'g'lim faqat shod bo'lsin.  
Mendagi bul dardi hijron,  
Hasratlarga yot bo'lsin".  
Oshno qildi  
    o'yin, kulgu,  
Ovga, cholg'u,  
    san'atga.  
Xayolotni qildi mamnu,  
O'rgatdi shavq,  
    g'ayratga.  
Yovqur, jasur,  
                    har bir ishga  
Qodir qilib o'stirdi.  
Tig' urishga,  
    o'q otishga  
Mohir qilib o'stirdi...  
Fan bobida imlo ila  
Shariatdan berdi dars.  
Nutq san'ati,  
    harbiy hiyla,  
Siyosatdan berdi dars.  
Lek rahmat, deb  
Darlar uchun,  
Mana harbiy nayrang, deb,  
Otasiga qarshi bir kun  
Isyon qildi Avrangzeb.  
Shoh qo'lida qilich sindi,  
Nihoya yo'q armonga.  
Ota o'g'il taxtga mindi,  
Ota tushdi zindonga.

Demang,  
bular rivoyatdir —  
Xayolotda yetilgan.  
Bu shafqatsiz haqiqatdir,  
Tarixlarda bitilgan...  
Vaqt etib  
Ming oltmish to‘qqiz  
Yilning sha‘bon oyiga,  
Cho‘ktirdilar otani tiz  
O‘z farzandi poyiga.

A v r a n g z e b  
Taqdir ekan,  
Ne dey o‘zga,  
Falak hukmi — adolat.

S h o h i J a h o n  
Bas,  
Hojat yo‘q ortiq so‘zga,  
Sodir bo‘ldi xiyonat.  
Ters aylandi garduni dun,  
So‘zla,  
nedir muroding?  
Hukm — sening hukming bu kun,  
Vojib — sening irodang.

A v r a n g z e b  
Alamingga nihoya yo‘q,  
Ne taxtparast odamsan.  
Bugun  
Senga himoya yo‘q,  
Ammo netay,  
otamsan.  
O‘yla o‘zing,  
Gunoh kimda?  
Kimdan oldim tarbiyat?

Sen uyg'otding yuragimda  
Toj-u taxtga muhabbat.  
Bu tuyg'uni berib,  
nega

Qaro qilding baxtingni?  
So'ng, qarib ham  
Nechun menga  
Bo'shatmading taxtingni?  
Ha, ha!  
Inson shohmi, gado  
Odam sutin ichgandir.  
Tiriklikda qaysi podsho  
Toj-u taxtdan kechgandir?

### Sh o h i J a h o n

Kelar bir kun senga ham gal,  
Yoshsan,  
vaqt bor sinovga.  
O'zingga ur tig'ni avval,  
Og'rimasa —  
birovga.

Shuhrat mayi g'oyat shirin,  
Sarxush qilar odamni.  
Sen bu taxtga yetding, lekin  
Zabun qilib otangni.  
Unutmaki,  
Doxil bo'lding  
Tojdorlikning shoniga,  
E, voh,

bo'yab ikki qo'ling  
Ikki og'ang qoniga.  
Bobur nasli  
tarixida

Bu eng qaro bir varaq.  
Bilki, inson taqdirida  
"Alqasosul minalhaq!"



A v r a n g z e b  
“Haqdan qasos!”  
Ayo, Xurram!  
Sen ham mendek bo‘lgansan.  
O‘z otangga qarshi sen ham  
Bir vaqt isyon qilgansan.  
Yurishmadi  
Lek omading,  
Kelolmay taxt yoniga,  
Qo‘llaringni bo‘yolmading  
Buzrukvoring qoniga.

S h o h i J a h o n  
Ko‘targanman isyon rostdan,  
Makr emasdi u biroq.  
Saltanatni inqirozdan  
Lozim edi qutqarmoq.  
Ayon etdi vaqt —  
                    kim haqli,  
Ko‘rdi, bildi jahon ham.  
Inson bilan inson farqli,  
Isyon bilan isyon ham.

A v r a n g z e b  
O‘z qilmishin  
Har bir tojdor  
Adolat deb aytadir.  
Bilur yolg‘iz parvardigor —  
Chin haqiqat qaydadir.  
Men — Oллоhmas,  
Ne bilayin,  
Lek qilichim kesgan payt,  
Endi seni ne qilayin,  
Padarimsan,  
O‘zing ayt.

## Sh o h i J a h o n

Ajab,

meni padar deysan,

Lek mehr yo'q ko'zingda.

Ne qilay, deb so'rma mendan,

Ixtiyoring o'zingda,

Lozim ko'rsang qay ajalni,

Buyur —

Xoh kes,

xohi os.

Itimosim —

Tojmahalni

Vayron qilma,

shu, xolos.

O'sha mendan yodgor tanho.

Uyg'oq ruhim,

Yuragim.

Jonimni ol,

ruhim ammo

Xarob qilma.

So'ragum...

## A v r a n g z e b

Vahshiylikka bormas qo'lim,

Tojmahalni buzmasman.

So'ramagil mendan o'lim,

Ota boshin uzmasman.

Padarkushlik shonin aslo

Ravo ko'rmam o'zimga.

Sen yasharsan

Mendan rizo,

Rizo bo'lsang so'zimga.

Erta meni podsho qilib

Ko'tarurlar,

kelarsan,

Xalq oldida,  
Rizoman deb  
Meni duo qilarsan.  
Qarib qolding,  
Taxt g'amin qo'y,  
Orom gashtin surib yot.  
Huzurimda maslahatgo'y  
Bo'lib qolgin umrbod.

Sh o h i J a h o n  
"Maslahatgo'y bo'lib qolgin  
Huzurimda umrbod..."  
Sen dunyoga kelgan ul kun  
Men naqadar edim shod.  
Yurganingda atak-chechak,  
Minganingda ilk bor ot,  
Kelin ko'rib,  
So'ngra go'dak...  
Men naqadar edim shod.  
O'sha shodon damlar nechun  
Men dunyodan o'tmadim.  
Yo bolangga to'y qilgan kun  
Senga aza tutmadim.  
Ko'zlarimga butun dunyo  
Hech oqarmas tun bu kun.  
Sulolangdan,  
Bobur mirzo,  
Omad ketgan kun bu kun,  
E, voh,  
Ota-farzand aro  
Ko'tarildi oqibat.  
Bu — intiho!  
Chin intiho —  
Yetib keldi oqibat!

\* \* \*

Tarix —

bir ming oltmish to‘qqiz

Yilning sha‘bon oyida

Toj sohibin

Qildilar hibs

O‘zi suygan joyida.

Ya‘ni arkli saroyida —

Sharqda shunday qoida —

Izzat-ikrom o‘z joyida,

Qo‘sh gilamlar poyida.

Faqatgina taxt-u toj yo‘q,

Mashvarat yo‘q,

Devon yo‘q.

Xazinaga ehtiyoj yo‘q,

Chunki qo‘lda farmon yo‘q.

Kecha Ajam, Rum, Xitoga

Mashhur bo‘lgan buyuk shoh,

Qarab yotar keng dunyoga

Tor darchadan...

Ko‘kda moh

Asta kezar,

Sochar xomush

Borliq uzra siymin hal.

Misli xayol,

Sehri tush,

Mag‘rur turar Tojmahal...

\* \* \*

Ey dil,

Quloq ber nidoga,

Toki yerda inson bor,

Na podshoga,

Na gadoga

Alqasosdan omon bor.

“Jafu uchun,

Vafo uchun  
Haqqin oldi Shoh Jahon.  
Biri uni qildi zabun,  
Biri esa — jovidon.  
G‘amli tarix ibrat bo‘lsin,  
Bo‘lsin senga namuna...”  
Deya, asta,  
    ma’yus,  
                                    sokin  
Oqib yotar Jamuna.

## TO'RTINCHI FASL

### Sharpalar

Insoniyat  
Minglab qiynoq  
O'ylab topgan  
dunyoda.  
Bu qiynoqlar ichra biroq  
Birisi  
eng ziyoda.  
Unga toqat yo'q  
insonda,  
Yo'q undan zo'r  
dil dog'i.  
Bu iztirob —  
Tor zindonda  
Tanholikning qiynog'i.  
Shoir qalbning  
Dildoshi yo'q,  
Qiyналadi  
yosh joni,  
Qutulmoqning  
iloji yo'q,  
Yo'q o'lmoqning  
imkoni.  
Nazrul Islom  
O'ylab yotar  
Shiftga boqib  
Uzun kun.  
Necha-necha tonglar otar,  
Necha-necha cho'kar tun.

Goh  
Ajib bir holat bo'lar.  
Hayron bo'lar  
o'ziga,

Allanechuk  
Oq sharpalar  
Ko'rinadi  
ko'ziga.

Ular kelib  
Har zamonda:  
"Yetar!  
Shoir!  
Tur! — deydi. —  
O'ltirma bu

zax zindonda,  
Bizlar bilan yur", — deydi,  
"Yo'q, yo'q", — deya  
Tutqun shoir, —  
Sharpalarni quvadi.  
Ko'zdan oqqan  
Achchiq yoshi  
Yuzlarini yuvadi.  
She'r o'ylaydi  
Nazrul Islom,  
Izlab jonga halovat.  
O'yda she'r yo'q,  
Dilda ilhom,  
Ruhda shavqi sinoat.  
Nahot,  
Tamom bo'ldi shoir?  
Nahot, bitdi saboti?  
Nahot,  
Qalbdagi tugadi she'r,  
Tugamasdan hayoti?  
Axir, unda  
Qancha orzu,

Ishq bor edi, muddao!  
Nahot tamom  
Barchasi...  
U  
Qildi ko'kka  
Iltijo:  
"Ey, xoliqi olam,  
Tilagimni qondir,  
Umringa ber barham,  
Vujudimni yondir.  
Holim bir senga ham —  
Bir menga ayondir,  
Yaratibsan odam,  
Odamlikcha qoldir.  
Tugadi iroda,  
Yo'q o'zga dil rozim,  
Yetganim ma'voda  
Bo'linsin ovozim.  
Kim, avji navoda  
Sindirgil bu sozim,  
Eng oliy fazoda  
Tugasin parvozim.  
Shoirlarga dunyoda  
Aslida shu lozim.  
Ey, xoliqi olam,  
Tilagimni qondir,  
Umringa ber barham,  
Vujudimni yondir.

Na jonda g'ayratim,  
Na ko'zda hayratim,  
Na dilda alam bor,  
Na qo'lda qalam bor.  
Na boshda fikratim.  
Na kerak  
Siyratim.



El uchun adoman,  
Tugadim tamoman.  
Sig'may keng jahonga,  
Sig'dim tor zindonga.  
Ey, xoliqi olam,  
Tilagimni qondir,  
Umrimga ber barham,  
Vujudimni yondir!"  
Nazrul Islom  
Qilgan nido  
Yetdi  
                  yuksak osmonga.  
Oliy ruhlar  
Uni ravo  
Ko'rmadilar  
                  zindonga.  
Shoir ruhini  
Olib mangu  
Ko'kka  
                  parvoz etdilar.  
Tor zindonga  
Faqat jon-u  
Jismin tashlab ketdilar.  
Nazrul Islom  
Tor katakda  
Devonavor turibdi.  
Ruhi uning  
                  keng falakda  
Qanot yozib yuribdi.

## Oliy ruhlar to'g'risida naql

Bolalikda eshitganim  
Talay-talay ertakdan —  
Xayolimda biri manim,  
Sira chiqmas yurakdan.  
Marhumlarning ruhi ko'kda  
Doim uchib yurarmish.  
Biz ularni ko'rmasak-da,  
Ular bizni ko'rarmish,  
Biz xayrli ishlar qilsak,  
Shodon bo'lar emishlar.  
Mabodo,  
Biz yomon bo'lsak,  
Nolon bo'lar emishlar.  
Do'st, qarindosh-  
urug'larning  
Ruhi — oddiy ruh emish.  
Lek daholar,  
Ulug'larning  
Ruhi — oliy ruh emish.  
O'z arshidan  
Ular bizga  
Bo'larmishlar rahnamo.  
Ko'p ishlarni dilimizga  
Solarmishlar doimo.  
Yiroqda  
Dard ichra qolib  
Do'stimiz zor bo'lsa gar,  
Dilimizga g'ashlik solib,  
Qilarmishlar  
Boxabar.

Bizni kunduz  
Band etsa ish,  
Xoli topib uyquni,  
Ular bizga eslatarmish  
Ketganlarning ruhini.  
Shuning-chun ham  
Dilimizni —  
Ko'marmishlar yog'duga.  
Qilarmishlar oshno bizni  
Mehr degan tuyg'uga.  
Ofat kelsa  
Bizga nogoh,  
Bilguvchi ham ularmish.  
Falokatdan bizni ogoh  
Qilguvchi ham ularmish.  
Ammo  
Oliy ruhlar faqat —  
Pok dillarga yor emish.  
Qayda bo'lsa samimiyat —  
O'sha yerda bor emish.  
Ular yashar  
Bizdan o'zga,  
Benamoyon va besas.  
Sharpalari hech bir ko'zga,  
Hech quloqqa sezilmas.  
Ular bizni  
Ko'rib turar,  
Buni sezmas nodonlar.  
Ular bilan suhbat qurar  
Faqat  
Buyuk insonlar.  
Ular borki — bizlar odam,  
Haqiqat bor beomon.  
Yaxshilik ham,  
Yomonlik ham,  
Qaytar bir kun, begumon.

Biz mabodo  
    qilsak gunoh,  
Har qanchaki xilvatda,  
Oliy ruhlar  
Bo' lur ogoh,  
Jazo berar albatta.  
Lazzat shirin,  
Davlat shirin,  
Hech to'y maslar odamlar.  
Ruhlar borki,  
    bir-birlarin  
Yeb qo'y maslar odamlar.

Kel, ey ko'nglim,  
Ruhlarni sen,  
To borsanki, qilg'in yod.  
Kimlar uni vijdon desin,  
Kimlar desin  
E'tiqod.  
Ammo ular  
Dunyoda bor!  
Shak keltira ko'rmagin.  
Meni nopok yo'ldan  
Zinhor,  
Zinhor olib yurmagin.  
Hatto o'zing qolsang yolg'iz,  
Dema,  
Mendan ogoh yo'q,  
Yashamoqdan e'tiqodsiz,  
Ortiq yerda gunoh yo'q.

## BESHINCHI FASL

### Ozodlik

Bayroq qilib,  
El qo'zg'aldi —  
Nazrul Islom ismini.  
Tor zindondan uni oldi,  
Ammo faqat  
Jismini.  
Nazrul Islom  
Ozod,  
Ammo  
El qanoti qayrildi,  
Yosh,  
navqiron,  
Tirik siymo —  
Shoiridan ayrildi.  
Nazrul Islom  
She'ri butun  
Hindistonda yangrardi.  
Ammo shoir  
uni bugun  
Na tinglar,  
Na anglardi.  
Shoirini qo'yamay —  
Qo'lda —  
El ko'tarib eltardi.  
Na quvonar  
Shoir bundan  
Va na parvo etardi.  
Bir yonidan quchar hindu,

Bir yonidan musulmon.  
Ammo  
Hushdan ayrilgan u,  
Unga yotdir bu jahon.  
Tabriklaydi  
Uni Tokur,  
“Ozodliging muborak!”  
Ro‘znomalar qutlov yozur.  
Bular unga ne kerak?  
U na uyg‘oq  
Va na uxlar,  
Hissiz boqib turardi.  
Ruhi uning  
Oliy ruhlar  
Dargohida yurardi.  
Shoir topdi  
Erk chinakam,  
Ozod bo‘ldi tamoman.  
Bir yo‘l unga dardi olam  
Barbod bo‘ldi tamoman.  
U bir yo‘la  
Sho‘rishlardan,  
Savdolardan qutuldi.  
Jabr-u jafo ko‘rishlardan,  
Nizolardan qutuldi.  
Qutuldi  
    u sig‘olmagan,  
Sig‘dirmagan jahondan,  
Xolis bo‘ldi  
Ham zindondan,  
Ham zindondek zamondan.  
Ham tark etdi  
Bir yo‘l uni  
El dardidek og‘ir yuk.  
Bu dunyoda  
    qoldi tani,

Behush, beruh,  
va buyuk.

\* \* \*

Qirq yil o'tdi,  
Uzoq qirq yil.  
Bu dunyodan begona —  
Nazrul Islom  
Yashar bedil,  
Yashar darvesh,  
Devona.  
Qirq yil ichra  
Nelar ko'rib,  
Nelar chekdi  
Hindiston.  
Ammo  
ko'zi  
Ochiq turib,  
G'ofil o'tdi  
yoniq jon.  
Bosqinchilar  
Yurtdan ketdi —  
El g'azabi  
Quvoldi.  
Shoir  
Buni  
Na his etdi,  
Na ko'rdi,  
Na quvondi.  
Nazrul Islom  
Bu dunyoda  
Yetmish besh yil  
Yashadi.  
Ammo  
O'ttiz ikki yoshda  
Bu dunyoni

Tashladi.  
Shoir umri  
Qoldi she'rdam,  
Qoldi  
Yoniq dostonida.  
Bitganlari  
                  uning —  
                                  yerdam,  
Ruhi esa —  
                  osmonida.



## Zohidlar va oriflar haqida hikoyat

Bu ming yillik hikoyatdir,  
Bayon etgan qosidlar.  
Tarki dunyo  
Saodatdir,  
Deb aytdilar zohidlar.  
Tiriklikda  
Ular o'lim  
Sharobini totdilar.  
Bu olamdan ayru bo'lib,  
G'orga kirib yotdilar.  
Ahli zuhud bandalarni  
Darveshlikka chorladi.  
Lek kiymadi jandalarni,  
Orif inson  
Bormadi.  
Zohid so'zi:  
Kech jahondin,  
Tinglagil shayx maqolin.  
Orif so'zi:  
Oллоh zamin  
Uzra sochgani jamolin.  
Zohid aytdi:  
Sharob harom,  
Osiy erur mayparast.  
Lekin shoir Umar Xayyom  
Ishq mayiga bo'ldi mast.  
Zohid dedi,  
Hur-u g'ilmon,  
Orif dedi, jonona.  
Qays Laylining ishq bilan  
Majnun bo'ldi devona.

Tun borki,  
Tong bor unga zid,  
Suv bordirki — alanga.  
Tug'ulganda  
Yerda zohid,  
Orif keldi olamga.  
Vahdat mayin  
To'la ichib,  
Shavqqa to'ldi shoirlar.  
Zohidlarga qarshi chiqib,  
Orif bo'ldi shoirlar.  
To dunyoga kelmish bashar,  
Bir jabhada kelib duch,  
Birga yashar,  
Ham kurashar  
Inson aro ikki kuch.  
Boshlar boshqa-boshqa yo'ldan  
Boshqa-boshqa tilagi —  
Zohid yanglig' aqli bilan,  
Orif yanglig' yuragi.  
Biri tutib  
Aysh yo'lin berk,  
Tiyilmoqqa undaydi.  
Biri esa shaloladek  
Quyilmoqqa undaydi.  
Men ham bitta sargashta jon,  
O'rta yo'lda tururman.  
Ular aro ikki jahon  
Ovorasi erurman.  
She'r, ishq faslin  
Ilk onidan  
Rahnamodir qalb menga.  
Balki she'rning osmonidan  
Tushmoq chog'i zaminga...  
Ey ko'ngil, bo'l sodiq habib,  
Meni zinhor tashlama.

Habibim bo'l, ammo hadeb  
O'z ko'yingga boshlama.  
Yolg'iz manim desa fikrat,  
Yo'q, manim, deb da'vo qil.  
Lekin gohi,  
Yetdi fursat,  
Fikratga ham oshno qil.  
Tutma menga ishq yo'lin berk,  
Mayli, toshgin, quyilgin.  
Ammo o'zga berma ko'p erk,  
Qirqni ko'rding, quyilgin.  
Bas, o'y surma, senga dunyo —  
Asroridan ne g'am bor?  
Bu dunyoda  
Odil tanho  
Vaqt atalgan hakam bor!

## Nihoyat

*Dehli, 20-mart, 1979-yil*

O't balosi,  
Suv balosi,  
Ortiq yerda balo yo'q.  
Lek ofatning yo'q davosi —  
Bosh ko'tarsa  
Xaloyiq.  
O't-u suvga tadbir bordir,  
El g'azabi — beomon.  
O't nochordir,  
Suv nochordir,  
Qo'zg'alsa och olomon.  
Shunday deyman  
To'xtab qolgan  
Avtobusda o'ltirib.  
Namoyishga el qo'zg'algan,  
Ko'chalarni to'ldirib  
Oqib kelar yalangoyoq —  
Dehqon, kosib, koranda.  
Ikki yuz ming  
Qo'li qadoq,  
Ikki yuz ming  
Och banda.  
“Bering bizga yer bilan suv,  
Mehnat bering,  
Bering non”.  
Bosh ko'targan  
Tamilnadu,  
Bosh ko'targan Rajaston.  
“Bu tuproqda,  
Ayting, inson —

Nega buncha beqadr?  
Bizda ham bor orzu,  
                                armon,  
Gunohimiz nimadir?  
Yo aybimiz —  
Bizning maskan —  
Shu jafokash vatanda?  
Qarolik yo o't tutashgan  
Qaro ko'zda,  
Badanda?  
Birovlarda har narsa bor,  
Bizda esa...  
Nega biz —  
Faqat chayir,  
                                ammo nochor  
Qo'lgagina egamiz?  
Yaralishda  
Ham mahsharda  
Tengmiz,  
Inson bo'lamiz.  
Ne uchun biz ko'chalarda  
Tug'ilamiz,  
O'lamiz?  
Asli qismat  
                                yo asirlik,  
Iztirob, ko'z yoshmidi?  
Sharq chindan ham ming asrlik  
Qotib qolgan toshmidi?"  
El oqimi qator-qator,  
Yo'q,  
Shashqator —  
                                ko'zdan dur.  
Oqib kelar  
Panjob,  
Bihor,

Maysur,  
Assom,  
Manipur...  
Oqib kelar ufq tagidan  
So'ngsiz qora olomon.  
Bu —  
Hindiston yuragidan  
Silqib oqqan  
Qora qon.  
Men bu fursat  
Ishtiroksiz  
Derazadan qarayman,  
Ne qilayki,  
Bunda yolg'iz  
Tomoshaga yarayman.  
Negaki,  
Men o'zga eldan,  
Balki o'zga zamondan,  
Balki bunda uchib kelgan  
Yiroq yulduz tomondan —  
Bir mehmonman.  
Hayrat ko'zin  
Mash'al qilib boqaman.  
Xayolan  
Shul mavjli to'lqin  
Quchog'ida oqaman.  
Jisman chetda,  
Ammo ruhan  
G'alayonda men ham bor.  
Nazrul Islom  
Ruhi bilan  
Bormoqdaman bir qator.  
Men ham alvon  
Tig' ko'tardim.  
Shu el dog'i dog'imdir.

Dardi uning —  
Mening dardim,  
Ohi — mening ohimdir.

\* \* \*

Ko'tarolmay  
Dardlar yukin,  
Zamin qalqib turibdi.  
Nazrul Islom  
Ruhi bukun  
Olam kezib yuribdi.  
Ilhom chog'i  
Dil zamindan  
Ko'k toqiga o'rlaydi.  
Nazrul Islom  
Ruhi mendan  
Shunda hisob so'raydi.  
Shoir bo'lib  
Elga bukun  
Darkormisan,  
          der menga.  
Fidolikka xalqing uchun  
Tayyormisan,  
          der menga.

Der:  
"Shoirlik — yurakda qon —  
Silqib turgan jarohat.  
Tilamasman senga, o'g'lon.  
Osuda baxt,  
Farog'at.  
Tilamasman bir zum orom,  
To tiriksan,  
Bedor bo'l.  
Azob bersin senga ilhom,  
She'r dardida bemor bo'l.  
Taqdiringdan senga dunyo

Rohatlarin soʻrmasman.  
Oʻz qismatim  
          senga ammo  
Sira ravo koʻrmasman.  
“Saqla, — deydi, —  
                  yurak qoʻring.  
Dil otashing soʻnmasin.  
Umring ado boʻlmay turib  
Choʻgʻing ado boʻlmasin”.

1978—1979



## Nido

(*Bag'ishlov*)

Hayqiraman,  
Tog'lar bag'ridan  
Gumburlagan sado keladi,  
Ona Yerning otash qa'ridan  
"O'g'lim!" degan nido keladi.  
"O'g'lim!"  
Vujudimni chulg'ar alanga,  
Bo'g'zimga tiqilar hayajon.  
— Mana men, o'g'lingiz,  
Dardli olamga  
Sizdan tanho yodgor,  
So'ylang, otajon!  
So'ylang, bir daqiqa quloq solayin,  
Ovozingiz tinglab to'yolmaganman.  
Bir marta yo'qotib topolmaganman,  
Xayolimda tiklab olayin.  
Otajon!  
Men axir qutlug' bu so'zni  
Yigirma yil olmadim tilga,  
Yigirma yil saqladim dilda.  
Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,  
So'ylang, eshitaman.  
Vujudim tilka,  
Yuragimni yoqar o'tli iztirob,  
Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.  
Bag'rim o'yib,  
Bu kun menga bermoqda azob  
Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q.  
Silqib oqayotir

Ko'kragimdan qon.  
Qalbim o'rtamoqda so'ngsiz armonim...  
Yurak qonim bilan bitgan dostonim  
Sizga bag'ishladim,  
Otajon!

\* \* \*

Xayolning tumanli pardasi aro  
Yillar ko'z oldimda charx urayotir.  
Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro  
Olov bolaligim yugurayotir.  
Dunyo qayg'usiga bo'lmagan oshno,  
Qah-qah urayotir,  
Barq urayotir.  
Bilmas, boshi uzra bulutli samo  
Chaqmoq chaqayotir,  
Guldurayotir.  
Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo  
Qasos so'rayotir,  
Bong urayotir...

Qadamlar,  
Qadamlar,  
Og'ir qadamlar...  
Etiklar zarbidan titraydi tuproq.  
Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?  
Nahotki, yo'llari shunchalar yiroq!  
— Ana, ko'ryapsanmi?  
Mening dadamlar!  
Dada!!!  
Ovozim hech chiqmaydi biroq.  
Yuguraman — ortga ketar qadamlar,  
Yig'layman — ko'zimga kelmaydi namlar,  
Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!  
Bo'g'zimda alamlar,  
Achchiq alamlar,

Yo'lning o'rtasida turibman.  
Shu choq —  
Poyezd qichqiradi,  
To'xtang, odamlar!  
Qayga ketmoqdasiz?  
Qani dadamlar?!  
Tepamda yonadi zangori chiroq.

Cho'chib uyg'onaman,  
Onam qoshimda.  
Mehribon qo'llari  
Otash boshimda:  
— Nega yig'layapsan,  
Yolg'izim, qo'zim?  
Tun uzoq, uxlay qol,  
Ko'zlaringni yum.  
Orom ol, men senga  
Allalar aytay.  
Tongda peshonangdan  
O'pib uyg'otay.  
Ana, derazangga  
Qo'nibdi hilol.  
Boshingga egilib  
So'rmoqchi savol.  
Sening kiprigingga  
Sochmoq bo'lib zar,  
Hilol tegrasida  
O'ynar yulduzlar.  
Men sening baxtingman  
Deganday go'yo  
Imlab chorlamoqda  
Yoqut Surayyo.  
Senikidir bular,  
Seniki bari.  
Seniki osmonning  
Zar qandillari.

Somonchining yo'li —  
Sening yo'llaring,  
Uzatsang Zuhroga  
Yetar qo'llaring.  
Ulg'ay, bolajonim,  
Ulg'aygin tezroq.  
Sening yo'llaringga  
Yulduzlar mushtoq.  
Hozircha orom ol,  
Yolg'izim, qo'zim.  
Tun uzoq, uxlayqol,  
Ko'zlaringni yum.

Olis sohillarda,  
Ufqdan nari  
O'lim sochmoqdadir  
Yov quzg'unlari.  
O'lim sochmoqdadir  
Elga beayov.  
Shahar, qishloqlarni  
Yutmoqda olov.  
O'sha olis yurtda  
Qon kechib hozir  
Otang hayot uchun  
Jang qilayotir.  
Ellarning erk degan  
Sof tilagi deb,  
Jahonning nurafshon  
Kelajagi deb,  
Ofat solmasin deb  
Olamga qotil,  
Otang uzoq yurtda  
Jang qilayotir.  
Sen uchun, men uchun,  
O'z uchun emas,  
Faqat o'zbek va yo

Rus uchun emas,  
Butun Yer — undagi  
Bor avlod uchun,  
Dunyoda eng qutlugʻ  
Eʼtiqod uchun  
Uzoq oʻlkalarda  
Qon kechib hozir  
Otang hayot uchun  
Jang qilayotir.  
Sen uxla, yolgʻizim,  
Sen uxla, qoʻzim.  
Bir nafas orom ol,  
Koʻzlaringni yum.  
Bu kunlar albatta  
Oʻtib ketadi.  
Bashar jarohati  
Bitib ketadi.  
Ona Yer qaytadan  
Yasharar bir kun.  
Olam nur qoʻynida  
Yashnar lolagun.  
Jangu jadallarga  
Kelur intiho,  
Bizning dunyo boʻlur  
Urushsiz dunyo.  
Bu kunlardan qolur  
Faqat xotira.  
Ammo xalq jafoni  
Unutmas sira.  
Bu kunlar ketar-u,  
Gʻam, dogʻi qolur.  
Yuraklarga solgan  
Firogʻi qolur.  
Avlod-avlodlarga,  
Zamon-zamonga  
Abadiy, abadiy

Sabog'i qolur.  
Sen ham unutmassan,  
Yuragim, qo'zim.  
Hozircha tinch uxla,  
Ko'zlaringni yum.

Vaqt kelar, ulg'ayib,  
Odam bo'larsan.  
Ilm olib sohibi  
Olam bo'larsan.  
Sen bizlar ko'rganni  
Ko'rmagaysan hech,  
G'urbat yo'llaridan  
Yurmagaysan hech.  
Olam to'la quyosh,  
Qalbing to'la nur,  
Oydin bir zamonda  
Yashaysan masrur.  
Bizlar ham o'tamiz  
Vaqt kelib bir kun.  
Sizlarga qoladi  
Muqaddas zamin.  
Siz uni avaylab  
Kaftda tutasiz,  
Sharaf yo'llaridan  
Olib o'tasiz.  
Otash alangaga  
Tutmaysiz uni,  
Dahshat ummoniga  
Otmaysiz uni.  
Zamin tegrasiga  
Oltin kamalak  
O'raydi yetti xil  
Nurdan chamberak.  
Siz uning bag'rini  
Pora qilmaysiz,

Otalar xokini  
Saqlab muborak.  
Sen shunday davronda  
Yashaysan, qo'zim.  
Hozircha orom ol,  
Ko'zlaringni yum...

Boshimizda otashin falak,  
Poyimizda otashin tuproq,  
Qo'limizda yog'och kamalak,  
Ostimizda yog'och arg'umoq,  
Oppoq changdir egnu boshimiz,  
Oppoq changdir ko'z-u qoshimiz.  
Ko'r-u karmiz,  
Beshdan oltiga  
Endigina o'tgan yoshimiz,  
Ko'cha-ko'yda ko'tarib suron  
Yuguramiz sahardan to kech,  
Olam uzra kezar zo'r bo'ron,  
Biz bu haqda o'ylamaymiz hech.  
"Urush-urush" o'yin bo'lsa bas,  
Titratamiz ko'k-u zaminni.  
Kim o'ylabdi deysiz u nafas  
Bu urushning rostakamini.  
Burchaklardan bir-birimizni  
Yog'och miltiq bilan otamiz,  
Biz bilmaymiz:  
Qay birimizning  
O'qqa uchdi bu vaqt otamiz.  
Ko'ksimizni ushlagancha jim  
Yiqilamiz,  
O'lgan bo'lamiz,  
Biz dunyoda rostakam o'lim  
Borligini qaydan bilamiz?!  
Dahshat solib kezarkan u dam  
Uzoqlarda jang guldurosi,

Bizning qishloq ko'chasida ham  
Yangrar edi  
Aksi sadosi.

\* \* \*

Quyosh botar,  
Oqshom cho'kar ko'cha-ko'yga,  
Tarqalamiz uy-uyga-yu tepa to'yga,  
Tun boshlanar,  
Menga charchoq bilinmaydi,  
Kiprigimga uyqu sira ilinmaydi.  
Murg'ak fikrim yetaklaydi xayollarga,  
Onam qo'ynin to'ldiraman savollarga.  
"Ayting, aya, mening dadam qahramonmi?  
Tog'larni ham qulatuvchi pahlavonmi?  
To'pponchasi bormi uning cho'ntagida?  
Ordenlari juda ko'pmi ko'kragida?  
Mening dadam samolyotda uchadimi?  
Osmonlardan parashutda tushadimi?  
O'tkir po'lat qilichini qo'lga olib,  
Dushmanlarning yuragiga qo'rquv solib,  
Katta jangga kiradimi yolg'iz o'zi?  
Yelkasida yonadimi besh yulduzi?  
Ayting, dadam meni yaxshi ko'radimi?  
Kelganida toycha olib beradimi?  
Ko'chalarda toychog'imni yetaklatib,  
Qo'llarimdan ushlab olib yuradimi?  
O'sha kunlar tezroqqina bo'la qolsin,  
Ayting, dadam hayallamay kela qolsin".

44-yil

Sentabr tongi otdi.

Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg'otdi.  
Ko'k jildimda alifbe va bir burda non,  
Birinchi bor qadam qo'ydim maktab tomon.



O'yinlardan ancha erta to'ygan edim,  
Kitoblarga barvaqt havas qo'ygan edim.  
Yod bilardim alifbening harflarini,  
O'qir edim informbyuro xabarini.  
Juman "pochta" dadamdan xat keltirgan kun  
Katta bayram bo'lar edi mening uchun.  
O'qir edim yuz hijjalab, yuz tutilib,  
Takrorlardim yirtilguncha xat titilib.  
Yayrar edim ma'nosini uqarkanman,  
Dadam xatin o'qib savod chiqarganman.

Bu kun yana xat olganmiz,  
Ajoyib xat,  
Gospitaldan chiqqan emish sog'-salomat,  
Boshidagi jarohati bitgan emish,  
Hatto o'rni bilinmasdan ketgan emish.  
Berlin tomon tushar endi yo'lim debdi.  
Xat so'ngida yaxshi o'qi, o'g'lim, debdi.  
Shu kun tunda uch chiziqli daftarimga,  
Oro berib katta-katta harflarimga,  
Xira chiroq yorug'ida ko'z ishqalab —  
Dadamga xat yozmoq uchun surdim qalam:

"Dadajon!"

Men sizni juda sog'indim.  
Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.  
Kelib qolarmishsiz ertami-indin,  
Ayam shunday dedi,  
Rostmi shu, ayting?!

Dada,  
U kun sizni tushimda ko'rdim.  
Oq otda keldingiz,  
So'radingiz suv.  
Men buni ayamga gapirib berdim.  
Dadang keladi, deb aytdi,  
Rostmi shu?..

Rustamning akasi urushdan qaytdi,  
Qo'ltiqtayog'i bor,  
Bir oyog'i yo'q,  
Rustam aytib berdi:  
Ataka payti  
Tizzasidan olib ketgan emish o'q...  
Xol aka qaytgandi uyga to'satdan,  
O'g'li, dadajon, deb chopib kelibdi.  
Ota quchay desa qo'li yo'q ekan,  
Tik turgan joyida yig'layveribdi.  
Darsga kelmay qoldi  
Tunov kun Tal'at,  
Muallim urishsa turaverdi jim.  
Dadasidan kelgan ekan qoraxat.  
Hammamiz yig'ladik,  
Hatto muallim...  
Dadajon!  
Sizga o'q tegmasin hecham,  
Men uchun ham tezroq qayting salomat,  
Buvim aytgan,  
Agar men tilak qilsam,  
Tilagim bo'larmish doim ijobat.  
Rost aytaman,  
Sizni juda sog'indim,  
Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng,  
Kelib qolasizmi ertami-indin?  
Kutaman,  
Dadajon,  
                    albatta keling".  
Hijron kechalari g'oyatda uzun,  
Ayriliq yo'llari olis nihoyat.  
Ko'chaga chiqaman yuz bora har kun,  
Ko'zlarim nigoron,  
Kelarmikan xat?  
Tongda turganda ham,  
Kun botganda ham,

Hatto kechalari qilolmay toqat,  
Eshikka qarayman,  
Chekaman alam.  
Intizor bo'laman,  
Kelarmikan xat?  
Men qaydan bilibman,  
Yo'l bosar ekan  
Mening murg'ak xatim bekatma-bekat.  
U yoqdan,  
Xuddi u borar manzildan  
Yo'lga chiqqan edi mash'um qoraxat.  
Qosh, ko'zlaring otangga o'xshar.  
Deyishadi bilganlar doim.  
So'ng xo'rsinib qo'shib qo'yishar:  
O'xshamasin umring, iloyim.  
Otam tutgan mash'alni ushlab,  
O'sha yo'ldan boraman men ham.  
Mayli edi  
Otamdek yashab,  
To so'nggi dam  
Unga o'xshasam.  
Bobolarning hikmati  
Hayotga yorug' yo'ldir.  
Otang bolasi bo'lma,  
Odam bolasi bo'l, der.  
Bu so'zni ilk bor menga  
O'rgatgan otam edi.  
Men otam farzandiman,  
U esa odam edi.  
Qirq birinchi yillarning  
Dahshati ko'z oldimda,  
Go'dak edim, otamni  
Kuzatganim yodimda.  
U ko'plar baxti uchun  
Kirar ekan zo'r jangga.  
Onam boshimni silab,

O'xsha, degan otangga.  
Mening mardlik maktabim  
Jonfido otam edi.  
Men otam farzandiman,  
U esa odam edi.  
Men otam bosib o'tgan  
Qonli yo'lni o'tmasman.  
Ammo shonli hayotin  
Bir umr unutmaman.  
Ona Vatan ko'ksiga  
Qalqon bo'lgan otamning,  
Ko'plar baxti yo'lida  
Qurbon bo'lgan otamning —  
Aziz nomin qalbidam  
Vijdonimdek saqladim.  
Uning o'lmas ruhini  
Shod etmoqdir maqsadim.  
Umrimni fido etay  
U jon bergan Vatanga.  
El mendan rozi bo'lsin  
O'xshabsan, deb otangga.

\* \* \*

Quzg'unning qanotiday  
Qaro edi o'sha tun.  
Na milt etgan yulduz bor,  
Na yilt etgan bir uchqun.  
Kech kuz edi,  
Tund kecha,  
Yer-ko'k mungli, borliq g'ash,  
Qor ezg'ilab yog'ardi  
Yomg'ir bilan aralash.  
Sukunat.  
Jang tin olar,  
Faqat gohi-gohida

Mushak uchib so'nadi  
Dushman qarorgohida.  
Yarim tun zulmatida  
Tepalikni qoralab  
To'rt soya emaklardi  
Chakalakzor oralab.  
Har zamon to'xtab-to'xtab  
Hordiq olishar edi,  
Jim qolib sukunatga  
Quloq solishar edi.  
Mana, ular o'rmonning  
Chekkasidan o'tdilar  
Va nihoyat daryoning  
Sohiliga yetdilar.  
To'xtadilar, bir nafas  
Ko'z tikdilar yiroqqa.  
Atrof jim,  
Faqat daryo  
Urilardi qirg'oqqa.  
Sirli tun, butun borliq  
Sehrlangan singari.  
Shunday kecha to'rtovlon  
Yo'l olmishlar qay sari?

Qay manzilga shoshishar  
Shu sovuqda, shu namda?  
Go'yo qor bor,  
Yomg'ir bor,  
Tun bor faqat olamda...  
Avtomatlar bosh uzra  
Ko'tarildi tug'simon.  
Birin-ketin daryodan  
Suzib ketdi to'rtovlon.  
Jim, sharpasiz suzishar,  
Yaqin qoldi qirg'oqqa,  
Yot, notanish tovushlar

Eshitilar quloqqa.  
Mana sohil — tik qirg'oq,  
Atrof yalang,  
Narida  
Ikki dushman soqchisi  
Ko'rinar tun bag'rida.  
Bir-birovga tikildi  
Bir so'z demay to'rt juft ko'z.  
Shu qarashning o'zida  
Aytilgandi barcha so'z.  
Tek qotdilar.  
Komandir  
Imo qildi nihoyat,  
Tun bag'riga emaklab  
Kirib ketdi to'rt soya.  
Nogahon o'q otildi,  
O't chaqnadi ketma-ket.  
Dushman sezdi,  
Razvedka  
Jangga kirdi betma-bet.  
Granata portladi,  
Tilga kirdi avtomat.  
Bir yonda butun bir polk,  
Bir yonda to'rtta soldat.  
Ikki yondan o'q yog'ar,  
Olov yog'ar beshafqat,  
Bir tomonda tahlika,  
Bir tomonda jasorat.  
O'rtada tekis kenglik,  
O'rtada quyuuq zulmat.  
Bir tomonda yovuzlik,  
Bir tomonda adolat.  
Qancha davom etdi jang  
Bilar faqat qaro tun,  
Bilar faqat tepalik,  
Ammo bular lol va gung.

Tongga yaqin qor tindi,  
Asta yorishdi osmon.  
Tepalikka ilk nurin  
Sochdi xurshidi jahon.  
Bunda yerni quchgancha  
Toshlarga qo'yib boshin,  
To'rt o'g'lon tinch uxlardi  
Ko'kragida qo'rg'oshin.  
Tungi og'ir jangdan so'ng  
Go'yo tin olar bari.  
Ona bag'rida yotgan  
Ma'sum go'dak singari.  
Shu tong sabo yig'ladi  
Chidolmay bu firoqqa.  
Shu tong daryo yig'ladi  
Boshin urib qirg'oqqa.  
Oq, momiq bulutlarning  
Bag'ri chok-chok so'kildi.  
Shu tong oftob nurlari  
Ko'z yosh bo'lib to'kildi.  
O'rmonlar shovillagan  
Olis yurtida hali ham  
Nomsiz tepalik uzra  
Uxlab yotibdi otam.

\* \* \*

Tengdoshim,  
Asrdosh birodar!  
Kel, bir on jim o'yga cho'maylik.  
Bu yerda

yotibdi

fidolar.

Kel, uni

gullarga

ko'maylik.

Bu yerda  
baxt bo'lsin,  
nur bo'lsin,  
Bo'lmasin,  
qora tun  
zulmati.

Bu yerda  
yuraklar  
hur bo'lsin.

Qaytmasin,  
u kunlar  
dahshati.

Tengdoshim,  
asrdosh birodar!  
Uyg'oq bo'l,  
hushyor boq  
olamga.

Bu yerni  
quchmasin  
alanga,

Qabrida  
tinch yotsin fidolar.

Eshit,  
ingrayapti  
Ona Yer  
Qo'ltiqtayoqlarning  
zahmidan,

Bu tuproq  
yuragi  
poradir  
Atom zontlarining  
vahmidan.

Eshit,  
chorlayapti  
Onaa Yer,



Ko'ksida  
                  olovli  
                                  oh-faryod.  
Asrdosh birodar,  
                                  qo'lni ber,  
Kel, Yerga  
                  qilaylik  
                                  qasamyod:  
Bo'lurmiz  
                  gal kelsa  
                                  har birimizga  
Tinchlik janggohining  
                                  fidosi.  
Bu senga,  
                  bu menga,  
                                  bu bizga  
Yigirmanchi asr nidosi.  
Yiroqlarda qoldi  
Uqubatli yillar,  
Yer ostida yotar topganlar zavol.  
Qolganlar umrning  
Sarhisobin qilar,  
Soch oqiga boqib surarlar xayol.  
Yillar o'tdi-ketdi  
Dovulini qoqib.  
Tuproqqa berildi ne-ne aziz jon.  
Bizlar xayollarning  
To'lqinida oqib,  
U kunlar haqida to'qiyimiz doston.  
Ammo o'lganlarga  
She'r, dostondan ne naf,  
Ne foyda yig'lashdan qalb dardin aytib.  
Ming yil shon o'qisak,  
Ming yil aytsak sharaf,  
Ketganlar dunyoga kelmaydi qaytib.  
Nega egilmasin

Odam ketsa odam,  
Ustunga zo'r kelar qulasa ustun.  
Bu tashvishli dunyo,  
Sermashaqqat olam  
Bizning yelkamizda qoldi-ku, do'stim!  
Uni bo'ronlardan,  
Quyoshli yo'llardan  
Nurli istiqbolga olib o'tamiz.  
Biz uni olganmiz  
Tabarruk qo'llardan,  
Tabarruk qo'llarga eltib tutamiz.  
Avlodlar uchun ham  
Qutlug' bo'lar albat  
Yer uzra to'kilgan ko'z yosh, qon va ter.  
Bepoyon kenglikda  
Charx uradi abad  
Ulkan yurak shaklidagi Yer...

1964

## Orzu chashmasi

(Qora dengiz ertagi)

*Kecha oydin, bahor ayyomi,  
Qatra-qatra yosh to'kar buloq.*

**Mirtemir**

### Debocha

Moviy dengiz sohillari,  
Lojuvard osmon,  
Jonbaxsh havo, bepoyon suv,  
So'lim tabiat.  
Yer yuzida jannat bo'lib  
Yaralgan makon  
Bugun menga orom bermas,  
Bermas halovat.  
Chag'alaydek charx uradi  
Betinch o'ylarim,  
Tug'yon ichra jim kezaman  
Dengiz bo'ylarin.  
Bu dunyoning tashvishlarin  
Unutib tamom,  
Barcha bunda osoyishta  
Olmoqda orom.  
Bunga mening yo'qmi haqqim,  
Yo'qmi huquqim?  
Baxtsizligim bumi menim,  
Saodatimmi?  
Boshqalarga orom bergan  
Bu go'zal Qrim  
Olib qo'ydi tinchligimni,  
Halovatimni.

Men-ku bunga qog'ozlardan  
Qochib kelgandim,  
Tabiatga quchog'imni  
Ochib kelgandim,  
Daftarlarim qaylargadir  
Sochib kelgandim...  
Yana o'zing kerak bo'lding,  
Kel, ey qalamim.  
Sensiz menga yashamoqning  
O'zi yot ekan,  
Kel, ey uzoq kechalarda  
Yolg'iz hamdamim.

\* \* \*

“Qora dengiz,  
To'lqinli dengiz,  
Etagingga tutashgan osmon.  
Cho'kib yotar ostingda cheksiz  
Afsona-yu ertak va doston.  
Ne oshiqlar sevgisi bilan  
Yuragini ko'mganlar senga.  
Dengiz,  
Ko'hna rivoyatlardan  
Bittasini so'ylab ber menga”.  
Tebranadi  
Ohista to'lqin,  
Moviy dengiz tilga kiradi.  
So'ylab g'amli o'tmish ertagin,  
Qoyalarga boshin uradi...

## 1

Go'zal edi,  
Yosh edi Orzu,  
Sevgi uchun yaralgan sanam.  
Erkin edi go'yoki ohu,  
Tiniq edi orzulari ham.

Lablarida doimo xanda,  
Ko'zlarida ishva-noz edi.  
Bog'lar aro xirom etganda  
Gullar unga poyandoz edi.  
G'uncha totmay  
Quyosh bo'sasin,  
Ufq yopmay yuziga alvon,  
Yelkasiga qo'yib ko'zasin  
Yo'l olardi  
Ko'k chashma tomon.  
Hilpirardi yel bilan o'ynab  
Oppoq shohi ro'mol boshida.  
Shirin-shirin o'ylarin o'ylab  
O'ltirardi  
Chashma qoshida.  
O'ltirardi sochin taroqlab,  
Aks etardi ko'zguda jamol.  
Kelajagin,  
Baxtin so'roqlab  
Goh chashmaga berardi savol.  
Qomatining bandasi sarvlar  
Boshi uzra tashlardi soya,  
Mayingina shildirab suvlar  
So'ylar edi  
Qizga hikoya:  
"Ufqlarga tutashgan  
Ko'k dengizning ortida  
Bir o'lka bor.  
Unda el  
Siynasi chok, bag'ri qon.  
Qaro tun sochin yoygan  
Bu istibdod yurtida  
Sulton nomli bir zolim  
Xalqni ezar beomon.  
Tutqun qizlarga to'la  
Unda haramxonalar,

Dengiz o'sha baxtsizlar  
Ko'z yoshidan sho'r bo'lgan.  
Farzandlari hajrida  
Zardob yutib onalar  
Intizor kechalarda  
Yig'lay-yig'lay ko'r bo'lgan..."  
Hikoyaga quloq solib qiz  
Uzoq-uzoq  
O'yga tolardi.  
To'lqin urgan poyonsiz dengiz  
Yuragiga g'uluv solardi.  
Ko'rinardi  
Bari ko'ziga  
Go'yo tungi vahimali tush,  
Yelkasida suv to'la ko'za,  
Qaytar edi  
Uyiga xomush.

## 2

Oylar o'tib,  
Fasllar o'tib,  
Yosh qo'shildi qizning yoshiga.  
Xaridorlar ostona o'pib  
Kelaberdi  
Ota qoshiga.  
Uzoq-yaqin ovullardan-u  
Olis-yovuq elatlardan ham  
Kelaberdi.  
Barida orzu —  
Orzu deya atalgan sanam.  
Birisining qo'lida dunyo,  
Birisida yoshlik va qudrat,  
Biri elda tengi yo'q dono,  
Biri esa  
Tanho xushsurat.

Yana biri sohibkor bog'bon,  
Tosh ustida undirguvchi gul.  
Biri naqqosh,  
Biri suxandon,  
Biri esa qo'shiqchi-bulbul...  
Xaridorman degan damo-dam  
Kelaberdi ota qoshiga.  
Kelaberdi,  
Ketaberdi ham  
Tole qushi qo'nmay boshiga.

### 3

Aslida-chi,  
Go'zal Orzuning  
O'zga yorda edi tilagi.  
Toza gulday qalbida uning  
Barg yozgandi  
Sevgi kurtagi.

Ayni bahor kulgan chog' edi,  
Sayil joyi so'lim bog' edi.  
El yig'ilgan Navro'z bazmiga,  
Barcha xushnud,  
Dillar chog' edi.  
Avjda edi o'yin va xanda,  
Avjda edi tanbur, chirmanda.  
Yoshligini eslardi chollar  
Qiz, yigitlar lapar aytganda.  
Lekin  
Cho'mgan kabi qayg'uga,  
Bir chekkada o'ltirib hamon  
Qo'shilmasdi  
O'yin-kulgiga  
Sodda yigit —  
Kamsuxan cho'pon.

Eng so'ngida davraga tushib  
Asta qo'lga oldi sozini.  
Mayin, dilbar ohangga qo'shib  
So'ylab ketdi  
Ko'ngil rozini...

Kuy chashmaday sokin oqardi,  
Jim qolgandi barcha hang-u mang.  
Bu qo'shiqda oshiqning dardi  
El dardiga edi hamohang.  
Orzu ham bor edi sayilda,  
Qo'shiqqa band edi xayoli.  
Shu yigitga  
Mahliyo bo'lib  
Boshdan tushdi shohi ro'moli...

#### 4

Shu kech uyga qaytdi-yu Orzu,  
Ololmadi tun bo'yi orom.  
Xayol qushi ko'kka uchdi-yu,  
Tinchligini yo'qotdi tamom.  
Mag'rur qizning shumidi holi,  
Nahot, yigit dunyoda tanho?  
Qizga uning shirin xayoli  
Kechalari bo'ldi oshno.  
Qani uning  
Dilshod chog'lari,  
Ohu kabi erka yurishlar?  
Qani endi  
Yuksak tog'larni  
Jaranglatib xanda urishlar?  
Ishq savdosi u kutmay hali  
Otash soldi shirin joniga.  
Dilin ochib  
Najot so'rgali



Keldi Orzu chashma yoniga.  
"Ko'rgil, chashmam,  
Parishon holim,  
Bir yigitning bo'ldim shaydosi.  
So'yla, chashmam,  
So'yla, zilolim,  
Ishq dardining bormi davosi?  
Erkak bo'lsam,  
Sevib qolsam yor,  
Yuragimni qilardim bayon.  
Ayt,  
Bo'laymi sevgimga iqror,  
Yo ishqimni tutaymi pinhon?"

Shunda chashma  
Tilga kirdi-yu  
So'ylay ketdi chuldirab biyron:  
"Ishq dard emas,  
Ishq saodat-ku,  
Tutma aslo sevgingni pinhon!  
Baxtiyorsan,  
Yig'lama, o, qiz!  
Qalbingni yoz sevgi xatiga.  
Maktubingni men bilan oqiz,  
Oqiz, joylab gulbarg qatiga.  
Tog'-toshlarni oralab yurib,  
Sevganingni topaman albat,  
Daladami,  
Qirdami ko'rib,  
Qo'llariga tutqazaman xat.  
Muhabbati bo'lsa uning ham,  
Majnun kabi yelib qoladi.  
Seni izlab,  
Ishongil, erkam,  
Bir kun o'zi kelib qoladi".

Qaro tunda  
 Oq qog'oz uzra  
 Ko'z yoshini yulduzday to'kib,  
 Qalbidagi eng hassos so'z-la  
 Orzu yozdi  
 Yigitga maktub:  
 "Nomingni ham bilmayman, yigit,  
 Maktub yozdim va lekin senga.  
 Sayilgohda u kun ko'rdim-u  
 Yuragimda yondi alanga.  
 Senga maktub yozmas edim ham,  
 Qizga ishqdan so'z ochmoq ordir.  
 Lekin netay o'rtanib sevsam,  
 Aytmasga ne ilojim bordir?  
 O'sha kuni yonib kuylading,  
 Yondi shunda mening ham qalxim.  
 Ayt-chi, yigit,  
 Kimni o'ylading,  
 Kuylaganing kim edi?  
 Ayt, kim?  
 Kim o'rtadi hajrida seni,  
 Kimga orzung bo'lmoq muyassar?  
 Quvonardim,  
 Ey tog' lochini,  
 Topgan bo'lsang baxtingni agar.  
 Men esam-chi,  
 Shaydoying bo'lib,  
 Yoding bilan yashayman mudom.  
 Xatim olsang,  
 Yetkazsin gulim  
 Seni sevgan Orzudan salom".

Sayilgohda  
 U kun chindan ham

Xomush edi Og'ado'st cho'pon.  
Barcha xurram,  
Faqat unda g'am,  
Qalbi edi dard bilan so'zon.  
Cho'pon bir kun  
Chashma qoshida  
O'ltirardi nay chalib yolg'iz.  
Shunda,  
Oppoq ro'mol boshida  
Suvga chiqdi bir dilrabo qiz.  
Qaradi-yu  
Lol qoldi cho'pon,  
Tosh ortiga oldi o'zini.  
Uzoq-uzoq termildi pinhon,  
Parivashdan uzmay ko'zini.  
Bunday qaddu  
Bunday jamolni  
Ko'rmagandi Og'ado'st aslo.  
O'sha kundan  
Uning xayolin  
Band ayladi shu oftob siymo.  
Shu bo'ldi-yu  
Og'ado'st har kun  
Kelar bo'ldi buloq boshiga,  
Tosh ortiga berkinib sekin  
Boqar bo'ldi sohibi husn —  
Go'zal qizning ko'z-u qoshiga.

7

Bolalikdan  
Ota-onasiz  
Yetim o'sgan edi Og'ado'st.  
Yetim edi,  
Emasdi yolg'iz,  
U barchaga edi og'a, do'st,  
Qishlog'ida xoh kekxa, xoh yosh,

Barcha dardkash unga yor edi.  
Ammo uning qalbiga sirdosh  
Bittagina do'sti bor edi.  
Shu do'stiga  
Payt topib bir kun  
Aytди boshdan o'tganin butun.  
Do'sti dedi:  
"Sen sevgan dilbar  
Orzu deya atalgan suluv,  
U ne o'ktam, botir yigitlar  
Yuragiga solmagan g'uluv.  
Ko'plar unga intilgan,  
Ammo —  
Qizning sevgan yori bor emish.  
Boqmas emish  
O'zgaga aslo,  
Sevganiga vafodor emish".

## 8

Suv bo'yida o'ltirgancha u  
Uzoq qoldi boshdan uchib hush.  
Yig'lay-yig'lay uxlab qoldi-yu,  
Ko'rdi shu kun  
Ajoyib bir tush.  
Kimdir uni  
Uyg'otar emish,  
Dermish:  
"Kutib olgin vaqtida.  
Yor yoningga kelmoqda, dermish,  
Xushbo'y atirgulning qatida".  
Uyg'ondi-yu  
Termildi har yon.  
Hech kimsa yo'q.  
O'rtandi ko'ngil.  
Shu payt birdan Og'ado'st cho'pon  
Suv betida ko'rib qoldi gul.

Boqdi. Ajab —  
O'zi qizil gul,  
Bir gulbargi nega oq ekan?  
Asta tutib  
Qo'lga oldi ul,  
Qatidagi bir varaq ekan.  
Oq qog'ozni avaylab ochib,  
Qiz xatini o'qidi cho'pon.  
O'qidi-yu,  
Tinchin yo'qotib,  
Majnun kabi yugurdi har yon.

9

Tong otarda  
Qo'lida ko'za  
Suv bo'yiga asta cho'kib tiz,  
Ko'ngli kabi tiniq firuza  
Chashma bilan  
So'ylashadi qiz:  
"Zilol chashmam,  
O'ynoqi chashmam,  
Ayt, ne bo'ldi men yozgan maktub?  
Yuraklarim qon bo'ldi kutib.  
Qaylardadir  
Men kutgan odam?  
Sevgi xatim unga yetdimi?  
O'qidimi,  
So'ylagin, qani?  
Yoki yirtib tashlab ketdimi,  
Bor ekanmi o'zga sevgani?"  
"Go'zal Orzum,  
Pariro'y Orzum,  
Kecha oldi maktubingni yor,  
Izlab seni  
Tin olmay bir zum,  
Kelayotir visolingga zor.

Kelayotir,  
Ko'zlarida o't,  
Qayda deya go'zal sarvinoz.  
Kelayotir,  
Sevganingni kut,  
Chiqa qolgin yo'liga peshvoz".

## 10

Qora sochin  
Yoyganda oqshom,  
Dengiz yuzi bo'lganda qirmiz,  
Suv bo'yida  
Olardi orom  
Sevganining og'ushida qiz.  
Kuylar edi yigit ishqidan,  
Yangrar edi qo'llarida tor  
Va dilrabo, sho'x qo'shiq bilan  
Jo'r bo'lardi  
Unga suluv yor.  
"Bahor chog'i tog'lardan  
Sharqirab soy keladi.  
Meni yo'qlab bog'lardan  
Yuzlari oy keladi.  
Yuzlari oy kelganda  
Qo'lga olay sozimni,  
Oqshom payti bo'lganda  
Aytay yurak rozimni,  
Quchay sarvinozimni".  
"Mening ko'nglimni olgan  
Barno yigit qaydadir,  
Yuraginga o't solgan  
Tanho yigit qaydadir.  
O'sha barno yigitga  
Shohi ro'mol tikkanman,  
O'sha tanho yigitga  
Jonni nisor etganman..."

Qora sochin  
Yoyganda oqshom,  
Dengiz yuzi bo'lganda qirmiz,  
Suv bo'yida  
Olardi orom  
Sevganining og'ushida qiz.

## 11

Qishloq bo'ylab  
Tarqaldi xabar,  
Bo'ldi elning tilida doston.  
Bu oqshom to'y,  
Bu kun qo'shilar —  
Orzu bilan  
Og'ado'st cho'pon.  
Qanchalarning ko'zida shodlik,  
Qanchalarning dilida armon.  
Yor bo'ladi bu kun umrlik  
Orzu bilan  
Og'ado'st cho'pon.  
Sahardanoq  
Eshitgan borki,  
Oqa berdi qizning uyiga.  
Kim dugona,  
Kim do'st-u yorki,  
Kela berdi sevgi to'yiga.  
Kela berdi mashshoq, hofizlar  
Yo'lda sozlab tanbur, sozini.  
Kela berdi raqqosa qizlar  
Ko'rsatmoqqa ishva-nozini.  
Butun qishloq  
Bugun xurram, shod,  
Butun qishloq sayilgoh bugun.  
Yaxshilarning dillari obod,  
Yomonlarning ko'ksida tugun.

## 12

Orzu qizning  
 Hech armoni yo'q,  
 Orzusiga yetdi nihoyat.  
 Sevinchining chek, poyoni yo'q,  
 Kulib boqdi unga saodat.  
 Lekin bir dard chulg'ar o'yini.  
 Qiz tark etar  
 Ota uyini.  
 Yuragida cheksiz g'alayon.  
 U dol etib shamshod bo'yini  
 — Xayr, — dedi, —  
 Munis otajon.  
 Mehribonim, xayr, yagonam,  
 Unutmasman seni hech qachon,  
 Rozi bo'lg'in qizingdan sen ham.

## 13

Orzu bu kun  
 Qiz dugonalar —  
 Barchasiga aytdi alvido.  
 Vidolashdi kelin to sahar  
 Taqdirini bilganday go'yo.  
 Erta yana  
 Uyg'onib nahor,  
 Qolmasin deb ko'nglimda armon,  
 Xayrlashmoq uchun so'nggi bor  
 Yo'l oldi qiz  
 Ko'k chashma tomon.  
 Go'zal Orzu,  
 O, suluv pari,  
 Nega kelding chashma yoniga!  
 Bilmasmiding,  
 Makkor ko'zlarning  
 Qasd qilganin shirin joningga?!  
 Oh, chashmaga aytmasang vido



Qolarmidi mangu armoning.  
Bilmasmiding,  
Chashma qoshida  
Turganini yovuz baloning!  
Qiz o'g'risi Ali qo'lida  
Ochilmayin so'lar iqboling.  
Uzoq yurtda  
Zulmat elida  
Haramlarda ne kechar holing?!

#### 14

Ko'tarildi dengizdan quyosh  
Suvni bo'yab qip-qizil qonga.  
Quyosh bilan el ko'tardi bosh,  
To'yxona ham  
Uyg'ondi tongda.  
Uyg'ondi-yu, qo'zg'aldi faryod,  
Barcha chopdi  
Dengizga tomon.  
Ota qilar dod ustiga dod,  
Telbalardek yugurar cho'pon.  
Yig'ilganda barcha qirg'oqqa,  
Uzoqlardan keldi qiz sasi.  
Ketar edi  
Qalqib yiroqqa  
Qaroqchining mash'um kemasi.  
Tik qoyaga keldi-yu cho'pon,  
Oq yelkandan uzmay ko'zini  
Faryod deya so'nggi bor giryon  
Qoyalarga otdi o'zini.  
Barcha qoldi quyi egib bosh,  
Butun borliq  
Egdi boshini.  
Dengiz uzra yuksalgan quyosh  
Suvga to'kdi qonli yoshini.

Bazm qizg'in xon saroyida,  
 Arkoni taxt xonning poyida.  
 Mug'anniylar kuy qilar og'oz,  
 Raqqosalar raqs etar sernoz.  
 Jangdan g'olib qaytgan xon uchun,  
 O'lja olib qaytgan xon uchun  
 Madh o'qishar so'zga mohirlar,  
 She'r aytishar zukko shoirlar.  
 Noz-u ne'mat to'la dasturxon,  
 Eng balandda o'ltiradi xon.  
 Gulob deya qiladi xitob,  
 Soqiy unga tutar mayi nob.  
 Barmoq bilan qilsa ishora,  
 Ko'zlari o't, o'zi qop-qora  
 ZANJI kelar,  
 Xon amrin kutib  
 Halqa taqqan qulog'in tutib,  
 Tiz cho'kkancha o'ltiradi jim.  
 Xon der unga:  
 — So'yla, ey qulim,  
 Nega hamon Ali og'o yo'q?  
 — Qayg'urma, xon.  
 Ko'ngling bo'lsin to'q.  
 Senga sodiq qul Ali og'o  
 Farmoningni etmoqda ado.  
 — Unga yetkaz,  
 Shodiyonamga  
 Tuhfa aylab haramxonamga  
 Kiritmasa bir hur, parivash,  
 Bu kech mening ko'nglim bo'lur g'ash.  
 Boshi ketar Ali og'oning,  
 Qurbon bo'lar sening ham joning.

## 16

Oh, Orzu qiz,  
Oh, go'zal sanam.  
Oh, tog'larning erka ohusi.  
Bandi bo'lding  
Yorga yetgan dam,  
Xazon bo'ldi qalbing orzusi.  
Berahmlar soldilar kishan  
Nozikkina oq bilagingga.  
G'am soyasi tushdi ishq bilan  
Lim-lim to'la pok yuragingga.  
Toleyingga quzg'un chang soldi,  
Qayga yetar endi oh-zoring,  
Ona eling uzoqda qoldi,  
Uzoqlarda qoldi diyoring.  
Oh, dilrabo,  
Yo'qotib seni,  
Zo'r tog'larning qaddi bo'ldi yo.  
Parchaladi yoring ko'ksini,  
Otang bo'ldi hajringda ado.  
Tog' bag'riga  
Fayz edi sening  
Sho'x qo'shig'ing, dilbar karashmang.  
Sen ketding-u so'ldi chamaning,  
Qurib bitdi beg'ubor chashmang.  
Sen ketding-u  
Cho'kdi endi g'am.  
Kundan kunga ortdi qayg'usi...  
Oh, Orzu qiz,  
Oh, go'zal sanam,  
Oh, tog'larning erka ohusi.

## 17

O'taverdi kunlar va oylar,  
Oqaverdi diydalardan qon.

Baxtsiz kunda,  
Tutqunda giryon  
Ona bo'ldi Orzu mushtipar.  
G'am, hijrondan yuragi pora.  
Diyoridan yiroq-yiroqda,  
O'zga yurtda,  
O'zga qirg'oqda  
Ona bo'ldi Orzu bechora.  
So'ngsiz g'azab ko'ksida otash,  
Ayriliqning alami ichra,  
Zolim xonning harami ichra  
Ona bo'ldi  
Orzu jafokash.

### 18

Oqshom.  
Cho'kdi dengizga quyosh.  
Tikilgancha kunbotar yoqqa,  
Qo'lda go'dak,  
Ko'zda qonli yosh,  
Orzu chiqdi baland qirg'oqqa.  
Dardin so'ylab yig'ladi tanho.  
Ona yurtga,  
Sevgan yoriga,  
Padariga — g'amguzoriga  
Eng so'nggi bor  
Aytdi alvido.  
Baxtsiz tanni quchgancha turib,  
Ko'z yoshi-la yuvdi yuzini.  
So'ngra birdan  
U qah-qah urib,  
To'lqinlarga otdi o'zini...

### 19

Hijron dardin yengar ekan vaqt,  
U har qancha bo'lmasin og'ir.

Yig'lab-yig'lab  
Orzu g'amin ham  
Unutdilar qishloqda oxir.  
Barcha banddir  
O'z dardi bilan,  
O'z tashvishi bilan ovora.  
Yig'inlarda eslashar ba'zan  
Ne bo'ldi deb  
Orzu bechora.  
Oylar o'tdi  
Chopgan ohudek,  
Bahor keldi qishning izidan.  
Bir kun tunda  
Qo'lida go'dak  
Suv parisi chiqdi dengizdan.  
Asta qo'ydi go'dakni  
Cho'pon —  
Ko'ksin urgan qirg'oq toshiga.  
Sukut saqlab o'ltirdi bir on,  
So'ng yo'l oldi  
Chashma qoshiga.

U keldi-yu,  
Qurigan chashma —  
Ko'zlaridan oqib ketdi yosh.  
Go'dak uni simirdi tashna  
Va qumlarga qo'yib yotdi bosh.  
Ko'kda so'nggi  
Sayyora qolib,  
Yorishganda ohista osmon,  
Suv parisi go'dakni olib,  
Yurib ketdi  
Dengizga tomon.  
Chashma xuddi  
Ona ohudek  
Ko'zda yoshi tirqirab qoldi.

Suv parisi  
Qo'lida go'dak  
To'lqinlarga kirib yo'qoldi.

### **Xotima**

Quloq solib o'ltiraman jim  
Qora dengiz hikoyasiga.  
Dardga to'la sevgi dostonim,  
Mana, yetdi nihoyasiga.  
Qora dengiz,  
To'lqinli dengiz,  
Etagingga tutashgan osmon,  
Cho'kib yotar ostingda cheksiz  
Afsona-yu ertak va doston.  
Ne oshiqlar sevgisi bilan  
Yuragini ko'mganlar senga.  
Dengiz,  
Sonsiz ertaklaringdan  
Bittasini so'ylading menga.

*1964 yil, Yalta*

## PALATKADA YOZILGAN DOSTON

26-aprel

*“Toshkent” seysmik stansiyasi xabar beradi: “Bugun 26-aprel ertalab 5 dan 23 minut o‘tganda Toshkent shahrida kuchli yer qimirlash bo‘ldi... Zilzila epitsentri shahar ostida... Zilzilaning kuchi markazda 7,5—8 ballga yetdi. Dastlabki ma‘lumotlarga qaraganda...”*

Yo‘q, bu doston emas,  
Bular barchasi —  
Zilzilada ko‘chgan  
She‘rlar parchasi.  
26-aprel  
Tong-sahar  
Qattiq silkinishdan  
Uyg‘ondi shahar.  
Kvartallar go‘yo  
Katta eshelon —  
Siltanib qo‘zg‘aldi,  
Yura boshladi,  
Allanechuk bo‘lib  
Yorishdi osmon,  
Qaydadir gumburlab  
Devor tashladi.  
Bola qichqirig‘i,  
Ayolning dodini,  
Itilar vovillashi  
Qo‘shildi bir on.  
Birdan ko‘tarilib  
Muallaq qoldi  
Qashqar mahallaning

Ustida to'zon.  
Bir zum o'tmay, barcha  
Tovushni bosib,  
Sirena ovozi  
Taralib ketdi.  
Projektor kabi  
Shaharni kesib,  
"Tez yordam" har yonga  
Tarqalib ketdi.

*...Bir ayol chaqaloq bolasini beshigi bilan ko'tarib o'zini eshikka otdi. Qo'rquv, sarosimada toshoynaga urilib behush yiqildi...*

*...Student bola ikkinchi qavatdagi yotoqxona derazasidan o'zini pastga tashladi. Yotoqxona hovlisiga taxlab qo'yilgan matraslar ustiga tushib omon qoldi. Chap kuragi chiqib, tirsagi biroz lat yedi...*

So'ngra jimlik cho'kdi,  
Tong otdi asta.  
Quyosh yupatganday  
Qaradi pastga.  
Odamlar egnidan  
Changlarni qoqib,  
Ishga shoshiladi  
Soatga boqib.  
Yana davom etar  
Odatiy hayot.  
Odamlar,  
Odamlar —  
Mujassam sabot!

*Shu kun tongda ko'chaga chiqqanlar bir ajib hodisaning guvohi bo'ldilar. Shaharning hamma soatlari xuddi zilzila yuz bergan daqiqani qayd etgandek, 5u 23 daqiqada to'xtab qolgan edi.*

Yo'q, bu doston emas,  
Bular barchasi —  
Zilzilada ko'chgan



She'rlar parchasi.  
Bu na chaqirig'-u,  
Na tashviq, shior,  
Plakat na darkor?  
Nutqlar na darkor?  
Shunday payt betarg'ib,  
Beso'z, bealvon,  
Falokat nimadir —  
Hammaga ayon,  
Devordan uzilib  
Tushsa plakat,  
Axir bitta boshga  
Bu ham "palakat"...

*Bu bo'lgan voqea. Katta idoraning tepasiga zilzila munosabati bilan osilgan plakat u kungi qattiq bo'ronda uzilib tushib, bir pensionerning chakkasini yordi.*

Bu ishlar o'tmishga  
Berildi bukun,  
Devorlar darz ketdi,  
Yuraklar butun.  
Binolar yiqildi,  
Odamlar yashar.  
Do'stlarin chaqirar  
Hasharga shahar.  
Rejadan boshlanar.  
Tong gorsovetda.  
Shahar yashamoqda,  
Vahmasi chetda.  
Bu xabar Qarshiga  
Uchdi kabeldan:  
"Yer yorilib ketdi,  
Suv hozir beldan.  
O'rtoq, Toshkent tamom".  
Bu gapni o'rtoq

Termizga tarqatdi  
Sal bo'rttiribroq.

Vahimalar o'tdi,  
Barchasi ortda.  
Nimalar bo'lmaydi  
Axir hayotda.  
Gap uy-joyda emas,  
Jon bo'lsin omon.  
Lekin shunday paytda  
Bilinar inson.  
Bilinar kim tanti,  
Kim behamiyat.  
Bunday payt uzr, so'z  
Behamiyat.  
Bu ayon — har narsa  
Silkingan paytda  
Yirigi yuzaga  
Chiqar albatta.  
Yer qalqdi — yer bilan  
Yuraklar qalqdi.  
Yuzaga tuyg'ular,  
Tilaklar qalqdi.  
Odamlar ajraldi  
Un-u kepakka —  
Sarak — sarakka-yu  
Puchak — puchakka.  
Bir do'stim so'zlardi  
Minbardan turib,  
Burch, vijdon haqida  
Ko'ksiga urib,  
Derdi: fido bo'lsin  
Jonim xalqimga...  
Bu kun kelib qoldi  
Joni halqumga.  
Qalbim payvand derdi

O'sgan yerimga.  
Tonggi reys bilan  
Uchdi Qrimga...

### Raysovetga yozilgan arizadan:

*"... Kecha mening uyimga kelib zilzila oqibatini tekshirgan komissiyalar: "Uyi yashash uchun yaroqli, zilziladan zarar ko'rmagan", deb yozib ketibdi. Holbuki, mehmonxonaning ikki joyida ganch ko'chgan. Bu zararning haqini kim to'laydi?.."*

Butun xalq qo'zg'aldi,  
Ham burch, ham hashar.  
Qishda palatkada  
Qolmas hamshahar.  
Deydilar, kulfatda —  
Yurak bo'lsa keng —  
Tor uy ham do'st uchun  
Keng olamga teng.  
Bizlar besh jon edik,  
O'n bir jon bo'ldik.  
Bir kunda tanishib,  
Jonajon bo'ldik,  
El boshiga nogoh  
Kelgan bu kulfat  
Bir-biriga qildi  
Hammani ulfat.  
Yozuv:  
"Uy omonat.  
Ehtiyot zarur".  
Bunday paytlarda  
E'tiqod zarur.  
Uy omonat bo'lsa,  
O'y bo'lsin butun.  
Sabot — g'isht, ganch kabi  
Zarurdir bu kun.

Guzar.  
Uzunquloq  
Odam tumonat.  
Ehtiyot!  
Bu yerda ishonch omonat.  
Bir mulla yutinib  
Soʻzlaydi yuvvosh:  
“Ayb oʻzimizda  
Odamlar bevosh.  
Imonni biladi  
Na keksa, na yosh.  
Xotinlar beniqob,  
Qizlar yalangbosh.  
“Gar gʻazab aylasa  
Xoliqi qudrat...  
...Shunday bayt aytibdur  
Huvaydo hazrat...”  
Bejiz aytilmagan,  
Bu haq begumon:  
Fojia va kulgu  
Doim yonma-yon.

### **Tramvaydagi suhbat:**

- *Kecha futbol zoʻr boʻldi-da!*
  - *Oʻyinning oʻrtasida ikki marta yer siltab tashladi.  
Stadion xuddi bir kosa suvday chayqalib ketdi...*
  - *Aytganicha, futbolchilar oylik oladimi?*
  - *Katta pul olsa kerak. Krasnitskiy tramvay olgan emish.*
- Tunov kuni oʻz koʻzim bilan oʻqidim.*
- *Tramvay emas, travma olgan, ovsar...*

Oʻtdi dahshatli kun,  
Qora sahifa.  
Bugun studentlar  
Toʻqir latifa...

Askiya payrovi  
Eng yangi mavzu,  
Yana choyxonada  
Ko'k choy va kulgu...  
Yana kechagidek  
Uyg'onib sahar  
Tug'uruqqa patir  
Yasar kampirlar...  
Yana davom etar  
Odatiy hayot,  
Odamlar,  
Odamlar —  
Mujassam sabot.

**“T — 34”**

*...Toshkent aholisiga yordam berish uchun armiya qismlari yuborildi...*

Men o'sha “Ferdinand”,  
“Tigr”lar bilan  
Yuzma-yuz olishgan  
“Tank — 34” man.  
Pensiyaga chiqib,  
Toshkentga keldim,  
Qarilar joy olar  
Odatda to'rdan.  
To'pimni oldilar,  
Zirh qubbam qoldi,  
Yubordilar maydon  
Tozalash uchun.  
Ko'rib turibsanki,  
Uy buzmoqdaman,  
Ketmon xizmatini  
Qilyapman bu kun.  
Lekin or qilmayman,  
Xizmatmi — xizmat.

Zang bosgandan ko'ra  
Bosay dedim chang.  
Aslini olganda,  
Bu yer ham front,  
Bu yerda ham axir  
Bormoqda zo'r jang.  
Yonboshimga o'tib  
Bir qara, yigit,  
Zirhimda o'qlarning  
Izi bor hamon.  
Zanjir g'ildiragim  
Ostiga boqqin,  
Bunda o'chmas bo'lib  
Qotib qolgan qon.  
Qancha yo'llar bosdim,  
Qancha manzillar,  
Ortimda qoldi ming,  
Million chaqirim,  
Rus va Ukraina,  
Polsha tuprog'i,  
Bu yonda beg'ubor  
Kavkaz va Qrim.  
Ko'p janglarni ko'rdim,  
Ko'p qonlar to'kdim.  
Ezilib ketadi  
Temir yuragim.  
Yo'q, bu kerak edi,  
Men majbur edim,  
Yurtga qalqon bo'lgan  
Po'lat ko'kragim.  
Beshafqat bo'lmasam  
O'shanda agar,  
Yov qaysi bozorda  
Sotardi seni...  
Yo'q, bu kerak edi,  
Men majbur edim.

Tarix hech gunohkor  
Qilmagay meni.  
Ammo tinchlik bermas  
Menga xotiram.  
Kechalar tushimga  
Kirar doim qon.  
Meni o'rab olar  
Qo'rqinch sharpalar,  
O'liklar qurshaydi  
Bo'lib olomon.  
Menga ko'rinadi  
Yana qaytadan  
Do'zax olovida  
Yonguvchi dunyo.  
Ro'paramga kelib  
Dahshat ichida,  
Odamlar qichqirar  
Beun, besado.  
Shunda titrab ketar  
Butun vujudim,  
"Yo'q!" deb qichqiradi  
Ichki bir ovoz.  
Yo'q, sira qaytmaydi  
Qonli fojia,  
Qaytmaydi,  
Qaytmaydi,  
Qaytmaydi u boz.  
O'sha qichqiriqdan  
Hushimga kelib,  
Atrofga qarayman,  
Har yon sukunat.  
Xayriyat deyman-u  
Va lekin yana  
Tun kelgach, qaytadan  
Boshlanar dahshat...  
Odamzod — baxtiyor,

Odam unutar,  
Ammo temirlarda  
Mangu xotira.  
Inson o'zi bilan  
Ko'mar yodini,  
Temir unutulmas,  
Unutmas sira...  
Mana, fojiam shu —  
Fojiam — yodim,  
Mahkum etilganman  
Shunga umrbod.  
Bu tengsiz dahshatdan  
Qutqarib agar  
Meni eritsalar,  
Bo'lar edim shod.  
Men o'sha "Ferdinand",  
"Tigr"lar bilan  
Yuzma-yuz olishgan  
"Tank—34"man.  
Senga dardim aytib,  
Yosh yuragingga  
Og'ir o'ylar soldim,  
Kechir, ma'zurman.

### **Bolalarni jo'natish**

*Kecha bir guruh toshkentlik bolalar Podmoskovyega jo'natildi.  
Ular u yerda uch oy dam oladilar...*

Bundan rosa chorak asr ilgari,  
Xuddi shu kungiday issiq saraton  
Moskva yo'lidan karvon singari  
Eshelon kelardi Toshkentga tomon.  
Bugun,  
Rosa chorak asrdan keyin



Xuddi o'shandayin issiq saraton  
Poyezd vokzaldan qo'zg'aldi mayin.  
Bu safar  
Toshkentdan Moskva tomon.  
Bolalar ketmoqda sokin, beozor,  
Do'mboq qo'llarida gullar, lolalar.  
Kuzatgan otalar ichra balki bor  
Birinchi poyezdda kelgan bolalar.  
Ona bag'ri kabi keng ochiq bugun  
Moskva, Kiyevning oltin qopqasi.  
Poyezd uchar.  
Uchar izidan uchqun,  
Bu kun g'arbga ko'chdi "front orqasi".  
Yana portlashlar-u  
Yana chang-to'zon  
Go'daklarni ortga ko'chirmoqda boz.  
Ammo bu gal jo'nar bolalar shodon,  
Negaki, "ayriliq" — faqat uch oy yoz.  
Ular qaytgunicha changlar bosilib,  
Yangi kvartallar ko'taradi qad.  
Bolalar qaytishar,  
Yayrab, yozilib,  
Bu kun jo'nashmoqda  
Uch oyga faqat.  
Ey, siz,  
Jajji, do'mboq ukajonlarim.  
Istiqboli yorqin,  
Baxti barqaror!  
Uzoq yo'l oldidan, jonajonlarim,  
Sizga ikki og'iz aytar so'zim bor.  
Salqin Podmoskovye o'rmonlarida  
Qarag'aylar aro,  
Qayinlar aro,  
Ajoyib bog'lar-u bo'stonlarida  
Sizlar yayrab-yayrab olganda orom —  
Bilib qo'ying,

Bundan chorak asr avval  
Izg'irin tunlarda,  
Achchiq qahraton —  
Odamlar bu yerda yalang to'shlarin  
Fashist tanklariga qilganlar qalqon.  
Hayron bo'lmang yana  
Tuproq ichidan  
Zang bosgan dubulg'a topib olsangiz,  
Gumburlagan sado kelib turadi  
Yerning yuragiga quloq solsangiz.  
Mabodo ko'rsangiz tanho qabrni,  
Mayli, kim bo'lmasin,  
Gullar tergan dam,  
Ukalar, men uchun bir chechak qo'ying,  
O'sha yerda qolgan mening ham akam.  
Bir dam sukut saqlang  
Qabr ustida.  
Ayting,  
Tinch uxlasin u aziz inson.  
Sen ko'rgan u kunlar qaytmas deng sira,  
Tiriklar yo'l qo'ymas bunga hech qachon.

### **Kelinchak**

*“Toshkent” seysmik stansiyasining ma'lum qilishicha, kecha kunduz Toshkentda yer qimirlamagan...*

Bu dahshat fojia yuz berdi kecha.  
Sokin choshgoh payti,  
Kuppa-kunduzi.  
Hamma yoq osuda,  
Tinch edi yer ham.  
So'ndi bu choshgohda bir qalb yulduzi...  
Dasturxonda qoldi yarim kosa osh,  
Qoldi silkingancha quruq belanchak.

Go'dagini quchib,  
Dod solib nogoh  
Ko'chaga yugurib chiqdi kelinchak.  
Olazarak boqdi atrofga.  
Jimjit...  
Jimjit otash sochar iyun quyoshi.  
Sochini siladi,  
So'zsiz yig'ladi.  
Duvillab to'kildi ko'zidan yoshi.  
Olucha shoxida titrar bir yaproq,  
Ariqcha jildirab oqar erinchak.  
Siynasin g'ijimlab,  
Uzoq yig'ladi,  
So'ngra... birdan qah-qah urdi kelinchak.  
Bu dahshat fojia yuz berdi kecha,  
Sokin choshgoh payti.  
Kuppa-kunduzi:  
Hamma yoq osuda,  
Tinch edi yer ham,  
So'ndi bu choshgohda bir qalb yulduzi.  
Hali parvoz etmay sindi bir qanot,  
Bevaqt ochilmasdan so'ldi bir chechak.  
Qurbon bo'lganlarning soniga kirmas  
Yurakdan ayrilgan  
Bitta kelinchak.  
Yori, sevar yori  
Rangida qon yo'q,  
Unsiz yig'lamoqda, berolmay bardosh.  
Oh, naqadar og'ir,  
Naqadar og'ir  
Ko'rmoq yigit kishi ko'zlarida yosh...  
Zo'rg'a ayirdilar boladan uni,  
Onaga intilar,  
Goh qochar go'dak.  
Halok bo'lganingda edi nogahon,  
Bunchalar yig'lamas edim,

Kelinchak.  
Pok qadaming tekkan ko'cha changi ham  
Xayrlashar chog'i yerdan qo'zg'aldi.  
Seni olib ketgan oqish mashina  
Ortidan ergashib,  
Buralib qoldi.  
Sen ketding,  
Dillarni o'rtab, yondirib,  
Yuraklarda qoldi alam-tugunchak.  
Hayotni sevarding,  
Qandoq sevarding,  
Ko'chamizning ko'rki eding,  
Kelinchak.  
Yo'q, hech ishonmayman,  
Ishongim kelmas,  
Hali bor ko'ksimda umid uchquni,  
Doktor,  
Mana mening yuragim, oling  
Va lekin hayotga qaytaring uni.  
Usiz yorug' dunyo huvillab qolar,  
Usiz ochilmaydi bog'larda chechak.  
Yetim bo'lib qolar o'ksik shaharim  
Hayotga qaytmasa  
O'sha kelinchak.

### **O'zbek qizi Lyubov Timchenko**

*...Kecha toshkentliklar Xarkov va Luganskdan kelgan quruvchilarni qarshilab oldilar.*

Bejo ko'z tashlama menga,  
Hoy yigit,  
Yaxshimas,  
Bekorga xafa qilaman.  
Til bilmaydi deya o'ylama meni,

O'zbekchani sendan yaxshi bilaman.  
Sening shaharingga  
Uzoq Xarkovdan  
Muhabbat qidirib kelgan emasman.  
Men o'zbek qiziman,  
Men shu yerlikman,  
"Jonon" dema meni, jonon emasman,  
Asli mening ismim Bahrixon edi,  
Abdurazzoq qizi edim aslida.  
O'ynab yurgandirman,  
Kim bilsin, balki,  
Bizlar buzayotgan manov yaslida...  
Mening qissam uzoq,  
So'zlayin agar  
Tinglamoqchi bo'lsang qanoat ila.  
Yosh bo'lsam ham mening  
Butun hayotim —  
Chorak asr davom etgan zilzila.  
Men esimni tanib  
Shu yerda o'sdim.  
Har qarich tuprog'i menga oshino:  
Abdurazzoq ota — dadam edi-yu,  
Onaginam edi — Sharifaniso.  
Dadam o'lib ketdi,  
Yolg'iz qiz qoldim,  
Meni ishonmasdi hech qayga onam.  
Kechalari issiq bag'riga bosib,  
O'pib erkalardi,  
Derdi yagonam.  
O'zbek qizi edim,  
Yo'q edi shubham,  
Bahor gullaridan boshimda gulto.  
Jamalak sochimni silab qo'shnilar,  
Suyib atardilar meni "Oltin soch".  
Ikkinchi sinfga endi ko'chgandim,

Orzularim kabi keng edi olam.  
Bir kun  
Uyimizni so‘roqlab keldi  
Soldat kiyimida  
Notanish odam.  
Eshikdan kirdi-yu  
Qulochin ochib,  
“Lyuba, Lyubam” deya menga tashlandi.  
Yig‘lamasdi sira erkak kishilar,  
U soldatning ko‘zi birdan yoshlandi.  
“Akaginang qani,  
Onang qani”, deb,  
Faryod qilib meni tutdi savolga.  
Yana qanday onam,  
Qanday akam, deb  
Hayron bo‘lar edim bu ajib holga.  
So‘ng...  
So‘ng jo‘nab ketdim u odam bilan,  
Xuddi kechagidek yodimda bari:  
Ko‘z oldimdan sira ketmaydi u kun  
Onamning javdirab boqqan ko‘zlari.  
Bor, qizim, derdi u,  
Bor, do‘mboqqinam,  
Kuzda borib o‘zim olib kelaman.  
Derdi: — Bu o‘z dadang.  
Men esa garang,  
Dadam boshqaligin qaydan bilaman.  
Yo‘l bo‘yi u menga qildi hikoya:  
(So‘zlardi u odam g‘oyat ta’sirli.)  
Urush boshlanishi,  
Dahshatli janglar,  
So‘ng dushman qo‘lida to‘rt yil asirlik.  
G‘alaba...  
Ozodlik,  
Yurtga qaytgani,

Meni izlagani, kezib mamlakat.  
Hikoya so'ngida — mana sen deya,  
Cho'ntagidan olib ko'rsatdi surat.  
Suratdan boqardi yarim yashar qiz,  
Men kabi sariq soch,  
Yuzi dumaloq.  
Men shunda ishondim,  
U — otam edi,  
Dada, degim keldi,  
Aytmadim biroq.  
Biz Xarkovga keldik,  
Yoz bo'yi turdik —  
To'rt xonalik uyda faqat ikkovlon.  
Mehrim ortar edi kundun kun unga,  
Dada demas edim  
Va lekin hamon.  
Onamni, Toshkentni sog'inar edim,  
Lekin bilintirmas edim alamim.  
Bu odam kechirgan kunlar oldida  
Nima bo'пти mening  
Kichkina g'amim...  
Yangidan birinchi sinfga bordim,  
Sentabr tongida ochilib xushhol.  
O'zim ham taajjub qilardim —  
Tilim  
Ukrain so'ziga qovushdi darhol.  
Ammo  
Yosh boshimga tushdi falokat,  
G'am buluti bosdi baxt osmonimni.  
Yarim kecha edi,  
Bir kishi kelib  
Olib ketdi yolg'iz mehribonimni.  
O'sha kech kuz payti,  
Yong'irli kecha  
Ko'z oldimdan nari ketmaydi hamon:

Xayrlashar ekan,  
Birinchi marta  
U odamni quchib  
Dedim:  
“Dadajon!”...  
Dadam qaytgani yo‘q,  
Uni eslasam  
Anor donasidek ezilar yurak.  
Sog‘indim,  
Ko‘p kutdim,  
Zor bo‘ldim, ammo  
O‘zbek onamdan ham topmadim darak...  
U kuni  
Moskva qilganda xabar  
Falokat tushganin Toshkent boshiga,  
Darhol uchib keldim,  
Qizi kelgandek  
Og‘ir kunda qolgan ona qoshiga.  
Baxtli edim,  
Kichik mehnatim bilan  
Shahrim yarasiga malham bo‘lolsam,  
Qurilajak Toshkent poydevoriga  
Yuragim mehrini payvand qilolsam.  
Mana, sahar turib,  
Kun bo‘yi ishlab,  
Kechqurun shaharni kezaman tanho.  
Nogahon uchrasa oq sochli ayol.  
So‘rayman:  
Sizmasmi Sharifaniso?  
Yo‘q deb bosh chayqashar,  
Zilzilaga yo‘yib —  
Sho‘rlik qiz deyishar,  
Boqishar hayron.  
Men-chi, yigirma yil o‘tgan bo‘lsa ham  
Onamdan umidvor,



Izlayman hamon.  
Agar hayot bo'lsa,  
Uni topaman,  
Quvonchga to'ldirib munis qalbini,  
Agar o'tgan bo'lsa,  
Kechirim so'rab,  
Quchoqlab yig'layman topib qabri...  
Mana mening qissam,  
Eshitding, yigit.  
Endi xalal berma savollar ila,  
Yosh bo'lsam ham mening  
Butun hayotim —  
Chorak asr davom etgan zilzila.

### **Shahar ijroqo'mining raisiga oshiqlardan ariza**

*“...26-aprelda Toshkent “Baxt uyi”da 25 ta nikoh qayd etilgan...”*

O'rtoq rais,  
Ishingiz ko'p,  
Vaqtingiz kam, bilamiz.  
Ammo, uzr, uch-to'rt minut  
Fursatingiz olamiz.  
Qo'ying bir dam qog'ozlarni,  
Dunyo ishi bitganmas.  
Ko'zoynakni olib qo'yib,  
Quloq bering bir nafas.  
Biz oshiqlar, ya'ni biz ham  
Shu shaharga grajdan.  
Arizaga haqqimiz bor  
El qatori shu vajdan.  
Qanday bo'lsa yangi shahar —

Bizga emas baribir.  
Oshiq xalqi tarqoq xalq-u,  
Lekin gapi, dardi bir.  
O'rtoq rais, ishq ahlini  
Qo'shsangiz gar qatorga,  
Taklifimiz eshiting-u  
Tirkab qo'ying qarorga,  
Avvalo shu —  
Bizlar ko'pmiz,  
Bizlar yuz ming nafarcha.  
Shahar ichra qurib bering  
Bizlar uchun shaharcha,  
Bu shaharga nom qo'yilsa —  
"Sevgi shahri" atalsin.  
Darvozasi tepasiga  
Katta shior qadalsin.  
Bu shiorga katta qilib,  
Hamma uchun ko'rsatib,  
Zo'r shoirga buyurtirib  
She'r yozilsin to'rt satr.  
Mazmuni shu:  
Bu shaharcha  
Barcha uchun keng ochiq,  
Kim bo'lmasin yuragidan  
Faqat bo'lsin chin oshiq.  
Ammo zinhor bu shaharga  
Kiritilmas bedardlar.  
Sevgi yukin ko'tarolmay  
Bir bor qochgan nomardlar.  
Chin muhabbat, chin dard bo'lsin  
Bu shaharcha ahlida.  
Shaharchaning aylanasi  
Bo'lsin yurak shaklida.  
Sadoqatga makon bo'lsin,  
Timsol bo'lsin umrbod.

Eng markaziy ko'chasiga  
"Vafo" deya qo'ying ot.  
Bitta ko'cha "O'pich" bo'lsin,  
Bitta maydon  
"Ahd-paymon".  
Bu ko'chaga kirmaganlar  
Mangu qilsin pushaymon.  
Bir xiyobon "Visol" bo'lsin,  
Hech bo'lmasin firog'i.  
Xira bo'lsin, ko'kish bo'lsin  
Bu xiyobon chirog'i.  
Bitta ko'cha bu shaharda  
"Izhorishq" atalsin.  
Tajribasiz yosh oshiqlar  
Dardin bunda aytolsin.  
"Sevaman" deb yozib qo'ying  
Bu ko'chaning boshiga.  
Aytolmagan to'xtab tursin  
Shu yozuvning qoshida.  
Katta ravon shahroh nomin  
"Pokizalik" deb qo'ying.  
Oq marmardan lavha qo'yib,  
Navoiydan bayt o'ying.  
Bu shaharga mangu qilib,  
O'chmas qilib zarhali  
O'rnatilsin Farhodlarning,  
Majnunlarning haykali.  
"Vafo" nomli ko'cha uzra  
Tursin ahli chin vafo,  
Romeo va Tohir bo'lsin,  
Djuletta va Zuhro.  
"May va mahub" ko'chasining  
Kiraverish yo'lida  
Tursin shoir Umar Xayyom,  
May kosasi qo'lida.

“Sargashtalik” ko‘chasining  
“Rashk” tupigi ustida  
Otelloning shakli tursin  
Qora kiyib ustiga.  
Bu ko‘chaning oxirida  
Bo‘lsin “Makr” maydoni.  
Tasvir eting bunda g‘olib  
Yosuman va Yagoni.  
“Gumon” va “G‘ash” ko‘chasiga  
Belgi qo‘ying kattakon.  
Bu ko‘chaga kirishmasin  
Yosh oshiqlar hech qachon.  
Qorovullar qo‘ying, haydang,  
Intilsa deng “nari bor!”  
Ayting, ko‘cha oxirida  
“Ayriliq”ning jari bor.  
Shaharchada o‘ssin faqat  
Sarv-u gul-u sunbullar...  
Gul shoxida erta-yu kech  
Sayrab tursin bulbullar.  
Tovuslar tinch xirom etsin  
Berib o‘zga orolar...  
Bu shaharga ko‘chirilsin  
Barcha ZAGS byurolar.  
Uylanganlar bu shaharga  
Kelib tursin gohida.  
Orom olib o‘tirishsin  
Bir dam “Yarash” bog‘ida.  
Yoshliklarin eslab, ishqdan  
Afsonalar aytishsin.  
Xo‘mrayishib kelgan bo‘lsa,  
Chaqchaqlashib qaytishsin.  
O‘rtoq rais,  
Ishingiz ko‘p,  
Vaqtingiz oz, bilamiz,

Shuning uchun arizani  
Mayli, qisqa qilamiz.  
Biz sizdan uy so‘ramaymiz,  
Bizlar shunday, turfamiz,  
Boshpanamiz moviy osmon,  
Yulduzlardir ko‘rpamiz.  
Boshpanamas, bizga faqat  
Pana kerak tuzukroq.  
Shahar yorug‘ kecha-kunduz,  
Dala esa ko‘p yiroq.  
Yo‘q, hazilga yo‘ymang buni,  
Gaplarimiz bari chin.  
Biz bilmasak, kim biladi  
Shaharning har qarichin.  
Ha deng, yo yo‘q, ketmas bunda  
“Ammo”, “yoxud”, “magar”i,  
Bizga qolsa butun Toshkent  
Bo‘lsin “Sevgi shahari”.  
Xulosa shu — iltimosni  
Bajarsangiz xo‘p-u xo‘p,  
Yo‘q desangiz, yuqoriga  
Yozajakmiz bizlar ko‘p.  
Hayron bo‘lmang, ustingizdan  
Arz qiluvchi joyimiz —  
Na Sovmin, na Oliy Sovet,  
Balki kelin oyimiz.  
Axir siz ham sevishgansiz...  
Xo‘p desangiz ajabmas,  
Kelin oyim ikki og‘iz  
“Qurib bering” desa bas.  
Xayr endi, qaror kutib  
Yuragimiz oshiqar.  
Salom bilan shahringizda  
Yashaguvchi oshiqlar.

## Shahri Dilorom

Toshkent,

O'zbekiston raisiga tegsin.

*Men bu yil to'rtinchi sinfni bitirdim. Yoshim o'n birda. Yer qimirlash qanaqa bo'lishini bilmayman. Bizning mahallada kecha Toshkentga yordam deb pul yig'ishdi. Men atlas ko'ylakka yig'ib yurgan besh so'm pulimni yuborayapman. Bolalar bog'chasi qurishingizni so'rayman.*

Dilorom. O'sh shahridan

Dilorom,

Dilorom,

Jajji singilcham,

Do'mboq yuzlaringni qildim tasavvur.

Munisam,

Kattakon madading uchun

Bosh egib aytaman senga tashakkur.

Jahon podsholari xazinasidan

Oltin yuborganda hamki beaded,

Dilorom,

Dilorom,

Jajji singilcham,

Sening yordamingcha bo'lmasdi madad.

Biz bunga bir emas, yuzlab va minglab

Bog'chalar quramiz,

Qo'rqma, yetadi.

Sendek mehriboni bor ekan, demak,

Toshkent jarohati bitib ketadi.

Faqat sen omon bo'l, yayragin kulib,

Qora qoshlaringga qo'nmasin g'ubor.

Sen salomat bo'lsang, mehribonginam,

Bu og'ir kunlarda tolmaymiz zinhor.

Sen uchun bir shahar quraylik, do'mboq,

Kiroyi odamlar qilgudek havas,

Osmonday keng bo'lur, dengizday moviy,

Ko'ksingni to'ldirib olursan nafas,

Xiyobonlar aro seni yetaklab,  
Charog'on kechada va yo kunduzi  
Birma-bir Toshkentni ko'rsatib chiqar  
U kun O'zbekiston raisi o'zi.  
Naqadar ajoyib,  
Naqadar suluv,  
Bunga sen sababsan, sening himmating.  
Yam-yashil shaharning eng o'rtaʻsiga  
O'rnatib qo'yamiz katta surating.  
Toki uzoq-uzoq yurtlardan kelib  
Go'zal shahrimizda olganda orom,  
Do'stlar so'rasinlar:  
Bu qanday shahar?  
Biz javob beraylik:  
Shahri Dilorom.

### Nihoya

*“Toshkent seysmik stansiyasi xabar beradi: 26-apreldan buyon o'tgan ikki oy ichida Toshkentda 500 marta yer qimirladi. Zilzilaning kuchi so'nib bormoqda”.*

Bular doston emas,  
Bular barchasi —  
Zilzilada ko'chgan  
She'rlar parchasi.  
Jarangli qofiya,  
Chiroyli nisbat,  
Yangi tashbhlarga  
Yo'q edi fursat.  
Zudlik kerak edi,  
Kutardi zamon,  
Palatka ichida  
Tug'ildi doston.  
Fikrlar beniqob,

Yalang tuyg'ular.  
Chang bosgan daftarga  
Yozildi bular.  
Bu — shoirlik emas,  
Insonlik farzim,  
Bo'yimda qoladi  
Hali ko'p qarzim.  
Shoirlar yozajak  
Hali ko'p doston.  
Bir oz fursat o'tsin,  
Bosilsin to'zon.  
Boshdan uchgan hushlar  
Joyiga qo'nsin,  
Chayqalish to'xtasin,  
Fikrlar tinsin.  
Ko'ngilga she'r sig'mas  
Yuraklar tanda —  
Simob qatrasiday  
Qalqib turganda.  
Bari o'tib ketar,  
Vahima — ortda.  
Nimalar bo'lmaydi,  
Axir, hayotda.  
Hali ishimiz ko'p,  
Hali ko'p hashar.  
Qurmog'imiz kerak  
Yangidan shahar.  
Haqiqiy Toshkentni  
Tiklaymiz hali.  
So'ng kelar haqiqiy  
She'rlarning gali.  
Bulbullar sayragan  
Bog'-u gulshanda  
She'rxonlik qilamiz  
To'yib o'shanda.  
Quvnoq gurungimiz



Etadi davom,  
Biz bilan bo'ladi  
Jajji Dilorom.  
Sharifanisoni  
Topgan Lyubaxon  
Uyida bo'lamiz  
Bir kecha mehmon.  
Bizdan nima ketdi —  
Yo'lma-yo'l bir dam  
Bosh suqib o'tamiz  
Ijroqo'mga ham.  
Bizni qarshi olar  
Dilkash, quvnoq mer,  
Tortmasidan olib  
O'qib berar she'r.  
“Bu xatni yozishgan  
Oshiqlar menga...”  
Bizlar bilmaganday:  
“Ha, shunday deng-a...”  
Rais bizni boshlar  
Ko'chalar sari.  
“Mana, do'stlar, sizga  
“Sevgi shahari”.  
Oshiqlar zakazin  
Qiloldik ado.  
Bu shaharga kelsin  
Kim bo'lsa shaydo”.  
Ko'chalar chetida  
Olma-yu gilos,  
Anorlar qizarib  
Gullaydi qiyg'os.  
Necha yillar osha  
O'chmay zarhali  
Turadi Farhod-u  
Majnun haykali...  
Ha, shahrim tillarda

Doston bo'ladi.  
Qrimga qochganlar  
Qaytib keladi.  
Yana majlislarda  
Minbardan turib,  
"Jonim xalqimga" der  
Ko'ksiga urib.  
Biz esa majlisdan  
Qochib o'shanda  
She'rxonlik qilamiz  
Bog'-u gulshanda.  
"G'azal" xiyobonin  
Etamiz sayr.  
O'quvchim,  
Shu yerda  
Hozircha xayr.

*1966-yil 28-may — 10-iyun,  
Toshkent*

## QUYOSH MASKANI

\* \* \*

Men bir o'zbek o'g'li,  
Kelib daf'atan  
Qadimiy Sayhunning kanorasidan  
Bukun Moskvaga qarab turibman  
Yuksak Ostankino minorasidan.  
Qo'limda bir qadah tim qora qahvo,  
Yelkamda muazzam gumbazi davvor.  
Qarshimda poyonsiz bu ajib ma'vo  
Ko'kish tuman ichra yotar ulug'vor.  
Bulutlar tegramda suzib yuripti,  
Shunchalar yaqinki, yetguday qo'lim.  
Nigohim hayratdan yo'qotib qo'nim  
Moviy cheksizlikda kezib yuripti.  
Quyosh g'arb ufqiga lovillab botar,  
MGU qubbasida bir hovuch zari.  
Olis-olislarda tovlanib yotar  
Granit qirg'oqli daryo kamari.  
Mana,  
Sharq ufqidan yuksalib asta  
Yonginamga kelib to'xtadi hilol.  
Sohir qanotiga chirmab orasta  
Meni olib uchar  
Oydin bir xayol...

\* \* \*

Xayol...  
Sayri uning goh yer, goh falak.  
Ko'zguning beorom shu'lasi misol.  
Unga bir nafasdir o'tmish, kelajak.

Unga bir qadamdir janub va shimol.  
Men bu yuksaklikda xayol bilan mast,  
Xayolning kiftida turibman o'zim.  
Faqat nigoh yetgan ufqlar emas,  
Butun koinotni ko'rmoqda ko'zim.  
Hov ana,  
U yerda tugaydi o'rmon,  
Davomi tutashdir poyonsiz cho'lga.  
Cho'l orti men uchun eng aziz makon  
O'zbekiston deya atalgan o'lka.  
Ne ajab,  
U tomon boqdim daf'atan,  
Vujudimni tortdi bir ohanrabo.  
Oy ham ko'tarilar o'sha tarafdin,  
O'sha yurt ustida porlaydi Zuhro.  
Unda men ilk marta olamni ko'rib,  
Ilk bor "Alifbo"dan olganman ta'lim.  
Olam markazining kiftida turib,  
Ona yurtim,  
Senga qilaman ta'zim.

\* \* \*

So'lim Farg'onaning munis bag'rida  
Bor olti ariqdan suv ichgan qishloq.  
Unda  
Chorak asr mendan narida  
Bolaligim chopar to'zg'itib tuproq.  
U yiroqlab borar,  
Men ortidan jim  
Xayol durbinida qarab qolaman.  
Oh, bolalik, deyman,  
Ammo o'zim kim?  
Otamning yoshiga yetgan bolaman.  
U mening yoshimda umrini yashab,  
Sharaf kitobiga bitib nomini,  
O'zi shundoq sevgan hayotni tashlab...

Yo'q, u boqiy qildi hayot shonini.  
Men qisqa kechmishim sarhisob etsam  
Bir savol fikrimda hamisha yoniq:  
Odam bo'loldimmi dunyoda men ham  
Otamning o'g'liman demoqqa loyiq?  
Men shunday yashashni qilardim orzu,  
Ham shunday bo'lmoqni el uchun fido.  
Qon bo'lib qalbinga singgan bu tuyg'u,  
Mening maslagim shu  
Azal ibtido...

\* \* \*

O'tgan kunlarimni  
Qilsam xayolot,  
Umrin kitobini varaqlab ko'rsam,  
Barcha shodliklarin beribdi hayot,  
Ayamabdi ammo ozorini ham.  
Hali yetti yoshga to'lib-to'lmasdan,  
Onamdan ham qonib eshitmay ertak,  
Otamning mehriга to'yib-to'ymasdan  
Qo'sha judolikni ko'ribdi yurak...  
Lekin taqdirimdan norizo bo'lsam,  
Yolg'iz o'sdim desam yo'q zarra haqqim.  
Ona bo'lib meni quchdi-yu o'lkam,  
Ota bo'lib boshim siladi xalqim.  
Jigar bo'lib boqdi necha mushfiq ko'z,  
Necha do'st-yor topdim, necha birodar,  
Esim tanib, menga  
"Tog'a" degan so'z  
"Ota" degan so'zga bo'ldi barobar.  
Uning mehri ila  
Umr irmog'im  
Quyildi kattakon hayot nahriga.  
Qoldi Oltiariq —  
Ota qishlog'im,  
Ona shahrim Toshkent oldi bag'riga.

\* \* \*

Sog'inch bilmasaydi  
Bolalik agar,  
O'ychan qilmasaydi pinhona dardim,  
Balki, ko'p qatori men ham bir hunar,  
Bir foydali kasbning izmin tutardim.  
Men yuksak bilardim olim xizmatin,  
Muhandis bo'lmoqni qilardim tilak.  
Ammo xayol berdi menga qismatim,  
Taqdir menga berdi beorom yurak.  
Munajjim bo'lmoqni qilardim orzu,  
Gohi ko'k sayrida tonglar otardi.  
Ammo yuragimda o'zga bir g'ulu,  
O'zga bir g'alayon cho'kib yotardi.  
Buloq yer ostida kezib ko'p zamon,  
Silqib zamin uzra chiqqanday bir kun,  
Ko'ksimni to'ldirib yotgan dard, tug'yon  
Oq qog'oz yuziga to'kildi butun.  
Shunda unut bo'ldi barcha iztirob,  
Yana nurga to'lib ko'rindi olam.  
Ma'yus yuragimni ovutdi kitob,  
Kematik hayotimni to'ldirdi qalam.

\* \* \*

Qalam!  
Ehtiromim, olqishim senga,  
Tanho kechalarda ey tanho ulfat.  
Olam yukin ortdim nozik belingga,  
Yo'limiz olisdur,  
Toliqma faqat.  
Hech kimga ochmagan ko'nglimni tanho  
Senga ochgan edim, sirdosh, qadrdon.  
Yodingdami,  
Bir qiz etganda shaydo  
Yozgandik ishq xatin birga ikkovlon.  
Qalbim so'zlariga jim quloq solib

Sen tunlar qoshimda sham bo'lib yonding.  
Men-ku senga aytdim,  
Sen ichga solib  
Kuyib ko'mir bo'lmish rishtayi joning.  
Hamon sirdoshimsan,  
Ne kelsa dilga,  
Senga aytmoq uchun qo'lga olurman.  
Ishonchim bor,  
Hatto so'nggi manzilga  
Seni aso qilib yetib borurman.  
Rost qadding qaddimni qilgusi raso,  
Chunki to'g'riliging — kuching, qalamim.  
Adil yo'lga boshla meni doimo,  
O'tkir bo'lsin mudom uching, qalamim.

\* \* \*

She'riyat — bu asli junun kamoli,  
Mayliga, kim uni nima demasin.  
Hayot ummonida yozmish shamoli  
Bo'ronlarga burdi umrim kemasin.  
Maqsad sohiliga intildim betin,  
Intilmoq yor bo'ldi go'dak yoshimdan.  
Gohi yelkasiga ko'tardi to'lqin,  
Goh esa muzdek suv quydi boshimdan.  
Izlanish yo'lining saboqlari mo'l,  
Kim qidirmas ekan,  
Bo'lmas xatosi.  
Yanglshsam ko'rsatdi menga to'g'ri yo'l  
Qutlug' e'tiqodim qiblanamosi.  
Yo'ning azobidan egilsa qaddim,  
Betin zahmatlardan toliqsa yurak,  
Navoiy ruhidan madad so'radim,  
Usmondek Pushkindan o'tindim ko'mak.  
Yo'limni yoritdi  
Shu ikki mayoq,  
Dilimni hamisha to'ldirdi nurga.

Qalb!

Senga ishondim yo'l boshidayoq,  
O'zing rahnamo bo'l butun umrga.

\* \* \*

Meni she'r bog'iga yetaklagan kim?  
Bu chaman asrorin kim etdi ayon?  
Olamdan men faqat shodlik izladim,  
Menga ustoz bo'ldi Hamid Olimjon.  
Yuraginga yana bir hamdam topdim  
Yesenin she'riga bo'lgach oshino,  
Gyote ochdi menga sirlar kitobin —  
Faust bilan birga sayr etdim dunyo.  
Fuzuliy devonin qo'linga oldim,  
U soldi ko'nglinga g'azal mehrini...  
Ko'p zahmat so'ngida  
Anglab yetoldim  
Ustoz Alisherning buyuk sehrini.  
Uni tanidim-u elimni bildim,  
Mahkamroq turganday bo'ldim zaminda.  
Diyorim,  
Sen bilan iftixor qildim,  
Barcha shavq-u otash shu bois menda.  
Agarda so'rsalar:  
— Ilk ustozing kim?  
Senga she'r asrorin kim etdi oshkor?  
Deyman:  
— Qalam berdi muqaddas yurtim,  
Vatan mehri etdi meni she'rga yor.

\* \* \*

Olam keng,  
Ellar ko'p,  
Yurtlar beshumor.  
Har yurt o'z ahliga go'zal va ajib.  
Ne baxt,



Quyoshiston ta'rifli diyor  
Nurli peshonamga bo'libdi nasib.  
Men ilk bor dunyoning xaritasida  
Oltin uzuk yanglig' o'lkamni ko'rdim.  
Zaminning do'ppidek bir pallasida  
Hiloliy nusxa gul —  
Bu mening yurtim!  
Diyorim timsoli keksa Tiyonshon,  
Cho'zib ikki daryo — ikki qo'lini,  
Uzatib turipti Sharq-u G'arb tomon  
Do'stlik kosasini — Orol ko'lini.  
O'lkamning tasviri o'xshaydi ko'zga,  
Ne tong, keng olamga boqqan ko'zim ul.  
Yana yurtim uchun ne deyman o'zga,  
Mening hayotim ul, rizqu ro'zim ul.  
Axir onaga ham sidq aylab bajo  
Uni atamaslar oy yoki quyosh.  
Qoshida tiz cho'kib,  
Ona, deb tanho,  
Indamay qo'yurlar siynasiga bosh.

\* \* \*

Byorns she'rlarida tirildi tog'lar,  
Jambul o'lanlari tutdi sahroni.  
Har shoir o'z elin nazmga bog'lab,  
Yurtiga qaratdi butun dunyoni.  
Chingiz Olatovga baxsh etdi yurak,  
Mirzo g'azalida kuldi Badaxshon...  
Men yurtimni yozsam bo'lmog'i kerak  
Osmon oq qog'ozu  
Dengiz siyohdon.  
U quyoshday munis, hayotbaxsh siyna,  
Zaminu zamiri tuganmas kondir.  
Yerning nasya emas, balki naqdina  
Jannati atalgan O'zbekistondir.  
Bu yerda bitmagan ne'mat yo'q aslo,

Jonfizo ko'ksida gurkirab yotar  
Eng uzoq shimolning archasidan to  
Eng olis janubning limusi qadar.

Daryolar,

vodiyalar,

dengizu

tog'lar...

Tabiat ko'rkining hammasidan bor.  
Bunda she'r bo'lib ochilar lola,  
Bunda ertak bo'lib yetilar anor.

\* \* \*

Qancha aziz bo'lsa,

Qancha mukarram

Ryazan sohiriga\* javdar boshog'i,

Shunchalar chiroyli bo'ldi menga ham

Tuprog'imda o'sgan paxta chanog'i.

Paxta...

U sevgidek mavzudir o'lmas,

U ilhom chashmasi — mangu buloqdir.

Ammo u chamanning ko'ksida gulmas,

Yerning kaftidagi oq po'rsildoqdir.

U jon rishtasidan yaralgan samar,

Chanoqqa jo bo'lgan hovuch to'la nur.

U manglay teridan yetilgan gavhar,

U nuri diydadan bino bo'lgan dur.

Shu dur bilan to'ldi

O'lkamning qo'yni,

Javohir koniga aylandi bu kun.

Ona xalqim!

Tarix yelkangga qo'ydi

Million tonnalarning zaminday yukin.

Ulug'layman

Toki tanda jonim bor

Manglayidan oftob o'pgan o'lkani.

Seni ulug'layman,  
Azamat diyor!  
Saxovat maxzani,  
Quyosh maskani.

\* \* \*

Muhabbat qo'yolgay qaysi ma'voga  
O'z yurti qadrini bilmagan odam.  
Shuncha bo'larmidi mehrim dunyoga,  
O'zbekiston, seni shuncha sevmasam?  
Qalhim sening uchun jo'sh urmaganda  
Nurli ko'ringaymi edi bu jahon?  
Ona muhabbatin bilmagan banda  
Sodiq bo'lgaymi do'stga hech qachon?  
Bayron — o'z yurtining suyak o'g'loni,  
O'z eli mehri-la tuzdi-yu navo,  
Yunon tuprog'ida uzildi joni,  
Bir xalq erki uchun jon qildi fido.  
Yeniseyda o'sgan sibirlik yigit —  
Unga ham o'z yurti edi keng jahon,  
Vaqt kelib o'limga turdi betma-bet,  
Yevropaga qildi ko'ksini qalqon.  
Yoniq shoir yurak Sulton Jo'raning  
Belorus yerida qolgan qabri bor...  
Kindik qoning tekkan yermi Vatanning,  
Yo qalb qoni tomgan zaminmi diyor?

\* \* \*

Qardosh do'stim!  
Sen ham o'qirsan she'rim,  
Tilingga tarjima bo'lsa mabodo.  
Hozircha til topib olamiz, sherik,  
Biz uchun bu ortiq emas muammo.  
Tasodif uchrashib qoldik biz bugun  
Yuksak Ostankino minorasida.

Kel, jinday ichaylik,  
Jiddiylik nechun  
O'tirganday mestkom idorasida.  
Bilmayman, noming kim,  
Millating nadir.  
Hozir buning nima zarurati bor?  
Sen borsan, men borman.  
Bor may va surur.  
Shuncha yuksakdamiz,  
O'zga ne darkor?  
Yoshlarning tili bir derlar hamisha,  
Ayniqsa safarda...  
Bu gap-ku ayon.  
Agar bilsang, do'stim, mana bu shisha  
Olamda tengi yo'q burro tarjimon.  
Kel, qardoshim,  
Ikkov bo'lib hamnafas,  
Mana shu qadahni ichaylik bu kun.  
Notiqlar so'ylagan "hamdo'stlik" emas,  
Bizning shu devona oshnalik uchun.

\* \* \*

Balki polkdosh bo'lgan otalarimiz,  
Balki bir okopda birga yotishgan.  
Billur qadahlarda sharob ichsak biz,  
Ular flagadan spirt otishgan.  
Tilaklar aytganda, balki bir nafas  
Bizning bu onlarni qilishgan xayol.  
Bu yerda o'ltirgan, o'yla, biz emas,  
O'sha bir vaqt polkdosh bo'lgan ikki chol.  
Bu ularning ko'zi,  
Ular qilgan his,  
Bu ular ko'ksida yongan ehtiros.  
Biz faqat ularning tirik ruhimiz —  
Biz ular umrining davomi, xolos...

\* \* \*

Yulduzlar daryosi —  
Chayqalar samo,  
Yarim oy tikkada balqib turibdi.  
U cheksiz falakda muallaq, tanho,  
Olam yuragidek qalqib turibdi.  
Ming yillar avval ham shunday edi oy,  
Shunday sharqdan chiqib  
G'arbga botardi.  
Sa'diyini lol etgan edi bu chiroy,  
Iskandar ham balki unga boqardi.  
Bu kun ham u o'sha,  
Faqat bu zamon  
Fazo kemalari qatnab turibdi.  
Lekin shu choq Yerd  
Bir guruh inson  
Qamish kiyib, o'q-yoy osib yuribdi.  
Biz esak goh qo'yib olam ishlarin  
Fazodan tirik jon izlaymiz, ajab.  
Yer uzra zamonning tebranishlari  
Cheksizlik oldida nima degan gap?  
Qo'y bu xayollarni!  
Kel, maydan oldik.  
Balki tomchisida uning ming dunyo.  
Biz ikki zarramiz —  
Uchrashib qoldik  
Buyuk va Besarhad Mangulik aro.

\* \* \*

Nur qo'ynida yonar falak ham, yer ham,  
Hilol ko'kdan pastga ohista suzar.  
O'ylayman,  
Hozir men darchani ochsam  
Kapalakday uchib kirar yulduzlar.  
Hamon bilolmayman

O'ngmi bu ro'yo?  
Parvoz etmoqdaman go'yo fazoda.  
Do'stim, qo'lingni ber,  
O'zingmisan; yo —  
Ko'rganim malakmi arshi a'loda.  
Yulduzlar bazmiga topolmay qiyos  
Turibman bu nurlar koshonasida.  
Bu yerdan samovot bir qadam, xolos.  
Maskanim falakning ostonasida.  
Yur, do'stim,  
Birga sayr etaylik, o'sha —  
Somon yulduzlari bo'lsin poyandoz.  
Bizni yuksaklarga yo'llagan go'sha  
Yiroqlardan boqsin xushnud sarfarozi.  
Ufq manglayiga durday qadalgan  
O'sha yulduzimiz yarqiroq bo'lsin.  
Uning  
Jahoniy Erk  
deya atalgan  
Nurli kelajagi yaqinroq bo'lsin.

1970

## ISTANBUL FOJIASI

### Qatnashuvchilar

**Jalol** – kolxoz raisi, 64 yoshda.

**Saodat** – xotini, 60 yoshda.

**Iskandar** – ukasi, 60 yoshda.

Yo‘lboshlovchi, politsiyachi, muxbir, sayyohlar va boshqalar.

Voqea shu kunlarda Istanbul shahrida bo‘lib o‘tadi.

### *Muallifdan*

Inson qalbining boyliklari ichida Vatan tuyg‘usi deb atalgan bebaho javohir bor. U — yuragimizning quvvati, e‘tiqodimizning salimligi, hayotimizning butunligidir. Uni his qilmagan farzand, tarannum etmagan ijodkor yo‘q.

Vatan — Navoiy va Mashrabning iztirobi, Bobur va Furqatning sog‘inchi...

Men chet ellarda safarda bo‘lganimda turli sababga ko‘ra xorijda qolib ketgan vatandoshlarni ko‘rganman. Ularning ko‘zlari tubiga cho‘kkan dard yuragimda iz qoldirgan. Bu ko‘zlar ba‘zan tunlari xayolimda gavdalanadi, azob beradi va azob barobarida o‘z qismatim uchun shukronalik hissini ko‘nglimga soladi.

Hayotda qo‘yilgan bir yanglish qadam ba‘zan umrlik qiynoqqa sabab bo‘ladi. Men qalamga olgan Iskandarning qismati shunday.

Ikkinchi jahon urushida xalqimiz qo‘lga kiritgan g‘alaba yigirma million jon hisobiga kelgan. Iskandar ham o‘sha qurbonlar qatoriga kiradi. Lekin u eng baxtsiz qurbon — tirik qurbon.

Qahramonlarim o‘z xatolari va armonlari bilan, ishonchlari va ishtibohlari bilan shu zaminda yashab turgan odamlar... Ana shu so‘zlar bilan, aziz do‘stlarim, bu fojeiy qismat tarixini sizning hukmingizga havola etmoqdaman.

Yaqinlashayotgan kuchli po'rtana tovushi, kema zirhiga urilgan to'liqning qarsillashi eshitiladi. Chaqmoq chaqadi, momaqaldiroq gumburlaydi.

“Diqqat! Diqqat! “Beruniy” sayyoh kemasi radiouzelidan gapiramiz. Shimoldan kelgan havo oqimi O'rta Yer dengizida shamolning kuchayishi, chayqalishning oshishiga sabab bo'lmoqda. Hurmatli sayyohlar! Kema palubasiga chiqish qat'iy man etiladi. Bo'ron 9 ball, dengiz 8,5 ball”.

Bo'ron kuchaya boradi. To'liqlarning dahshatli gumburlashi chayqalishning zo'rayganligidan darak beradi. Nihoyat shamol va chayqalish pasayadi.

“Diqqat! “Beruniy” sayyoh kemasi Bosfor bo'g'ozida suzib bormoqda. Bir necha daqiqadan so'ng kema Istanbul bandargohiga kiradi”.

### **Birinchi manzara**

Istanbul. Mashhur Kapali charshi oldidagi maydon. Chap va o'ng tomonda timlik rastalar. Orqada shahar, machitlar, minoralar, zamonaviy ko'p qavatli uylar. Uzoqda ko'm-ko'k Bosfor ko'rfazi.

Kemalar. Ular ichida yirik bo'lib “Beruniy” kemasi ajralib turadi. Bozor oldidagi maydondan turli toifadagi kishilar: turklar, inglizlar, yaponlar o'tib turadilar. Aravachalarda yuk tortib borayotgan xizmatkorlar, ular ortida sigareta tutatib kelayotgan boyvachchalar. Gazeta sotayotgan bolalarning ovozlari:

— “Gazet! Gazet! Gazet! “Hurriyat”, “Gunoydin”...

Janob prezident hazratlarining ma'ruzalari, Jopuniya Amri-qoning cho'kmas harbiy kemasi o'lur!” Sigareta sotayotgan odam: “Sigaret, sigaret! “Malburo”, “Malburo!” Kepqoling!”

### **G a d o y**

(O'tkinchiga)

Sadaqa qiling, janob! Sadaqa qiling, ser!

Sahnaning asosiy qismi qorong'ilashadi va old sahnaga yo'l boshlovchi turk ayol yetagida bir guruh o'zbek sayyohlar kirib keladilar.



## Y o' l b o s h l o v c h i

Mana, keldik. Sharq bozori degan joy shu yer,  
Jondan boshqa hamma narsa bunda muhayyo.  
Dunyo — bozor degan gap bor, lekin aslida  
Istanbulning Sharq bozori o'zi bir dunyo.  
U dunyodek bepoyon-u dunyodek rangin,  
Dunyo kabi savdosi ham, g'avg'osi ham ko'p.  
U shunday bir saltanatki, boyligi olam,  
Sultonlari qatorida gadosi ham ko'p.  
Bu tomonda gilam rasta, bu yon zargarlik,  
Bu qatorda ketganicha bazzozlik — mato.  
Boshdan oyoq kezmoq uchun Sharq bozorini  
Bir kun emas, bir hafta ham yetmaydi hatto.  
Ammo bizning ixtiyorda ikki soat bor,  
Istagancha ko'ring, xarid qiling, iltimos.

*(S a o d a t oqsoqlanib to'dadan ajralib chiqadi va chekkadagi skameykaga o'tiradi. Uning yoniga Jalol keladi.)*

Faqat *(soatiga qarab)*

Ikki soatdan so'ng, ya'ni oltida

Avtobusda uchrashamiz, kechikmang, xolos.

*(Sayyohlar g'ovur-g'uvur bilan tarqala boshlaydilar.)*

## S u m k a l i s a y y o h

Qulmuhammad aka! Nima xarid qilasiz?

Yangamizga tilla sirg'a oling!

## M u x b i r

E, ukam,

Bunday pulga tilla tugul, jez ololmaysiz.

*(Fotoapparatini chiqarib, hamma yoqni suratga ola boshlaydi.)*

## T e r m o s l i s a y y o h

*(Sumkali sayyohga)*

Jiyanim shim olib keling, degan.

*(Qog'ozga qarab)*

“Leu straus”,

Tanlashvoring, birodar!

## A y o l s a y y o h

*(Termosli sayyohga)*

E, kimga aytyapsiz!

Erkak kishi shim tanlashni bilar ekanmi,

Yuring, sizga o'zim tanlab beraman.

*(Ketishadi)*

## S a o d a t

Voy, voy —

Oyoqqinam tamom bo'ldi.

*(Tufisini yechadi.)*

## J a l o l

Senga aytdim-a,

Uzoq yo'lga baland poshna tufli kiyma, deb!

“O'lar, — deding, — “Angiliston, Farangistonga

Shippak kiyib boramanmi, u yurtdagilar

Nima deydi”, deb gapimga quloq solmading.

*(Saodatning oyog'ini ko'rib)*

Bay-bay... Sho'rlik... Tovoning go'sht bo'lib qolibdi.

*(Sumkadan yod, paxta olib xotining oyog'ini muolaja qildi.)*

## S a o d a t

Qariganda sayohatga chiqmay men o'lay,

Uyginamda jujuqlarni bag'rimga bosib,

Televizor ko'rib yotsam bo'lmasmidi-ya!

## J a l o l

Bunday safar hammaga ham nasib bo'lmaydi —

Shuncha yurtni ko'rdik. Ko'p ham noshukur bo'lmang.

Daniyadan yo'lga chiqib, yarim dunyoni

Kezib, mana, Turkiyaga keldik. (Shoirona)

Parivash —

Nozananim, sarvqomatim, oyog'ingizga

Butun boshli Yevropani poyandoz qildik.

Ushalmagan yana qanday orzulari bor?

S a o d a t

Bittagina orzum – eson-omon uyinga  
Yetib olsam bo'ldi. Endi ikki dunyoda  
Sayohatni orzu qilmay. Bo'larim bo'ldi.  
Hammasidan chayqalishi yomon bo'larkan.  
Har gal to'lqin qarsillatib kelib urganda  
“Endi o'ldim” deyman. Bay-bay, kema jonivor\*  
Arg'imchoqday uchadi-ya!

J a l o l

Yoshlik paytingda  
Hayinchakka to'yamay qolgan bo'lsang mabodo,  
Maza qilib uchib olding.

S a o d a t

Ichak-chavog'im  
Naq teskari bo'lib ketdi. Voy, boshginam-ey!

S u m k a l i s a y y o h

*(Hovliqib kiradi.)*

Iye, sizlar nima qilib o'tiribsizlar,  
Axir bozor qizigandan qizib yotibdi.  
Jondan boshqa hamma narsa bor ekan, yanga,  
Sizga nima kerak, yuring!

J a l o l

Bizga jon kerak.

S a o d a t

*(Jalolga)*

Kamoljonim, yaponskiy magnitafon deb  
Ko'p yalingan edi, boring, oling, dadasi.  
Men shu yerda o'ltiraman.

S u m k a l i s a y y o h

*(Bosh barmog'ini ko'rsatib)*

Bundoqlari bor.  
Yuring, o'zim ko'rsataman.

Jalol

Ovora bo'lmang,  
Bir kamim shu uzoq yurtdan... E, keling qo'ying.

Sumkali sayyoh

Bilganingiz...

*(Chiqadi. Sukut)*

Jalol

Xotin, nega jim bo'lib qolding?

Saodat

Dadasi...

Jalol

Ha.

Saodat

Ertalabdan beri ko'nglimda  
Bir xiralik bor.

Jalol

Sog'inchdan, darmonsizlikdan...

Saodat

Undan emas. Hali sizga aytay dedim-u,  
Yuragingiz g'ash bo'lmasin deb indamadim.

Jalol

Xo'sh, nima gap?

Saodat

Nonushtadan keyin anovi  
Ayo So'fiya masjidiga bordik...

Jalol

Xo'sh?

Saodat

Shunda

Bir turk bizga juda uzoq tikilib qoldi.

Jalol

Nima bo'пти?

Saodat

Men cho'chidim, afti bir xunuk...

Basharasi to'la chandiq, qora plashda.

Hassa tutgan. Siz unga hech qaramadingiz.

U ko'zini olgani yo'q.

Jalol

Qarasa nima?

Bir anqovdir.

Biz ularga, ular bizlarga

Anqayamiz. Qo'sh tomosha...

Saodat

Tomosha bo'lsa

Go'rga edi. Ertalabdan beri ketmaydi.

Muzeyda ham, sultonlarning saroyida ham

U ergashib yurdi. Bir payt yaqin kelganda

Qaradim-u yuragim bir shuvillab ketdi.

U ko'zini olib qochdi...

Jalol

Vahima qilma,

Har narsadan cho'chib vos-vos bo'lib qolibsana.

Sumkali sayyoh

(Yana paydo bo'ladi.)

Charm kamzul oldim. Qalay, yarashibdimi?

S a o d a t

Yarashibdi. Binoyidek.

J a l o l  
(O'zicha)

To'qimdakkina.  
(Sumkali sayyohga)  
Omadingiz kelibdi-da.

S u m k a l i s a y y o h  
Kelganda qandoq!  
Biz tomonda bunaqasi bo'lmaydi.

J a l o l  
(Kesatib)

Yashang!

S u m k a l i s a y y o h  
(Soatiga qarab)  
Bir soatdan ko'proq vaqt bor.  
(Bozorga kirib ketadi.)

J a l o l

Eh, yoshlar! Yoshlar!  
Matoh desa o'zlarini tomdan tashlaydi.  
Na andisha, na g'urur, na istihola bor,  
Anovining ikki ko'zi magazinlarda,  
Biror narsa yarq etsa bas, sho'ng'ib ketadi  
Ko'rsichqonga ko'zi tushgan qirg'iyga o'xshab.  
Dakki bersam, "Men bu yerga Napoleonning  
Mozorini ko'raman, deb kelgan emasman",  
Deb aytadi, uyati yo'q.

S a o d a t

Nima qilsin — yosh,  
Kiyingisi keladi-da... Yoshligingizda

O'zingiz ham juda bashang kiyinardingiz.  
Oq kitel-shim, oq kepka, oq brezent tufli...

Jalol

Tuflini biz tish poroshok bilan oqlardik.

Saodat

Ne bo'lsa ham durust edi o'sha kiyimlar.

Jalol

Ham arzonroq edi. Topish qiyinmas edi.

Saodat

Juvonlar ham hozirgidek kiyinmas edi.  
Uzun ko'ylak, uzun lozim, yeng bu yergacha.  
(*Barmoq uchini ko'rsatadi.*)

Jalol

Durrachani aytmaisanmi? Uzoqdan ko'rib  
Yuragimiz dukullardi.

Saodat

Ho...

Jalol

Hammagamas.  
Sen boshqacha eding. Go'zal, ko'zlaring jodu.  
Men qishloqda ikki yilcha bo'lmadim, xolos,  
Ikki yilda koptok o'ynab yurgan qizaloq -  
Ofatijon, sarviqomat bo'lib qolibsan.

Saodat

Farg'onadan siz ham boshqa bo'lib kelgansiz...  
Dadasi... Hoy dadasi...

Jalol

Ha!

S a o d a t  
(*Qo'li bilan ko'rsatib*)

Ana, kelyapti.  
(*Cho'chib tisariladi.*)  
O'sha odam! Qo'rqyapman, keta qolaylik.

J a l o l  
Qani? Nega cho'chiysan-a?

S a o d a t  
Ana, ana u!  
(*Qora sharpa daraxt panasida to'xtaydi.*)

J a l o l  
(*Sharpa*)  
Hoy sen kimsan?  
(*Sharpa jim.*)  
Gadomisan, qalandarmisan?  
(*Sharpa jim.*)  
Beriroq kel, hoy!

S a o d a t  
Chaqirmang, ketsin, daf bo'lsin.

J a l o l  
Dil biliyurmisan, gardash?  
(*Sharpa jim.*)  
Demak, turkmassan,  
Arabmisan yo hindu, yo eroniymisan?

N o t a n i s h o d a m  
(*Sukutdan so'ng. Panada turgancha*)  
Hamma millat nomin aytding. Ammo ne uchun  
O'zbekmisan, deb so'rashga tiling bormadi?  
Men o'zbekman!



Jalol

Yo ajabo!

Saodat

Tavba, yo tavba!

Notanishodam

Nega hayron bo'lasizlar? Yo chet ellarda  
O'zbeklarning borligini bilmasmidingiz?  
Cho'chimangiz. Men xoin yo josus emasman.  
Men bir xazon yaprog'iman. Taqdir shamoli  
O'z bog'imdan yiroqlarga uchirib ketgan.  
Necha yilki, hayotimdek xazon faslida  
Bandargohga kelib bunda kema kutaman.

Jalol

Sho'r peshona ekansan-ku. Gaping rost bo'lsa,  
Panadan chiq.

Saodat

(cho'chib)

Yo'q, dadasi, qo'ying, chaqirmang.  
Turqi sovuq ko'rinadi. Juda qo'rqaman,  
Kim biladi bu inson kim, murodi nima?  
Yuring, kettik, jon dadasi, safarimizning  
Oxirida ko'rgilikka uchrab qolmaylik.  
Begona yurt...

Jalol

(Saodatga)

Jim tur...

Notanishodam

Tezroq ketay... mabodo  
Ona yurtidan bir kaft tuproq keltirmadingmi?

Jalol

Tuproq yo'g'-u, u tuproqda bitgan mayiz bor.  
(Sumkadan bir xaltacha olib uzatadi.)  
Beriroq kel, ol, hayiqma, notanish odam.

Notanish odam

Yaqin borsam sizlarga gap tegmaydimi?

Jalol

Beriroq kel.

Notanish odam

(Panadan chiqib yaqin keladi. Uplashda, yuzi chandiq. Qo'lida  
hassa. Sochlari oppoq. Jalolning qo'ldan xaltachani olib ochadi,  
bir dona mayizni og'ziga solib uzoq tamshanadi.)

Shukur, yurtim nafasini tuygandek bo'ldim.  
Qulluq, yurtdosh, ming tashakkur, taqdir hamisha  
Nasibangni butun qilsin!

Jalol

O'zingni tanit,  
Kimsan, qachon bu yoqlarga kelib qolgansan?  
(Sharpa jim.)  
Gapirsang-chi! Qayerlikсан? O'zbekistonda  
Biror kiming bormi? Aysang, balki tanirman.

Notanish odam

Hech qayerda hech kimim yo'q. Qismat dashtida  
Bir sho'rakman — yumaloq xas. Qurigan jismim  
Zamonlarning quyunida mangu sargardon,  
Vatani yo'q, elati yo'q bir benavoman.  
Bu dunyoga qachon keldim — esimda ham yo'q.  
Bamisoli dunyo borki, men borman. Shuncha —  
Uzoq bo'ldi bu g'urbatkash umrim. O, mendan  
Hech narsani so'rama, qo'y!

## Jalol

Ey, jabrdiyda,  
Ne balolik qismat seni bu kunga soldi?  
El oldida yuzing shuvit bo'lsa, uni ayt.  
Haqiqatda agar josus, xoin bo'lmasang,  
O'zga neki gunoh bo'lsa, uning avfi bor.  
Mard bir o'lar, nomard yuz. Ha! Egilgan boshni  
Qilich kesmas, degan gap bor. Qolgan umrini  
Ayriliqning azobida o'tkazma, yurtdosh.  
Tortinma, ayt, yurtga qaytmoq niyating bo'lsa,  
Men qo'limdan kelganicha yordam berayin.

## Notanishodam

Ammo mening najotimga na-da sen, hatto  
Parvardigor qodir emas.

*(Sukut)*

Qirq yil ilgari  
Men o'lganman. Qarag'ayzor o'rmon ichida  
Ko'milganman. Ro'parangda turgan – arvohim.

## Saodat

Bu ne dahshat! Tush ko'ryapman. Yo'q, bu o'ng emas.  
Qo'rqinchli tush!

## Jalol

Beriroq kel, nega qo'rqasan?  
Qayerdadir ko'rgandekman...

*(Sukut)*

Yo'q, eslolmadim...

Mabodo sen biz tomonda — eski Qo'shtepa,  
Yangi nomi Engels — unda bo'lmaganmisan?

## Notanishodam

*(Cho'chib tushadi, yaqin kelib bir Jalolga, bir Saodatga tikiladi,  
hayajonga tushadi.)*

Bo'lmaganman, yo'q.

*(Nari ketadi.)*

Jalol

O'zingni yashirma, tokay —

Berkinib kun ko'rmoq mumkin!

Notanish odam

(O'zicha)

Qanday tasodif!

Zamon, ma'kon deb atalgan poyonsizlikda

Qit'alar va yillar osha bundoq uchrashuv!

(Jalolga)

Qo'y, so'rama. Surishtirib nima qilasan?

Foydasi yo'q.

Jalol

Mayli, yurtdosh, o'zing bilasan.

Biror nafim tegarmikin deb o'ylagandim,

Aftodahol ko'rinasan.

Saodat

Yorug' dunyoda

Qancha baxtsiz odamlar bor!..

Jalol

(Yonidan pul chiqarib uzatadi.)

Mana buni ol,

Bir kuningga yaratarsan.

Notanish odam

Yo'q, kerak emas,

Kambag'alman, lekin gado bo'lganimcha yo'q.

(Muxbir kirib keladi.)

Muxbir

Jalol aka, yanga, qani bu yerga turing,

Abadiyat uchun bitta kadr qilamiz.

(Fotoapparatni to'g'rilaydi. Notanish odam ketadi. Muxbir bir-  
ikki suratga oladi.)

Ana bo'ldi.

*(Bosh barmog'ini ko'rsatib)*

Mana bundoq rasm chiqadi!

*(Notanish odam ketgan tomonga qarab-qarab qo'yadi va ketadi.)*

Jalol

*(Atrofga qarab)*

Xah, qochirib yubordi-ya!

Saodat

Sho'rlik bewatan...

Qo'ying, mayli, bir hisobda ketgani yaxshi.

Dard-hasrati qurib ketsin, ko'nglimni ezdi.

Jalol

Hayotimda bir savob ish qilay deb edim.

Vatanidan judo bo'lgan bechora ekan.

Bir yordamim tegib qolsa, yomon bo'lmasdi.

Saodat

Lekin o'zi istamasa nima qilasiz?

Jalol

Uni topish kerak.

Saodat

Qanday qilib topasiz?

Jalol

Ana, o'zi keldi.

Notanish odam

*(Kirib keladi.)*

Yana keldim, o'zimni

Tanitmoqchi emas edim. Lekin o'ylasam,

Keyin armon bo‘lar ekan. Mayli, aytaman.  
Lekin bitta shartim: gap shu yerda qoladi,  
Na bu joyda, na Vatanda biror kimsaga  
Men to‘g‘rimda so‘zlamaysiz.

*(Sukut)*

Endi eshiting.

Qo‘shtepaning guzarida bir tut bor edi,  
Yuz yillik tut...

Jalol

*(Saodatga)*

Ha, aytdim-ku, uni ko‘rganman.

Notanishodam

O‘sha tutdan sal pastroqda, eski hovlida  
Usta Ahmad yashar edi.

Jalol

U mening otam.

Bilarmiding?

Notanishodam

Ha. Urushning birinchi yili  
Halok bo‘lgan edi.

Jalol

To‘g‘ri. Ayt, kimsan o‘zing?

Notanishodam

Sen o‘shanda endigina uylangan eding,  
Jonon kelin Saodatni  
*(Saodat cho‘chib ketadi.)*

Bag‘ringga bosib

Yotganingda sahar payti qoraxat keldi.

*(Jalol va Saodat lol.)*

Shunda hali o‘n sakkizga to‘lib-to‘lmagan

Ne sababdir uydan ketib qolgan Iskandar  
Ukang keldi... Ostonada turgancha yig'lab  
Onasiga vido aytib urushga ketdi.  
Shu bo'yicha qaytgani yo'q.

Jalol

Ukam Iskandar  
Novgorodda halok bo'ldi.

Notanishodam

Afsus...  
Ming afsus,

Jalol

U mard edi.

Notanishodam

Afsus shuki, u o'lmay qoldi.

Jalol

Yo'q... Nahotki...

Notanishodam

Men bo'laman o'sha Iskandar!

*(Saodat qichqirib yuboradi.)*

Jalol

Yolg'on! Yolg'on! Sen u emas! Iskandar o'lgan!  
Mening ukam Vatan uchun jonini berib,  
Yer qa'rida yotibdi. Sen arvohni tinch qo'y.

Notanishodam

Tanimading, yo tanishni istamading. Sen —  
Qahramonning akasisan, shunisi ma'qul.  
Qabih chindan ko'ra ezgu yolg'on yaxshiroq.  
Sen aytgancha bo'lsin, gapim yolg'on, afsona.

Hech cho'chima. Sha'ningga dog' tushirmayman. Yo'q!  
Men o'lganman. O'lganimcha qolaman. Ammo,  
Bir o'tinchim — onam tirik bormi — shuni ayt.  
Ayt, yashirma. O'zimni fosh qilmayman, ishon.  
Faqat onam o'lgan bo'lsa aza ochaman,  
Yig'lab-yig'lab yuragimni yozaman, xolos.  
Agar tirik bo'lsa, sendan bitta iltimos:  
Jigarlik qil, ukang ado eta olmagan  
Vasiyatni sen bajargin.  
(*Qo'ynidan tumor oladi.*)

Mana bu — tumor.

Meni jangga kuzatarkan, onam bechora  
Shuni tikib bergan edi. Aytgan ediki:  
“Sen kenjamsan, jangdan omon qaytasan. Axir,  
Meni go'rga qo'yadigan o'zingsan, bolam!  
Bolam! Sening diydoringni ko'rmagunimcha,  
To qiyomat ilhaq bo'lib yotaman. Bilki,  
Bo'yingdagi tumor emas, onang yuragi.  
Tilagim ham vasiyatim shuki, sen qaytgach,  
Qachon vaqti qazo yetib dunyodan o'tsam,  
Shu tumorni o'zing boshim ostiga qo'ygin”.

(*Sukut*)

Onaginam, yuraging-ku meni asradi,  
Men sutingni oqlolmadim. Beomon qismat  
Bolangni o'z Vatanidan benasib qildi.

(*Jalolga*)

Agar onam tirik bo'lsa, jigarim, endi,  
Mana tumor, vasiyatni o'zing ado et.

(*Saodat devorga suyanganicha, Jalol boshini ushlab  
tebratganicha lol.*)

Demak... onam o'lgan. Meni kuta-kuta u  
Ilhaqlikda ado bo'lgan. Kechir, onajon!



Kechir meni! Kechir meni! Men odammanmi?  
Egasi yo'q, sanqib yurgan bir qari itman.  
Benavoman, bedavoman.  
(Ketadi.)

Jalol

Iskandar! To'xta!  
(Iskandarning orqasidan chiqadi.)

## **Ikkinchi manzara**

Karvonsaroy mayxonasi. Sahna ichkarisida ikki, uch, to'rt kishilik yasatig'liq stollar. Mayxonaning o'ng tomonida sahna. Lekin u bizga ko'rinmaydi. Stollarda bizga tanish sayyohlar. To'rt ayol bir stol atrofida. Saodat ham ular orasida. Hammaning ko'zi sahna tomonda. Musiqa yangrab turibdi. Raqqosa va cholg'uvchilarning soyasi devorda akslanadi. Sahna oldida — uch kishilik stol atrofida Jalol va Iskandar. Sahna orqasi qorong'ilashib, biz faqat Jalol va Iskandarni ko'ramiz.

Jalol

Bu dunyoda judolikning turfa xili bor.  
Birov yordan ayriladi, birov diyordan.  
Yo'qotishlar ichida eng mushkul, eng dahshat —  
Bu o'zlikni yo'qotmoqdir. Eh, sen Iskandar!  
Sen o'zingni yo'qotibsan. Qanday ko'rgilik!

Iskandar

Gunohim shu — tirik qoldim. Ming pushaymonman.

Jalol

Aybing tirik qolganingmas...

Iskandar

Tirik o'lganim.

Jalol

El-yurt mayli, qarindosh-u urug'lar, mayli,

Onangni hech xayolingga keltirmadingmi?  
(*Iskandar qayg‘u ichida bosh tebratib o‘tiradi.*)  
Sendan keyin uch oy o‘tmay men ham jo‘nadim,  
Grodnode yaralandim. Tuzalib chiqib,  
Elbagacha bordim. Umr bor ekan — qaytdim.  
O‘sha kunni unutmayman — onam bechora  
Tut tagida kir yuvmoqda ekan. Ko‘rdi-yu: —  
“Bolam, bolam!” deb yelkamga osilganicha  
Yig‘layberdi. Sovun yuqi qo‘llari bilan  
Yuzlarimni, boshlarimni silab yig‘ladi.  
“Nega o‘zing qaytding, bolam, ukagingangni  
Qayerlarga tashlab kelding?” deb faryod chekdi.  
Keyin bilsam, sendan qoraxat kelgan ekan,  
Xat yonida komandiring Danilov yozgan  
Maktub ham bor ekan: “Ona! Farzanding bilan  
Iftixor qil! — deb yozibdi — o‘g‘ling qahramon!”

(*Sukut*)

Yillar o‘tdi. Oltmish to‘rtning bahori edi,  
Moskvada veteranlar anjumanida  
Bir polkovnik menga uzoq tikilib qoldi.  
Biz tanishdik. Qaraki, u Danilov ekan.  
Meni senga o‘xshatibdi. Quchoqlab oldi,  
Novgorodga birga bordik. Qabringni topdik.  
“Qabring” dedim, meni kechir — o‘zga ne deyin?

*Qorong‘ilik cho‘kadi. O‘rmondagi yalanglik. Danilov va Jalol lavha yonida.*

### D a n i l o v o v o z i

Qirq uchinchi yil. Yettinchi sentabr edi.  
Bizning rota olov seli ichida qolib,  
Bu yerda yov hujumini qaytarar edi.  
Biz oz qoldik. Lekin yovga taslim bo‘lmadik.  
Iskandaring shunqor edi. U yakka o‘zi  
To‘rtta tankni yondirdi-yu beshinchisiga  
Qo‘lidagi granata bilan tashlandi.  
Ko‘z oldimda tank va inson ro‘baro‘ keldi.

Bamisoli ertaklarda yovuz maxluqqa,  
Qoradevga ko'krak tutib tik hamla qilgan  
Pahlavondek edi o'sha damda Iskandar.  
Lekin, afsus, ertakdagi kabi bo'lmadi,  
Vahshiy kuchni yengolmadi mardlik, adolat...  
Ko'z oldimda tank do'stimni... dahshat!

(Sukut)

Ey do'stim!  
Endi mening diyorumda, qabring ustida  
Qarag'aylar alla aytib tebranmoqdalar...

*Qorong'ilik. So'ng yana Karvonsaroy. Jalol va yig'layotgan Iskandar.*

Jalol

O'sha yerning tuprog'idan bir kaft keltirib  
Men Jasorat maydonida qabr yasatdim.  
U qabrda yil — o'n ikki oy navbahorning  
Chechaklari alvon-alvon bo'lib yotadi.

Iskandar

Bas, ezilgan yuragimni qaytadan ezma.  
Yolg'on shuhrat sharif qilgan ismimga la'nat.  
O'sha jangda tank ostida majaqlanmasdan  
Tasodifan tirik qolgan jismimga la'nat!  
Qani edi, haqiqatdan men o'lgan bo'lsam,  
Qani, chindan unib yotsa qabrimda gullar,  
Qani edi, halok bo'lgan do'stlarim kabi  
Mangu sukut og'ushida rohatda yotsam.  
Odam nasli azal-abad o'limdan qo'rqr,  
Nechun, nechun? Axir o'lim oliy mas'udlik,  
Bor vujudning, jon-u ruhning osudaligi,  
Ammo bu baxt mendan doim yuzini burdi.  
Endi kimman? Na o'lik, na tirik bir vujud,  
Ko'zi ochiq, qadam tashlab yurgan qabrman.

(Sukut)

Shunday qilib o'sha kuni men omon qoldim,  
Chuqurlikka qulabman-u hushdan ketibman.  
Bir mahal ko'z ochsam, ikki bahaybat nemis  
Avtomatni to'g'ri qilib qarab turibdi.  
Qismat ekan, asoratning achchiq alami,  
Chidab bo'lmas qiynoqlari boshlandi. Inson —  
Guldan nozik inson — vaqti kelsa temirdan  
Mustahkamroq bo'lar ekan. O'shanda bildim.  
Iztirobdan odam o'lsa men o'lar edim,  
O'sha yillar dahshatini so'zlamog uchun  
Yillar kerak...

*(Qorong'ilikda ko'mir tashiyotgan asirlarning soyasi ko'rinadi.)*

Xullas, bir kun yarim kechada  
Yetti asir maslahatni bir joyga qo'yib,  
Poyloqchini gumdon qildik. O'rmonga qochdik.  
O'sha damdan vaqt sezgisi yo'qoldi. Qancha  
Yugurganimni bilmayman. Tasavvurimda  
Es-hushimdan judo bo'lib to bugungacha  
Yuguraman, yuguraman... Hech to'xtamayman.  
Kimdan qochib bormoqdaman, qayga qochaman —  
Menga sira ayon emas. Hayot bamisli  
Qop-qorong'u o'rmon... Hatto tushlarimda ham  
To'da-to'da itlar meni quvlaydi...

*(Sukut)*

Xullas,

Ko'zni ochsam, bir kulbada yotibman... Oqsoch  
Nemis kampir boshim uzra o'ltirar edi.  
U o'rmondan behush holda topibdi meni.  
*(May ichadi va Jalolning qadahiga qarab)*  
Ichmayapsan?

Jalol

Jigar chatoq.

Iskandar

Sen ham qaribsan.  
Namoz o'qiysanmi?

Jalol

(Miyig'ida kulib qo'yadi va bosh tebratib "yo'q" ishorasini qiladi.)

Sen-chi?

Iskandar

Jon deb o'qirdim.

Lekin menda e'tiqod yo'q. U dunyoga ham,

Bu dunyoga ham.

Jalol

Ishonchsiz yashash — ko'rgilik.

Har yurakka bitta tayanch nuqta zarurat.

Busiz odam odam emas — bo'shliq bo'ladi.

Iskandar

Menga qolsa e'tiqodsiz yashashdan ko'ra,

Changalzorning yarim vahshiy qabilasidek

Ilongami, to'ng'izgami sig'ingan yaxshi...

Mening xasta jonimga ham bir aso kerak,

Ammo qani o'sha imon? O'sha e'tiqod?

Zamon barcha xudolarni arshdan qulatdi.

Savob, gunoh barbod bo'ldi. U dunyodagi

So'roqlardan qo'rqadigan odam qolmadi.

(Sukut)

Men sargardon hayotimda nimani ko'rdim?

Hamma yerda imonsizlik, fahsh va qabohat!

Tubanlik bor — alhazar yo'q. Biz nafas olgan

Shu havoga to'lib ketdi yolg'on sadolar.

Tuman xillik to'lqinlarda tongdan tonggacha

Miyamizni aldoq bilan to'ldirmoqdalar.

Faqat bir gap: biz yaxshimiz, boshqalar yomon.

Jalol

Shuning uchun odamzodga ikkita quloq,

Bitta aql tarozusi berib qo'yilgan.

Ikki yonga quloq sol-u bir mezon bilan  
O'ichab o'zing xulosa qil. Haqiqatni top.

I s k a n d a r

Haqiqat yo'q. Bo'lgan emas. Dunyoda faqat  
Manfaat bor. Manfaat deb atalgan "cho'pon"  
Odamzodni poda qilib haydab yuribdi.

J a l o l

Ha, shubhasiz, sen tanlagan dunyoda shundoq.

I s k a n d a r

Men tanlagan dunyo? Menda tanlash huquqi  
Bormi edi? Sargashta jon uchun dunyo — bir.  
Ummonlar bir, sahrolar bir, daryolar ham bir,  
Odamizod boshidagi savdolar ham bir.  
Dunyo ikki bo'lsa sarhad bormi o'rtada?

J a l o l

Ha, sarhad bor. U odamlar qalbidan o'tgan,  
Bas, o'zingni soddalikka solma, sen-u men  
Faqat ikki odam emas, ikki olammiz.

I s k a n d a r

Bir ota-yu bir onaning ikki farzandi  
O'rtasida, demak, endi tubsiz jarlik bor...  
Qani, ayt, men qaysi olam, qaysi jamiyat,  
Qaysi vatan odamiman? Ajrim qilib ber!  
Meni o'zbek ona tug'ib, alla aytdi-yu  
Nemis ona olib chiqdi ajal domidan.  
Bir olamda ko'z ochdim-u boshqa olamda  
Umrin o'tdi — endi qaysi dunyo nomidan  
So'zlamog'im kerak? Menga tushuntirib qo'y.  
Sarmoyadormanmi? O'shal ikkinchi onam  
Ukasiga kuyov bo'ldim va undan meros  
Dyusseldorfning bankasida sarmoya qoldi.

Vaqt bo'ldiki, o'n ming aqcham yuz mingga bordi,  
Vaqt bo'ldiki, bir do'koncha tebratdim, xolos.  
Yo'qsilmanmi? Endi mendan yo'qsil odam yo'q,  
Ko'zim xira, darmonsizman, tashlandiq zotman,  
Xotin boshqa erga tekkan, o'g'il uylangan.  
Bu o'rmonda quyonlardek urchib, ko'payib,  
Quyonlardek tanimaymiz bir-birimizni.  
Mana, mening tarjimayi holim, ayt endi,  
Qaysi dunyo ro'yxatiga qo'shasan meni?

### Jalol

Bu holatni ajrim qilmoq mening ishimmas,  
Yurtga qaytsang, tegishli joy ajrim qiladi.  
Faqatgina, maslahatim hech bir narsani  
Berkitmay ayt — ular hammasini biladi.

### Iskandar

Qaysi aybim uchun so'roq berishim kerak?  
Tank majaqlab ketmagani uchunmi, yoki —  
Arosatda omon qolgan boshim uchunmi?  
Men fashistga askar bo'lib jangga kirdimmi?  
O'z yurtimga o'q otdimmi? Tuhmat qildimmi?  
Jigar bo'lib yuragimni sen tushunmasang,  
Meni kim ham tushunardi, shafqat qilardi?!

### Jalol

Yoshlikda ham sen o'lguday jizzaki eding,  
Qaribsan-u, bu odatdan xalos bo'lmabsan.  
Seni o'ldi degan edik, mayli, o'lmabsan —  
Lekin aybim nima, desang hayrat qilaman.  
Qirq yil yurtga qadam qo'ymay benom-u nishon  
Yurganingni o'zing gunoh sanamaysanmi?

### Iskandar

O'ylaysanki, men yurtimni sog'inmaganman!  
Umrим bo'yi yo'l izladim. Nahot bilmaysan,  
Asir zoti xoinga teng sanalgan axir!

Yov o'qidan qo'rqmaganman. Lekin o'z eling,  
Sen jon fido qilgan eling xoin sanasa,  
Itdek otib tashlasa-chi? Alam qilmasmi?

Jalol

Avfi umum chiqqan edi.

Iskandar

Keyin kech bo'ldi,  
Ming bir sabab. Qay birini senga aytaman.

Jalol

Qo'y, gapirma. Shuncha yil-a! Vijdoning qani?

Iskandar

Vijdon... vijdon... o'sha vijdon bormi o'zingda!  
Ba'zan meni o'ylaganda qiynalmaysanmi?  
Qabrimdagi sovuq toshga qo'ling tekkan payt  
Barmoqlaring kuymaydimi? Yoki ko'zingdan  
Yoshing oqsa yanoqlaring lovullamasmi?  
Ko'rib turib sen baxtimni tortib olding-a!  
Ko'zlaringni olib qochma, menga tik qara.  
Agar senda vijdon bo'lsa, bundoq qilmasding.  
Indamaysan. Yo'q, yodgorlik qo'ymading menga,  
Gunohingni ko'mib, marmartosh bostirgansan!  
Meni ko'rish senga qanchalar og'ir!

Jalol

Menga nima da'voying bor?

Iskandar

Ha, bilmaysan-a!  
Qorajarning yoqasida — pasqamlik joyda  
Aka-uka nima uchun mushtlashgan edik?  
O'n yettida edim, sen-chi, yigirma birda.  
Meni rosa do'pposlading, o'shanda uyga



Engil-boshim qop-qora qon bo'lib qaytdim-u,  
Onamga churq etganim yo'q.

Jalol

Shuncha yil o'tib  
Hali eslab yuribsanmi? U gaplarni qo'y.

Iskandar

Urganingni unutarдим, lekin qalbinga  
Xanjar sanchding sen — jigarim, qandoq unutay?  
Men-ku uni jonimdan ham yaxshi ko'rardim,  
Bilib turib Saodatni yo'ldan urding-a!

Jalol

Bunday so'zni tilga olma. Saodat menga  
Hammasini aytgan. Seni u sevgan emas.

Iskandar

Yolg'onni qo'y. U nur kabi pokiza edi,  
Meni yaxshi ko'rar edi, uchrashar edik.  
Bizlar xuddi qo'sh kabutar edik, sen iblis  
Qirg'iy bo'lib changal solding. G'unchani uzding.

Jalol

Bas, Iskandar! Esdan chiqar go'dak xayolni,  
Bizlar sevib turmush qurdik.

Iskandar

Bu gap ham yolg'on,  
Sen chiranchiq, manman eding. Eng go'zal qizni  
Qo'lga olib do'stlaringga maqtanib yurding.  
Bilardingki, men ishqida devona edim,  
She'rlar yozib yurar edim. Ko'rganda titrab,  
Vujudimda sirli otash gurillar edi.  
Majnunligim ayon edi butun qishloqqa.  
Sevmagansan! Saodat ham sevmagan seni,

Hech sevishi mumkin emas. Sen — zoʻravonsan.  
U meniki edi — axir.

Jalol

Sen bola eding.  
Oʻgʻil bola oʻn yettida bola boʻladi,  
Qizni esa, erga bersang ona boʻladi.  
U munosib emas edi senga, gapirma.

Iskandar

Bolamidim? Koʻngillilar safida turib  
Jangga ketgan, qahramonlik qilgan Iskandar —  
Bolamidi? Uning shon-u shuhrati bilan  
Sen kekirib yuribsan-ku!

Jalol

Bas qil!

Iskandar

Quloq sol!  
Sen bilmaysan, men oʻshanda jangga ketarkan,  
Yuragimga alam oʻtin solib ketganman.  
Oʻsha oʻtni tigʻ uchida olib oʻtganman.  
Shu oʻt bilan tikka bordim nayzabozlikka,  
Yonayotgan binolarga oʻzimni urdim.  
Qahramonlik qidirmadim, oʻlim qidirdim.  
Lekin afsus... Ajal degan it ekan asli,  
Qochsang quvar ekan, quvsang qochaverarkan.

(Sukut)

Sen uylangan kun yodimdan sira chiqmaydi,  
Mehmonlarni kutib oldim shirin soʻz bilan,  
Kulib yurib choy tashidim. Lekin yuragim  
Hoʻngrab, hoʻngrab yigʻlar edi. O, bilarmisan,  
Toʻying menga aza boʻldi, yor-yor — marsiya.  
Oʻsha kuni birinchi bor ichdim, mast boʻlib  
Raqsqa tushdim. Hamma yayrab qarsak chalardi.

Men bamisli qush qanotin yozib havoda  
Charx urgandek alpon-talpon aylanar edim.  
So'ng panada peshonamni devorga urib  
Ovozimni chiqarmasdan dod deb yig'ladim...  
O'sha kecha qishloqdan bosh olib ketganman.

Jalol

Taqdir ekan, nima qilay, menda gunoh yo`q.  
(Termosli sayyoh yaqin keladi.)

Termosli sayyoh

Jalol aka! Choy damladim — quling o'rgilsin,  
"To'qson besh"dan, bir piyola iching, ilindim.  
(Kelib bo'sh stulga o'tiradi va termosning qopqog'iga  
choy quyadi.)

Tomosha xo'b qiziyapti. Chetda qolibsiz?  
Suhbat chortang ko'rinadi...

(Iskandarga ishora qilib)

Tanishtiring. Kema katta, sayohatchi ko'p,  
Tanishmadik.

(Iskandarga)

Mening ismim Kalxo'jailiyos.

(Sochiga ishora qiladi.)

Chayqalishda, qalay, ko'ngil aynimadimi?  
Lekin yomon bo'ldi... Menga nash'a qilgani —  
Hamma o'qchib, ko'ngli aynib cho'zilib qolgan,  
Diktor bo'lsa radiodan:

(Diktor qizning ovozigga taqlid qiladi.)

"Kechki ovqatga!

Ishtahangiz karnay bo'lsin! Marhamat qiling!"

(Iskandarga choy uzatadi.)

Jalol

(Termosli sayyohga)

Xo'jailiyos, choyxo'rlikni keyin qilamiz.  
Bizni ozroq xoli qo'ying, sizdan iltimos.

Termosli sayyoh

Xo'p, xo'p! Gapning qoq beliga tepibmiz-da, a?

*(Jalolga choy uzatib)*

Lekin, aka, ikki ho'plam...

*(Jalol qo'li bilan rad qiladi.)*

Mayli, bo'lmasa.

*(Choyni qaytarib termosga quyadi, qopqog'ini yopadi. Jalolga yaqin kelib, shivirlab)*

Yangisidan bor... Bir kuni bir go'zal ayol

Qora dengiz sohilida yotgan ekan...

Jalol

*(Ohista, lekin qat'iy)*

Bas,

Bora qoling.

Termosli sayyoh

Bo'ldi, bo'ldi. Bora qolamiz.

*(Iskandarga sinchiklab qaragancha uzoqlashadi.)*

Jalol

*(Iskandarga)*

Qirq yil o'tdi, u gaplarni unut, qaridik,

Besh farzanddan o'n ikkita nabiramiz bor.

Zamon boshqa va zamonning dardlari boshqa.

Dunyo qalqib turgan bir payt — ahli olamning

Buyuk dardi qarshisida sening gaplaring

Juda mayda ko'rinadi, juda bachkana.

Iskandar

*(Zaharxanda bilan)*

Safsataga ammo g'oyat usta bo'libsan,

Jahon dardi... Olamshumul gaplar... Zamona...

Qalqib turgan zamin dardi kattakon dard-u

Bitta qalbning azoblari, demakki, mayda,

Juda go'zal, tantanavor, soxta falsafa.

### Jalol

Afsus, afsus. Yuragingda to'la kin ekan,  
Bizni ko'rib suyunarsan deb o'ylagandim.  
Nahot senda zarracha ham mehr qolmagan?  
Nahot shuncha yil so'ngida boshqa gaping yo'q?

### Iskandar

Tasavvur qil — barmog'ingga zirapcha kirsā  
Og'rig'iga qirq kun chidab yurarmi eding?  
Qirq yil mening yuragimda zirapcha yotdi.  
Senga uni aytmay avval nimani aytay?  
U dunyo-yu bu dunyo, bil, qo'lim yoqangda.

### Jalol

U dunyoda ko'rganimda mayliga edi.  
Jigarimni topdim-ku deb xursand bo'libman.  
Mening ukam o'lgan ekan.

### Iskandar

O'zing o'ldirding!  
Ko'zlaringni katta ochib qara — qo'ling qon!  
Meni vatangado qilding.

### Jalol

Vatan so'zini  
Tilga olma. Sen vatanga begona odam.  
Ayb o'zingda. Bu gaplaring bari bahona.

### Iskandar

Tani boshqa dard bilmaydi. Mabodo agar  
Boshimga bu kunlar tushib yurtidan ketmasam  
Men o'zimni Qorajarga tashlab o'lardim.  
Qanday chiday, sevgan yorim, tunlar tushimda  
Og'ushimda bo'lgan yorim qayliq bo'libmas,  
Ostonamdan kelinoyim bo'lib kirdi-ya!  
Ayt, men yana o'sha uyda yayrab yuraymi?

Qaytmading deb ta'na qilma, xonadoningga  
O't qo'ymadim, shunga suyun.

### Jalol

O't qo'yarmiding?  
O'z tug'ilgan uyingga-ya! Qanday razolat!  
Nega seni ko'rdim! Seni topgandan ko'ra  
Vatan uchun qurbon bo'lgan ukamga yig'lab  
Pok ruhini yodlab o'tsam bo'lmasmi edi.  
Bu yerlarga nega keldim — ukam qon to'kkan  
Aziz yerni ko'zga surtsam bo'lmasmi edi?!  
Qahramon deb senga yodgor tiklab edim-a!

### Iskandar

Tirigimni xorlab, urib qilding-u abgor,  
O'ligimni e'zozlading. Tashakkur ming bor.  
Sen bularning barchasini ukangga mehring,  
Pok ruhiga hurmatingdan qilgan emassan.  
Senda mehr bormi, yuksak xayollar bormi?  
Yo'q, dilingda faqatgina hisob-kitob bor.  
Yodgorlikni menga emas, sen o'zing uchun,  
O'z obro'ying, o'z martabang uchun tiklading.  
O'sha marmar Iskandarga xotira emas,  
Sening yolg'on shuhratingga poydevor bo'ldi.  
Ayt, ko'zimga qarab turib, to'g'risini ayt:  
Mening yurtga qaytishimni istarmiding? Yo'q!  
Chunki qaytsam poydevoring qulab tushadi.

### Jalol

Tilingni tiy. Meni tahqir qilmoqqa hatto  
Boshda tug'i borlarning ham haq-huquqi yo'q.  
Men obro'ni sening qabring ustidan emas,  
O'z mehnatim evaziga topganman.

### Iskandar

Bekor!

Sen mehnatga emas, gapga juda ustasan.  
Yoshlingda yengil yashab, yengil yurgansan.

Jalol

Ey nodon, qirq yil ichida bir odam emas,  
Olam axir boshqa bo'ldi.

Iskandar

Sen esa — o'sha!  
Balandparvoz gaplaring ham, g'o'dayishing ham.  
Shafqating yo'q! Mendan bir gap yashirmoqdasan,  
Ikki marta savol berdim — javobing mujmal,  
Onam bormi, tirikmi yo o'lganmi? Rost ayt,  
Qo'rqma, tirik bo'lsa, yurtga chopib ketmayman,  
Sen u yuksak arshingda bo'l, zabun etmayman.  
Bilasan-ku, ul darboza menga berk, faqat —  
Ayt, ezilib ado bo'ldi yuragim.

*(Sukut. Iskandar may ichadi.)*

Jalol

Tirik.  
Bu yil sakson beshga bordi. Sening dog'ingda  
Soya bo'lib qoldi onang. To shu kungacha  
O'lganingga ishonmaydi. Har kun bechora  
Qabristonga borib sening noming o'yilgan  
Marmar toshga dardlarini aytib keladi.

Iskandar

Onaginam, onaginam!

*(Peshonasiga uradi.)*

Ey sho'r peshona,  
Mendan baxtsiz bu dunyoda bir zot bormikin?  
Seni unda ilhaq qilib bunda men ilhaq.  
Gunohkorman, kechir, onam, nomardlik qildim.

*(Yig'laydi)*

Onajonim, meni sendan judo qildilar.

O'rtamizda buyuk jarlik paydo qildilar.  
Vatanimga suzsam — bir kun, uchsam — bir soat,  
Lekin o'sha jarlikdan men o'ta olmasman.  
Bu dunyoda dargohingga yeta olmasman,  
U dunyoga umid bog'lab qilarman toqat.  
Meni sendan kim ayirdi?

*(Jalolga)*

Sen emasmi u?  
Sen-ku meni o'z uyimdan begona qilgan.  
Ukang sevgan qizni xotin qilib yashashga  
Hech bo'lmasa el-u yurt dan uyalmadingmi?  
Xalq ko'ziga qanday qarab yuribsan? Uyat!  
Uyat! Sendek aka bilan bir uyda emas,  
Bir zaminda yashamoqdan nomus qilaman.  
Nega bunday qilding? Nega? Javob ber, hozir!

*(Qadahni urib sindiradi.)*

Nega mening yuragimni sug'urib olding?

J a l o l

O'zingni bos, mast bo'ldingmi? Nima gap o'zi?  
Ko'rgan odam nima deydi? Es-hushingni yig'.

I s k a n d a r

*(Achchiq yig'laydi.)*

Men burgaga achchiq qilib ko'rpa kuydirdim,  
Pushaymonman, endi naf yo'q. Qayga bosh uray?  
Kimdan najot kutay?

*(Kayf ichida o'zini tamom yo'qotadi.)*

Endi o'zing najot ber!

*(Tiz cho'kib yolboradi.)*

Meni kechir, ta'nalarim bari alamdandan,  
O'z yurtimga qaytaman, bas, meni olib ket.

J a l o l

Tur o'rningdan, odamlarga tomosha bo'lma.



I s k a n d a r

Kemada bir joy topilar, o'rin bo'lmasa  
It singari bir burchakda yotib ketaman.  
Bu yerlarga tashlab qo'yma meni, jigarim.

J a l o l

Kayfing oshdi, bas, uyga bor, ertaga tongda  
Mehmonxonaga kel. Faqat hushyor kel, xayr.

I s k a n d a r

*(Uning so'zlarini eshitmaydi, gapida davom etadi. Jalol chiqib ketadi.)*

Vatan, meni tuprog'ingdan benasib etma,  
Zarrin xatli sag'analar menga kerakmas,  
Oq marmardan pog'onalar menga kerakmas,  
Menga faqat bir quloch yer bersang, kifoya.  
*(Saodat kiradi.)*

S a o d a t

Jalol aka, avtobusga!  
*(Ko'zi bilan Jalolni izlaydi.)*

I s k a n d a r

*(Birdan hushyor tortib egnini tuzatib o'rnidan turadi.)*

Menga ne bo'ldi?  
Jalol qani?.. Uzr, uzr...  
*(Ko'z yoshlarini artadi.)*  
Mana, hushyorman.  
Kel, Saodat, bir dam o'ltir.  
*(Stolni to'g'rilab, joy ko'rsatadi.)*

Kayfim oshibdi.  
Bosh aylandi, o'zimni sal yo'qotib qo'ydim.

S a o d a t

Toliqibsan, uyingga bor. Biz ham ketamiz.  
Vaqt tugadi.

I s k a n d a r

Shoshma!

S a o d a t

Xush qol.

I s k a n d a r

Bir nafas to'xta,

Balki qayta ko'rishmasmiz, esingda bormi?..

S a o d a t

Bu gapni qo'y. Biz yosh edik. Balog'atga ham —  
Yetmagandik, u ishq emas, bir havas edi.

I s k a n d a r

Havas edi, degin. Qani, har bir sevgi ham

O'sha havas kabi tiniq, beg'ubor bo'lsa...

S a o d a t

Taqdir ekan. Menda ayb yo'q. Shuncha yil o'tib  
U savdoni esga olish nimaga kerak?

I s k a n d a r

Begonaga tegib ketsang alam qilmasdi,

Kelib-kelib o'z akamga... Mening fojiam

Ibtidosi o'sha bo'ldi. Uydan bosh olib

Ketarkanman, qaytmayman, deb qasam ichgandim.

Qasam urdi. Vatanga zor bo'ldim oqibat.

(Sukut)

Sevmagansan! Demak, bari sarob! Demakki,

Shuncha yillar yuragimda ardoqlagan his

U ham yolg'on bu dunyoning soxta jilvasi.

Ey xudoyim! Bor bo'lsang ayt, men notavonni

Nega buncha sho'rpehona qilib yaratding?

(Yig'laydi)

Nega jimsan? Bir nima de! Gapir, Saodat!

Yolboraman, meni alda, sevardim, deb ayt!  
Baribir men g'ariblikda o'lib ketaman,  
Axir sening vataning bor, uying, oilang.  
Menda esa xotiradan o'zga nima bor?

*(Saodat hayrat va qayg'u ichida uzoqlashib boradi, ko'zdan yo'qoladi.)*

Hech narsani ko'rmay qoldim, bu nechuk holat?  
Qayerdasan? Tashlab ketma meni, Saodat!

### **So'nggi kema Uchinchi manzara**

Istanbul porti. Bir tomonda lotincha harf bilan peshtoqiga "Dengiz yo'llari" deb yozilgan baland bino. Bir tomonda "Beruniy" kemasi. Bizga kemaning bir qismi ko'rinadi. To'g'rida ko'm-ko'k Bosfor ko'rfazi. Kemalar. Machtalarda turli mamlakatlarning turli rangdagi bayroqlari. Odamlar orasida bizga tanish sayyohlar ham har xil narsalar ko'tarib o'tadilar. Jalol bilan Saodat kiradi.

S a o d a t

*(To'xtab, bir chekkaga o'tiradi.)*

Sayohatga chiqmay o'lay. Voy oyog'im-ey.  
Xotinini yomon ko'rgan er urmay-so'kmay,  
Baland poshna tufli bilan safar qildirsin.

*(Tuflini yechadi.)*

Uyga qaytar kun bor ekan, ming qatla shukur.

J a l o l

Qara, dengiz qanday ko'm-ko'k, osoyishta, jim.

S a o d a t

To'lqinini, bo'hronini ko'rmagan odam  
Dengiz doim shunaqa deb o'ylashi mumkin.

## Jalol

Inson ham shu. Farog'atda beozor, sokin,  
Lekin yurak qatlarida to'fon yashirin.

## Muxbir

*(She'r o'qib kirib keladi.)*

Men Bosforda bo'Imaganman hech,  
Uni so'zlab berolmam senga,  
Lekin moviy ko'zlaring har kech  
Dengiz bo'lib ko'rinar menga.  
Go'zal Bosfor!  
*(Fotoapparatini chiqaradi.)*  
Jalol aka, manguilik uchun  
Bitta surat. Bundoq turing. Hov anov ko'prik  
Osiyoni Ovrupoga ulab turibdi.  
Ko'prikni ham tushiramiz. Go'zal chiqadi.

*(Gap asnosida Jalol va Saodatni har xil qilib turg'izadi,  
manzara tanlaydi.)*

Safarimiz olamshumul bo'ldi-da, aka,  
Gazetaga katta ocherk tayyorlab qo'ydim.  
Sarlavhasi — "Bechorahol go'zal Yevropa!"  
Sizga aytsam, kelajakni o'ylamoq kerak!  
Avlodlarga sizdan, bizdan nima qoladi?  
Fotosurat! Bu kichkina masala emas,

Bu — lahzaning manguilikka qo'l bergan chog'i!  
*(Nihoyat, tanlagan manzarasi o'ziga ma'qul bo'ladi.)*  
Shunday turing!

*(Fotoapparatini to'g'rilaganda mo'ylovli politsiyachi kelib,  
"mumkin emas", degan ishorani qiladi.)*

## Politsiyachi

No, no!

## Muxbir

Pardon, pardon.

*(Apparatini yopib, bo'yniga osadi, politsiyachi nariga ketadi.)*

Qarang-a,  
Shunday go'zal manzarani ololmay qoldik,  
Attang, attang!

*(Chiqadi. Sayyohlar yakka-yakka va to'p-to'p bo'lib kemaga qarab boradilar.)*

Jalol

Sayohatning eng soz lahzasi  
Uyga qaytish bo'lsa kerak. Qara, odamlar  
Qanday xursand. Bir-biriga navbat bermasdan  
Teploxodga chiqishyapti. Jo'nashga hali —  
Roppa-rosa uch soat bor. Odamzod shu-da,  
Bir safarga oshiqadi, bir vataniga.

*(Sukut)*

Saodat

Biz-ku, bir oy o'tmay yurtni shuncha sog'indik.  
Qirq yilni bir o'ylang...

Jalol

*(O'ygacha cho'mib)*

Og'ir... Juda ham og'ir...  
Hech tasavvur qilolmayman.

Saodat

Qanday dahshatli!  
Isitmada alahlagan odamga o'xshab  
Tuni bilan qo'rqib chiqdim. Bu ko'rganimiz  
Dengizdagi chayqalishdek bo'ldi.

Jalol

Chayqalish —  
Nima o'zi! To'fon bo'ldi! Men shu bir kunda  
Go'yo butun hayotimni qayta yashadim.  
Dunyo ostin-ustin bo'ldi.

Termosli sayyoh

(Boshqa sayyohlar bilan gurunglashib o'tib borarkan)

Hov, Jalol aka!

Omonmisiz? Safarimiz qaridi, mana!

Xursandmisiz?

Jalol

Ha.

Termosli sayyoh

Ha-da, xursand bo'lganda qandoq,

Dunyoda o'z yurtimizdek jononasi yo'q.

London, Parij — shaharmi? Bir choyxonasi yo'q.

(Kemaga qarab yuradi.)

Kayutaga kiring, ko'k choy qilib beraman.

(Ketadilar)

Saodat

O'ylab sira o'y tubiga yetolmayapman.

Iskandarning hamma gapi rostmi? U chindan

Yurt oldida gunohsizmi?

Jalol

Men ishonaman.

Saodat

Yo'qsa, nega vataniga qaytib bormadi?

Jalol

(Sinovchan tikilib)

O'zing ayt-chi?..

Saodat

Nahot bunga siz-u men sabab?

Jalol

Rostini ayt! Iskandarda ko'ngling bormidi?

S a o d a t

Necha marta aytganman-ku, u mahalda biz —  
Bola edik, bolalarda ishq nima qilsin!  
Sizni ko'rgach quyosh chiqib go'dak havaslar  
Tonggi tuman kabi zumda tarqalib ketdi.

J a l o l

O'sha tonggi tuman boshqa odam boshida  
Ketmas bulut, o'chmas soya bo'lib qolibdi.

S a o d a t

U hali g'o'r bola edi...

J a l o l

O'sha g'o'r bola  
Qorajarda bir kun menga tashlanib qoldi,  
O'shanda men Iskandarni rosa urgandim,  
Alqasos, u kecha meni qonga beladi...  
Bu safar men yurak qonim bilan bo'yaldim.  
Yomon bo'ldim, vijdonimdan yomon uyaldim.

S a o d a t

Demakki, men gunohkorman? Sizni jigardan  
Judo qilgan men ekanman?

J a l o l

Senda gunoh yo'q,  
Men aybdorman.

S a o d a t

Rost  
pushaymonmisiz?

J a l o l

Nega endi?

## S a o d a t

Gapiring...

Iskandarni ko'rgandan buyon

Boshqachasiz, avzoyingiz o'zgardi-qoldi.

(Yig'laydi)

Nega sizni yaxshi ko'rdim? Peshonam qursin.

Men dunyoga kelmay o'lay. Bu ko'rgilikka —

Sababchiman. Pushaymonsiz, bilib turibman.

(Sukut)

Sizda bundoq holat sira bo'lmagan axir,

Qiynalyapsiz, buni sezib men qiynalyapman,

Sayohatdan g'avg'o chiqib qarigan chog'da

Nahot shirin turmushimiz zahar bo'ladi?

Menga bunday qarash qilmang — o'rganmaganman.

Azob chekib yashasangiz... yo'q... bundan ko'ra

Men sababchi bo'lsam, mayli, mendan ajraling.

Jigaringiz mendan ko'ra azizroq.

## J a l o l

Bas qil.

Qiynalyapman. Rost. Ne qilay, jigarim ekan,

Yuragimning bir parchasi yonib yotibdi.

Lekin, xotin, sen o'rtaga tarozu qo'yib

Men azizmi, u azizmi deb so'roq qilma.

Sen qismatim, u azobim, shuni bilsang, bas.

Pokligingga aslo-aslo shubham bo'lganmas.

Iskandarni urush qildi tirik xaroba,

Xarobaki, tiklab bo'lmas... urush bo'lmasa

Balki u ham o'z baxtini topib ketardi.

Asli uydan ketganda u yuragida kek

Mushtumdek qor edi go'yo. Umr yo'lida

Yumalata-yumalata tog'dek qilibdi,

Tog'dek qilib kek ostida o'zi qolibdi,

Endi uning yurtga qaytib borishi qiyin.



S a o d a t

Qaytishini xayolga ham keltira ko'rmang.  
Sharmandalik bo'ladi-ya! Dabdaba bilan  
Allaqaysi yurtdan tuproq olib kelgansiz.  
Qancha marmar, oltin suvi — hisoblaysizmi?  
Gap albatta pulda emas...

J a l o l

Bas qil, Saodat.  
Marmartoshni gapirasani, ukam qaytganda  
Yana shuncha pul sarflab to'y qilar edim.  
U tosh bunda  
(Ko'kragiga uradi.)  
Xarsang bo'lib cho'kib yotibdi.

S a o d a t

O'ylaysizmi? Qahramon deb yurgan ukangiz  
Qochoq chiqsa, siz kim degan odam bo'lasiz?

J a l o l

Nega qochoq?

S a o d a t

Umri yurtdan qochib o'tganni  
Qochoq demay nima deydi?

J a l o l

Yo'q, u qochoqmas.  
Qochoqlarni men ko'rganman — urushdan qochib  
Yillab somonxonalarda yashaganlar bor.  
Bilagiga o'q otganlar, yo barmog'ini  
Bolta bilan chopib, uzib tashlaganlar bor.  
Men urushda, dushman tanki bosib kelganda  
“Onajon” deb qochib qolgan zotlarni ko'rdim.  
Ana ular qochoq, qo'rqqoq... Iskandar esa...

S a o d a t

Xato qilmang, o'ylab ko'ring — siz kim-u u kim.  
Dong'i ketgan qahramonsiz, O'zbekistonda  
Tanimagan bir odam yo'q. O'zingiz uchun  
Siz Jalolsiz, lekin yurtga — Jalol Ahmedov!  
Bu obro'ni tushirmoqqa hech haqqingiz yo'q.  
Bular mening so'zlarimmas — o'z so'zlaringiz.  
Axir doim takrorlaysiz — men avval xalqni,  
Keyin jigargo'shalarni o'ylayman, deysiz.

J a l o l

*(Ikkilanib qoladi.)*

Iskandar-chi?

S a o d a t

*(So'zi ta'sir qilganidan quvvatlanib, hujumni davom ettiradi.)*

Iskandar ham xuddi shunaqa.  
U ham faqat el farzandi. U ham qahramon.  
Vatan uchun qurbon bo'lgan tabarruk inson.  
Qishloq uning nomi bilan "Iskandarobod,  
Maktab uning nomi bilan — Ahmedov, axir.  
Qolaversa, nabirangiz — bu yil maktabga —  
O'sha nomi mashhur maktab ostonasiga  
Qadam qo'ygan nabirangiz nomi Iskandar.  
Siz bir jigargo'shangizni go'rdan chiqarib,  
Boshqalarni go'rga tiqib qo'ymoqchimisiz?

J a l o l

*(Uf tortadi, xayolga cho'mib qoladi.)*

Endi nima qilish kerak?

S a o d a t

Nima qilardik?  
Iskandarni uchratmadik, ko'rmadik, tamom.

J a l o l

Yo'q, bu endi mumkin emas. Uni ko'rdik-ku?

S a o d a t

Bolalarning taqdirini o'ylamaysizmi?  
Bir o'g'lingiz Ijroqo'mda muovin, biri —  
Erta bir kun fan doktori bo'lib turibdi.

J a l o l

Ana endi o'z gapingni aytding, Saodat;  
“El-yurt” deysan, “qishloq shon-u shuhrati”  
deysan.

Asli senda o'z oilang ham bola-chaqang  
Foydasidan o'zga maqsad yo'q, bo'lgan ham.

S a o d a t

Bu oila sizniki. Yo begonamisiz?  
Men ne desam avval boshda sizni o'ylayman.  
Bu obro'ni siz tomchilab yig'gansiz axir,  
Endi uni paqir bilan to'kmoqchimisiz?

J a l o l

Men bu kecha bir lahza ham uxlaganim yo'q,  
Iskandarning uzoq yillar chekkan dardini  
Bir kechada yuragimdan kechirdim bugun.  
Bu yerda men o'lib ketgan ukam bilanmas,  
O'lib ketgan vijdon bilan uchrashib qoldim.  
Sen bilmaysan, ancha-muncha gunohlarim bor.

S a o d a t

Yana qanday gunoh?

J a l o l

Eshit, aytib beraman:

(Sukut)

Bu voqea o'n yetti yil ilgari bo'lgan.  
Endigina rais bo'lib saylangan edim.  
Erta bahor bir kun obkom vakili kelib  
Bir piyola choy ustida gap ochib qoldi:

“Biz maslahat qildik, — dedi, — oblastimizda  
Sizning kolxoz mash’al bo‘lib turishi kerak.  
Qurultoyga siz borasiz. Nutq gapirasiz”.  
“Nega, — dedim — qo‘shni kolxoz hamma jihatdan  
Oldinda-ku...” “Yo‘q, — dedi u, — hamma jihatni  
O‘ylamoqni bizga qo‘ying. Siz munosibsiz.  
Qahramonning akasisiz. Tabiat sizga —  
Ko‘p xislatlar berib qo‘ygan. Ko‘rsatkich bo‘lsa...  
Ko‘rsatkichni to‘g‘rilaysiz... Yordam beramiz”.  
Bo‘shlik qildim. Ko‘ndim. Shundan boshlanib  
ketdi...

### S a o d a t

*(Qo‘rqib atrofga qaraydi.)*

Tss... gapirmang. Sho‘rim qursin. Sizga ne  
bo‘ldi?  
Bilasizmi qayerdasiz?

### J a l o l

Yaxshi bilaman.  
Sen ham shuni bilib qo‘y. Biz yot bilmasin deb  
Aybimizni yopa-yopa ko‘p yutqizganmiz.  
Men ahd qildim — yurtga qaytgach birinchi ishim —  
Markazqo‘mga borib hamma gapni aytaman.  
Bu unvonu nishonlarim, shon-u shuhratim  
Bari soxta deb aytaman. Ne bo‘lsa bo‘lsin.  
O‘n yetti yil ich-etimni kemirib yotgan  
Iztirobdan qutulaman.

### S a o d a t

Bekor aytibsiz.  
Esingizni yig‘ib oling. Shuncha obro‘ga  
Shuncha hurmat-e‘tiborga shukur qilmasdan...  
Bu — tuzliqqa tupurish! E, qo‘ying, gapirmang!  
*(Muxbir paydo bo‘ladi va jim eshitadi.)*

Jalol

Men tuzliqqa o'sha vaqtda tupurgan edim,  
Endi uni toza qilib ketishim kerak.

Saodat

Og'ir bo'ling, har qanday rost degulik emas.

Muxbir

Barakalla, har qanday rost degulik emas.  
Jalol aka, siz nohaqsiz, xotiningiz haq.

Jalol

Yana yetib keldingizmi? Men qayda bo'lsam,  
O'sha yerda siz hamisha hozir-u nozir.

Muxbir

Vazifamiz shundoq. Muxbir kasbi shunaqa,  
Siz bor joyda biz hozir-u nozir bo'lmasak,  
Aka, sizga bu nishonlar qayoqda edi!  
Men yozganim uchun, mana, dong taratdingiz,  
Yaxshi maqsad bilan tutgan qalam meni ham  
Dong'ingizga sherik qildi... Qatoringizda  
Bu ajoyib safar bizga armug'on bo'ldi.

Jalol

Bu armug'on peshonamning sho'ri bo'ldi-ku,  
Qay baxtsiz kun duchor bo'ldim bu ko'rgilikka.  
Hammangiz bir bo'lib meni yo'ldan urdingiz.

Muxbir

Endi naf yo'q o'kinishdan. Timsolni ko'ring!  
Biz hammamiz bir kemaga tushgan odamlar!  
Jonimiz bir. Hozir langar sizda. Kemani  
Cho'ktirish yo omon saqlash bir sizga bog'liq.

Jalol

Maqsadingiz menga ayon. Timsol-pimsolni  
Yig'ishtirib o'g'il bola gapni gapiring.  
Fikringiz shu: yopiq qozon yopig'liq qolsin.

Muxbir

Men sizga aql o'rgatmayman. Mendan kattasiz,  
Lekin biling: ish ochilsa, bir o'zingizmas,  
Butun rayon, oblast, vodiy badnom bo'ladi.

Jalol

Xalq boshini haq ko'tarar, yolg'on egadi.

Muxbir

Bu gapingiz to'g'ri kelib menga tegadi.  
O'ylaysizki, siz bu ishni o'zingiz ochib  
Mardlik qilib, ko'krak kerib yurasiz. Yo'q, yo'q!  
Men-chi? Mening yozganlarim nima bo'ladi?  
Ular ming-ming tiraj bo'lib har xonadonda  
Javonlarda savlat to'kib turibdi.

Jalol

Siz ham  
Mardlik qiling.

Muxbir

Bo'pti, men ham mardlik qilaman.  
Shu tobdayoq Moskvaga radiogramma  
Yuboraman. Siz borguncha markaziy gazet  
Sizni chalpak qilib hajviy lavha bosadi.  
Ostidagi imzo agar meniki bo'lsa  
Ajablanmang. Shu qo'l sizni mashhur qilgandi,  
(*Qo'lini ko'taradi.*)

Endi shu qo'l manfur qilar.

Saodat

Naqadar dahshat!

M u x b i r

Odessaga yetib borgach ertaga kema  
Zinasiga chiqib kelgan ikki azamat  
Sizni "izzat-ikrom bilan" kutib oladi.  
Qo'lingizga taqishadi ajoyib zanjir,  
Bir zanjirki, jaranglashi ko'kragingizda  
Jaranglagan ordenlarga juda hamohang.‡  
(*Saodat "oh" deb panjaraga suyanib qoladi.*)

J a l o l

(*Muxbirga*)

Ket bu yerdan! Yo'qol!

M u x b i r

Men-ku yo'qolsam bo'lar,  
Bu kasseta yo'qolmaydi.  
(*Ko'krak cho'ntagidan kasseta olib ko'rsatadi.*)  
Bunda yozug'lik  
O'tgan kungi bozordagi uchrashuvingiz,  
Kecha karvonsaroydagi suhbat hammasi,  
(*Kassetani magnitofonga qo'yadi*)  
Biz Londondan magnitofon sotib olgandik.  
Xo'p ish berdi.

J a l o l

Ayg'oqchi!

M u x b i r

Ha! Mana, eshiting  
(*Iskandarning ovozi*)  
Yodgorlikni menga emas, sen o'zing uchun,  
O'z obro'ying, o'z martabang uchun tiklading.  
O'sha marmar Iskandarga xotira emas,  
Sening yolg'on shuhratingga poydevor bo'ldi.  
.....  
(*Shig'illagan ovoz. Lenta o'tishi*)

Ukang sevgan qizni xotin qilib yashashga  
Hech bo'lmasa el-u yurt dan uyalmadingmi?  
Qanday chiday, sevgan yorim, tunlar tushimda  
Og'ushimda bo'lgan yorim qayliq bo'libmas,  
Ostonamdan kelinoyim bo'lib kirsaya!

Jalol

*(Quloqlarini berkitadi.)*

O'chir, deyman, o'chir! Iblis! Yo'qol ko'zimdan!

Muxbir

Mayli, ketdim. Jahlingizdan tushgach o'zingiz  
Kassetani o'n ming berib mendan olasiz.  
Suvratlarning bahosi sal qimmat bo'ladi.  
*(Fotoapparatiga ishora qiladi.)*

Saodat

*(chetga)*

Bu o'lim-ku.

Muxbir

Hazillashdim... Pora olmayman.  
Buni zamon ko'tarmaydi. Yozgan maqolam  
Qalam haqi, shon-shuhrati menga yetadi.  
Sarlavhani topib qo'ydim: "Vatangado kim?"  
Qalay, zo'rmi? Xa-xa-xa-xa! "Vatangado kim?"  
Bo'пти, xayr.

Saodat

Yo'q-yo'q! To'xtang! Sharmanda qilmang.  
Jalol aka! Biz hech kimni ko'rganimiz yo'q,  
Hech voqea bo'lgani yo'q! Shunday emasmi?

Jalol

Shunday emas. Mard bir o'lar, nomard esa yuz.  
Men fikrimdan qaytmayman.



## M u x b i r

Xo'p. Ixtiyor sizda.

*(Chiqadi)*

## J a l o l

Tamom! Bari tamom! Shon-u shuhrat, martaba,  
Izzat-obro', men tilagan sokin keksalik;  
Ofat to'lqin yelkasida meni ko'tarib  
Olib borib toshga urdi. Chil-parchin qildi.  
Oqibatda nima bo'ldim? Osmonga qarab  
Varanglatib kimdir otgan mushak men bo'ldim,  
Ayyom kuni dumchasiga "ofarin" degan  
Shior bog'lab uchirilgan pufak men bo'ldim.  
Shamollarda darillagan, ipi uzilib  
Endi yerga tushayotgan varrak men bo'ldim.

*(Sukut)*

Iskandarga, bosh egib bor yurtingga, dedim,  
Mana o'zim yurtga boshni egib boraman.  
Kechir, Vatan, shuhratparast ekanman, kechir.  
Iskandar — oq, men oldingda yuzi qoraman.  
G'arib yurtda u xoinmas, inondim, bildim,  
Men bag'ringda yashab turib nonko'rlik qildim.

## S a o d a t

Yo'q! Gapirmang! So'zingizni shamollar olsin,  
Ko'rganimiz tush — dahshatli tush bo'lib qolsin!  
Yolvoraman, hali vaqt bor, bu gapdan qayting,  
Iskandarni ko'rmadim, deng. O'lgan deng, ayting!

*(Jalol jim.)*

Nega jimsiz? Ko'zdan oqqan yoshginam bilan,  
Yillar g'ami oqartirgan boshginam bilan  
Egilayin, oyog'ingiz o'payin.

*(Iskandar qo'lida tugun bilan paypaslanib kirib keladi va quloq solib turadi.)*

Qo'ying.

Shundoq qilmang. Mayli, mening bag'rimni o'ying,

Lekin sizdan farzandlarga jaf o qolmasin,  
Isnod degan bir umrlik balo qolmasin.  
Yalinaman, yolvoraman.

### I s k a n d a r

Senmi, Saodat?  
Nega endi yig'layapsan, bu nechuk holat?  
Yig'i senga yarashmaydi, boshingni ko'tar,  
Dunyo o'zi aldoqchi, qo'y, hammasi o'tar.  
Sen Vatanga qaytayapsan — yo'ling bo'lsin oq...

### S a o d a t

*(Iskandarga g'azab bilan)*  
Yana paydo bo'ldingmi sen — battol, shumoyoq,  
Hammasiga sen sababchi — nega o'lmading?  
Nega paydo bo'lding, beiz g'oyib bo'lmading?  
O'zing kabi bizni baxtiqaro qilding-ku,  
Yurtimizda yurtimizdan judo qilding-ku.

### J a l o l

*(Saodatga)*

Ovozingni o'chir, hozir bo'g'ib tashlayman!

### S a o d a t

Mayli, bo'g'ing, ko'zlarimni o'ying, roziman,  
Begona yurt mozoriga qo'ying, roziman.  
O'lgan yaxshi yashagandan ko'ra sharmisor.

### I s k a n d a r

Qo'y, Saodat, bunday so'zni tilingga olma,  
Men o'lganman, yer yuzida yo'qman, qiynalma.  
O'ylaginki, biz bu yorug' dunyoda emas,  
Osmonlarda bir daqiqa bo'ldik hamnafas.  
Biz yo'q!

Yurak, ruhlarimiz qildi muloqot.

*(Jalolga)*

Saodating — gavharing, qil uni ehtiyot!  
Buni senga aytayapman!

J a l o l

Iskandar hayot!  
Tamom! Buni odamlarga aytib bo'lganman.

S a o d a t

Undoq bo'lsa, hisoblangki, men ham o'lganman.  
Yo'q, bormayman yurtga tavqi la'natni osib.

I s k a n d a r

Saodat, sen buni hatto qilmagin xayol,  
G'ariblikni dushmanga ham ravo ko'rmasdim,  
Ixtiyorim bo'lsa bunda bir zum turmasdim,  
Bilarmisan, nechun qilar nay dardli navo?  
Qamishzordan ayrildim deb u dod etarmish,  
Chamanlarda, bog'larda ham faryod etarmish.  
Men to'qaymas, jannatimdan bo'ldim-ku judo!

*(Jalolga)*

Esingdami, Jalol, eski guzarda bir chol  
Devonavash o'ltirardi, egni turfahol.  
Ko'zi ko'rmas edi, bizlar kulib o'tardik,  
Do'ppisiga chaqamas, tosh tashlab ketardik.  
Gohi deyman haddan ortiq ezganida g'am,  
Qani edi, o'z yurtimda o'sha chol bo'lsam.  
Gado emas, podsho sezar edim o'zimni,  
Yuragimni quvonchlarga to'ldirar edim.  
Do'ppimga tosh solib emas, tepib o'ynashsa  
Bolalarni duo qilib o'ltirar edim.

J a l o l

Yurtingga qayt, endi senga monelik yo'q hech.

I s k a n d a r

Jon deb borar edim, uchar edim, lekin — kech.  
Umr guli ketdi, cho'pdek ustixon qoldi.

Endi faqat o'lim degan bir imkon qoldi.  
Vatanimga ne yuz bilan, ne deb qaytaman?

Jalol

Seni ko'rdim, onamizga qanday aytaman?

Iskandar

Ayta ko'rma, yolvoraman, onam bilmasin,  
Jarohati yangi bo'lib faryod qilmasin.

*(Tugun uzatadi.)*

O'zimdandeb shu sovg'ani unga olib bor.  
Endi onam diydorini ko'rmog'im dushvor.  
Tirik yurib dargohida bo'la olmadim,  
Farzand bo'lib xizmatini qila olmadim.  
Unga atab ikki-uch xil kiyimlar oldim,  
Bir kuniga yaratar deb buyumlar oldim.  
Ehtiyotga jamg'arganman — shuni olib bor.  
So'qqaboshman, kunim yaqin, menga ne darkor.

Jalol

Onamizga bo'z ko'ylag-u doka ro'moldan  
O'zga narsa darkor emas — chiqar xayoldan —  
Unga sovg'ang emas, o'zing keraksan, axir.

Iskandar

Yalinaman, ol, bunchalar bo'lma toshbag'ir.

Jalol

Nasib etsa, bir kun o'zing olib borasan.

Iskandar

*(Qat'iy)*

Ol!

Jalol

Bas, jindek mehrimni ham yerga qorasan.  
Takror deyman, buyumingga onang zor emas.

Toshbag'ir kim, senmi, menmi, o'yla bir nafas.  
Uzoq qirq yil sen onani qidirganing yo'q.  
Men borman deb, tirikman deb bildirganing  
yo'q.

Biznes degan girdibodning domida yurding,  
Kuch borida boylikka mast, ayshingni surding.  
Endi qarib, kuchdan qolib, baridan ayru,  
Bu olamning havaslari bo'lganda abas,  
Mehr-u saxo kasb etibsan — hayot o'zi shu —  
Kambag'aldek saxiy yorug' dunyoda bo'lmas.  
Achchiq gaplar aytdim, garchi har bir so'zim o'q —  
Jarohatingga tuz sepish niyatimda yo'q.  
Senga boqib vijdonimni o'ylayotirman,  
Men ham senga vijdon bo'lib so'ylayotirman.  
Rost ayt! Agar uchrashtirsa tasodif holat  
Sen onangni tanirmiding? Eslaysanmi? Ayt.

### I s k a n d a r

Aka, meni ado qilding. Urding beshafqat.  
Tani boshqa dard bilmaydi. Bu chin haqiqat.  
Ha, men xuddi o'rmonzorda adashib qolib,  
Onabo'ri emchagini so'rgan bolaman.  
Shu o'rmonda umrim o'tdi, shunda qolaman.  
Lekin menga qattiq tegding, xayrlashar chog'  
Endi bitta voqeani esga solaman.  
Bu hech kinga aytilmagan sir edi alhol,  
Saodat, kel, yig'ingni qo'y, sen ham quloq sol.  
(Yig'lab o'tirgan Saodat beri keladi.)  
Roppa-rosa o'n to'qqiz yil bo'ldi o'shanga.

*(Jalolga)*

U paytda sen rais emas, brigadir eding,  
Yodingdami, marokashlik uchta mehmonga  
O'z dalangni ko'rsatganding.

### J a l o l

Ha-ha, esimda.

Paxtachilar edi.  
Yotib qoldi.

I s k a n d a r

Balli. Ular o'sha kun

J a l o l

Avgust edi. Kolxoz bog'iga  
Joy qilgandik.

I s k a n d a r

Ha. Sen endi yaxshilab esla,  
O'shalarining biri edi Ibn Mutavakkil...

J a l o l

Bo'ldi, bo'ldi! U sen eding. Endi esladim.  
Nahotki sen!

S a o d a t

(Chetga)

Oh, men axir osh damlagandim,  
Qandoq uni tanimadim? Nega sezmadim?  
U shiyponda imo bilan suv so'raganda  
Men kosada suv keltirib berdim. U olib,  
Mendan ko'zni sira uzmay sipqargan edi.  
U ko'zlarda dard bor edi, mehr bor edi.  
Quvonch bilan g'am aralash sehr bor edi.

I s k a n d a r

O'sha kun men xuddi tushda ko'rgandek ko'rdim  
Birga yong'oq o'ynab yurgan o'rtoqlarimni.  
Oqshom kolxoz klubida uchrashuv bo'ldi,  
Men hayratdan odamlarga termilar edim:  
U amakim, u opam, u bolalik do'stim...  
Kampirlarning orasidan ko'zim javdirab  
Men onamni izlar edim, topa olmasdim.

Tirik bormi yo o'lganmi — bila olmasdim.  
Bir o'yladim — shartta tursam — qichqirib  
aytsam:

Ey siz, jigargo'shalarim, qadrdonlarim,  
Jondoshlarim, men Marokash fuqarosimas,  
O'zingizning Iskandarman. Tirikman, desam.  
Ana unda tomosha-yu qiy-chuvni ko'ring.<sup>7</sup>  
Bazo'r tilni tishlagancha o'ltirdim.

### Jalol

Nega?  
Nega o'zni tanitmading?

### Iskandar

Qandoq tanitay?  
Xiyonatsiz ekanimga isbotim qani?  
Bir yarim yil Rurning qaro shaxtalarida  
It azobin chekkanimga qog'ozim bormi?  
Yo fashistning soqchisini o'ldirganimda  
Undan tilxat olganmidim? Meni chalajon  
O'rmonzorda topib olgan nemis kampir ham  
Hujjat yozib, barmoq bosib bermagandi-ku.  
Kim ishonar edi menga? Kim bo'lar edim?  
E'zoz bilan el yelkada ko'tarib borib  
Qabristonga eltib qo'ygan o'lik ertasi  
Ma'rakaga salom berib kirib kelsa-ya!  
Tasavvur qil, qandoq holga tushar xaloyiq!  
Tishni tishga qo'ydim. Yig'in tamom bo'ldi-yu  
Biz shiyponga borib yotdik. E-voh, o'sha tun  
Lazzati bir jahon edi, dardi bir jahon,  
O'lgunimcha xayolimdan nari ketmaydi.

*(Sukut)*

Oydin kecha edi. Xushbo'y dalaning isi  
Dimog'imni erkalardi. Men ko'z yummasdan  
Yulduzlarga qarab yotdim, shashqator yoshim  
Sahargacha yuzlarimdan oqib yostiqa

Toma berdi... toma berdi... jiqqa ho'l qildi.  
Tongga yaqin asta turdim. Hamma uyquda,  
Qorovul ham uxlar edi. Bog' eshigidan  
Katta yo'lga chiqdim — tanish o'sha yo'l bilan  
Hovlimizga qarab yurdim. Oyoqyalangman.  
Bu dunyoni unutganman, bolaga o'xshab  
Yuguraman, entikaman. Oyoq ostimda  
Go'daklikdan tanish yumshoq va iliq tuproq,  
Bir yayrayman, bir yig'layman, o'krab yig'layman.

### S a o d a t

Ey falak, bu ne iztirob! Chidab bo'lmas hech!

### I s k a n d a r

Tor ko'chaga burildim-u nim qorong'uda  
Tanish tutni ko'rdim. Ichim o'rtanib ketdi.  
O'sha ariq, o'sha devor, o'sha darboza.  
Xuddi meni kutgan kabi qiya ochilgan.  
Qanday mardlik, qanday jur'at keldi,  
bilmayman.  
Men hovliga kirdim, ana u bir tup o'rik,  
Ana o'sha tandir — onam bir zamonlarda  
Non yopganda menga atab kulcha qilardi.  
Eski ayvon. Astagina bordim-u ko'rdim!  
Onaginam sokingina uxlab yotardi.  
Oy nurlari oppoq soch-u kipriklarida  
Aks etardi. Ko'zlarimni qoplab kelgan yosh  
Nogoh uning ruxsorini to'sdi. Oh, onam  
Onaginam, o'g'ling shundoq yoningda turib  
Erkalanib siynangga bosh qo'ya olmaydi,  
Bola bo'lib hidlaringga to'ya olmaydi.  
O'sha lahza ona bilan farzand orasi  
Oh, naqadar yaqin edi, naqadar uzoq!  
Qoshida men uzoq-uzoq o'ltirar edim.  
Lekin qo'r qar edim, onam uyg'onib qolsa,



Meni olam bilmasa ham u bilar edi,  
Bolajon deb quchog'iga jo qilar edi.

(Sukut)

Tong otmasdan, hali ko'kning Zuhrosi so'nmay,  
Quyosh ham ilk nurlarini sochmasdan burun  
Yana o'sha tanish tuproq ko'chani bosib  
Ortga qaytdim. Bir payt boqsam, گزار tomonda  
O't shu'lasini ko'rindi-yu u yonga yurdim.  
Eski گزار endi katta sayhon bo'libdi.  
O'rtasida ulkan haykal — soldat haykali  
Mangu olov kosasini ushlab turibdi.  
Yaqin bordim. Marmar lavha. O't shu'lasida  
Porlab turar zarrin xatlar yozilgan nomlar:  
Mirkomilov, Abdullayev, Sobirov, Sherov —  
Bari mening tengqurlarim, og'aynilarim.  
Ular bilan biz ikkita eski do'ppining  
Orasiga paxta tiqib to'p tepar edik.  
Anavini "chatoq" derdik, buni "pakana",  
Mirzaxalil "g'irrom" edi... Falak gardishi  
Qirq ikkita bo'z bolaning shirin jonini  
Qirq ikki tup atir gulga aylantiribdi.  
Nari bordim. Alohida tiklangan qabr,  
Bo'y barobar marmar lavha. Boshida yulduz.  
Kim ekan deb qiziqdim-u o'qidim. Hayhot!  
Hayhot, dunyo! Sening bundoq ishlaring bordur,  
Qabristonga birov yori, birov farzandi,  
Birov ota, onasini yo'qlab boradi.  
Men-chi, u kun, ne so'z bilan bayon etayki,  
O'z qabrimning tepasida o'zim turardim.  
Derdim, falak nega meni shu holga solding,  
Haddu poyon bormi alam, dard-u sabrimga.  
O'zim tirik mozor bo'lib kelib turibman  
Menga nasib etmagan shu sovuq qabrimga...  
Ey voh, endi men yurtimga qandoq qaytaman,  
Ne yuz bilan o'lmaganman deya aytaman?

(Saodat yig'lab nari ketadi.

Shu payt kema tomondan "Qaro ko'zim" qo'shig'i yangraydi. Jalol, Saodat, Iskandar kema tomonga qaragancha uzoq jim qolishadi. Qo'shiq bo'linadi.)

O v o z

"Diqqat! Diqqat! "Beruniy" teploxodining barcha sayyohlari diqqatiga. Bugun kemada O'zbekiston kuni e'lon qilinadi. Barcha qardosh respublikalarning vakillari bugun O'zbekiston mehmonlari bo'ladilar. Kech soat to'qqizda tomosha zalida to'planishingizni so'raymiz. O'zbek sayyohlari ishtirokida konsert bo'ladi.

Diqqat, diqqat! Teploxod jo'nashiga o'n besh daqiqa vaqt qoldi. Teploxodga chiqishingizni so'raymiz. Bugungi kechki tadbirimiz mutasaddisi Jalol Ahmedov o'n yettinchi kupega zudlik bilan yetib keling! Diqqat! Diqqat!"

J a l o l

Nasib qilsa ko'risharmiz, xayr, Iskandar!  
Endi yurtga yashirinmas, o'zing bo'lib bor.  
Oltmish — hali o'ta ketgan qarilik emas,  
Ko'zlaringni davolaymiz — hali yashaysan.

I s k a n d a r

Umr o'tdi.

J a l o l

Bilki, inson umridan agar  
Bir kun muddat qolgan bo'lsa, o'sha muddatni  
Poklanishga sarf etmog'i kerak. Ha, shunda  
Nopok o'tgan — butun umr bir tush bo'lar-u  
O'sha bir kun hayot bo'lar. Chinakam hayot,  
Boshqa gapim yo'q, Iskandar, omon bo'!

I s k a n d a r

Xayr!

(Jalol ketadi. Saodat keladi.)

## S a o d a t

Iskandar, sen meni kechir, o'zim bilmasdan  
Hayotingga zavol bo'ldim. Endi vijdonim  
O'lgunimcha menga azob beradi. Tushun.  
Akangga chin sevgi bilan bog'langanim rost.  
Hozir unga juda qiyin. Yoniga boray.  
*(Kema tomonga bir necha qadam qo'yib orqaga qayriladi.)*  
Endi bildim, haqiqat bir yuksak tog' ekan,  
Undan ko'zni yumish mumkin, ters qarash mumkin,  
Ammo tuproq bilan ko'mish beimkon ekan.  
Senga esa so'nggi so'zim: Vataningga qayt.  
O'tgan ishlar o'tdi. Endi qolgan umrni  
Yolg'on bilan emas — halol va pok yashaylik.  
Peshonada nima bo'lsa shuni ko'ramiz.

## I s k a n d a r

Saodat, men umrim borki, sendan roziman,  
Minnatdorman, bu qabohat to'la dunyoda  
Sening yoding pokizalik timsoli bo'lib,  
Shu'la bo'lib hayotimni yoritib turdi.  
Shu nur haqqi, minnatdorman, bor bo'l, omon  
bo'!

*(Teploxod gudok chaladi.)*

## S a o d a t

Ko'rishguncha xayr, Iskandar!

## I s k a n d a r

Saodat, oq yo'l!  
*(Saodat ketadi, Iskandar sohilda yolg'iz)*  
Ana, kema, Vatanimning bitta bo'lagi.  
Oh, Vatanim buncha yaqin, buncha uzoqsan,  
O'rtamizda ikki qadam masofa, xolos.  
Ikki qadam qo'ysam — tamom, quchog'ingdaman,  
Ammo o'sha ikki qadam — ikki dunyoning  
Orasicha yo'ldir. Go'yo tug'ilmoq, o'lmoq

Sanalari orasida turgan chiziqcha...  
Ana, kema yo'lga chiqdi. Endi u mendan  
Beg'ubor u yillarimdek uzoqlashadi.  
Bir dam to'xta, bolaligim, moviy bahorim,  
G'urbat yurtga tashlab ketma meni, diyorum.  
Uzoqlashma. Ko'z oldimda turgin bir nafas.  
Sen bu ojiz diydamga nur bergin bir nafas,  
Sening bilan eng baxtiyor onim ketmoqda,  
Qurib qolgan vujudimdan jonim ketmoqda.  
Yurtim, kemam to'lqinlarning ustida qalqib,  
Girdoblarga ko'krak urib ketib boradir.  
Yo'q, u — oftob, menga tunni qoldirib, balqib  
Yorug' kunduz maskaniga yetib boradir.  
Endi menga shabi hijron falakda tanho  
Sargardon bir yulduz kabi mo'ltirash qoldi.  
Har yil bir bor bandargohga kelib umidvor,  
Sayyohlardan "bir kaft tuproq" deb tilash  
qoldi.

Xayr, Vatan, xayr, onajon!..

*(Dengizga qarab asta tiz cho'kadi.)*

Bolangni kechir,

Ayriliqda o'lib ketsam, mendan rozi bo'l.

*(Yig'laydi)*

Qani edi, nasib bo'lib bag'ringda o'lsam,

Bu dunyodan hech bearmon ketgan bo'lardim.

Go'yo ona quchog'ida uxlagan bola —

Tuprog'ingda erkanib yotgan bo'lardim.

*(Sukut)*

Quyosh botib ketdi — kemam ko'zdan yo'qoldi,

Ana, ko'kka birin-ketin chiqdi yulduzlar.

Yulduz-yulduz yoshlar to'kib mening holimga,

Ko'ngildagi faryodimga falak ham bo'zlar.

Ey qorong'u falak, endi sen bag'ringni och,

Yerda mening makonim yo'q, olib ket meni,

Kafan qilib botayotgan quyosh nuridan,

Yulduzlarning Vataniga dafn et meni.

Abadiyat makoniga meni olib ket,  
Sog'inch nomli yulduz bo'lib suzib yurayin.  
Insonlarga bewatanlik dardini so'zlab,  
Yuragimdek simob bo'lib qalqib turayin.  
Yulduzlardan yulduz bo'lib ko'rinsa zamin,  
Mehr tilay va osoyish tilay har zamon.  
Qayda ado bo'lsa mening notavon-jismim,  
Ruhim aytar: ota yurtim, sen bo'lgin omon!

TAMOM.

## MUNDARIJA

Yurak yo'lidagi chiroq ( <i>Mahmud Toir</i> ) .....	3
---	---

### 1955 – 1970

Kamtarlik haqida .....	9
Tong lavhasi .....	10
Yo'q, halovat istamayman .....	11
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo .....	12
Go'zallik .....	13
Bir tomchi yosh .....	14
Bosh tebratar soat kafgiri .....	15
Sadoqat .....	15
Kuy avjida uzilmasin tor .....	16
Uchi tuguk dastro'mol .....	16
Barcha shodlik senga bo'lsin .....	19
Senga baxtdan taxt tilarman .....	21
Xayol .....	22
Uzum .....	24
Do'st bilan obod uying .....	25
Rashkim .....	27
Dutorim tori ikkidur .....	28
Ishq istilosi .....	29
Dilda ishq daryochadir .....	31
O'rtada begona yo'q .....	32
Nasihat .....	33
Boshindadir .....	34
O'zbeğim .....	35
“Barqut kiyib bezandi bog'lar...” .....	39
Bobur g'azaliga muxammas .....	40

## 1970 – 1985

Pushkin.....	41
Kardiogramma .....	42
Yo‘qolgan she‘r.....	44
Hozirgi yoshlar.....	47
Inson.....	52
Ota tilagi.....	56
Ona tilim o‘lmaydi.....	57
Bir qadam.....	60
Fursating .....	61
Yosh shoirlarga.....	62
Bong uring .....	64
Armon .....	68
Qalamhaqi va oylik.....	68
Uch bayt.....	69
Aruz va barmoq.....	70
Auksion.....	71
Arslon o‘rgatuvchi .....	72
Alisher Navoiy kemasi.....	75
Bir burda non .....	76
Kechikish .....	78
G‘aflat .....	79
Nayning qismati.....	80
Qalb shunday ummonki... ..	81
Bu ko‘hna hasrat .....	82
Majlis qiling.....	82

## 1985 – 2000

Orol .....	84
Jumadan qolgan odam.....	84
“Kajfe‘l, kajraftorlar tarbiyasiga...” .....	89
Yaxshidir achchiq haqiqat.....	90
Uyatchanlik.....	91

“Amaldorlar talashib o‘rin...” .....	93
“Inson fe’li ajabdan ajab...” .....	94
Xalq noiblariga.....	95
Shohlar orzusi .....	97
She’riyat.....	97
Bizlar arra tortmoqdamiz .....	99
Matmusaning qishlog‘i .....	99
Matmusaning qalpog‘i .....	101
Matmusaning lagani.....	102
Matmusaning charxpalagi.....	103
Matmusaning tandiri .....	105
Qiziquvchan Matmusa .....	107
Matmusa – rassom .....	108
“Vatan, to tanda jonim bor...” .....	110
Tilsim .....	111
Maskanim Farg‘onadir.....	111
Demang, shoir tinib ketdi.....	112
16-fevral 1999-yil .....	113
O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa.....	114
Tayyorada.....	114
Yolg‘on haqida .....	115

## 2000 – 2015

O‘lmas edi balki odamzod.....	116
Vafo .....	117
Sen uchun.....	118
No‘noq shoirlar .....	118
Erkak bo‘l.....	120
Buyuk sadoqat.....	120
Hayot yo‘li .....	120
Yo‘l tadorigi .....	121
Qiz bolaning sevgisi.....	121
Ignaning hasrati.....	123
Bodom va odam .....	123



Dangasalar.....	123
Nega yapon yuz yil yashar?.....	125
Sochilgan baytlar .....	126
Qo'lingni pardalar qilding.....	127
Nasihat .....	127
Kamon va o'q.....	128
Narx-navo .....	128
Tuxum kulgidan muhim.....	128
Sirning qanoti .....	129
Mum tishlaganlar .....	129
Hamisha o'zdek .....	130
Bizning qishloq odati .....	130
O'tmishni sog'inish.....	131
Shundoq so'z ayt.....	131
Menga ne qayg'u! .....	132
Megabayt.....	132

## DOSTONLAR

### RUHLAR ISYONI

Muqaddima .....	133
Abadiyat haqida rivoyat.....	135

#### Birinchi fasl

Shoir qalbi.....	141
Isyon qo'shig'i .....	147
Fidoyilik to'g'risida rivoyat.....	151

#### Ikkinchi fasl

G'alayon.....	155
Jaholat to'g'risida rivoyat .....	164

#### Uchinchi fasl

Tutqunlikda .....	172
Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat.....	182

## To'rtinchi fasl

Sharpalar .....	195
Oliy ruhlar to'g'risida naql .....	199

## Beshinchi fasl

Ozodlik.....	202
Zohidlar va oriflar haqida hikoyat.....	206
Nihoyat.....	209
Nido (bag'ishlov).....	214
Orzu chashmasi (Qora dengiz ertagi) .....	232

## PALATKADA YOZILGAN DOSTON

26-aprel .....	252
Bolalarni jo'natish.....	261
Kelinchak .....	263
O'zbek qizi Lyubov Timchenko.....	265
Shahar ijroqo'mining raisiga oshiqlardan ariza .....	270
Shahri Dilorom.....	275
Nihoya.....	276

QUYOSH MASKANI .....	280
ISTANBUL FOJIASI.....	292

E 78 Erkin Vohidov [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi  
Rustam Mirvohid. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 360 b.  
ISBN 978-9943-8569-1-2

UO'K 821.512.133-1  
KBK 84(50')-5



**ERKIN VOHIDOV**

**24-jild**

*Adabiy-badiiy nashr*

Muharrir *Dildora Abduraimova*  
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*  
Dizayner *Bobur Tuxtarov*  
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*  
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*  
Musahhah *Munisa Ismoilova*  
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*  
*Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ .

Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 22,5. Nashriyot-hisob tabog'i 18,36.

Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 92-1/22. Buyurtma raqami № 22-306

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.







TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

ERKIN  
VOHIDOV

